



MAQSUD
SHAYXXZODA

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MAQSUD SHAYXXZODA

16

MAQSUD
SHAYXXZODA

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI



MAQSUD SHAYXZODA



“O’ZBEKİSTON”
TOSHKENT – 2022

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sultan — hay'at raisi,

Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minholiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovlchi va nashrga tayyorlovchi

Ma'mura Zohidova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yetinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalariidan iberat "Turkiy adabiyot durdonlari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir

mamfakating ona tilida nashr etish g'oyasini ligari surʼan edi.
Ushbu ezu tashabbus asosida birinchini bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy maimuna yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qing'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yogba chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehitronimining ramzdidi.

**MAQSUD SHAYXXZODANING IJODIY
MEROSSI HAQIDA**

Umrlar bo'ladiki,

Trigida o'likdir.

Umrlar bo'ladiki,

O'lgan odam tirikdir!

Bu quyma satrlar muallifi — Maqsud Shayxzoda (1908-1966) ning ijodiy umri ham adabiyotimizing ko'plab yaratuvchilari ijodi di kabi mangulikka daxdor.

O'zbek adabiyotining atoqli namoyandalairidan biri, mashhur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon va muallim Maqsud Shayxzoda Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tarvalud topdi. Boshlang'ich va o'rtta ma'lumoti Oqtoshda olgach, Boku pedagogika institutida sirtdan o'qib, 1925-yildan Derkend shahrida muallimlik bilan shug'ullandi.

Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar tahririyatlariда, 1935-1938-yillarda esa Fanlar Qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan to umirining so'ngiga qadar Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutining o'zbek numtoz adabiyoti kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qilib, yuqori malakalni kadrlar tayyorladi.

Shoirning adabiy faoliyat 1929-yildan boshlandi. Uning O'n she'r" (1932), "Undoshlarim" (1933), "Uchinchchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1935) to'plamlari nashr etilishi adabiyotga o'ziga xos ovozli shoir kirib kelayotganidан darak berdi. O'zbek adabiyotining zabardast vakili, ist'e'dodli shoir, barkamol dramaturg, yetuk olim, mohir tarjimon Maqsud Shayxzoda yaratgan asarlar bugungi kunda ham o'z qimmatini to'la saqlab kelmoqda. Ulkan so'z san'atkor haqidada yozilgan ko'plab-maqolalar-mualliflari — shoirning zamondoshlari va shogirdlari uning benihoya ulug'vor,

lekin shu qadar pokqalb, kamtarin inson bo'lganini e'tirof etadilar. Chindan ham, ko'plab talabalarga ustozlik qilgan Maqsud Shayxzoda hayotda ham, ijodda ham ulkan siymo bo'lgan. Shoir sebaraka ijodiy umrida 20 dan ortiq majmualarga jamlangan she'riy badialar, ballada va dostonlar, "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug 'bek" kabi dramalar, 300 dan ziyod ilmiy va publisistik asarlari bilan yuksak didli, e'tiborli kitobxonlarga, tarixni o'rganuvchilar va adabiyot ixlosmandlari — ilm-u ziyo ahliga maqbul bo'ldi.

Shayxzoda ijodida she'rdan tortib dostongacha, balladadan she'riy dramalarga qadar barcha asarlarda falsafiy mushohadaning teranligi, qo'yilgan muammoni yechishdagi mantiqiy izchilik, tuyg'ularning samimiyligi, fikrning parvozi va uslubning muayyanligi kabi a'lo xislat va noyob fazillatlar ko'rniib turadi. Shoir qoldirgan qutlug' adabiy merosni jo'shqin davrimiz va elminzing badilly tarixi, adabiy qomusi, mujassam lirik oyinasi, deyish mumkin.

Zero, o'zbek dehqonining og'irini yengil qilgan ilk traktordan boshlab, fazoni zabt etishdek barcha ulug' vor hodisalar, davr kishilarining zafarli ishlari, yurtning serjilo lavhalari va insonning ko'rkam jamoli uning qalamiga oshmo, she'riyatiga ilhom va mazmun baxgh etdi. Shuning uchun ham shoiringning she'riyati chuquq gumanistik fikrlar, bashariy hissiyotlar, insoniyatning olam va koinot sirlarini, asriy hayotiy jumboqlarini yechishdagi orzistonlari, jur'atkor tilaklari bilan to'liq. U muttasil ijodiy mehnat dardi bilan, bunyodkorlik ishtiyoiqi va izlanish zahmati bilan umr kechirdi.

Shayxzodaning shogirdi va zamondoshi, maslakdoshi va suhbатdoshi Muhsin Zokirov shunday yozgan edi: "Badiiy so'zning hikmatini butun vujudi bilan his etgan va uning inson ma'naviy olamiga ta'sir qudratini teran anglagan, shu boisdan o'ziga ham, boshqalarga nisbatan ham qat'iy talabchan bo'lgan ustoz: She'r bilan nazm orasidagi farqni shoirlarimiz ham, tanqidchilarimiz ham sinchkovlik bilan aniqlab olmagunlaricha "adab bozori" da so'lg'in va yolg'on baytlar haqiqiy yurak poeziyasiga g'ov bo'lib turgasidir", — degan fikri qayta-qayta takrorlar edilar. Shoirning bu

oqilonan o'git-nasihatli adabiyotimizning yosh avlodni uchun saboq bo'lishi kerak..."

Abdulla Qahhor: Maqsud Shayxzodaning ilmiy ijodi qadri o'zbek adabiyotshunosligining yarmini tashkil etadi, qolgan yarmini boshqa ilmiy adabiyotshunoslardan taqsim qilib olishar", deya adibning olimlik rutbasini yuksak e'tirof etgan edi.

Albatta, Maqsud Shayxzoda ham — o'z davrinning farzandi. U o'zi yashab turgan zamon va uning ideallarini tarannum etmasligi mumkin emas edi. Buning ustiga, shoir bor-yo'g'i o'n yetti yoshidan boshlab — 1925-1927-yillarda Dog 'istonga surgun etilgani, bu muddat tugaganidan so'ng Ozarbayjonga qaytmaslik sharti bilan ozodlikka chiqqach, O'zbekiston poytaxti Toshkentga kelgani, ammo qatag' omning qattol siyosati uni ikkinchi marotaba ham — bu gal endi O'zbekistonda ta'qib etib, elliginchi yillar boshida qamalganini unutmastlik kerak. Shuning uchun shoir bir umr emin-erkin yashay olmadi, boshi ustida aylangan qora bulutlardan vahm va hadik uni uzoq muddat tark etmadı. — Maqsud Shayxzoda ijodining mohiyati haqida o'ylaganda bularni ham hisobga olish kerak. Uning davri olibshlab yozgan she'rlari zaminida mana shunday og'ir ijtimoiy sabablar yotadi.

Urush yillarida shoir butun ijodiy quvvatini, qalb haroratini dusman ustidan g'alaba qozonishga safarbar etdi. Urushning birinchi kunlaridan oq'jang qahramonlarini ulug'lovchi, front orqasidagi kishilarning fidokorona mehnatini ifodalovchi "Kurash nechun" (1941), "Jang va qo'shiq" (1942), "Kapitan Gastello" (1941), "Ko'ngil deydiki..." kabi she'riy to'plamlari, "Jaloliddin Manguberdi" (1944) tarixiy dramasi va boshqa qator publisistik asarlарini yaratdi.

Urushdan keyingi tinch qurilish yillarida qatag'onlik jabrini tortgan bo'lsa ham, o'z el-yurtiga fidoyi shoir Vatanimiz bo'ylab keng quloch yozgan zafarli mehnat, tinchlik uchun kurash haqidagi "O'n besh yilning daftari", "Olgishshlarim", "Zamon torlari", "Shu'la", Chorak asr devoni" kabi she'riy to'plamlarini yaratdi. 1958-yili adibning ko'hna va ayni chog'da navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan, uning tarixi, o'mishdagi madaniyati va xalqaro aloqalarini tasvirlovlari "Toshkentnomma" lirik dostoni

yozildi. Iste'dodli dramaturg 1960-yilda yozgan "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida buyuk o'zbek munajimi va ma'rifa parvar podshosi obrazini yaratdi.

Maqsud Shayxzoda Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" dostoni (Mirtemir bilan hamkorlikda), yunon adabiyotidan Ezop va Esxil asarlarini, Yevropa adabiyotidan Shekspir (sonetlari, "Hamlet" hamda "Romeo va Juletta" tragediyalarini), Gyote, Bayron, Miskevich, rus adabiyotidan Pushkin (lirk she'rlari bilan birga "Mis chavandoz" dostoni hamda "Motsart va Salieri" dramasini), Lermontov (she'rlari, "Kavkaz asiri" dostonini), Mayakovskiy, ukrain va belorus adabiyotidan Shevchenko, Yanka Kupala va Petrus Brovka, ozarbayjon adabiyotidan Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Samad Vurg'un, Usmon Sarivali, Sulaymon Rustam, Rasul Rizo, turk adabiyotidan — Nozim Hikmat, arman adabiyotidan Yegishe Charens, Avetik Isaakyan, tojik adabiyotidan Boqji Rahimzoda va boshqa shoir-larning asarlarini mahorat bilan o'zbek tilida jaranglata oldi.


Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Shayxzodaning o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, Alisher Navoiy ijodini taddiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir.

Maqsud Shayxzodaning nuroniy siymosi hamisha bizga saf-dosh va hamqadam. U qoldirgan qutlug' adabiy obidalar avlodlar uchun bir umriga aziz va tabarrukdir.

Mahkam Mahmudov,
adabiyotshunos olim



SHE'RLAR



Uchib keldi yog'ish chopari,
Kishnar edi ostida otü.

Qizib ketgan bulut bag'ridan
Faryod qo'pdi, yashin chaqnadi.
So'ngra yog'di shaharga, qirga,
Salqin suvlar g'uvullab birdan
Go'yo ko'kka chiqib dengizlar
Suziladi ulug' g'alvirdan.
Sho'x tomchilar zanjir bog'lashib
Osillibi bir ip singari,

Go'yo arqon uchidan ushlab
Tirmashilsa mumkin yuqori!
Yugan uzgan, so liqsiz yomg'ir
Sho'ng'ib urdi derazalarni,
Suvsab qolgan tuproq to'shiga
Duch keltirdi ho'l nayzalarni,
Chiqdi bog'ga: yechdi qalpog'in?
Ko'k suvlarin qutlab olay deb,
Paypoqqacha cho'milib ketdi,
Bir rafasda bechora adib.
Tomchilardan jimirlab badan,
Der edi: shu shoirlik nega?
Yomg'ir bilan hazillasholmay
Pana qildi daraxt kovagin.
Soyga imib tushgan qatralar
Raqs etardi, ko'piklaniardi,
Cho'millardi suv ichra suvlar
So'ngra tinchib, timib ketardi.
Shuvullagan yomg'ir charchadii,
Yig'ishtirdi g'ulg'ulasinii,
Endi eshit tomdan sakragan
Tomchilarning ashulasini!

So'qmoq yo'lda ezilib yotgan
Maysalarda ulug' masarrat,
Sahrolarda qolgan yo'lchiday
Suv ichmoqqa tashnalab hasrat.

SHE'R CHIN GO'ZALLIK SINGLISI EKAN...

She'rsiz qalblarga achinaman men,
Ularda na tonglar kunduzin boshlari,
Na oqshom yulduzlar ufqin ochar keng,
Na bahor chog'ida sayraydi qushlar.

Qo'shiqsiz uylargaga kulgi yoqmaydi,
Xonadon ahlining qovog'i osiq.
Hatto derazadan quyosoh boqmaydi,
Soatning o'zi ham tiqillar bosiq.

She'rsiz ko'chani tole qarg'agan,
Bu joyda sevgining manzili beklik...
Quvonch bunda kezar kayfi tarqagan —
Keksa xumoridek qomati buzik...

Bechora odamlar, bilmaski ular,
She'r chin go'zallik singlisi ekan.
Har kimki u bilan sevishsa agar —
Husniga chiroylar qo'shilash aynan.

She'riyat diyorin shoirlarimiz,
Har uy, har ko'ngilga baytar bo'lsin yor!
Elga dastyor bo'lsa she'r larimiz —
Demakki, umrimiz o'tmabdi bekor!...

BAHORDA YOMG'IR

Tark ayladi tolning butog'in
Chirqilladi, qochdi chumchuqlar,
Bulutlar ham soldi qovog'in,
Angladimki, ko'kda bir gap bor.

Soyga tushib cho'milgan qizday,
Yaltiraydi chinorning sochi.
Bog'chalarda vizillagan yel
Avj ko'tarar go'yo bir naychi.
Bulut ochdi ko'ning ruxsorin,
Qosh qorayib ketgandi kunduz,
Sekin imlab militirar edi —
Onda-sonda bir-ikki yulduz.
Kirar edi ko'kimdir tusga
Chamandagi ol-alvon ranglar.
Daradagi buloq singari
Pichirlardi daraxtda barglar.
Dalalarda yana boshlandi
Tabiatning oqshomgi kuyi,
Ko'rinnmas bit izdan yuksaldi
Yer — uproqning sog'lomlik bo'y.

1936

MUQIMIY

Ko'hna madrasaning tanho hujrasi,
Sarhovuz labida baland chinorlar.
Barglarda o'ynashar nurlar zarrasi,
Falakka yolvorar horg'in minorlar.
Egnida eski to'n, tizzada qog'oz,
Cho'qi soqoliga oq tushgan biroz.
Xayolda qushlarga, qizlarga hamroz,
Gul bo'lsa dunyoning yetti iqlimi,
Unga xush bu yurtning tikani, qumi,
— Shudir Muqimi!

Sevgidan qorilgan chin zuvalasi,
Sevgan qofiyasi jon bilan jonon:
Bir go'zal dastidan oh-u nolasi,
Ishqning ko'chasida yo'qolmish imon.

Ey, yaxshilar xaylin nozlik miyonni,
Garchand erdim yomonlarning yomoni,
Bazmlarda qilgan eldin nihoni —
Lutf-u ehsonlaring yodimga tushdi!"
O'tga oshiftadir misli zardushtiy.
Vatan gulzorining o'tli bulbuli,
Hatto tushlariida yashil Farg'ona.
Nomardlar ishidan shoir qayg'uli,
Lekin bir kulganda u haqiyona
Yolg'on-u ochko'zlik, bo'hton va tuhmat,
Jafo, riyokorlik, zulm-u qabohat,
Shoirdan zarba yer navbatma-navbat.
Peslar tepasidan boshlar qahqaha,
Kuladi jo'r bo'lib mahalla, daha.

Ko'hna madrasaning tanho hujrasi...
Sarhovuz labida baland chinorlar.
Barglarda o'ynashar nurlar zarrasi,
Falakka yolvorar horg'in minorlar.
Egnida eski to'n, tizzada qog'oz,
Cho'qi soqoliga oq tushgan biroz.
Xayolda qushlarga, qizlarga hamroz,
Gul bo'lsa dunyoning yetti iqlimi,
Unga xush bu yurtning tikani, qumi,
— Shudir Muqimi!

1943

MUALLIM

Yashasam yuz yil ham chiqmaydi esdan,
Menga ilk alifni o'rgatgan ustoz.
Kechirdim men yuzlab kitobni ko'zdan,
Birinchi daftarga men qo'ygan ixlos —

Yashaydi ko'nglimda nafasday aziz,
Qalanim yozguncha, minnatim cheksiz,
Muallim!... — U qanday sharaflı unvon,
Tabiat sirların, turmush hikmatın,
Shuurming qudratın ko'pravshan, ayon —
Nasllar ongiga u ayilar talqin.
Uning ko'zi bilan bizlar barimiz
Dunyo kitobini o'qiy boshlaymiz.
Gullab borar ekan elda fan har on,
Asrlar, nasllar senga umidvor!
Elning muallimi, senga bu farmon
Tariixlar nomidan bo'lmish bargaror.
Ulug' muallimdan sen olgin o'mnak,
Yulduzlar quyoshdan numi olgandak.

Yashasam yuz yil ham chiqmaydi esdan
Menga ilk alifni o'rgatgan ustoz,
Kechirdim men yuzlab kitobni ko'zdan,
Birinchı daftarga men qo'ygan ixlos —
Yashaydi ko'nglimda nafasday aziz,
Qalanim yozguncha, minnatim cheksiz.

1946

G'AFURGA XAT

Oltmish yillik umrning hayajonlarin,
To'polonlar, hujumlar, qahqahalarin,
Ko'priklarni, bog'larni, chorrahalarmi,
G'azablarni, mehmi, so'z marjonlarin —
Bir larizada tark etib ko'chdingmi, do'stim?
Shahringning ro'yxatidan o'chdingmi, do'stim?
Abdulg'afur, mavlono, shoshdim zovtalab:
Xabarlarни yanglishgan, yo'qsa qulqlari!..
G'afur G'ulom va o'lim — qovushmagان gap,
Misoli qish va rayhon, dasht va buloqlar.

G'afur G'ulom va sukut — ikki yov lashkar,
Nuqul urushayotgan dushman taraflar.
"Xayr!" demay ketganing ne deganining u?
"Tez qayturmam bemuhlat!" deganiningmi u?
O'lim asli o'tkinchi bir hodisa-yu,
"Hayot mangu bir holat!" deganiningmi u?
Qaydan seni qidiray, adresing qayer?
Kimdan seni so'rayin? Odamlar ne der?
Mangu elda esdalik bo'lsin deb mendan,
Borib yetgay bu xatim senga daf'atan.
Oh, qardoshim, og'ajon, piri barkamol,
Qirq yillik bir daftardir xotira, xayol.
Eh-he, ne-ne kunlarni kechirdik birga,
Nahot, ular barchasi cho 'kdi qabrga?
Tinmas, tolmas, jomparvar ko'z bordi senda,
Qirq shoinga yetarlik so'z bordi senda.
Hofizangda yuz ming bayt, o'n ming latifa,
Ming sarguzasht, yuz qissa, sonsiz sahifa...
Mutoyiba, hajvlar, pand-u tanbehlar,
Yashin kabi chaqnagan keskin tashbihlar,
Hammasi senda edi va sendan edi,
Idrokingdan, zehningdan, ko'ksingdan edi.
Xalq dardiga qo'shilib nola ham tortding,
Yetimlar diydasidan ko'z yoshin artding,
Tole seni do'stilardan ajratgan damlar Sen
Homidning shu baytin derding serkadar:
Eyoh, na yer, na yor qoldi,
"Ko'nglim to 'la oh-u zor qoldi!"
Ammo....

Xulqan o'zgacha manzillar uchun,
Tug'ilganding kulgilar, hazillar uchun,
Quvonchlar, muloqotlar va to'yilar uchun,
Qalaming bag ishlagan obro'lар uchun.
Kurashlarning qizg'in dabdabasini,
Muhabbatning ko'p asov jazavasini
Hayot degan kitobdan o'qib olgандинг,

Chiroy gulin chakkangga taqib olganding,
 Ko'p sog'indim, o'rtoqjon, ko'p sog 'intirding,
 Nogoh ketding, shodliklar uyin yondirding.
 Go'yo sensiz oy emas ko'kda porlagan,
 Go'yo kuyov emas u to'yga chorlagan.
 Ko'p sog'indim, o'rtoqjon, azbaroyi haq,
 Hali o'tmay to'qson kun, shu zahotiyooq,
 Senga aytar gaplarim, hasratim cheksiz,
 Davrimizda o'ming bo'sh, kimsasiz, o'ksiz.
 Dardlar borki, zamona unuttridi,
 Uchqun yanglig' o'chadi bir on lipillab.
 Ammo shunday dard borki, kuyib turadi
 O'mondagi gulxandek doim lovullab.
 Ha, yillar so'nib qolmas, to'xtamas karvon,
 Sovimas she'rimizda hatorat — hovur,
 Do'stlarining bilan yo'll bosar hamon,
 Ammo yurmas saflarda ikkinchi G'afur,
 Ko'p sog'indim, o'rtoqjon, biroz gaplashsak,
 Burungidek Xadradan tushib O'rдaga,
 Yarov yurib muzzdayin pivo ho'plashsak,
 Navoiyning kalomin solsak o'rta...
 Yori aziz, qaydasan, qaydan qidiray?
 Hasrat to'lgan xatimni qayga yuboray?
 Tanaffus cho'zildimi, Vaqt uzildimi?
 Yo xazon nafasidan gul to'zidimi?
 Qaydasan, ey qadim do'st, eshitgin men!
 Shahringning menga ayon bo'y va eni.
 "Arpapoya" dammi axtaray seni?
 Yo'q, unda egasining o'chibdir uni.
 Yo samoda, jannatda yotibsamni tinch?
 Yo'q, u joyga bormaysan chaqirsalar ham.
 Qayerdasan, nido ber, senga shu o'tinch!
 Ko'ngillarni kemitib ezmoqda-ku g'am.
 O'lim shunday bir mulkki, sultoni jiimlik,
 Unda tovush chiqarmay yotar fuqaro.

Qaro zulmat u joyda qilar hokimlik,
 Shu tutayli o'limning tug'i ham qano.
 Oh, usqlar kuychisi, sen yotgan mozor
 Qurong'u bir maskandir, eshiksiz va tor!
 Bilmam, qanday chidaysan soyuqqa, o'ritoq!
 Bosh ustida yostig'ing zil-qattiq tuproq.
 Yo'q, o'ritoqjon, yo'q, do'stim, shoiri a'zam,
 "Chig'ato'y" da ko'milib ketmading hech ham.
 Adresingni angladim, adresing ma'lum:
 Adresing yuraklarning ayman to'rida.
 She'rga qo'l tegizma, yo'qol, ey o'lim!
 Shoimning soyasidir yotgan go'rida.
 G'afur, bayting zarb bo'llib million dilga
 So'zing ko'char masaldek tillardan tilga.
 ... Ammo bejo bo'lsaydi shu g'amgin she'rim,
 Oh, naqadar bo'lardim xursand va xurram.
 Agarda, sen noxosdan (bo'lisin deb'irim) —
 Qopqada gudok chalib tanish mashina, —
 Menga mehmon qo'tnsayding bir oqshomgina.

KO'ZLAR

Qancha nafis edi uning nigohi,
 Suzilib bog'ganda u goh-gohi —
 O'ylardim go'zallik bilan ko'zharning
 Azaldan o'qilgan mangu nikohl...

YAXSHILAR QADRI

Do'stlar, yaxshilarni avaylab saqlang!
 "Salom" degan so'zning salmog'in oqlang.
 O'lganda yuz soat yig'lab turgandan, —
 Uni tirigida bir soat yo'qlang!

TOSHKENTNOMA

BAG'ISHLOV

Shaharlar boqydir, umr o'tkinchi,
Daryolar sobidir, suvlar — ko'chkinchi.
Har kim o'z shahrida qo'ygan esdalik,
Yo bino qurishda katta ustalik,
Yo shirin latifa yoki ixtiro,
Yo daraxt, yo farzand, ko'priq yo misra,
Yo qo'shiq, yo dori, maktab, soqchilik,
Xulosa: dunyoda biron yaxshilik...

Bir vaqtlar men senga shahrimni maqtab,
Qilarkan ta'risin, sen biroz to'xtab,
"Shunchalar bormikan?" deb guman qilding,
"Ko'rganda aytamiz!" deb imo qilding,
Va aytding darvoqe ko'rgandan keyin:
Maqtoving oz ekan, soz ekan uying!"

Qomatga munosib bo'lisin deb libos,
Shahrimga dildagi muhabbat, ixlos
Dostonqa quylisin degandim u choq,
Kechlikib yozganim kechirjin, o'rtiq!

Bu yerda turganlar yoki ko'rganlar
Yoki ko'ravin deb istab turganlar,
Yoki Toshkentimning shaklin so'rganlar,
Naqshini dilida olib yurganlar
Sizga bu taronam — kuyim armug'on,
Nasr — og'ir qadam, nazm — chopag'on,
Oh, bilsang, nimani esladim bugun?
U yarim asrlik kurashlar yukin —
Yelkada tashigan toshkentlik bir chol
Oq poshsho davrida bo'lganin nochor
So yilab bergen edi menga bir mahal.
Ozodlik yo'lda kurashib jadal,
Surgunda qon yutgan yillarni aytib,

Qochqinda duch kelgan ellarni aytib,

Der edi:

— Esimda, bir vaqtlar yiroq
Yurtda boshimizga tushgandi firoq...
Taygalar qurshovi ichida butun,
Ajratib bo'lmasdi kunduzmi yo tun!
Zamharir qish edi, sovuqdi g'oyat,
O'nda xavotirlik, to'ngarmiz shoyad
Mashaqqat safardan bezib, toliqib,
Ne-ne zahmatlarga yo'lda yo'liqib,
Sudralib borardi odamlar xomush,
Ayoz changaliga tushgan es-u hush.
Bitta qo'nalg'aga o'tirdik horg'in,
Yuraklar muzlagan ko'llarday turg'un.
Na quyosh bor edi, na kundan asar,
Izg'irin... Nafasdan go'y yo muz o'sar.

Shu tob:

Nogoh eshitildi sog'inchli xitob:
"Oh. Toshkent, Toshkent!"
Hammamiz qayrilib qaradik darhol,
Archaga suyalib turardi bir chol.
Bir mahal bu yerda u bo'lgan ekan..."
"Oh, Toshkent, Toshkent!"
Bu so'z quyosh yurtin keltirdi esga,
Xayolda ufqlar jonlandi o'zga.
Desamki bu nomdan tomirimizga
Biroz issiq singdi, ishoning, so'zga...
Oh, nega jizzillab o'tdi u dildan,
Men-ku ayrligandim ko'pdan u eldan?!
Eng sovuq kunlarda quyoshni eslash,
Bu — ya'ni tun boshin nur bilan silash!!!
Nega to'lginqatladi ruhni u ovoz?

"Ha, Toshkent" deganda esga keler yozz....

OZ.B.I.K.D.M.U.N. 1998

— 17 — 55657 (S. a)

II

Har qachon, har qayda deyilsa Toshkent,
Degaysan yozlarga yozlar tutashgan.
Ha, Toshkent deyilsa esga kelar yoz,
Ha, Toshkent deyilsa quyosh esda shay.
Quyoshki, umirzoq avlodga damsoz,
Bu yerda hamma der: — Quyoshcha yashay!!!
Do 'st bo 'lgamnisan bunda ayni yoz fasli?
Yo 'q ersa, yozlarni ko 'rmabman asli!
Chirchiq uvasiga qo 'ngan shaharda,
Quyosh xizmatini boshlab saharda,
Mehnatga bel bog 'lar odamdan burun,
Oltin jomakorin yechar kechqurun...
Shu ulug' ishchini olqishlay deyman,
Sha 'niga qo 'shig 'im bag 'ishlay deyman!
Umrida kim kelsa bir bor bu yerga,
Qalbiga ekadi Toshkentning mehrin,
Shu uchun Toshkent ham quyoshli muhrin
Bosar passportlarga, xotiralarga.
Deydilar: Toshkentda suv ichgan chumchuq
Qaytib kelar ekan Makkatillodan.
Yuzi ham, so 'zi ham, ko 'zi ham ochiq,
Tabarruk tuprog 'i zar-u tillodan...
Quyoshga inson nom qo 'ygan kuniidan
Kuychilar o 'xshatdi nozanin qizzga,
Ammo, polvon ishchi, deyman uni man:
Ishda hamkor bo 'ldi u o 'lkamizga.
Toshkent quyoshining ko 'pdir ta 'rifi:
Lola ham, kelin ham, gul ham, chiroq ham.
Ammo mehnat to 'la uning tarixi
Shoirlar she 'rida qolibdi mubham.
Bilaman bahorning erka shamolin,
Sevaman tuproqning uyg 'onish chog 'in,
Bo 'salar faslini, yorming jamolin,
Hay-hay, shaydoligim tutmasin tag 'jin!..

Bahorlar haqida kuylamoq oson,
Yozning she 'riyat topa bil shoir.
Gul ila bulbulni juftlamoq arzon,
Iyulni maqtashda bo 'lolgin mohir.
Men-chi, quyoshimiz ishin har vajdan
O 'ichab, uni deyman: — Bizning grajdan!
U bizga rizq berar, bizning otaxon,
Degaysan, pishiq qo 'l, usta nonpazdir.
Tongda — oppoq xamir, zuvalasimon,
Tush vaqt qizarib, qizigan tandir.
Ammo bolish oldi, sarg 'aygan payti
Uni shirmoyi non deging keladi.
Shalpayib ketganida saratonda yer,
Quyosh chaqqon bo 'lib xizmatda turar,
Kurash maydoniga tushgan polvon — er,
Bellashib olmoqqa harif chaqirar...
Asadda yetilgan g 'o'za podasin
Boqib, poylab yurar ostob — cho 'pon,
Biror kun buzmasedan u o 'z va dasin
Keladi, egnida zarhalli chopon.
Men jondan sevaman yoz quyoshini,
Issig 'i, shu 'lasi, husni hayotbaxsh.
Tekshirsam Solorning har bir toshini —
Quyoshning xandasini umga tushgan naqsh.
Barakat, barakat quyoshdan kelar,
Shu qadar ochiqqo 'l, shu qadar saxiy
Ammo yolchimadi undan bobolar,
Hamisha u shunday bo 'lganmas axir!

III

Eh-hey, mening shahrimming ko 'hna qissasin,
Qissasinki, ming yillar qa 'riga cho 'mgan,
Yer qatlariida qotgan sir-hodisasin,
Hodisaki, vaqt uni tuproqqa ko 'mgan,—
Kimlar ayta oladi? Bormi guvohlar?
Axir, ming yil yashamas qushlar, giyohlar!

Tushdi ne-ne zahmatlar bu yer, bu elga,
Balki toshlar aytardi, kirsaydi tilga!

Sarg'aygan qo'lyozmalar, jumjima xatlar,
Mulla bobolarimiz chizgan sanadlar....
Varaqladim birma-bir o'tmishni eslab,
Asrlar qadamida bir ma'no izlab,
Bir avlodning umri-ku, bag'oyat qisqa,
Ammo talay avlodlar mangu xalq demak,
Xalq kurashi o'Imaslik uchun vasiqa,
Dadillikka umidlar berardi ko'mak.
Asrlarning orasi qolmasin deb bo'sh,
Yemasin deb tarixning varag'in kuya,
Qullikkha erk tilagi kerib turdi to'sha...
Ha, bilim qolar ekan, yozuv qolarkan,
Yozuvdag'i azaliy orzu qolarkan.

Yomonlik o'lar ekan, pastlik o'larkan,
Isibdodning qal'asi bir kun qilarkan!..
Oh, kitoblar, kitoblar, mangu ishchilar,
Beg'araz xayrixohlar va kengashchilar!
Mehnatning ta'rifin yozgan kitoblar,
Mardlar nomin harfma-harf chizgan kitoblar,
Yillarim oqib ketdi sahifalarda.

Siz goho kuldirdingiz latifalarda.
Goho mudhish janglarni tasvir qildingiz,
Qirg' inlarni naql etib, ta'sir qildingiz,

Goh ustalar hunarin bayon etdingiz,

Olimlarning kashfini ayon etdingiz.

Lekin sizlar shohidi bo'lgan zamona

Ming yildan nari o'tmay turar hamona.

Nari yoqning kechalari va kunduzlarin
Xalq esida qidirib topdik izlarin.

Qolgan-qutgan naqlar, afsonalar bor,
Nom-nishonsiz kuychilar qo'yganlar yodgor:
Ajoddalarning devlar-la panjalashgani,

Kelganida g'animum qancha lashkari
Pahlavonlar yovlarni qirib quvgani,

Buloqlarda qon yuqi qilich yuvGANI...

Ertaklarning tog' kabi eski mag'zida
O'tgan mojarolarning chuvuq iplari,

Dostonlarning suv kabi rawon so'zida
Go'zallikning mardlikning so'nmas tiplari.

Naqllarga, qo'shiqqa, rivoyatlarga,
Maqollarga, ertakka, hikoyatlarga

Men umrimda juda ko'p qulqoq osibman,
Eshitibman bog'bondan, novvoy, kosibdan,

Paxsazonlar — tuproqni pishiitganlardan,
Ular o'zi eshitigan eshitganlardan.

Arxeolog kuragini tuproqqa qoqib,
Turtdi moziy belini bosgan yuklarmi,

Numizmatlar¹ ko'ziga oynagin taqib,
O'qidilar tangada ming yilliklarni.

Isodan, Iskandardan, Kaykovuslardan
Ilgariroq bu yerda bozorlar bo'lgan.

Taqachilar suv ichgan ko'k hovuzlardan,
Ayvonlarni oynasoz oynaband qilgan.

"Shosh kamoni" ta'rifi merganlar aro
Eron bilan Turonda bo'lgan ovoza.

Polizlarda uzoqdan ko'rinar qaro,
Chalinardi ko'zlarga baland havoza.

IV

Ajdod-u bobolarning fahmiga balli,
Ilk devorni urgulanlar, kulba qurganlar.

(Pana ekan yomg'irdan, qordan aqall!)
Bu yerni makon qilib bunda turganlar.

Tuproq — semiz, suv — yaqin, havosi ochiq.

Quyosh esa yil bo'yli yerga oshiq.

¹ Numizmat — qadimgi tangalarni tekshinuvchi mutaxassis.

Katta elga qo'nalg'a bo'ladijan joy,
Sharq-u G'arb o'rtasida katta bir manzil.

"Chin-Mochindan" toliqib kelgan karvonlar

Toylagan ipaklari rango-rang, asil,

Rung'a qarab jo'narkan qadim zamонлар —

Binkat ravotlariga qo'nib xotirjam,

Tanovul qilishardi non ham, kabob ham,

Barakalla bobolar farosatiga,

Razm solib topganlar shahar nuqtasin!

Ko'chib-ko'chib yetganda Chirchiq sathiga
"Turr!" deb tortib qo'yganlar otning no'xtasini.

Ammo ariqlar qazib, ko'priq solganlar,

Dasturxonning boshida quruq qolganlar.

Yer ham, suv ham, quyosh ham, ob-u havo ham

Kambag'al nonin butun qilmadi. Nega?

Zo'ravonlar hukmida qul edi odam,

Tole xonadonida mehnatkash o'gay...

V

O'n ikki qopqadan, o'n ikki yo'ldan

Bojirga pul to'lab kirgan karvonlar.

Har yurtning matosin quv bozorbonlar

Joylab qo'yar ekan, o'tkazib qo'ldan...

Goho yutqizishda, goho yutuqda

Bir-birin anglardi oliq-sotiqda.

Bir-birin tilmochsiz tushunar edi,

Ularga aniq til — molning sifati.

O'n ikki qopqadan, o'n ikki yo'liga

Jo'nab ketar ekan yukli karvonlar,

Janubga, Shimolga, o'nga va so'liga

Qatnab yurar ekan yukli karvonlar.

O'n ikki qopqadan goho bemahal

Otlig bosqinchilar kirgani ham bor.

Xanjarlar damida sanchilib ajal,

Tinch xalqni tunardi qilib tor-u mor.

Goho atrofdag'i yo'lo'sar beklar

Dastidan sovrildi karvonlar — yuklar.

Goho olisdag'i amirlar, xonlar,

Ishratga o'larmon, nafsi yomonlar

Xun deya, qul deya, pul deya boshi,

Talon-taroj qildi, zo'rлади, osdi.

Goho yot yerlardan "men-men" chi shohlar

Lashkar tortib keldi dag'dag'a birla.

Yo'llarda yotardi ko'p begunohlar,

Fothlar izlati — beson qabrlar.

Tilingdan, elingdan kech, deb buyurdi,

Tiz cho kmay "yo'q" dedi botirlar yurli.

El-elat qo'zg' allib zolimni quvdi,

Qaytadan tuproqdan axlatni yuvdi.

Ammo biri ketsa battari keldi,

Yangi ochko'zlarining xatari keldi.

Goho Buxoroga, goho Samarcanda,

Goh Qipchoq cho'liga, goho Xo'qandga

Xiroj to'lar edi Shosh fuqarosi,

Cho'zildi uzilmay janglar arosi,

U yillar o'tganlar Sayhunday og'ir.

Erksevar shaharning yoshi, qarisi
 Tosh ila, musht ila, o'q va tig' ila,
 Erkinlik jazmida xalqning barisi
 Bosqinchilashkarga qillardi hamla.
 Anqovroq ko'rinsa shahar hokimi,
 El sha'nin saqlagan mardlar turkumi
 Muhrimi qo'lidan tortib haydashdi,
 (Ko'pdır fuqaro-yu bek sarguzashti!)
 Shosh ahli bahodir bo'lsa-da, asti
 Birovlar shahriga bo'limgan qasdi,
 O'zaro talashlar, fina-yu fasod —
 Mehnatni, savdoni, qo'shiqni ezdi,
 Ekin payhon bo'ldi, ko'priklar barbod,
 Qonli jahannamdan el-ulus bezdi...

VI

Ammo Orenburgdan Toshkentga qadar,
 Balki Buxorodan Hashtxongacha
 Poyloqchini yollab, kunduz va kecha —
 Olga qamchi bosdi betinch savdogar.
 U vaqtlar Toshkentning bazzozlariida
 Chaaqon mol — Moskovning movuti, chiti,
 Xo'qandning qo'lli gul oshpazlarida
 "O'choqbop" O'rrolning qozoni edi.
 Shimol saltanati qo'llarin kerib
 Kungay tuproqlarga changin solganda,
 Dashi-t-sahro bosib janubga yurib
 Toshkent etagiga kelib qolganda —
 Nayzalarmi ko'rgach uqdi eshikbon —
 (Bu — boshqa savdo-yu bu — boshqa karvon.)
 Jamoat eshikni mahkam qulfladi,
 Ammo qarshi to'plar olov tufladi.
 Boyonlar qochishdi, quladi devor,
 Olomon olishdi ko'p mardonavor.
 Har uyda, har ko'yda mudhish jang bo'ldi.

Qal'a sarbozları hang-u mang bo'ldi.
 Ul zamон shaharning javobgarları,
 Ayolmand otalar, xaloyiq bari
 Jomega yig'ildi, katta kengashga.
 (Minorlar larzadan go'yo engashgan...)
 ...Biri chorvasini, molini o'ylar,
 Biri ollani, hovlini o'ylar,
 Biri tirk qolgan boshini o'ylar,
 Biri bobo go'rin toshini o'ylar.
 Biri do'konini, savdosin o'ylar,
 Biri masjidini, Xudosin o'ylar.
 Biri paxta ekkan tuprog'in o'ylar,
 Biri Qo'qliqdagi chorbog'in o'ylar.
 Biri yangi mansab — medalni o'ylar,
 Go'yo xushqimordan cho'talni o'ylar,
 Biri viloyatning tinchligin o'ylar.
 Urushning qonlarga o'chligin o'ylar.
 Yana bir chekkada turgan bir hakim
 Jahongashta sayyoh, qo'lida aso,
 O'ylar O'rusiyat diyoridagi
 Ko'rgan shinavanda va aqli raso
 Yaxshi odamlari, donishmandlari,
 Adolat izlagan orzumandlari,,,
 ...Dedi otaxonlar:
 — O rusga qarshi
 Yaroqsiz bo'p qoldi bizning aslaha,
 Amri ilohiydur falakning ishi,
 Sulh-u salomatlik endi maslahat...
 Ne lozim to'kilgay qonlar ortiqcha,
 Gardishi Davronni bilib bo'lmaydi.
 Urushning nafi yo'q bizga tariqcha,
 Qismatning aksiga jilib bo'lmaydi!
 O'zaro nizoning dard-u marazi
 Tinkamiz quritdi, xunoba qildi,
 Talashgan xonlarning kek-u g'arazi
 Yetdi yurt boshiga, xaroba qildi.

Tavakkal Xudoga, u bir-u borga,
Toymaymiz tuyansak katta devorga!..
Afg' ondan faranglar o'tib kelmasdan,
G'urbatda ganjiday qul sotilmasdan —
Itroat etaylik oq podshoga,
Sig'ina qolaylik, oliypanohga!
Fatvo chiqarildi, qarorga ko'ra,
Bir guruh oqsoqol qoziga to'ra
Chiqdilar Kamolon darvozasidan,
Bir kumush barkashga qo'yib daf'atan
O'n ikki qal'adan o'n ikki kalit,
Tilladan quyligan ko'p eski kalit,
Topshirib qo'yildi zafar ahliga,
Shaxsan chor qo'shini generaliga,
Ortdi Rossiyada bir mustamlika...
Yarim podshoning qo'lida bu gal
Ikki zulm ostida ingradi o'la.
Korchalon — behayo, ochko'z va dag'al —
G'oyat tashna edi, amalga, pulga, —
Vaqtida bulami rostqalam Shchedrin
"Toshkentchi janoblar" atab dog'lagan.
Hurmat qilganidan halolning qadrin,
Ablah haromxo'rдан kulib boplagan...
Kim bilar, Shchedrining hikoyasida,
Achchiq ta'nasida, kinoyasida —
Toshkent zargaridan bir ulush bordir,
Qochiriq, mazax bor yo kulish bordir.
.....
Biroq ko'rар edi juda kam kishi
(Amri mahol edi ko'pning ko'rishi),
Qo'shinlar ortidan Turkiston tomon
Kelganin Shimoldan ikkinchi karvon.
"Pristup"lar emas karvondagilar,
Arxeolog bilan chilangar keilar:
Kellar "o'nus doxtur" ila muallim,
Ma'rifat, yangilik, shafqat karvoni.

Birining qopida dori va chilim,
Biri o'lchab turar ob-u havoni.
Biri durbin tutib ko'zlar uvani,
Biri orqasiga ortgan to'rvani,
To'rvada gugurt va Pushkin devoni.
U chog'dan o'lkaning hayot-mamoti
Bog'landi Rossiya qismati bilan,
Ya'ni Turkistonning yog'iy avlod —
Qalqdi inqilobga xizmati bilan.
U chog'dan o'zbekning haqsevar ruhi
Qo'shildi Shimolning ravshan fikriga.
Sochildi tuproqqa iqbol urug'i,
Ion tikdik hurriyat gulun mehrliga.
Xalqlar tolelari tuzdi ittifoq,
Toj-u taxtlar bilan kurashda inoq.

VII

Hozir o'mi o'chgan kartada,
O'sha yerda, sobiq O'rdada
Bir kun shunday o'ylanib qoldim.
Anhor bo'yи ayanlib qoldim.
Misrang suvlar yiroqni chog'lab,
Yoz quyoshni o'pib, quchoqlab,
Eltib borar edi Janubga,
O'zi oqqan tomonga, tubga...
Suvlar oqar quyi tomonga,
Yosh desang — yosh, chol desang — keksa,
Xuddi shunday, kumlar zamonga,
Quyiladi asriy Ummong'a;
Harakatda olam har lahma...
Xonumonga qo'shilar bola,
Tezlahtirar suvni shalola...
Anhor go'yo kechagi Anhor,
Ammo shunday o'ylama zinhor....
O'zi u-yu, ammo u emas,

Ichi suv-u, o'sha suv emas,
Xuddi shunday yoshlilik ham faqat
Bir bor bo'lар bilan ulfat.
Kecha bundan shaldirab o'tgan
O'ynoq suvlar ko'p yiroq ketgan.
Yo bog'zorlar tagiga singgan,
Yo bulutga qalqib tutashgan,
Yo hovuzlar bag'rida tingan,
Yo ufqdan ufqqa oshgan.
Bugungisi — yap-yangi suvlar,
Kechagining avlodji bular.
Majnuntollar barglari kambar,
Shitirlardi soyning bo'yida,
Yengil qarsak chalganday qizlar —
Qo'shmidagi nikoh to'yida.
Ko'katzorda qayrag 'och xo'ja,
Qush sig'inar himoyasiaga.
Kirib qolgan asfalt keng ko'cha
Xiyobonning ko'k soyasiga.
Yurib bordim soy yoqasidan,
(Bu — Abdulla To'qay ko'chasi.
She'r-u shahar aloqasidan
Ko'chalarning mundarijasi,
Darak berar allanechasi!)

Ko'cha... Shoir... Har o'tgan eslar,
Har eshikda saqlangan hislar!
Tuyar ekan seni devor-tosh,
Sen o'Imabsan, aziz maslakdosh!

IX

O'umishdagi qullik, yo'qsillik,
Qahatchilik, ochlik, muhtojlik,
Mansabdorlar qilgan razilik,
Jabr-u jafo, vabo, beboshlik,
Tekinoxo'ming har bittasidan,
Kichigidan va kattasidan —
Boshga tushgan musibat, azob,
Sanab ado bo'lmas, behisob.
Yoqlashdi ikti hamsoya:
Mehnat bilan qonli sarmoya.
Toshkentlikning isyonkor ruhi,
O'n oltinchi yilda balqidi.
Yerga tushdi erkning urug'i,
Urug' ekkan bog'bon xalq edi.
Olmazorming changli yo'liga
Rizvонbibi to'kilgan qoni.
Nasllarning quoqlarida
Yang iragan sag fir fig'oni,
Kim unutar g'am navosini,
Yetimlarning xun da'vosini?

Yangi zamон binosin qurmoq
Bo'lди Toshkent binokorlari,
Birgaaшиб turdi ittifоq

VII

Shahardagi darvozalarni,
Ko'cha tonon derazalami,
Uning cholin ham chaqalog'in,
Shifoxona, ariq qulog'in,

Sulton arab hamqatorlari...

Saksonlardan oshgan u chohni
Tinglaganda ko'rardim go'yo —
Hayot qanday yengib ajalni
O'pirganin zulmatni dunyo...
Uning umri jonli bir tarix,
Kamtarlikka, mardlikka ta'rifi!

Qadoq qo'lllar jur'atga to'lib
Mahkam turi davalat bayrog'in.
Hakimzoda, qo'qonlik adib
(Qo'qon o'zbek she'riga qo'rg'on.)
Yasha Sho'ro" qo'shig'in ayтиб
Ochdi yangi she'rga davron.

Turkistonda qahramon Toshkent
Sovetlarning bo'ldi qal'asi.
Haq o'matib har tonon Toshkent,
Adolatning keldi pallasi.

Harb-u zarbda ulg aydi Toshkent,
Ahvol tang-u, g'oya va ish keng...
Oh, o'n to'rlar, o'n to'rrita botir,
To'ng'ich o'n to'rt qizil komissar,
Koshki bo'lsa qalamim qodir,
Qoningizday yozsam pok asari!!!
U shum kecha.., va Tuproqko'rg'on,
Pisand qilmay jallodlar do'qin,
Uzganda oq vahshiyilar o'qin,
Siynalardan na dod, na fig'on!!!
So'nggi kecha, so'nggi nafasda
Eslar edi Shumilov usta
Turkistonning temiryo'llarin,
G'oyaparvar umr yo'llarin,
Bilar edi jasur bolshevik,
Uning hayot yo'li bitsa ham
O'yulgansiz bitta qabrga,

Quchoqlashib siz o'n to'rt qardosh,
Kurashlarda bo'lqanday birga,
O'lganda ham birga — qabrdosh!..
Shahringizga emassiz qarzdor,
O'tadingiz burchni mo'tabar.
Sizni eslar toshkentlik har bor,
Qabringizga qo'yib gulchambar...
Ko'p qimmatga tushdi ozodlik,
Ko'z yoshlardan yo'g'irdi shodlik.
Shu tufayli aziz hurriyat,
Erkimizning bahosi qimmat.

X

- Nimas ko'p Toshkentning?
- Suvl, soyi, soyasi...
Toshkentga ixlosmandning
Tugamas hikoyasi!..
- Nimalar ko'p Toshkentda?
— Oshlar, ishlar, kishilar,
Sozanda-yu pazanda,
Ishchilar, ishboshilar.
- Nima ko'rding Toshkentda?
— Mevalarning aslini,
Doim quyosh faslini,
Quyosh bunda izzatda.
Orasta ayvonlarda
Yangi qizlar ko'raman,
Yashil xiyobonlarda
Eski do'st-la yuraman.
Tong yorigan chog'larda
Yerga kulg'i sochilar,
Shu uchun dudoqlarda
Sho'x g'unchalar ochilar.
Toshkentda yoz issig'i

Dilga berar yigitlik,
 Kabobpauning har sixi
 Kun tufayli xush hidlik.
 Terakzorlar xushbichim,
 Bog'larda hamma yoq jum,
 Yer ham, ko'k ham moviyrang.
 Havoning yuzi tiniq,
 Shuncha tiniqliki, qarang,
 Gullarning atri aniq —
 Havoda bilinadi,
 Ko'zlarga chalilnadi.
 Anu daroz chinorlar
 O'igan kuzni va qishni,
 Bahorda kelgan qushni
 Timmay-simmay sanarlar.
 Bulut osiq Chotqolga,
 Bulut o'xshar soqolga.
 — Bulutlar, hay bulutlar,
 Sizda bormi burgutlar?
 — Burgutharni bilmaymiz,
 Ammo bor samolyotlar.
 Bizning shunqor botirlar,
 Uchqur, devkor botirlar
 Shahrimizga har yoqdan
 Uchib kelayotirlar.
 Bir she'rinda, bir mahal,
 Bundan yetti yil avval
 Chirchiqning yoqasini,
 Toshkentning vohasini
 Men bog'iston degandim,
 Bog'-u bo'ston degandim.
 Shu ta'rifni shu zamон,
 Qaytaraman uch chandon.
 Yozming kelishi ila
 Tokning tomirida may,
 Yoyma savatlar to'la

Marjon kabi qulupnay,
 "Jannat shunda ekan-da",
 Deyilsa kim ishonmas?
 Shakar angur deganda
 Ayting-chi, kim tamshanmas?
 Husayni uzumimiz
 Ittifoqda mo'tabar,
 U — sovg'a, u — xushxabar.
 O'zi — shirin so'zimiz.
 Dongdor Rizamat ota
 Tokchilikda sohibkor,
 "Sohibi" sin har katta
 Dasturxonda o'mi bor.
 Biz yuborgan har o'rik
 Janubdan oltin tabrik!
 Daraxtlarda butoqlar
 Mevalardan bukilgan,
 Qars-qurs bilan yong'oqlar
 Do'lday yerga to'kig'an,
 Asl, qizil olmalar,
 Uni qizim tilmalar.
 Nega ariq labida
 Tutzorlarga xushtorman?
 Go'yo daraxt qalbida
 Bir hisdan xabardormen.
 Deyman kelgach sirasi:
 — Tut bog'lар shoiras!
 Qilgan ishi shirinlik,
 Yaxshillikka itimlik.
 Dastlab bahor chog'ida,
 Hali meva yo'g'ida
 Og'zimni shirin qilar
 Asal kabi oq tutlar.
 Sabr qilsam, bargidan
 Harir pilla o'ralar,
 Tuttimning ipagidan

Yasanadi jo'ralar.
Bu sir emas, ochiq gap,
Har hisga bor bir sabab,
Qizlar egnida ko'yak
Qaytaga bo'lsa ipak,

Jilvalanar, tovlanar,
Sevgi tez olovlanar.
Nega ariq bo'yida
O'sgan tutlar obro'da?
Chunki suvlar qirg'og'in,
Qing'oqlarning tuprog'in
Asraydi tut daraxti,
Ayniqsa sellar vaqt.

Balki shu ishchiligi,
Odamga yaxshiligi
Vajidan tut ko'p yashar,
Balli, yuzlardan oshar.
"Qoratut" mahallasin —
Chol shohidi — qadim tut,
To'rt asrning pallasin
Oshgani bunga subut.

Shoirona tafakkur! —
Mubolag'a, maqtashlar!
Meningcha oq sadafdir
Soy ichida oq toshlar.
Kezar tut ko'lankasi
Imoqlar yoqasida,
To'qidim surunkasi
Tut sha'niga qasida.

Yosh tut xuddi singlimday,
She'rimdag'i ko'nglimday!
Qachon tushsa unga ko'z,
Qalbimda qaynar shu so'z:
— Tutzorlarm, ko'proq o's!
Ipaklashsin har kolxoz!

Ipaklashsin har bir qiz!
Ipaklashsin el-ulus!

XI

Toshkentda uch fasl yoz,
Bahor — shoshgan ichki,
Yoz — katta va asl yoz,
Kuz — kechikkan kechki,
Go'yo yoz zo'rlik qilib,
O'ng-u chapni talabdi.
Qo'shmilar siqilib,
Unga bojlar to'labdi.
Har boji bir necha oy,
Shu tufayli yoz ko'p boy.
Yozning hukmi kuchaygan,
Qishning zarbi kichraygan.
Shuning uchun qish garang,
Muhammat o'tar arang.
Toshkent xalqi kuylaydi,
Yettidan to yetmisiga,
Naqarotni bog'laydi
Oshga, ishqqa va ishga.
Yallachilar sho'x, bashang,
Ammo men o'zim shoir,
O'z-o'zimga bastakor,
Kuylayman baxtga doir,
Bo'immasam ham ustakor.
Og'aynilar gapida
Osh yesam — o'z qoshig'im,
Qo'shiqchilar safida
Kuylasam — o'z qo'shig'im.
Osivioning qo'ynida
Yashil shahar bor.
Men bu shahar ahliman,
Erkin, baxtiyor!

Uzoq do'stim, yaqin kel,
Quchoqlashaylik!
Bir kelganding, tag'in kel,
Inoqlashaylik!

Navoiy xiyoboni —
Uzun xiyobon,
Bunda seni kutaman
O'zim, xiromon!
Kechga qolsang, bo'lolmas
Uzur, a, jonon!
Bunda yigit uchratlar
Qizin nurafshon.

Kunduz yashil, kechalar
Qizil xiyobon.
Uzoq do'stim, yaqin kel,
Quchoqlashaylik!
Bir kelganding, tag'in kel,
Inoqlashaylik!

Sevgi bilan kulgi yor,
Bu yer — gul diyor,
Oshiqqa qo'shiq sherik,
To'yimiz yirik!

Dasturxonlar tuzalgan,
Uylar bezalgan,
Hay, eshilq taqilladi,
Taq-taq qiladi,
Qandillar yoqiladi,
Mehmon keladi.
Eshik ochiq, keladi,
O'zi biladi,
Uyimiz g'oyat shinanam,
Hammaga joy bor,
Mehmonlar yulduz bo'lsa,
O'rtada oy bor.
Oshlarimiz muhayyo,
Yana ko'k choy bor.

Uzoq do'stim, yaqin kel,
Quchoqlashaylik!
Bir kelganding, tag'in kel,
Inoqlashaylik.

XII

Azaldan Toshkent xaritasida
Barcha irmoqlar bog'larga moyil.
Uning tarixiy anketasida,
Yoshi so'ralgan ilk muddasida
Deyilgan: "Yoshim — salkam uch ming yil".
Shaharga tuzsam anketa agar,
Savollar soni qiladi ozlik,
"Asosiy kasbi" degan savolga
Yozilgan javob — Mehmonnayozlik!!!
— Kimdan iborat sizning xonadoni?
— O'n beshta poytaxt, o'n besh qadrdon!
— Bormi chet elda qavm-u qarindosh?
— O'n ikki yurtda o'n ikki qardosh.
— Kimlarga xating boradi rasman?
— Dunyoda barcha shaharga do'stman.
Ertalab ba'zan shaharga qo'nar
Ko'kimdir tuman kechikkan tushday.
Quyoshni ko'rgach iniga jo'nar
Ucholmay qolgan uchirma qushday.
Shahar-chi, uyg'oq allaqachondan,
U-ku, uyquchi bo'lmaqan zotan.
Nag'masi po'lat, nafasi temir,
Planlar bilan pishgan iroda.
Yashin qudratin singdirgan tomir,
Uishchan uylar, ko'rgin, birodar!
Chiniy kosadan traktorgacha
Yaratib berar bu mohir qo'llar.
Charchamay-netmay kunduz va kecha

Mashina yasar yorqin aqlar.

Mehnat ahliming xizmatkorlari,
Dehqonning dono dastiyorlari
Chiqar shahrimiz eshkildaridan,

Bag'ida "Toshkent" markasi bilan.

Toshkent o'llkaga umurtqa suyak,

O'zbekiston — tan, Toshkent-chi — yurak.

Sharqning ulug' vor ishxonasi u,

Nur derazali koshonasi u.

Yaxshi libosga o'ch qizlarimiz,

Zebo kiyomoqqa loyiq odamzod.

Bu masalada oq yuzlarimiz,

Baxtli kelinlar ishimizdan shod.

Olamda mashhhur tekstilimiz,

Har qayga borar chit mahsulimiz,

Gazlama bo'yи uzun tilimiz...

Pilla ham ipak o'zimizdandir,

Naqshli gul ko'ylik o'zimizdandir.

Paxtani ekmoq o'zimizdandir,

Liboslar tikmoq o'zimizdandir.

Shahrim hayotin bordir o'z vazni,

Bu — zavod vazni, avtobus vazni.

Har familiyadan eng kamida bir —

Ishchi bor yoki usta, injener...

Ertalab ko'prik boshida har kun

Omonlashamiz sen bilan sokin.

Yoqimtoy, chaqqon yelkador, durkun,

Taniyman seni, "o'qchi"lik yigit!

Boshingda do'ppi! Har bodomiga

Bir qizning ko'zi nurlar tomizgan.

Boshingni silar har bir damida:

Bu qanday bosh-u, u qanday qizkan?

Yamoqchi edi, esimda, otang,

Ota kasbi ham shu edi zotan.

Ammo sen olding quadratli hunar,

Omilkor, senga motor bo'yusunar.

Asrning keskin chin quvvatsan,

Shaharning ma'lum deputatsian.

Ilg'or sinfning ziyrak farzandi,

Qistaysan kуни ertaga tomon.

Seni kutgandi zamin va zamон,

Qo'shiq va shoir uzoq kutgandi,

Toki o'zingning ustaxonangda

Toblab berasan zafar yangin,

Ravshan yo'llingga, o'z zamonangda

Boshlab borgaysan mehnat tuprog'in.

Bo'lmasang xayol markazida sen,

Doston bo'lardi shikast — to'liqsiz,

Bo'lmasang davron o'rtasida sen,

Zamon qolardi yo'lsiz-yo'riqsiz!

Sening vijdoning el tarozusi,

Senga vobasta bashar orzusi.

Dilda tashirsan kunduzlar mehrin,

G'ayrating yengar mushkullar sehrin.

Garchi sen yoshsan, mavqeying ulkan,

Kolxozchi chollar seni der — "Akam!"

Devorlarga g'isht qo'yan ishchilar,

Qoliplarda g'isht quygan g'ishchilar

Imoratarin o'yarkan faqat,

Tinchlik havosi ularga maqsad.

Eh, "musht uyemoqdan g'isht quymoq yaxshi!" —

Deganlar ijod kuyiga soqchi.

Bu imoratning betida e'lon:

"Yaxshi niyat-la kelganga salom!"

XIII

Tinchlik bizga qimmat tushdi,

Erk yo'lida el urishdi.

Xotirlardan chiqmas, evoh,

Og'ir sinov haftalari.
 Ko'rmaganlar uchun guvoh
 Voyenkomat daftarlari,
 Xo'p estayman uni endi,
 Yozning avval kuni edi.
 Kutubxona... Kun — yakshamba...
 O'zim tanho o'tirgandim.
 Yurar edi sekin — tanbal
 Daqiqalar odim-odim.
 Katta shahar ahli u kun
 Bog'ga ketgan edi butun.
 Varaqlardim qo'lyozmani,
 O'qir edim Xondamirmi.
 Jimjimador har so'z — ma'ni,
 Har so'z saqlar eski simi.
 Navoiyning zamonasini
 Sayr etardim ko'zim yumib,
 Javharlari namunasini
 Tizar edim esga, jumib...
 Yon eshikdan kirdi kimdir,
 (Boqsam bizning oshma — mudur)
 Rangi o'chgan, go'yo o'zga,
 Bu — o'zgami, o'shamidir?
 Zo'rg'a og'iz ochdi so'zga
 Titrab dedi: Yomon xabar,
 Gitler bizga qildi hamla,
 "Sarhad bo'lgan zer-u zabar!"
 Sirqradi dil alam-la,
 Xondamimi yopib u dam
 Men ko'chaga chiqdim ildam,
 Xayr dedim naqlarga.
 Yangi jangnomani ochdim,
 Yuraklarga, aqllarga
 G'azab urug'larin sochdim.
 Tikkaydi soch, yurak va yer,
 Shahar go'yo harbiy lager,

Har tomonda odam... odam...
 Shuncha odam chiqdi qaydan
 Qovoq soliq... Chidam! Chidam!
 Bo'g'ilganda toyush nayda,
 Ovozlarda bosiriq dam...
 Kuyov nogoh bo'lib xasta
 To'y buzilib qolganidek!
 Kechagina biz majlisda
 To'ya qaror qilgan edik;
 Lermontovning to'y qoldi,
 Dushman ishga ishkal soldi...
 ...Men Lohutiyl ko'chasida
 To'xtab turdim hayajonli;
 Xiyoboning chekkasida
 Ko'rdim Hamid Olimjonni;
 Har galgiday xotiri jam,
 Qiyofati jups, ixcham.
 Lekin o'zin odatidan
 Ko'ra shoshqin tashlar qadam.
 Esonlashdik: "Urush!" dedi,
 "Fashist qildi xuruj" dedi.
 "Jang bo'ladi ko'p haybatli,
 Yov g'alamis, quv, shiddatli.
 Bosib kirgan yerimizga,
 Qasos deya qo'zg'algan el.
 Kel, birodar she'rimizga —
 Kiyigizaylik biz ham shinel!
 Qurbon-ku ko'p bo'lur, yo Shayx,
 Pirovardi biz yengamiz,
 Istaymanki, ko'p yil yashay,
 Erishamiz, bil, bunga biz!"
 Asl shoir edi, Hamid,
 She'ri kurash, baxt va umid!
 Shaharlar-la qator turib
 Bajaroldik biz ontimiz.

Sevib, siylab, ishlab, qurib
Shuhrat topdi Toshkentimiz.

Baxtlarini qonga ko'mgan,
Shu vajdan gul qizil ekan!

Inobatli sevgi bo'ldi,
Ahillikdan belgi bo'ldi.
Borni bergen uyalmaydi,
Kelib ko'rgan va eshitgan
Yo o'qigan, yo naql elgan
Bizni xasis deyolmaydi.
Toshkentimiz qurol bilan,
Aql, tadbir, kamol bilan,
Uning noni, dasturxoni,
Olmalar, qutlug' koni,
Sabri, jahli va asabi,
Ulug' mehri va g'azabi,
Ipaklari ham paxtasi,
Qasamnari ham va'dasi,
Ertaklari, rubotysi,
Go'ro'g'lisi, Navoiysi,
Qo'shnaylari, taronasi,
Ko'mirlari, koxxonasi,
Oq shakari, zangor chiti,
Duolari va machiti —
O'chimizga qildi xizmat,
Zafar bo'ldi bizga qismat.
G'alabani yaratmoqdan
U to'g'rida yozmoq oson,
Jangga kirgan ko'p o'rtoqdan
Qaytolmadi ko'pi eson.
Hozirko'rib tomoshasin
Yayraganda gulbog'larda,
Bilamanki, bir chog'larda —
Bu gulbog'ni ko'p yashasin,
Sovrilmasin, so'limasin deb
Okoplarda o'q-yara yeb
Do'starimiz ko'zin yumgan.

Taxtapullik Sobirjonni
Tanir edim men Bokudan.
Zap chavandoz, miqtqi, jonli,
Xosiyatli ulfat juda.
Harbiy maktab tabelida,
U "Toshkentdan kelgan kursant".
Ozariylart ta'birida
"O'zbay qardosh" desa xursand.
Ikki gapning har birida
Aytgan so'zi: "Bizning Toshkan".
"Bizning Toshkan,
Bizning Toshkan..."
"Bizning Toshkan
oshini deng.
Qizning uchgan
qoshini deng!
Toshkan oshin
yeyman desang,
Qalam qoshin
deyman desang —
Gaping chiroylik!
Hay-hay boraylik!
Ta'bing chiroylik!
Tur, tez boraylik!"
Hamshaharlar duch kelganda,
Sobir biroz yechilganda
Aytadi o'z ashulasin,
Deydi pivo ichilganda:
"Kim ichmasa u to'lasin!"
Xayr dedik biz Kaspiyga,
Har kim ketdi o'z kasbiga.

Biz — muallim, u komandir,
Ayrilganda aytди Sobir:
— Xayr do'star, biling, agar,
Bo'lmasaydim men bir askar,
Buni hech kim bilmagandir,
Bo'lur edim beshak shoir!
...Uqdimgmi do'st, u yigit kim?
U — general Sobir Rahim.
O'ttiz yıldan so'ngra uni
Men kuzatdim...
Tobutini?!

U toshkentlik Sobir — sardor,
Fashistlarni qildi xarob.
Go'rsiz yotgan irqchi — murdor
Osiyodan oldi javob,
Paymonimiz rostligini
Qoni bilan birlashtirdi.
O'zbek-polyak do'stligimi
Dili bilan ulashtirdi.
Kindik qoni oqqan yerdan
Bo'lmasin deb xoki judo —
Biz Toshkentda, yashil go'rda
Ko'mib dedik: — Oh, alvido!
Ilgariji xayrashuv
Hech gap emas ekan-ku!
Xayrashuv — ana shu!
Na va'da bor, na nido,
Alvido

Ammo, hayhot, bajarmadi
U ikkinchchi o'z va'dasin,
Halok bo'lди va ko'rmadi
Besh yilliklar tantanasin.
Halok bo'lди... frontlardan
Ko'p yiroqda, nogahoniy,
Biroq ofat yeb xatardan
U ham bo'lди... jang qurbanzi.
Jarangli avj pardasida
Sindi shoir qo'lida soz.
Yangi avlod o'rtasida
U nag'maga qo'yib ixlos
Qo'shiqchilar qo'shar ovoz...
Ulansaydi Toshkentdagи hamma ko'y-ko'cha,
Borib yetgan bo'lur edi Moskvagacha.
Bog'chalardan xiyobonga, maydonga o'tib,
Qancha kezsam ado bo'lmas bizning ko'chalar,
Shoyad yozsam xato bo'lmas — yuz ming ko'chalar.
Men Beruniy maydonidan ko'p o'tdim yolg'iz,
O'tib bo'lmas u yerdan o'ysiz-xayolsiz.
(Muallimning vazifasi qatramoq darsga,
Yolg'iz yurib o'ylamoqning gashti bor o'zga)
Bir qaraysan, bog'i ko'lida qayiqlar suzar,
Qayrag'ochlar soyalarin suvlarga cho'zar...
Men Muqimiy teatri qubbalarida
Kaptarlarni kuzataman tepalarida,
Hatto ular ishqibozkan yoqimli kuyga,
Odam nechuk maftun bo'lmas bu xushxon uyga!
Nariyoqda tug'uruqxona..., Serfarzandlikda
Jahon aro o'zbek xalqi birinchillardan.
O'ylaymanki, chaqaloqlar-ku, endilikda
"Inga-inga" humari-la o'lanchillardan
So'zlolmas-u, lekin payti kelganda bular

Sahnlardan qoyil qilib kuyilar va kular.
 Bola desa xotirlanar bolajonliklar,
 Bolalarga g'amxo'riliklar, mehribonliklar.
 Men toshkentlik temirchiga aytaman: — Rahmat!
 O'n to'rt bola asrab olgan Shoahmad aka.
 A, mehribon Bahri opa, sen chekib zahmat,
 O'z bolangday mehr qo'yding o'n to'rt o'ksizga.
 O'n to'rt bola, o'n to'rt millat, turli o'n to'rt ot.
 Shoahmadning avlodini deb tanilgan avlod.
 Bu gulzorlar, bu hovuzlar, bog'lar, bog'chalar...
 Allanelar eslatadi bu keng ko'chalar...
 Ha, bu yo'ldan borar edi ishiga har kun
 O'z sevimi "Hamza" siga vazmin, serviqor,
 Intuzomi soat kabi, suhbati erkin,
 "Artistlarning chin Og'asi", buyuk san'atkor.
 O'siq qoshlar ostidagi ko'zlarda xanda,
 Yaxshilikdan so'z ochardi har ko'rishganda.
 Biz u bilan qo'shni edik va oshna edik,
 Unutilmas bir joziba bor edi unda.
 Didi nozik, axloqi pok, idroki yetuk,
 Ibrat mag'zin axtarardi har bir o'yinda.
 U Toshkentda tug'ilgandi "Zanjirlik" yoqda,
 Hozir uxlar kindik qoni oqqan tuproqda.

O'smirlilikdan g'o'zallikka ochdi bag'rimi,
 San'atimiz mudom eslar Mannon Uyg'urni,
 Bu maydonlar, tutash ketgan asfalt ko'chalar,
 Dohiyalarning, shopirlarning, qahramonlarning
 Nomlarini saqlash bilan zo'r insonlarning
 O'zlarini ham ulug'lilikdan go'yo kuch olar,
 O'sha kuni necha saat, necha daqqaq
 Kezganimni eslayman papirosh chokib,
 Dilkush mayzu o'ydar edim xayolga cho'kib,
 Yayov yurtsam nash'am butun! Bu gap haqiqat...
 Bu shaharning yarmi tanish, do'st va og'ayni,
 Omonlashib yurmoqdaman, xayolda mavzu,

(Har mavzuni tinchitmoqning chorasi yozuv)
 Mavzuyimming zamirida bu Toshkent, ayni...
 Mashinada, tramvayda yoki piyoda
 O'tayotgan do'st-oshnalar haddan ziyoda.
 Salomlashib bormoqdaman ko'krakda qo'lim,
 Bu el bilan sheriklikdir hayotim, yo'lim.
 Mana artist, mana ishchi, talaba, shofyor,
 Mana doktor, bu ministri, bu-chi, injener...
 Men bu xalqning shoirimani... Shu uchun go'yo
 Har salomda ehtirom bor va biroz da'vo...
 Ko'p xayollar, goho ravshan, goho pajmurdar,
 Taxlanmag'an varaqlanday turar fikrda...
 Qumrilarning "hu-hu"lari, gullarning isi,
 Shabnamnlarda hali o'chmay qolgan oy nuri,
 Tunov kungi ziyofatda qizlar kulgisi,
 Lola rangi, nay ohangi, shiyponlik so'ri,
 Marhumlarning xotirasи, tirk vasiyat,
 O'tgan kunlar, bugungi ish, ertangi niyat...
 Lekin bildim va angladim o'ylarga tolib:
 Yomonliklar o'tkinchidir, yaxshilik g'olib,

XV

Jahonshumul shaharlarning sirasida shahrimiz,
 Xaritada uning ramzi — besh burchak qizil yulduz.
 Toshkentlikning iftixorga haqi ulkan olamda:
 Navoiy teatriga tomoshaga kirganda
 Nafosatning maktabida go'zallikdan o'qir dars,
 Halimani eshitmoqlik — grajdalanlik burchi — farz.
 Fontanlarda yarqiragan guldasta olmossimon,
 Bu — shahrimiz yuragida do'stlar uchun armug'on.
 Kecha ko'rdim samovotda dumyomizing yo'ldoshin,
 Hayron-hayron qarabdkikan minglab o'lka va shahar.
 Qit'alarga keltilarkan biz yasagan bu yashin

Xayrli bir pochralyonday oydin salom, xushxabar.
 Insoniyat dahosining, totuvlikning hamrohi,
 Yer yuziga osmondan qarat fanning nigohi.
 Ko' p o'tmasdan yo'ldosh bilan barcha olam tanishdi,
 Bu yo'ldoshning bunyodida butun Vatan qatnashdi,
 Bunda Toshkent ilmiming ham ishtirotki bor biroz,
 Yulduzlarga qiziqmoqlik biz uchun eski meros.
 Barcha millat olimlari bir oila — urug'dek,
 Asrlarning muammosi o'tib qoldi bizlarga.
 Sevingandan mot qolardi tirk bo'lsa Ulug'bek,
 Yer yulduzi qorushar deb ko'kdagi yulduzlarga.
 "Qori aka" deb tanilgan domla Qori Niyorziy
 Ilmimizning mashaqqatlari o'tmishidan xabardor.
 Ibi Sino Buxoriyning bizga o'tdi merosi,
 Mashhur ilmiy markazlarga Toshkent bo'ldi hamqator!
 Donishmandlar anjumani bizning Akademiya,
 O'lkadagi bilimlarga yuksak dargoh va miya.

Hovlisiga kirganday bizga kelar paxtakor,
 Kengashli ishi bordir olim — paxtashunosda.
 Aslin desam: shahrim o'zi paxtachidir mirishkor,
 Zarur bo'lsa hasharchimiz, kuchimiz ayamasdan.
 Mirzacho'lning agronomi, Toshkentdagi injener,
 Paxtamizni asrab terib topshirmoqning g'amin yer.
 Yangilikning ixlosmandi, ertani o'ylar nuqul,
 Chinakam el faylasufi Hamroqulov Tursunqul.

Yerning, suvning, g'o'zalarning tiliga xo'p tushunar,
 Tabiatning sir — kitobin uqib olmoq zo'r hunar.
 O'zicha bir viloyatdir uning mashshur kolxozi,
 Ivanovlik to'quvchi ham, Toshkent ham undan rozi.
 Biz u bilan qadimiy do'st, shu bilan faxr aylayman,
 U Toshkentga kelganida uni ko'rgach o'ylayman.
 Rassom bo'lsam solib qu'yib uning azim rasmini,
 "O'zbek xalqi — o'ziga bek" deb qo'yardim ismini.
 Alisherning nomidagi kutubxona shuhratini

Navoiy va kitob so'zi bor har joyda yuradi,
 Qancha do'star ortirganman u ma'rifat yereda!
 Garchi bular ko'philigi ismin qu'yib kitobda,
 Izvat ko'rmay, zahmat tortib nomardlarning qahrida,
 Ko'z yumganlar allaqaysi asrlarning qa'rida,
 Aspirantka varaqlaydi nomin eslab shu tobda.,.
 Bilamanki, kecha bilan bugun payvand tutashgan,
 Kecha bilan ertangi kun bugun vajji qarindosh.
 Bu kechagi Toshkent, ammo emas, kechagi Toshkent,
 Kecha bilan bugun yor-u, ammo emas o'rindosh,
 Jinko'chalar, egri-bugri mahallalar o'mini
 Zamonaga uyg'un yangi imoratlar egallar.
 Shu yag'tinli keng shaharning o'ziga bop to'nini
 O'zbekning o'z uslubida me'morchilar tikarlar.
 Ishxonalar, oshxonalar, go'shtxonalar, zavodlar,
 Idoralar, magazinlar, shifoxona, maktablar.
 Shuncha uyni keng bag'riga sig'dirolgan zo'r shahar
 Kiyintirar va o'qitar, to'ydirar va ishlatar.
 Hovuz bo'y — choyxonada gul gilamda olib tin,
 Oqpar choyni saratonda ichmagan bilmas qadrin!
 Bir piyola choy uzatgan bizga bo'lur do'st-hamdam,
 Oshnamiz qancha ortsa, yotlar bo'lur shuncha kam.
 Hech qayerda Toshkentchalik, balki, bozor topilmas,
 Haftamizning yetti kuni rasta-do'kon yopilmas.
 Nonin, go'shin, qandolatin, mayizimni aytayin,
 Palovini, tar mevasin, qimizimni aytayin?
 Ammo nega yashirayin, hali soqchi hushtagi
 Goho zarur bo'lib qolar bizning bozor-guzarda,
 Yuvsu ketar loy yopishgan yangi to'nning etagin,
 Qushqo'nmasi qo'porurlar, bosh ko'tarsa gulzorda.
 Bilamizki, shahrimizning loyi changi ko'p hali,
 Bu — qorong'i kechalardan yuqib qolgan sарqitlar,
 Loy kulbalar go'yobukik marsiyalar haykali,
 Yiqiq yillar puchligini qayta-qayta ta'kidlar.
 Ammo saqlab o'g'llikning udum-qoidalarin,

Hurmatlaymiz otalarning mashhur obidalarin.

U mujassam binolarki, tagida tosh poydevor,
Xalqning mehnat dahosiga qotib qolgan tarona.
Ko'kaldoshning madrasasini qurayotgan binokor

Bilar edi zindon emas u qurgani — darsxona.

Toshkentlikning mazmunida asrlarning qiymati,
Toshkentga ilk daraxt ekkan bog 'bonlarning himmati.

Abu Rayhon Beruniyining bukilmas haqiqati,
Navoiyning muhabbat, odamizodga shafqati,

Muqimiyning qahqhasi, yomonlikdan diqqati,
Ma'rifatning fidoyisi, Farg'onaning Furqati.

"Ellik yilda el o'zgarar" degan gap bor o'zbekda,
Shu qirq yilda yangilanib qoldi odam va tuproq.
Kel, hamshaharim, olg'a tomon, biz turmaymiz bir chetda,
Shahrimizning o'tmishidan kelasi kuni ko'proq.

XVI

Shaharlarning nomi abadiy,
Bu nomlarni qo'ygan el-ulus,
Mangaylarni sekin o'padi
O'tib turgan asrlar xolis,
Odamlarga qo'yganday laqab,
Shaharlarning sharafin olqab
Qo'yilganda unvonlar maxsus,
Toshkentimiz olgan taxallus
"Salomobod" bo'lar edi, rost,
Bu taxallus shahrimizga mos!
Sharqdan, G'arbdan, Janubdan mudom
"Salom" deya kelar mehnmonlar,
"Salom" desa, "alik-assalom",
Va guldasta olar mehnmonlar,
Ular ko'ngil qo'nolqaridir,
Chin do'stlilikning inoqlaridir.

Osoyishning, ravshan tinchlikning
Ustimirzda esar havosi,
Shu uchun ham bosqinchilikning
Cho'chitmaydi bizni ig'vesi.
O'n ikkimas endi dарvoza,
Balki bir yuz o'n uchdan oshiq!
Olam aro, iliq ovozi —
Shuki — Toshkent, qo'li ko'p ochiq!
Qui yerlarda jabr-u zuлmidan
Jafo tortigan yo'Ichilar kelar,
Besh qit'adan, yetti iqlimdan,
Suzib, uchib elchilar kelar.
Sharqning havo darvozasi biz,
Yangilikning andozasi biz.
Do'stlar uchun eshiklar ochiq,
Salomlar-la nurlanar qo'shiq.
Tinchlik bizning an'anamizdir,
Mehmon kelsa tantanamizdir!
Shahrimiz raisi har gal
Tanti mehmon qo'lin siqqanda
Deymiz: "Toshkent bilan shu mahal
Tinch shaharlar jo'ra ekan-da!"
Qo'lida ud tayog'i bilan
Hindistonдан kelganda Neru,
Shahrimizni uyiday bilgan,
O'z nutqida shu gapni der u.
Prezident Ahmad Sukarno
Qo'ygan "Yulduz" ismin ko'tarib
Shahrimizda o'sar sho'x, barmo
Bir qizchamiz emaklab turib,
O'z ismining ma'nosin bilib,
Yulduzlarga qaraydi kulib.
Indonez va o'zbek do'stligi
Qardoshlikning asli, rostligi,
Yulduz kabi porlaydi doim,

Bir yulduzki, vafoda qoyim.

Toshkentlikda bag'oyat qadim,

Yashab kelar ezu bir udum;

Uchrashganda birinchi so'roq —

"Tinchlikmi!" deb hol surishtirmoq...

"Tinchlik" so'zi o'zbekning ayni

Tuprog'idan tug'ilgan ma'ni.

Bu — yoqimli, serohang bir so'z,

Hayot — buloq, tinchlik — unga ko'z,

Bog'bonlarning yeridir Toshkent,

Bog'bonlarga tinchlik kerak-ku!

Korxonalar shahridir Toshkent,

Ishchi qilar tinchlikni orzu.

Olimlarning markazi Toshkent,

Olimlarga lozim osoyish.

Q'shiqchilar o'lkasi Toshkent,

Suljni qilar qo'shiqchi xohish.

Mehmonlar, siz — yurak qo'nog'i,

Xush kelibsiz uyimizga siz,

Ortar do'stilar soni-sanog'i,

Jang balosin hech ko'rмагaysiz!

Sizga berar guldastalarda

Anqir mehmondo'stlikning atri.

Qalbi-dili payvastalarda

Kam bo'lmaydi mehrning qadri!..

Dobrichadan kelgan bulg'orga

Bag'ishladik urug'lik chigit,

Oltin hosil yig'gach omborga,

Estar bizdan rozi u yigit!

Yashasim gul, yashasin kulg'i!

Yashnab tursin shunday bir gulki,

Uning nomi bo'lgay yaxshilik,

Kuyib ketgay yovlik-vahshiylit,

Kurashlarda saflar zichligi,

Shunda ellar, dillar tinchligi...

O'ychan oqshomlar!..
Salqin oqshomlar!..
Nash'aga eltar,
Qo'shiqni etar —
Talqin, oqshomlar..
Kechalar kayfi!
Oqshomlar fayzi!
Uni aymagan,
Ta'rif etmagan
Shoirlar qaysi?!

"Ertagacha xayr!"
Deb quyosh botar,
O'ylamang yotar,
Yiroqlarni sayr
Etgali ketar.
Oqshom quyoshning
Kechki yordir,
Soya otashning
O'z me'yordir.
Irmoq bo'yida
Ko'm-ko'k maysalar,
Maysa bo'yidan
Yel hidi kelar.
Bodringning isi
Bu o'tlarda bor,
Shuki boisi:
Hamisha bahor.
Oh, o'tgan yillar,
Havastar, mayllar...
Intizorimga
Sirdosh sohillar
Seni bu yerda
Kutgan chog'lарим,

Ana bu jarda

Yotgan chog'larim
Ketmaydi ko'zdan,
Chiqmaydi esdan.
Bormi xotirda
Beg'am kunlaring?
Ana bu yerda
Kuttinganlaring!
Men-chi, qalbimda
O'z nomimsimon
U ilk bo'sani
Tashiyman hamon.
Qosh qoraymoqda,
Mayin immoqda
Shu kechki chog'da.
Kunduz issig'in,
Havo bosig'in
Tinimsiz yellar
Shimirib eltar!
Cho'kar qorong'i,
Ne xush, qarang, u!...
Bog'larda jimlik,
Nilrang o'simlik,
Havo shahbatday
Xushbo'y ichimlik.
Uyqular kezar
Gullar arosi,
Sukut — tushlarning
Aks sadosi.
Suvda yulduzlar
Barq urib turar,
Go'yoki qizlar
Sayilda yurar.
Bog'larda garchi
Uyquchil jimlik,

Ammo parklar-chi,
Shovqin, gavjumlik;
Raqsga tushganlar,
Pivo ichganlar,
Xiyobon aro
Juft yurishganlar.
Bir yoqda suhbat
Palovdan, choydan,
Bir yoqda dokdad
Mirrixdan, oydan.
Bu kecha yana
Yuz xonadonda
Albatta, to'y bor,
Suron, hoy-ho'y bor.
Hofiz va mashshoq,
"Lapar" va "Ushshoq" —
Uchun talashuv,
Yalpi talab shu.
Goho mot qilar
Tirik kuychini
Eshtitsak agar
Plastinkadan
Mulla To'ychini..
Kuylar serqayg'u
Fuzuliyydan u:

"Shiffoy i vasl qadrin hajrila benor o'landan so'r,
Ziloli zavq-shavqin tashnayi diydor o'landan so'r.
Labing sirrin galib guftora mandan o'zgadan so'rma.
Bu pinhon nuktani bir voqifi asror o'landan so'r!"

Bunisi ko'p soz.
U baxmal ovoz —
Saqlangan ekan
Ulug' hofizdan...

Musiqo o'sar

Asl ildizdan

Ahli to'y shu chog'

Ulfat, xushchaqchaq...

Oq musallasni,

Yo may charosin

Ko'tarar do'star,

Aytishar tostlar.

Kuyovni siylab,

Yelkasin silab,

Kelinga esa

O'n farzand tilab

Qo'yarlar talab,

Tonggacha o'yin,

O'yna va suyun!...

Tramvay yurar

Odamni tashib,

Kinodan chiqqan

Yosh-yalang shoshib

Uyma-uy jo'nar,

Qandillar yonar,

Xuddi shu paytda,

Tungi navbatda

Sexida bu tun

Ko'z yummay butun

Ishchi ish qilar,

U yaxshi bilar:

Mahsuli faqat

El uchun ne'mat.

U bilan hamdam

Yotmas shoir ham,

O'z xalqin kuylar,

Shafaqni poylar.

Shoir biladi:

Tun homilador.

Uning bo'lq'usi

Har ishi kitob,

Va tug'ilg'usi

Fazandi oftob.

XVIII

Vatanning ma'nosi ulug'vor, ulkan,
Ha, Vatan so'zining cheki bepoyon.
Bu yerda tug'ilgan, yashagan, o'lgan,
Yaratgan, ishlagan, kurashgan inson
Vatan mehri bilan o'z qadrin bilgan,
Vatansiz kimsalar darvesh devilgan.
Yuraklar — yulduzlar, Vatan — koinot,
Bir tilak, bir g'oya, bir tan koinot.

.....
Vatan — uzukdag'i zumrad toshlardan
Yerning osmondag'i yo'ldoshigacha.
Sersoya, mo'ysafid qayrag' ochlardan
Mo'min binafshanning ko'z yoshigacha.
Chapdast, hozirjavob sartaroshlardan
Qishloqda muallim maoshigacha;

.....
Vatan — buvilardan nabiragacha,
Cho'pon surnayidan operagacha...
Vatan — go'zallikdan yaxshilikkacha,
Qishdag'i qorlardan yashilikkacha;
Saviskiy otli galereyadan
Shahid Ulug'bekning maqbarigacha;
Ertaklar aytuvchi bir qariyadan
Radioning so'nggi xabarigacha...,
Ammo har kimsaga shu aziz yurtda
Yozilgan biron ta manzil pasportda.
Mening pasportimni so'rasang agar,
Men eski toshkentlik... Joyim — bu shahar.

“Toshkent shahri” degan muhr menga bas!
 Hovlim, magazinim, choyxonam shunda.
 Yo’zda chanqamagan choy qadrin bilmas,
 Ko’k choyning naqshi bor har bir koshinda.
 Toshkent qadamjodit... Aziz joy ekan.
 ... Mardlikka qadamjo shu qutlug’ tuproq,
 Zamonalr yellarin ko’p ko’rgan bu yer...
 Mirzateraklardan qilinsa so’roq,
 Shimol yellarining qulochidan der.

Toshkentni sevmoqlik yurakning ishi,
 Shu uchun shartmikan bunda tug ‘ilmoq!
 Sharimi, bir romanga ishqiboz kishi
 O’zi u romanga qahramon bo ‘ilmoq?!
 Umrim bino bo ‘ldi Ozarbayjonda,
 Kechdi bolalligim u gul makonda.
 Nizomiy Vatani, Ganja o’lkasi
 O’pkamga to ‘ldirdi she’r havosin,
 Kur nahrin muloyim, tinch muzikasi
 Ko’nglimda uyg’otdi kuylash havasim.
 Lekin shoirlikning nozik toleyi
 Kuldij Sirdaryoning havzalarida.
 O’zbek quyoshining chin otaligi
 Aks etdi mastoba kosalarida.
 Hazrat Navoiyning o’pib qo’lini
 O’zbek vodiyisida otimni surdim,
 Ijod karyonining uzog’ yo’lini –
 Aziz yo’ldoshlar-la o’toldim, yurdim,
 Yo’q, men taqdirimdan emasman xafa,
 Shoirlik unvoni baxtimdan tuhfa...
 ... Ko’chat ko’chib kelib ekilgan tuproq
 Uning Vatanidir deyish to’g’riroq.

Bu shahar she’rimning tiniq chashmasi,
 Yashadim o’ttiz yil bunda chamasi.

Bu yerda tug ‘ilgan G’afur va Oybek,
 Ummiring boshlanguich mavsumlari
 Meni ardoqlashdi quchib og’adek,
 Inilik ko’rsatdim ta’zimlarida.
 Biri – she’rimizing o’tli yuragi,
 Biri – nasr uyining baland tiragi,
 Ochdilar uy bilan qalb eshkilarin,
 Ayamay o’git va mezbonliklarin.
 Yigitcha edim men havaskor; sodda,
 Bo’ldim oqibatda shoir Shayxzoda!..
 Eh-he, o’tgan kunlar yellari esdi,
 Qalin sochimizni chimchilab kezdi,
 Do’star-la bahslashdik, ichdik, kulishdik,
 (Oftob mazmuni bir qadah sharob
 Yurakka singdirar sho’xlik, issiqlik).
 Og’ir zamonalarda nomni bo’lishdik,
 Sherikli yozildi jangovar kitob...
 Sharqi-janubdagagi shavkatli poytaxt,
 Toshkent, sen o’zingsan azim poema.
 Seni asrab keldi ona kabi vaqt,
 Hech qachon, yo’limni tugatdim, dema!
 Sen mangu shaharsan, kunday bezavol,
 Seni ta’rif qilgan dostonching ham
 Baythari tugashi, bu – amrimahol,
 Har qancha tarannum etilsang, bu – kam!..
 Safar chog’i seni tushda ko’raman,
 Sharqdan uchib kelgan qushda ko’raman,
 Naqshi gul ko’ylakda va sur papoqda,
 Sharob shishasida, marmar ravoqda,
 Achchiq murch solishgan oshda ko’raman,
 O’smalar qo’yligan qoshda ko’raman.
 Men o’zbek she’rinin to’qqiz vaznida
 Sening dostoningni ohangga soldim,
 Qissaga keskinlik bermoq jazmida
 Baxshi bisotidan o’lchovlar oldim.

Derlar, kam o'qilar uzun dostonlar,
Ayniqsa, sarguzasht oz bo'lsa agar.
Ammo yaxshii ko'rgan narsa tufayli
Kishi sergap bo'lsa bu u兹, mayli!
Oshiq o'z ishqidan so'ylasa, muqul,
O'yarki, hammaga sevgisi ma'qul...
Uzrim shu tarixa, aziz kitobxon,
Sergap bo'lislighim suyganimdandir.
Toshkent taqdirda kelajak ayon,
Dilda kelajakni tuyganimdandir.

Kuyladim, o'n sakkiz bobda — qo'shiqda,
Va Toshkentroma "ga qo'ydim so'ng nuqta.

1957
Xorazmshoh — Xorazm shoh.
Jaloliddin Manguberdi — uning o'g'li.
Sultonbegin — shohnning qizi, Jaloliddinning tug'ishgan singlisi.
Amir Badriddin — Samarqand hokimi, Sultonbeginning qaylig'i.
Temur Malik — sardor. Xo'jand hokimi.
Elbors pahlavon — cho'pon.
Muhammad Nasavy — tarixchi, Jaloliddinning kotibi.
Ona — Jaloliddin va Sultonbeginning onasi.
Imom Shahobiddin Xevaqiy.
Yaroqbek — Badriddinning mulozimi.
Chingizzon — mo'g'ul xoqoni.
Qodog'on no'yon — Chingizzxonning sarkardalaridan.
Devona chol, sipohlar, bozor ahli, saroy xonimlarli, kanizlar,
mo'g'ul askarlar.

Voeqa XIII asming birinchi choragida bo'lib o'tadi.

JALOLIDDIN MANGUBERDI

Besh pardali tarixiy fojia

Qatnashuvchilar:

Sulton Muhammad Alovuddin Xorazmshoh — Xorazm shoh.
Jaloliddin Manguberdi — uning o'g'li.
Sultonbegin — shohnning qizi, Jaloliddinning tug'ishgan singlisi.
Amir Badriddin — Samarqand hokimi, Sultonbeginning qaylig'i.
Temur Malik — sardor. Xo'jand hokimi.
Elbors pahlavon — cho'pon.
Muhammad Nasavy — tarixchi, Jaloliddinning kotibi.
Ona — Jaloliddin va Sultonbeginning onasi.
Imom Shahobiddin Xevaqiy.
Yaroqbek — Badriddinning mulozimi.
Chingizzon — mo'g'ul xoqoni.
Qodog'on no'yon — Chingizzxonning sarkardalaridan.
Devona chol, sipohlar, bozor ahli, saroy xonimlarli, kanizlar,
mo'g'ul askarlar.

BIRINCHI PARDА BIRINCHI KO'RINISH

Samarcandda Sulton Muhammad Xorazmshohning muhtasham saroyi, Sultonning o'z qizi Sultonbegimni Samarcand hokimi Amir Badriddinga chiqarish to'yi. Xorazmcha kiyngan qizlar qatorida kelin — Sultonbegin, Samarcandcha kiyngan yigitlar qatorida kuyov — Amir Badriddin o'tirar edi. Bir yoqda hofizlar, mashshoqlar, raqqostar, soqiylar.

Kelinga qarab qizlar yallasi.

YALLA

Vasli aro lahza huzur ko'rgali,
Xatti jamoliga xiroj bergali,
Xoki qadam joyiga ko'z surgali,
Bir qaramoq shuncha gunohni hali?
Ahli jahon bo'ldi zabun, yali-yali,
Ishqi yana bo'ldi fuzun, yali-yali!

Bizni yana shuncha unutmoq nechun,
Hajring aro g'ussani yutmoq nechun?
Seygi debon o'zgani tutmoq nechun?
G'urbat aro bizlarni otmoq nechun?
Sohbi baxt aylar iloh, yali-yali!
Shoh qizi Sultonbegin, oh, yali-yali!

Balki kuyov ko'nglini shod aylabon,
Seygi tuni va'dani yod aylabon,
Nag'mayi navzodni murod aylabon,
Bir chaqaloq har yili bas, yali-yali!
Yilda biri hech ko'p emas, yali-yali!

Yilda biri hech gap emas, yali-yali)
(*Jaloliddin va Nasaviy kirib keladilar*)

Maddoh

Assalom, davlatpanoh, hazrat Jaloliddin, yasha!
Assalom, davlatpanoh, hazrat Jaloliddin, yasha!
Mangulik birla yasha, yo Manguberdi, marhabo,
Xorazmshoh davlati bo'lgay muzaffar doimo!

Hamma

Assalom, davlatpanoh, hazrat Jaloliddin, yasha!
Assalom, davlatpanoh, hazrat Jaloliddin, yasha!

Badriddin

(*kelinga*)

Xayolingiz ishqida go'yo devona,
Qalbin ichra tutdingiz shunday bir xona,
Unutdim men o'zimni, elni, mansabni,
Vijdonimni, diyorni, din-u mazhabni!

Sultonbegin

Sevgi qildi shunchalik parishonxotir
Unday bo'lsa bo'layin men ham xavotir,
Tag'in sevgim tufayli unutmang meni!

Badriddin

Nomimni ham unutsam, unutmam seni!

Jaloliddin

Oling, do'stlar, bodani kechikmay shu dam,
Boda oqar xonaga sira yog'mas g'am!

Sultonbegin og'asiga may uzatadi. *Jaloliddin* o'ziga xos joyda o'tiradi. Yonida Nasaviy, *Xorazmshoh* o'z vazir va a'yontari bilan kirib keladi. Hamma ta'zim qiladi. Shoh taxtga o'tiradi. Soqchilar va maddohlar shoh huzuriga borib madhiya aytadilar.

Maddohlar

Assalom, ey Xorazmshoh shahriyori — purviqor,
Bir qo'llingda ganji olam, bir qo'llingda zulfiqor!

Oiblayi olam tasadduo, yo amiraldo'minin!
Davlatində mustaridir ahli islom, ahli din.
Tangrining olam aro soyasidursan, hukmdor.
(Kuyov va ke'in kelib shohga ta'zim qiladilar)

Xorazmshoh

Parvardigor menga aylab ulug' inoyat,
Besh iqlimda qura oldim shonli bir davlat.
Lashkarimning savlatidan titraydi jahon,
Xalifai Bag'dod menga bosh egar al'on.
Taxtigohim poygahida g' urlar, afg' onlar,
Tiz cho'kdilar qaro xitoy, saljuq, naymonlar,
Shafqatimg'a sig' inmoqda bir yoqda Iroz,
Yonboshimda Hind-u Panjob, bir yoqda Qipchoq.
Bir puflasam irg' ib tushar shohlarning toji,
Karvonlarning tashigani xazinam boji.
Saltamatning andishasini o'ylaymiz keyin,
Susaytirmay davom eting qizimning to'yin!
(Raqqosalalar o'yinga tushadilar, Xudoychi kirib keladi)

Xudoychi

Chingizzondan kelmish elchi!

Xorazmshoh

(qaltrab)

Kira qolsinlar!

(Xudoychi chiqib ketadi.)

(o'zicha)

Oh, yana bu badbashara, jinlar, mal'unlar!...
Dashti Qipchoq sahrosida besh yil ilgari
Jang qildim, mo'g'ul xuddi shayton singari.
(Qo'rinqchili qiyosalarda mo'g'ul elchilari kirib keladi)

Elchi boshlig'i

Ullug' xoqon Chingizzon
Yubormishlar bir farmon:
Xoqon bir-u jahon bir,
Xoqonimiz jahongir.

Taslim bo'lib xoqonga,
Boj to'lang Chingizzonga!
Bo'lmasa jang-u jadal,
Boshlanadi shu mahal!

(Xorazmshoh ikkilanigan holda o'yga botadi)

Jaloliddin

(shohga yaqinlashib)

Javob ber, shahanshoh, kutmasin ular,
Kutirsak qo'rqishga alomat bo'lar!
(Badriiddin kelib to'r dan joy oladi)

Xorazmshoh

(dadillanib turadi)

Hech kimga bo'ysummas xorazmshohlar,
Mo'g'ul o'g'risimi menqa barobar
Yo'qoling, yo'qoling, bedin majuslar,
Egam bo'lmoqchilar shu benomustlar!...

(elchilar chiqadilar)

Qulasa birgina qal'ama devor,
Ostida ming Chingizzon bo'lur xokisor.
Qani, nima deydi ahli maslahat?

Jaloliddin

Qonlarni qon birta yuvarlar albat,
Bag'oyat zo'ravon g'anmdir Chingizzon,
Bunga ko'z yummayin rostin bilingiz.
Dedingiz, qulasa qal'amda devor,
Ostida chingizlar bo'lur tor-mor.
Lekin u yotmaydi devor ostiga,
Yo'l qilib chiqadi qal'a ustiga.
Vayrona ostida halok bo'Imas ul,
O'zi vayronalar yasaydi mo'g'ul.
Zinhor qal'angizga yaqinlatmang hech,
Yiqilsa poytaxtlar, omad qolur kech.
Sirdaryo bo'yida bor kuchingizni —
Musht qilib qaytarang qonli Chingizzonni!

Xorazmshoh

(asabiy)

Amir Badriddin!

Badriddin

Hayronman shunga,
Hayronman valiahd Ialoliddinga.
Olam shahanshohga tom kamarbasta,
Bu nima... Chingizzxon-u Chingizzxon... payvasta?
Cho'llarning bo'risi sherga ne qilur?
Behayo bir gado elga ne qilur?
O'ttiz yil damo-dam qiblay olam,
Xasmlar qasdini qiboldi barham.
Chunki shioridir: tavakkal — Olloh.
U Tangri soyasi, udir zibballoh!

Xorazmshoh

Imom Shahobiddin

Imom

Ahkomi — Qur'on

Buyurmish: Vatanni hifz ayla har on,
Hadisda Muhammad rasul-zishon
Debdi: "Xubbil — Vatan minal — imon!"
Dushman majusiydir, bedin, budparast.
Musulmonobodga aylamishdir qasd.
Unga bermoq kerak hoziroq shikast,
Hazrat valihahning taklifi xo'p mos.

1-vazir

Fikri ojizonam: qiblay olam,
Afg'on tuprog 'ida askar bo'isa jam,
Bu yerda har qal'a o'zi jang etsun,
Dushmanni charchatib holin tang etsun.

2-vazir

Yovga ko'rinnmaslik hunar dunyoda,
Qo'shimi jam qiling Amudaryoda.

Xorazmshoh

(o'midan turib)

Eshitting amrimni... Mulohaza bas!
Hozir jangga kirmak aqlidan emas!
Ko'pdır mamlakatda keraksız cho'llar,
Yov kelib yetguncha ochidan o'lar.
Yovga raddibadal qilgay har qal'a!
(Badriddinga)
Samarqand qal'asi sizga havola!

Vazirlar

Ko'p dono qaror, taborakallo!

Xorazmshoh

(o'turib)

Men jangdan qochmayman, Tangridir guvoh,
Ammo qumloq dashtda urushsak agar,
Mo'g'ulko'p, ozor tortadi lashkar.
Yalmog'iz mo'g'ul shum, yotog 'idir qum,
Ichgani qimizdir, taomi zaqqum.
Men ko'rdim ularni Dashti Qipchoqda...

Jaloliddin

Shahanshoh, bor edim men ham u chog'da:
Dashtga sipoh tortib yaroqli, o'qli —
Bosgandi Jo'jixon — Chingizzonning o'g'il,
Siz qo'lga tushmakka sal qolgan edi,
Xossa askaringiz qamalgan edi.
U chog' qilichimning damini o'pib,
Otlanib hamлага boshladim chopib,
Shahanshoh, u yog'i yodingizdamii!

Xorazmshoh

Najotni yozgandi Tangri qalamı.

Nasaviy

Mashhurdır sardorning shu qilgan ishi,
El deydi: "Mo'g'ulni ochirgan kishi".

Badriddin

(Nasaviyga)

Ne kerak tarixdan o'qimoq qissa,
Taxtigoh qachondan bo'lmish madrasa?

Xorazmshoh

Bas qil, maqtanmojni, Jaloliddin, bas!

Jaloliddin

O'zingiz guvohsiz, bu yolg'on emas!
O'tmish bu sarguzasht Dashti Qipchoqda,
Yovni quva oldik cho'lida, qumloqda!

Xorazmshoh

Odamzod umrida ming sarguzasht bor,
Hammasin eslamoq, aytmоq ne darkor?
Buyrug'im buyruqdir, boshqa gap bekor...

Jaloliddin

Bizning xonadonga bu nomus, bu or,
Taxtnishin bo'lgandan suluhratda,
O'lkaga bo'laylik sarvar ofatda.
Emas Vatanimiz Xorazm faqat,
Kunchiqar tomonda Sirdaryo sarhad.
Buyuring, sipohga bo'lay sarkarda,
Safarda tug'ildim, o'sdim egarda.
Ollichim hassadir, tulporim o'rtoq,
Menga koshonadan chodir yaxshiroq,
Qo'shin bering menga,
boshlay jang-u jahd,
Shahanshoh noyibi, menman valiahd.

Badriddin

(shoh qulog 'iga)

Maqtanar men shohni qutqazdim deya,
Siz hayot, u taxtga bo'lmoqchi ega!

Xorazmshoh

Itoat..., haqqimdir otalik, shohlik!
Bu qanday sarkashlik, qanday gustoqlik?

Jaloliddin

Otamsiz vallomat va shahanshohim,
Go'daklik chog'imdan pushtipanohim.
O'sdim bu hayotda poyama-poya,
Endi men yurtimni qilay himoya.

Xorazmshoh

U qanday himoya?! Barhayot-ku, shoh?

Jaloliddin

Himoya qilmasa u xoh-u noxoh...

Xorazmshoh

(g'azab bilan)

Sen emas valiahd... shu kundan boshlab
Qarorim qat'iyydir, o'zgarmas matlab!

Jaloliddin

(tojni taxt oldiga qo'yadi)

Kishi tug'ilmaydi boshda toj bilan,
Tug'illar erklikka ehtiyoj bilan,
Boshimming tojiddir onamga qasam!
(ketadi)

Imom

Shahanshoh, shahanshoh, qiblayi olam,
Turkiston eliga cho'kdirmang alam.

Mo'g'ulni ochirgan kishi — shu kishi,
Faqat shu Jaloldan qo'rqr ul vahshiy.

Ayvondan bir guruh xotinlar yo'rgakda bir bolani olib o'tayotganida
Xorazmshoh uni imlab,

Xorazmshoh

Bas, imom, valiahd o'zlig' Qutbiddin,
Mening kenja o'g'lim. Itoat qiling!
(Vazirlar u tomonga qarab ta'zim qilishadi)

Nasavyiy

(o'zicha)
Birovning davlatin olarkan Xudo,
Dastavval aqlidan qiladi judo.

Shohni **Badriddin** qo'lliqlagan holda vazir va a'yonlar chiqib keta-
dilar.

(orqalariidan Badriddinni imlab)

Chirkka o'xshaydi bu qo'lliqtayoq,
Nasibni qaratangki, bitta chaqaloq
Va yana aljirab qolgan qaysar chol,
Sohibi farmonlar... Taxt esiz, uvol!
Ko'p yillar men yozdim tarixi zamон,
Ko'r ganim, bilganim qayd etdim hamon.
Taxti olly topdi xorazmshohlar,
Falakka rashk berdi baland dargohlar.
Ammo boshga tushdi yomon tushkunlik,
Shohning donoligi bo'ldi uch kunlik.
Nifoq-u nizolar tushdi o'rtaga,
Girdobga botmasak, yorab, ertaga:
Agar bo'lmasaydi Jalol olanda,
Qudrat bo'lmas edi shu qo'l, qalamda.
(Jaloliddin kirib keladi)

— Shahzodam,
bu ishdan bo'l mangiz g'amgin,
Betoj ham siz — sardor, siz — Jaloliddin!

Jaloliddin

(beparvo)
El-o'lka sog' bo'lsin, toj kelib ketar!

Jaloliddin

Fursat oz, so'y lagin tez, xazinador,
Bersin lashkaringga bir yuz ming dinor!
(Nasavyiy chiqqadi)

Odamlar o'yлarki, bo'lmasa tojim,
Qalandar bo'lurnan, qolmas ilojim.
Bechora otam-chi, fahmi shuncha ko'r?
Bilmaski shu bilan taxtga qazir go'r...

Otami azizdur yoki saltanat?
Ko'p og'ir masala... Kufirdir albat —
Otaga qarshi ko'tarmak isyon.
Ayyom xatarnokdir, bu menga ayon.
El uzra bulutlar kelsa havodon,
Maydonga kirmaymi qo'rqib balodan?
Yo'q, **kel'sin** bo'ronlar, yog'sin toshlar ham,
Bular nazarimda sahargi shabnam.
Bu gal o'xshamaydi otaga o'g'il,
Mulk ahli mo'g'ulga sira bo'lmas qul.
Tug'ildim qilich-u qalqonga xushtor,
Bo'lay g'anim uzra misoli ajdar.
Hazar aylamasman devdan, shaytondan,
Hatto Azroildan, hatto Yazdondan.
(xazinador va Nasavyiy kiradilar)

Xazinador

Buyurgansiz lashkarlarga bir yuz ming dinor...

Jaloliddin
Qani, qani?

Xazinador
Kechirgaysiz!

Jaloliddin
Nima arzing bor?

Xazinador
Valiahlik mulni kerak, u sizda emas!

Jaloliddin
(*chakmoni ostidan qilichini ko'rsatib*)
Mana muhrim...
Farmoninga shuning o'zi bas.

Nasaviy
(*qahqaha bilan*)
Ammo sizning muhringizning odati boshqa,
Farmonlarning tagigamas, bosilar boshga.

Jaloliddin

Bo'lmasa-chi! Xazinaning bor-yo'g'i, ichi,
Muhr bilan topilganni deysan, tarixchi).

Mahram

Jaloliddin
Darhol kelsin!
(*mahram chiqadi*)
Otaxonim, qadimgi cho'pon
(*Elbors pahlavon kiraadi*)

Jaloliddin
Darhol kelsin!

Jaloliddin
(*uni quchoqlab*)
Ko'rganimga o'n yil bo'ldi sizni, otaxon!

Elbors
Siz shahzoda, biz Sirdaryo bo'yida cho'pon.

Jaloliddin

(*kulib*)

Qo'ying, qo'ying Sirdaryoning yashil, ozoda
Oirg'og'ida chaman ichra bitta shahzoda —
Otni qo'yib o'tloqlarga nay tinglagani
Sira esdan chiqarmikin? O'sha nay qani?
(*Elbors cho'ntagidagi nayni ko'rsatadi*)
Qanday xabar bilan kelding, pahlavon og'a?

Elbors

Podamizga kirgan bo'ri bag'oyat katta,
Mo'g'ul bosdi Sirdaryoni...

Jaloliddin

Hoy, keksa cho'pon,
Bo'ri kirar bo'shang bo'lsa albat posbon.
Darhol Temur Malikka elt bizdan farmon,
Xo'jand bo'lsin, yovga qarshi bahaybat qo'rg'on.
Nayni bekit, yoniga ham bitta xanjar os,
Cho'pon ota, hunar ko'rsat, bo'rilmni bos!

Elbors

Badaxshonning ko'ppagiday bo'lib men yovuz,
Yirtib, bo'g'ib tashlagayman yovni ayovsiz!
(*bir guruh mingboshillar va siphohlar kirib keladi*)

Jaloliddin

Do'stlar, birga edik doim to'yda, azada,
Yana endi hamsaf bo'lsak qonli g'azoda!

Badriddin

Xorazmshoh bo'lmish sizdan bag'oyat diltang,
Yaqin biron sirdoshingiz qildimi nayrang?
Sir bermangiz har kinga ham...
(*Elbors pahlavon kiraadi*)

Jaloliddin

(*kirib*)
Ha! Bu qanday sirdir?

Badriddin
Taxt haqida balki biron tashvish yoki qasd...

Jaloliddin
Xato! Amir! Jaloliddin emas taxtparast.

Badriddin
Bo'Imasa, bu qo'shin — "lashkar".

Jaloliddin
Niyatimiz bir,
El-o'l kamiz Chingizzong'a bo'lmasin asir.

Badriddin
Samarqandda g'avg'oga yo'l qo'ymayman sira.

Elbors
(*Nasaviyga*)
Ana kuyov! Istar kelin bo'lsin asira.

Badriddin
Ma'lumingiz Samarqandda menman hukmron,
Bir qal'ada bo'lmas ikki sohibi farmon!

Nasavy
(*Elborsga*)
Ko'p mehmondo'st hokim ekan bu amir, yohu!
Darvozaga kelgan yovga peshvoz chiqar u.

Jaloliddin
Viloyatni kim saqlasa udir hukmron,
Ko'kragimga oshnodir selob-u bo'ron.
Bu qasrning sohibi siz, mayli, bemalol
O'tiringiz devon ichra va lekin Jalol —
Shu og'oyni sipohlar-la jangga tayyordir,
Kim eliga g'amxo'r bo'lsa elunga yordir!
Sizga izzat va ehtirom, to'smangiz yo'llim,
Sipohlarning xil'atidir men uchun so'lim.

Va bilingki, sipohlarning bir odati bor,
Jang chog'ida sustkash yorni biz deymiz ag'yor,

Badriddin
Qaynag'aning domadiga shumi hurmati?
Bu pajimurda sarbozlarining ketmish omadi.
(*chiqib ketadi*)

Jaloliddin
Kim charchagan, kim kamarni beldan yechmoqchi,
Ochiq aysin, kim sipohiy ishdan kechmoqchi?
(*sukut*)

Har kim taylor qilib kutsin o'z askarini
Intizorda, men berguncha jang xabarin!

Mahramlar piyolalarda may keltiradilar. Har kim qo'lida piyola, tik-
ka turgan holda.

Jaloliddin
Oling, do'star!

Pahlavonning nayiga moslab yalla.
(*sipoholar yallasi*)

Sipohiylik har kishining ishi emas,
Nomard yovga yalinganlar kishi bo'lsa,
Bu dunyoda lochin shohlar qushi emas.
O'g'ling bor-ku, ona qalbing tinsun, shunday!
Ko'zlaringga biroz uyqu qo'nusun, shunday!

Biz sipohlik diyoriga chiqqanlarmiz,
Noinsoflar xonasini yoqqanlarmiz.
Noinsoflar xonasini yoqib, yiqib,
Insif ahli — jononlarga yoqqanlarmiz.
Dilbaro, xayr, yigitlar ot minsun, shunday!
Dushmanlarning boshlari ham sinsun, shunday.

Hammasi mayni ichib, piyolalarini birdan yerga tashlab sindiradilar.

IKKINCHI KO'RINISH

2-soqchi

Oydin tun. Xo'jand yonida, Sirdaryo o'tasida bir orol. Bu yerda Temur Malik bir to'da askari ila bir necha oydan beri mo'g'ullar bilan kurashmoqda. Gulxan atrofida bir guruh soqchi isinmoqda. Sahna orqasidan nayning toyushi eshitiladi. Soqchilar naydag'i kuyga moslab qo'shiq ayitishadi.

Soqchilar qo'shig'i

Baland uchgan oq laylak,
Birpas menga boq, laylak,
Buxoroning yo'lida —
Yor eshigin qoq, laylak!
Baland uchgan oq laylak,
Ko'ylaging — shohi ko'ylayk!
Laylak, Urganch yetarsan,
Yorga salom eltarsan,
Yor eshikni ochmasa,
Sarszon bo'lib netarsan!
Yo Bag'dodga ketarsan,
Yo Sayhunga qaytarsan
Qiyg'och uchgan ko'k kaptar,
Bunda birpas cho'k, kaptar.
G'arib ko'nгlim intizor —
Intizorlik bas, yetar!
Qiyg'och uchgan ko'k kaptar,
Yordan keltir xat-dafstar!

(Elbors pahlavon qo'lida nay bilan sahnadan o'tib ketar ekan, soqchilar uni ko'rib qoladilar)

1-soqchi

Pahlavon, hisobing nechaga yetdi?

Elbors

Kecha rosa bo'ldi bir yuz-u yetti
Hali qo'ylarimning sonicha emas,
Mo'g'ul hali menga uch yuz kalla qarz!

(Elbors o'tib ketadi)

(Uning orqasidan)

Nodon-u hisobda munajjimday soz!
(Orqadan vahima belgisi. Bong)

Tovushlar

Suvdan xabar 0-ol, sarbo-ozi!

Soqchilarning har qaysisi har yoqqa tarqalishib ketadi.

Temur Malik o'z mahrami bilan kiradi.

Mahram
Mijja qoqmay yurdingiz uch kecha qator,
Mizg'isangiz ozgina deyman, yo sardor!

Temur Malik

Mayli, o'tsin tun-u kun, haftalar o'tsin,
Mayli, quyosh uxlasin, yulduzlar yotsin.
Ko'p o'tmay yotog'iga borsin yuvosh oy,
Allasasin cho'llarni bualdoqchi soy.
Balki suvda uxbaydi betinch baliqlar,
Ammo tingla, daryoda josus qayiqlar!
Girdoblamning qo'yinda yo'q menga timim,
Chunki kutar sarkardam, jaloliddinim!
Uyqu harom otaga, xavf chog'i har dam,
Uxla, o'g'lim, shahringda mening uchun ham.
Chunki yig'lar tutqinda uyqusiz Xo'jand!
Bir muddat Xo'jand qal'asining oydindagi
ko'rinishiqa qarab turadi.

Ko'hna Xo'jand mag'rurdir asoratda ham,
Uning qaddin bukolmas o'lim va alam.
Oh, ne uchun bu orol emas bir qayiq,
Toki ulug' sohilga suzib chiqayik.
Asov, ildam Sayhunning baxtli suvlari,
Xorazm dengiziga qovushar bari.

Qo'shilib to'linlarga kurashar, qaynar,
Quchib Jayhun suvlarin jo'r bo'lib o'ynar.
Ammo men-chi, yiroqda Jaloliddindan,
Vatan ichra g'aribman, vovaylo, attang!
Biroq men barqarorman qoyaday shunda,
Garchi uch yuz sarbozim qolmish qo'shinda
Yov o'rdusi uch oydir shunda ovora,
G'anmlarning ko'ksida ochdim ko'p yara.
Bir kishi qolganda ham, axir yengamiz,
Shu shart bilan sipoh, deb tug'di onamiz!

Temur Malik ketadi, soqchilar kela boshlaydi.

1-soqchi

(*qornini ishqab*)

Hay Jo'ra, somsaga qalaysan hali?

2-soqchi

Gapirma, kishining chiqadi jahli!

1-soqchi

Bo'lmasa manliga toqatlari qalay?

2-soqchi

Qo'y sang-chi. Shu topda kamay.

1-soqchi

Bo'lmasa ta'bingiz tortarmi kabob?

2-soqchi

Sirdaryo suvidan qilayin ardob?
(*qornini ishqaydi*)

1-soqchi

Jim... Daraxtning orqasida kim?
(*noma'lum kishi — tabib kirit keladi*)

Tabib

Musulmonlar, menman bir hakim,
Bedavolar dardiga g'amgin!

2-soqchi

Qanday chiqding orolga, aytgin?

Tabib

Pusib keldim men mo'g'ullardan,
Chetlab o'tib qorovullardan —
Bir qayiqqa otlandim darhol,
Bilar edim — yaqindir orol.

1-soqchi

Ne gaplar bor?

Tabib

Bechoralarim,
Necha oylab ovoralarim!...
Jaloliddin o'lgandan beri
Urushmoqdan ma'nii qolmadni...

Soqchilar

(*hayron*)
Jaloliddin o'lgandan beri?..

Tabib

Ha, bandalik!

2-soqchi

Yolg'ondir bari!

Tabib

So'zim haqdir, Xudovand guvoh,
Jangda ortiq qon to'kmak gunoh!
Ayolmandsiz, serqayg'u, yo'qsil,
Och sarbozdan afzaldur to'q qu!

Kim bo'ysunsa xoqonga darhol,
Izzat topar, mana, men misol.

2-soqchi

Tabibmisan, og'zingga qara,
Bilib qo'ysi, tiz cho'kmas sira
Temur Malik sipohilar.

Tabib

Iahlingni bos, tentak, go'rso xta,
Ne bor shunda? Bog'mi yo g'azna?!
Non gadoyi — chekasiz faryod,
Kim ham sizni hozir qilar yod?
Mendan boshqa...

Soqchilar

Xo'sh, hakim ota?!

Tabib

Sarbozmiz deb bo'l mang go'l — sodda.
Bu orolda ko'k kaptarlar bor,
Ovlasangiz kabob ham tayyor,
Bu sir! Ammo bilmasin sardor!
Kaptarlarga u ko'p ixlosdor!

2-soqchi

Kaptar qilar mozorni tavof,
Gunoh bo'lur go'shtidan kabob!

Tabib

Och qolishni kim deydi savob?!

Tentak bo'l mang, botmay hanuz oy —
Borib ovlang, tayyor-ku, o'q-yoy,
Yana biling ovlangsaga agar,
Oyog 'ida halqali kaptar,
Kaptarbozlar kaptaridir ul,

Go'shti bo'lur ko'p shirin, ma'qul,
Darthol boring!

(soqchilar ketishadi)

Ko'p shirindir kaptarning go'shti!
Bu go'llar ham qo'limga tushdi.
Yaroqbek deb bu ovoraliq,
O'g'lim bo'lgay hokim va malik!

(ketadi)

Soqchilar kirishadi, Temur Malik sarbozlarga yuzlanadi.

Temur Malik

Qarang, yigitlar:
Suvdan eshkak sadosi kelar,
Yov chiqmasin bunga mabodo,
Har go'shada bo'ling omoda!

1-soqchi

Malik sardor, masala ayon,
Jang ne kerak, ayt, bundan buyon!

Temur Malik

Kim ekan u, nomard boyaqish,
Lochin aro yurgan, hoy, boyqush?

1-soqchi

Jaloliddin, azamat rahbar
Shahid, shahid bo'ldi, deydarlar.

Temur Malik

(hayajon bilan)
Jim... Kim aytmissi bu shum xabarni?

O'zi ham boshini ushlab qoladi. Shu paytda sahna orqasidan Elbors pahlavonning nayi eshitiladi. Temur Malik qayrilib chuuqur taassurot ichra mayni tinglaydi va birdan:

Bu gap yolg'on...

Elbors

(*kirib*)

Men ham bo'lay bu ishga sherik,
Hisobimda yuz yetti o'lik.

U kuylarni, u qamish naydan

Eshitgandim jalol ila men

Sirdaryoning labida bir dam,

Necha yillar bundan muqaddam.

Yosh bir o'smir edi shahzoda,

Ammo nayni tinglar asnoda

Turib, qarab osmonga u,

Degan edi: — Yashaydi mangu

Shu qamish nay, uning kuylari,

Shu erkin xalq, Sayhun bo'yulari!

Yo'q, shahzoda hamon tirkdir,

Har qayoqda bizga sherikdir!

Qanday sherik, yo'q dom-u darak?

Boshqa ovoz

Bundan buyon jang ham ne kerak?

Soqchilardan biri

Qanday sherik, yo'q dom-u darak?

Boshqa ovoz

Bundan buyon jang ham ne kerak?

Temur Malik

(*nay chalinaai*)

Eshitinglar u sas nimasi?

Sarkardaning o'lmas nafasi.

Jalol yashar, demak jang yashar,

Yurt jangida o'lmaydi bashar.

Biz qasamda keltirdik qulluq,

Jaloliddin buyrug'i — buyruq!

U, tur debdi, turamiz shunda,

Ikki farmon bo'lmas qo'shinda.

Kim yon bersa biron qutquga

O'zin bo'g'ib tashlayman suvga!

(*1-soqchi sekin chiqadi*)

Boray desa kim yurtga tirk,

Yovni qirib yasasin ko'pri.

Elbors

(*kirib*)

Men ham bo'lay bu ishga sherik,
Hisobimda yuz yetti o'lik.

Temur Malik

(*jaloliddin o'lmas dunyoda*)

Hamma

Hech o'lmaydi bizning shahzoda...

Temur Malik

Kim bo'htonchi, u ahli fasod? (1-soqchi tabibni ushlab olib keladi)

1-soqchi

Sardor, shudir "oliv xizmat zot!"

Elbors

(*hujum qilib tabibni ushlamoqchi bo'ladi*)

Shu baqani menga beringiz,
Hisob bo'lgay bir yuz-u sakkiz.

Temur Malik

(*uni to'xtatib*)

To'xta, Elbors!

(*tabibga*)

So'ylagin, sen kim?

Tabib

(*qo'rqa-pisa*)

Janob sardor, men eski hakim,
Shu orolda yig'aman goh-goh,
Doru uchun maysa-yu giyoh.

Elbors

(*o'zicha*)

Ko'p sotqingga o'xshaydi ko'zi,
U shaytoni lainning o'zi.

Temur Malik

(istehzo bilan)

Xo'sh,
qanaqa dorilaring bor?**Tabib**Sizga loyiq ma'jun bor, sardor,
Bir ichsangiz bir haftaga bas,
(bir shisha beradi)

Taom, uyqu hojat ham emas,

Elbors(shishani tortib olib tabibning
o'ziga cho'zadi)Avval ichgin sen o'zing bir bor,
Bizning elda shunday odat bor!**Tabib**

(qaltrab, cho'kib)

Sardor... Sardor...

(polvonga)

To'xtagin, to'xtat!

ElborsDorung qalay, tabib go'rs o'xta!
Taom, uyqu kerak emasmish!
O'zing uxla endi, kalamush!**Tabib**Sardor, afv et, olivjanob bo'l,
Buyurgandir bu ishni mo'g'ul,
Sizga ma'jun deganim zahar!**Elbors**Ana xolos,
tabib bachchag' ar.**I-soqchi**Doring zahar bo'lsa, sharmanda,
Kaptar go'shiting zaqqum ekan-da!
Ol, o'zing ye.(etagi ostidan bir kaptar
jasadini tashlaydi)Boshqa bir soqchi
Ol, o'zing ye, pes!
(u ham bir kaptar jasadini tashlaydi)**I-soqchi**Bu muttaham, biz bo'lsak — bees.
Kaptar go'shti shirin bo'lur deb
Bizga qutqu qildi bu tabib!"
Joningizga qasd aylabdi u,
Qaydam? Kaptar go'shti ham og'u?...**Elbors**(birdan yerga tashlangan bir
kaptar jasadini olib)Sardor, sardor, ana shu kaptar...
Ana halqa, tanidim, yetar!
Tentak emas, bu tabib, ayyor!**Temur Malik**

Ochiq so'zla, bunda ne sir bop!

ElborsSamarcandga qilarkan safar,
Bu oroldan besh-o'n kabutar —
Shahzodaga sovg'a eltgandim,
Oyoqlariga halqa ilgandim,
O'sha halqa!**Temur Malik**
Chiqar halqanii...

Elbors kabutar oyog'idan halqani chiqaradi. Uning tagiga o'ralsan
bir xat chiqadi.

(sevinib)

Menga ber-chi... menga ber, qani!

(o'qiydi)

"Temur Malik, salom-u alik!

Muhrim: ixlos va birodarlik,

Uzib suvda mo'g'ul zanjirin –

So'l sohilga sarboz ko'chiring!

Sizga ma'lum shikorgoh tomon

Hozir xavf-u xatardan omon.

Band bo'lmoqlik u yerda tamom,

Menga tez yet, – hosili kalom,

Sipohlarga siphohiy salom,

Jaloliddin".

Hamma

Alik salom!

Temur Malik

(xatni o'pib buklarkan,

hamma sarbozlar hayajonda)

Bu ish na tushdir va na karomat,

Sarkardadan jonli alomat.

(tabibga)

Jaloliddin haqida bo'hton –

Sen to'qiding, tabib, badgumon

Tabib

Yolg'on edi. Tamoman yolg'on!

Elbors

Sen tabibni yoki kaptarboz?

Tabib

Insif qiling, eshitting biroz,

Men begunoh tabib, savdogar,

Majbur etdi meni mo'g'ullar.
Topshirdilar qo'llimga zahar,
Tilinga ham yolg'on, shum-xabar.
Buyurgandi menga no'yondar;

Orol uzra nomachi kaptar
Uchrab qolsa ovla va yo'qot,
Toki Temur Malik qolsin mot.

Temur Malik

Yurfurushga yo'q amm-u omon!

Tabib

To'xiang, sardor, bir sir bor... Al'on,
Oy botganda chiqmoqchi ular,
Tayyorlangan yuzlab qayiqqlar.
Sardor, valloh, yuragim toza,
Ketmoqlikka bering ijzoa!

Temur Malik

Sotqinlarga yo'q amm-u omon!

Tabib

Lutfingizga sig'inib hamon
Rost gaplamni aytdim birma-bir.
To'g'ri gapga uvol yo'q axir!

Temur Malik

Sening umring butun iflos, dog',
Yolg'onlarga chulg'angan har chog'.
Umring bo'yli qonli g'uboring –
Yuvolmaydi nochor iqroring!
Elbors, to'ldir bir yuz sakkizini!

(Elbors olib ketadi)

Tabib

(sahna orqasidan)
Faryod... Men-ku, islon, bu nega?

Elbors Cho' qingansan Chingizzon butiga,
Bu yoqqa yur, hoy, bir yuz sakkizi!

Temur Malik

(*sarbozlarga*)

Kunbotarga borib turingiz,
Xabar oling har bir sharpadan,
Suvni ko'zhang toshloq tepadan,
Mayli, chiqsin sohilga dushman,
Barcha qayiq kelguncha shoshmang!
So'ngra qirib mo'g'ulni birdan
Qayiqlarga hatlangiz yerdan.
So'ngra sohil, ulug' el, Xorazm!
Sarkarda deb qilg'usimiz azm.
(*soqchilar ketadilar*)

(*mahramga*)

Jaloliddin meni doimo
O'ng qo'llim deb qilardi nido.

Mahram

Zabardastdir qilichga o'ng qo'l!
Fotiham shu: sen ham sardor bo'l!
Uzoqda hayajon bongi.

Temur Malik

(*kulib*)

Fotiham shu: sen ham sardor bo'l!
Uzoqda hayajon bongi.

Ovozlar

Qayiqlar... Mo'g'ullar!

Temur Malik Chiqsin... Chiqsin!.. Chiqsinlar ular,
Bu yer yovga go'riston bo'lar.

Chirib keting bunda murdorlar,
Sohillarga chiqsin sardorlar,

Bir guruh mo'g'ullar sahnaga chiqadi, Pistrimdan satbozlar chiqb
urusha boshlaydilar, Qodog'on no'yon ko'rinadi.

Qodog'on no'yon

(*qilichini sug'urib*)

Endi o'zim holingni ko'ray!

Temur Malik

(*Labbay!*)

Ko'rmaklikka bir ko'z ham yetar!
(*o'q uzadi*)

Qodog'on no'yon

(*cho'kadii*)

La'natni mergan!
(*ingedfmoni*)

Temur Malik

Ko'rganiningni xonga ber xabar!

(*siyohlarga*)

Chiqqanlarni qilichdan o'tkaz,
Sarboz... o'zini qayiqqa yetkaz!..
(*keta turib*)

Kallasini uz!

Elbors

(*uzoqdan*)

Bu, bir yuz to'qiz!

PAR DA

Chiqsin... Chiqsin!.. Chiqsinlar ular,
Bu yer yovga go'riston bo'lar.

IKKINCHI PARDА

BIRINCHI KO'RINISH

Urganch... Xorazmshohning oliv qasri. Saroydan bazm va aysh-u
ishrat niodlari eshitilmoqda.

Hofizning ashulasi

Ofarin, ey Xorazmshoh, shahriyori purviqor,

Bir qo'lingda ganji olam, bir qo'lingda zulfiqor!
Qiblayi olan tasadduq, yo amiralmo'minin,
Davlatiningda mustaridir ahli islam, ahli din!
(ayvondan Sultonbegim chiqib
hovliga tushadi)

Sultonbegim

Oh, dildala tashvish bor, **ulug'** andisha,
Ilonlar ko'raman tushda hamisha...
Xabar yo'q, Badriddin ne bo'ldi ekan?
Daryoda qayiqman go'yo beyelkan.
Sevgini bir balo debdilar: bu chin.
Oh, xotin yuragi betinchdir, nechun?

Amir **Badriddin** yonida mulozimi Yaroqbek bilan maydon tomon-dagi darvozadan kirib keladi. Qo'lidagi sandiqchani ayyonga qo'yib, Yaroqbek qasriga kirib ketadi.

Badriddin
Malikam, farishtam, quyoshim, oyim!

Sultonbegim

Bu tushmi, yo o'ngni, rostmi iloyim?
Insofsiz, shuncha vaqt na xat, na payom,
Intizorlik mahv etdi umrimni tamom.
Endi sizga beray katta bir jazo...

Badriddin

Hukm sendan chiqsa,
dorga ham rizo!

Sultonbegim

Gunohingiz uchun sizga zo'r jazo:
Men bilan doimo bo'lmoqlik sazo...

Badriddin

(kulib)

Shunday jazo uchun men yana ko'p bor
Shu xil gunohlarni qilmoxqa tayyor!

Sultonbegim

Samarqand nechukdir, so'ylangiz darhol!

Badriddin

Chingizxon oyog'ida bo'ldi poymol.

Sultonbegim

Urush bo'lmadimi? Mar dallar yo'q midi?

Badriddin

Yo'q edi dushmanni yengmoq umidi.

Sultonbegim

Qal'ada bo'ldingmi so'nggi damgacha?

Badriddin

Chiqoldim qal'adan qorong'u kecha!

Sultonbegim

Azizim, yashirmang, jarohat bordir?

Badriddin

Yorga majruh bormoq biz uchun ordir.

Sultonbegin

(xafa)

Nima deb qildingiz Xorazm azmin?

Badriddin

Seni deb... Keltirgan sovg'an ham vazmin!

Ayvondagi sandiqchani olib, qimmatbaho toshlarni va gavharlarni ko'rsatadi.

Sultonbegin

Samarqand siynamni ilk ochgan shahar,
Sevgimni quttladi u yerda sahar.
Oh, eri yarasin silab bog'lagan
Baxtli kelinlarg'a hasad qilaman.
Oh, koshki shunchalar ziymatdan ko'ra
Keltirsang u yerdan bitta g'ishtpora!
Ne kerak Samarqand la'l'i, tillasi?
Rahmat derdim bo'lsa mo'g'ul kallasi.

Badriddin

Ayt, nega shuncha ham tajang bo'lmoqlik,
Vaslingga yetganda shunday bir qiliq!
Ana, boq, kokillar xuddi malika,
Naqadar yaratshar bu ziynat senga!

Sandiqchadan chiqargan bilaguzuk, gordonband va halqalarni ma-likaning o'ng qo'li, bo'yinlariga va qulog'iga taqib qo'yadi. Sandiqdan yana bir uzuk chiqadi, **Badriddin** uni tezda o'zi oladi.

Va lekin bu uzuk meniki, bu sir,
Anchayin sir emas, tilsimli sehr.
Menga bag'ishlagan ezgu bir ustoz,
Jangda taqsang, derdi, ishing bo'lur soz.

(uzukni yashiradi)
Biroz kul, malikam, ochil va sochil,

Sultonbegin

(sekin)

Sen erkin malika, men esa...

Sultonbegin

(sevinib)

Oh!.. Oh!..

Sultonbegin
Bu sirmi men bilay... sen hamda Olloh.

Sultonbegin

(o'zicha)

G'alati imolar, tavakkal Olloh!
Badriddin uni qo'lriqlab saroyga
kirib ketadilar.

Yaroqbek

(qasrdan chiqadi)

Otamni tashlagan Sirdaryosiga —
Yo'lqiy falakning har balosiga
Temur Malik ekan otam qotili,
A, men-chi? Dunyoning tentak sofildi!
(Badriddin chiqadi)

Badriddin

Yaroqbek, nega sen shuncha ham ma'yus?

Yaroqbek

Dardni ming aysam ham kamaymas, afsus!
Gumroh bir davrishday sizni pir dedim,
Beshni bir desangiz men ham bir dedim.
Amir, yuragini parchalar qasos!

Badriddin

(kulib)

O'zingni tiy, tentak, iahlingni sal bos,
Va'dasin umutmas amir Badriddin.
Manzilga oz qoldi, marraga yetding!

Yaroqbek
Topmog'im vojibdir Temur Malikni!

Badriddin

Qo'y deyman, qo'y deyman shu tentakkini.
Darbadar yurgansan dasht-u biyobon,
Ammo bo'l magansan aslo shikorbon.
Burgutlar boshlig'in otmasang agar —
Galasim to'zg'itma yuz yil shamollar.
Boshliqdan qasos ol, ammo yashirin,
Qo'lga tushmagaysan, hayot ko'p shinin,
Yana bil: xun olay degansan, taqsir,
Xanjamni kim bersa, senga baribir,
Ko'p bordir yovingga yov bo'lgan diligir!
(uning qulog'iqa pichurlaydi)

Yaroqbek
(xursand)
Ha... Ha, tushunaman.

Badriddin
Qasosni axtar —
Xaroba cho'llarda o'limdan battar.

Yaroqbek
Otamning xuni... Otamning xuni:
(chopib chiqib ketar)

Badriddin
Mo'ljalga yetkiz, baxt, ushbu o'qimni!

P A R D A

IKKINCHI KO'RINISH

Urganch. Bozor. Savdogarlar, dehqonlar, chorvadorlar, to'ralar, kosisblar, folbinlar, amaldorlar, mirzalar, mullabachchalar, domlalar, sarbozlar, massarabozlar... Yuruvcilar o'tasida turkistonliklar, Movarounnahr ahli, arablar, qipchoqlar, xitoylar, kavkazliklar, eronlar, hindular, slavyanlar, turkmanlar o'z qiyofalari bilan ajralib turmoqdalar. Bozor ahli o'tasida erlar qatorida ochiq xotinlar ham ko'rindi. Sozandalar soz chalib, massarabozlar o'yin-kulg'i qilmoqda. Qassoblar, bozor ahli va savdogarlar umumiy ashula aytadi.

Bozor ahli

(xor)

Poytaxti jahonda,
Xorazmshoh tomonda —
G'aroyiblar bor anda,
O'lmay desang armonda —
Urganchni bir ko'rib ket!

Bozorlar rasta-rasta,
Do'konlar ham payvasta,
Taom tayyor bir pasta.
Qolmay desang dilkasta —
Urganchda kayf surib ket!

Yigit va qizlar

(xor)

Xorazm eli dlinavoz,
Ko'llarida o'rdak, g'oz,
Qizlaridir ko'p tannoz,
Sevay desang biron yoz —
Urganchda bir turib ket!

Ajinabiy savdogarlar, sayyoqlar va karvonboshillar

(xor)

Aylandik olamaro,
Ko'p shahri azimaro,

Xaloyiq, odamaro
Qolmay desang g'amaro —
Urganchda bir yurib ket!

Bozorda har xil o'yin-kulg'i, masxarabozlik, suvchi bolalar suv olib
o'tib qichqiradilar.

Bolalar
Obizamzam, obizamzam,
Obi Jayhun!

1-chol

(suvdan ichib)

Jayhundan aylanay, bolam, sog' bo'lgin!

Bolalar

(o'tib ketadi)

Obizamzam, obikavasar!
Obi Jayhun, yaxday!

1-ajnabi

(suvdan ichib)

Amudaryo tabarruk,
nimasin maqtay?

Masxaraboz

Chingizzon haykalini ko'rsatuwchi bir qo'g'irchoqni olib kelib o'rta-
ga qo'yadi.

Bo'ji keldi, bo'ji keldi,
Chingizzon bilan Jo'ji keldi.
Bir esnabon ko'ray-chi,
Bazo'r kimning kuchi keldi?

Masxaraboz uzoq masofadan turib esnashi bilan qo'g'irchoq yiqila-
di. Kulgi. Bir necha qochqin hovlidib bozorga kiradi.

Qochqinlar

Musulmonlar, musulmonlar, ogoh bo'lingiz,
Buxoroni xarob qilib kelmoqda Chingizzon!

Xalq do'kon-bozorni berkitib qochadi. Bozor maydoni bo'shaydi.
Orqadan hofizing tanbur chalib aytg'an ashulasi eshitiladi.

Shom-u sharif labborasi mushtari, yo mushtari,
Ahli Qosqoz jubbasi mushtari, yo mushtari,
Buxoroyi sharif jomasi mushtari, yo mushtari.

Shoh jarchilari bozor maydonidan o'tib qichqiradilar.

Jarchilar

Eshit hamma odam, Shahanshohi olam,
Shahanshohi olam, Podshohi zam'on,
Podshohi zam'on, Homiy ahli imon,
Homiy ahli imon, Sultan ibi Sultan, ibn Sultan
Sultan Muhammad Alouddin Xorazmshoh,
Sohibi muluk va sipoh Irodayi shohonani
Irodayi shohonani Bayon qilgani
Arkdan chiqadilar.

Bozor maydoniga xalq to'planadi. Shoh orqasidan vazirlar, Badrid-din,
din, mulozimlar safar kiyimida chiqadilar. Saroy va haram ahli yo'ldan
o'tib turadi. Maydon o'rtasida shohga ko'chma taxt quriladi.

Xalq

Yo madad, yo shohl! Shafqat, davlatpanoh!

Xorazmshoh

Tinchlaning, ey xaloyiq, dunyodur fony,
Bu taqdiri ilohiy, amri rabboniy:
O'ttiz besh yil sultanan bo'ldi andisham,
Fuqaroga g'amxo'rlik shohona pesham.

Endi poytaxt ahliga katta dard keldi,
Allaqaydan odamxo'r bir nomard keldi.
Men lashkar to'plagani ketmog'im zarur,
Sizga bo'lsa itoat vazifa erur!

Xalq *(hayajon bilan)*
Bizlar-chi, podshoh!
Evoh, evoh!

Badriddin
Bu qanday bir sarkashlik... jim bo'l, jamoat!
Bu qanday gap, isyomni, yo'qa jaholat?
Xorazmshoh poytaxtin bosolmas Chingizzxon,
Fil o'mini bosolmas karkidon hargiz!
Eronda lashkar yig'ib qiblayi olam,
Buxoroda qilmoqchi dushmanni barham!

Xorazmshoh
Podshoh bir, Xudo bir, va'da ham birdir,
Sabr qiling xaloyiq, Xudo — sobirdur.

Xorazmshoh taxtdan turadi. Sipohlar yo'l ochmoqchi bo'lib xalqni
itara boshlaydi, xalq esa birdan yoppasiga yerga yotib yo'lni to'sadi.

Xalq
Qiblayi olam, qiblayi olam,
Jasadimiz ustidan o't, bosib qadam!

Bir yoqdan Xorazmshohning katta ulamolaridan imom Shahobiddin
Xevaqiy paydo bo'ladi.

Imom
Bu murtaglik, bid'atdir, tur, ey xaloyiq
Faqt Tangri taolo sajdaga loyiq.

Xalq asta-sekin tura boshlaydi, imom Xorazmshohga qarab.

Payg'ambar ham, choryor ham bo'ldi sarkarda,
Umr o'tkazib chodirda, jangda, egarda.
Charchadimi qo'lning g'azot jangidan,
Oyog'ingiz toldimi of-uzangidan?
Yo amiralmo'min onad kutmok bas,
Poytaxtni trashlamang, taxtsiz shoh bo'lmas,
Buyuring amirlarg'a, bo'lsinlar hamkor,
Siz bo'ling lashkarboshi va sipohsolar!

Xorazmshoh

Imom, imom qo'yingiz, bu gaplar bekor,
Haq taolo o'zidir menga nusratkor!

Yigitlar

Biz tayyormiz, yo'l boshla bizga hukmdor!

Xorazmshoh

Qo'ying, qo'ying o'g'lonlar, bu gaplar bekor!

Xotinlar

Bizni ayang, tashlamang, mo'g'ul ko'p g'addor!

Xorazmshoh

Beklar, torting karvonni, muhlat — fursat tor!

Shoh turadi. Beklar xalqni itarmoqchi bo'ladilar.
Sahna orqasidan jangovar musiqa eshitiladi.

Bir necha kishi
Jaloliddin!

Boshqalar
Shahzoda!

Yana birovlar
Manguberdi!

Bittasi
U g'oziydir!

Ikkinchisi
U sardor!

Uchinchishi
Xorazm mardi!

Imom
Kelayotir mo'g'ulni qochirgan kishi!

Xalq
Baxtiyor aylangay dunyo gardishi!

Jaloliddin, uning yonida Nasavyi bir to'da askar ila kirib keladi.

Xorazmshoh
Jaloliddin, men sendan emasman rizo,
Nega taxtim atrofi nifoq-u nizo?
Nedur da'vong?

Jaloliddin
Da'vomga yo'q sizda davo.

I-vazir
Shu javobni o'g'ilidan otaga ravo?!

Xorazmshoh
(g'azab bilan)
Da'vong nima, maqsad na, baxti bad o'g'lim,
Sen dono-yu tentakmi shu yetti iqlim —
Bo'yusunarkan falakning kajraftoriga?

Jaloliddin
Bo'yusunmayman shum falak ixtiyoriga!

2-vazir
Faqt sizmi ixloskor shoh diyoriga?

Jaloliddin
Nifoqlarga oshyon qasringiz, ey shoh,
Qinga qaytmas qilichim, shohiddir Olloh,
Birlashmasa bu ellar, beklar, o'lkkalar
Xorazmshoh taxtiga pes mo'g'ul kelat...
Javobim shu... Keraksa eshitting yana!
Tepib tursa yurak rost, cho'kmaydi siyna.
Ulug' davlat tiz cho'kmas, botir yolbormas,
Chinor sinar, egilmas, bedov ot hormas.
Chingizzondan qo'rmoqlik — kurashsiz o'lim,
Sizga hamroh emasman, o'zgadir yo'lim.

Xorazmshoh
Bu xunrezlik, qonxo'rlik... Oqibat bekor!

Jaloliddin
Ey padari buzrukvor, shunda xatong bor.
Tavakkalning, sabrning yo'qmi poyasi,
Siz deysiz, men dunyoda Tangri soyasi.
Lekin soya qochmaydi nuqul bir tomon,
U ham bosar kechki chog' tog'-dashuni, inon!
Sirdaryoda dashmanni qaytarish uchun
Menga lashkar bermasdan ketdingiz nechun?
Garchi sizdan beruxsat talashdim, turdim,
Quyonlarni qochirdim, yovni ko'p qirdim.
Hanuz nomim aytilsa qaltriar Chingizzxon,
Bu lof emas, ota, siz faxr qilingiz!
Muhringizing borekan hukmi, obro'yi —
Ayting, menga bosh egsin beklar yurt bo'yi.
Qo'shin boshlab Chingizzxonni qilay tor-u mor.

Badriddin
(shoh qulog 'iga)

Shunchalik ham o'g'lingiz taxtga havaskor.
Emish unga lashkarning jilovini tut,
Sizga esa, sultonga kafan va tobut.

Ion berganga jon bermoq mardlarga darkor!
Onamizning onasi bo'lsa shu Vatan —
Ko'rlik afzal bu yurtni asir ko'rmoqdan.

Xorazmshoh

(*qat'iy*)
Yo'q, sarkarda — Qutbiddin O'zlig'shoh, kenjam.

Jaloliddin

Qani o'sha?

Xalq

Chiyillar beshlikda beg'am.
(*qiziq kulgi*)

Jaloliddin

Xaloyiq, yo'l beringiz jo'nasin sulton,
Yo'llarda bor ko'p zahmat, xatar, biyobon!

Sulton guruh jo'nab ketadi. Sahnadan haram xotinlari o'tadi, Jaloliddinming onasi ham o'tar ekan, o'z kanizlari bilan to'xtab qoladi.

Ona, so'yla, kim haqlqi, otam yoki men?
Qarorimga ishonay, so'yla, toki sen!

Ona

(*tumor beradi*)
O'g'lim, javob tumorni armug'on qilish,
Otang bo'lsam berardim dudama qilchi!
Tiz cho'kmaysan do'zaxdan kelsa fotih ham,
Oq sutimni oqlagin, senga foitham!
(*ona o'pib o'tadi*)

Jaloliddin

Xorazmshoh yo'q desa, ha, der xotini,
Jaloliddin onasi derlar otini.
Bu dunyoda onasiz tug'ilgan kim bor?

Xalq

Yoshulli Mangubeidi!
Yoshulli Jaloliddin!

Temur Malik ham Elbors pahlavon bir-ikki mulozim bilan kirib keladilar.

Jaloliddin

Xo'jandning bahodiri shu Temur Malik,
Ey odamlar, sevinglar uni menchaliq!
Agar chidamasaydi Xo'jand mardona,
Allaqachon bo'lurdi Urganch vayrona!
Biling, avval bu mening katta og'amdir,
So'ngra Temur sardorim, mashhur dorg'amdir.
(*quchoqlashadilar*)

Xalq

Temur Malik yoshulli!

Nasaviy

Quyushganday Jayhun ham Sayhun barobar,
Xorazm dengizida misli birodar,
Xorazm sarkardasi, Xo'jand sardori,
Birga bo'lsa quirimas elning madori.

Xalq

Jaloliddin yoshulli!
Temur Malik yoshulli!

Temur Malik

Ulug'sardor, amiringni keltirdim bajio,
Hozir nedur amringki, menman muhayyo!
Yetnish ming yov bo'g'ildi, qochdi, tarqaldi!

Elbors
U orolda faqt bir ko'r quyon qoldi.

Xalq
Temur Malik yoshulli!

Jaloliddin
(*Elborsni ko'rib, kilib*)
Ha, Elbors ota,
Kaptardan keltirmabsan deyman bu safar.

Elbors
Sizga uchib keldi-yu, ming-minglab kaptar.
(*kulgi, xalqni ko'rsatib*)
Yuz ming kishi yuragi, shahzodam, yetar!

Temur Malik
(*Elborsni imlab*)
Unutdirdi azobni nay chalib nuqlu,
Bitta o'zi o'liddi yuz ellik mo'g'ul!

Elbors
Cho'ponlarning qarisi mendurman balki.

Jaloliddin
Sher ming yil keksaysa ham bo'lmaydi tulki!
Temur Malik, ko'raylik qal'ani birga.

(*mahrang'a*)
Sipohilar kirishsin aytg'an tadbirga!

Jaloliddin, Temur Malik, Elborslar ketadi. Orqalaridan xalq va
sipohilar har yoqqa tarqalishadi. **Sultonbegin** bir kanizagi bilan o'ta-
turb to'xtaydi. Yerdan bir hovuch tuproq olib o'padi.

Sultonbegin
Vatan, Vatan, ajralmoq tuproq 'ingdan, oh!
Bu jazoga sazovor qildi ne gunoh!

Garchi edim Xorazmshoh qasriga bezak,
Baxtiyorman bu yerda qolsam kanizak,
Bedanaday talashar ko'nglimda hislar,
Tosh otilgan bir ko'lday qaynaydi eslar!
Erga sevgi, og'amga mehr-u muhabbat,
Vatanga-chi? Unga ham ishqim zo'r albat!
Sevgi, ishq ham muhabbat... Qanday ajib hol!
Amudaryo suvidek qorishdi xayol
Aziz tuproq, oh, yana seni quchmoqlik,
Nasibammii chashmangandan suylar ichmoqlik?

Mabodo shu bo'lmasa quriydi sho'rim,
Hech bo'lmasa qo'yningda kosh, bo'lsa go'rim!
(*Badriddin shoshilib ketadi*)

Badriddin
Sultonbegin, bu ne hol?
Kutmoqlikka yo'q majol!
Kechikdik-ku, biz toza,
Bekilgusi daryoza!
(*uni qo'ltiqqlab elta boshaydi*)

Sultonbegin

Yo'q qolmoqqa madorim,
Xayr yurtim, sardorim!

Ketadilar. **Jaloliddin, Temur Malik, Elbors, qisman sipohilar** va
xalq to'plana boshaydi.

Mahram

(*chopib kelib*)

Sultonbegin dargohdan chiqqan, shahzodam,
Amir Badri birla u ketgannish baqam.

Jaloliddin

(*o'zicha*)
Singlimga so'ng bo'sa ham bo'lindi nasib,
Kim o'lar-u kim qolar, taqdir ko'p ajib!

Temur Malik
Buyuringiz shahzoda, borib shitoban
Darvozani berkitay, to'xtasin karvon,
Qaytarayin shohni ham, sipohni ham,
Yo'ni to'ssam, o'tolmas ular bir qadam!

Jaloliddin

(*o'ylanib*)

Yo'q, ketsin saroy ahli, bizga ne darkor,
Lekin singlim qolsa-chi.. Ha... ne foydasi bor?
Uzuk taqqan u nozik barmoqlarga, bil,
O'q-kamomni tortmoqlik bag'oyat mushkul!

(*xalqqa*)

Bu yurt uchun o'lma akka bo'ling muhayyo,
Obizamizam deysizlar shu Amudaryo –
Do'zaxiyalar labidan bo'lgaymi murdon!

Xalq

Yo'q, biz jangga tayyormiz, ey ulug' sardor!

Jaloliddin

So'l qanoqning sardori Temur Malikdir,
Men sarkarda, zafarga garov – birlikdir!
(*to'r alarga*)

To'dalarni jam qiling, Iashkarlar tuzing,
Qo'shilmagan beklami bostiring, buzing!

Nasaviy

Sulton qochdi, sizlarga sarvar, bahodir,
Buyuk Manguberdidur, Jaloliddindur!

Imon Shahobiddin

Istamam la'nat bilan meni qilsin yod,
Islam machitlarida ahli e'tiqod!
G'azovotga qo'zg'oling, yo ayyuhannos,
G'oziylargacha sharofat, shahidga o'roz!

Minorlarda takbir sadolari. Yigitlar Nasaviy oldiga kelishadi. U ro'y-xatga ola boshlaydi. Qizlar, kelinlar Jaloliddin mahramiga qimmatbahо buyumlarini – halqa, uzuk, isirg'alarini bermoqdalar.

Bir kelin

Oling, to'ram, kelimming oltin uzugi –
Emas uning yagona ziynat-bezag!

Jaloliddin

Yetidan yetmishgacha qo'zg'al el, o'lka,
Hurriyatning ishqida boshlayin yo'lga!

Xalq

Ulug' sardor, sen bo'lgin bizga najotkor!

Jaloliddin

Qilichlar dami o'tkir, sadaqa o'q bor,
Qulasa ham bosh egmas bu shahri azim,
Erlar o'lar, qilmaydi Chingizzong'a ta'zim!

Xalq

Yoshulli!

P A R D A

UCHINCHI PARDA

BIRINCHI KO'RINISH

Parda ochilganda xarob bir manzara ko'rindi. Bu yerda yiqiq devorlar, cho'klik imoratlar, kesik daraxtlar katta bir falokatdan darak bermoqda, ufqida yongan bog'lар va tepalar ko'rindi, Parda ochilarkan, sahna orqasidan bir cholning g'amgin ashulasi eshitildi.

Chol

O'yла bir devonaman, mendan qochar devonalar,
Yostig'im tosh-u tikan, xonam bo'llib vayronalar.
Suvda gar aksimni ko'rsam, o'z-o'zimdan alhazar,
Xasta soyamdan cho'chib, solmasman unga bir nazar!

Sahnaga parishxon sochli, devonasifat bir chol kirib keladi. Ashulani davom ettiradi.

El xarob, umid sarob, davlat turob, ko'nglim kabob,
Yo Xudo, men tobakay kutgum samovotdan javob?
Bir zamон insonaro odam edim men purvigor,
Xonumon, nomus-u nom, imon bo'libdur tor-u mor.

Safar kiyimida **Sultonbegin** bir mulozim bilan kirib keladi.

Sultonbegin

So'yла, bobo, sen kimsan, bu yer qaysi yurt, o'lka?
Nega cho'kkан har yoqqa ko'p parishon bir ko'lka?

Chol

So'ramay qo'y, oh, qizim, tirmagin yaramni,
Do'zaxiyman, yo'qoldim go'yo Bog'i Eramni,
Ne qilasan nomimni, unutibman o'zim ham,
Allanima derdilar, esdan chiqqan tamoman.
Boshim ko'rgan baloni ko'rsa edi bitta fil,
Erib sichqon bo'lurdi, o'lmaganda... Tingla, bil!
Bu ofatga Azroyil, mo'g'ul xoni Chingizzon,

Dunyodagi qoplonlar urug'iga u xoqon.

Ko'z oldimda so'yildi avlodlarim, xotinim,
Yosh qizzinam zo'rlandi, men uraldim betnim.
O'g'lim halok etildi bog'lanib ot dumiga,
Bir qizim qaynatildi tashlanib xum suvig'a.
Kichik o'g'ilim ko'mildi tiriklayin tuproqqa,
Bundan keyin ne kerak umr munday ahmoqqa!

Sultonbegin

(ma'yus)

Kattamidi aybingiz?

Chol

Inson edim, vassalom.
Ular qonga xumori, tashnadirlar bil, bolam.
Na falakdan javob bor, na duodan savob bor,
Ko'p mahkam kulfatlangan ilohiy baland darbor!
Xafa bo'ldim olamning Xudosidan, Rabbidan,
Ko'p istidod so'radim payg'ambardan, nabiydan.
Hayhot, ular kar ekan, insof darbadar ekan,
Dunyoda nafas olish o'zi serxatar ekan.
Qo'l-butog'i kesilgan samarasiz bir to'nka —
Mana menman... Yashamoq lozimmikan hech menga?
Umrimda yagona bir ma'ni bo'lsa — intiqom.

Sultonbegin

(o'ylanib)

Oh, bechora Vatanim bir afsona bo'libdur,
Mo'ysafidlar devona, bog' vayrona bo'libdur.
Qayerlarga qochibdur u g'azalxon bulbullar,
Yo'llarimda ko'rganim o'lik erlar va tullar.
Suv qurigan, cho'l kuygan, bo'g'ilgandir miroblar,
Dilim torin uzdilar bu sarsari, xaroblar.
Yig'lamayin o'tarmi bundan g'arib bir yo'lchi,
Bu devona ota ham shum xabarchi, bir folchi.
(cholga)

Bobo ayt, shu tepaning qanaqa bir nomi bor?

Chol Atashga ulgurmadiq, ko'p g'alati bir minor.
Chol tepadan bir kesakni olib, Sultanbegimga ko'rsatadi.

Sultonbegim (*qalitirab*)
Oh, bu kesak emas-ku... Allaqaqday bir kalla!

Chol Kallaldandan bu minor. Payqading, barakalla!
Shu qishloqda aholi to'lamagan edi boj,
Mo'g'ul kesib boshlarin, shunday topdi tez iloj.
Bu yerda istiqomat qilar biitta devona
Va badbaxt boyqushlarki, ixlosmandi vayrona!

Sultonbegim

(*titrab*)
Oh, bu dahshat!

Mulozim

(*qillichini ushlab*)
Tez yuring, yo'ldan bilsak bir xabar!

Sultonbegim

Bobo so'yla, qayerda Jaloliddin o'r dasi?

Chol

U soyning chap yonida, huv tepaning orqasi
Ammo bu yo'l ko'p sirli, yotlar bundan bexabar?

Sultonbegim

(*keta turib*)
Sir olgan o'zga emas, qizingiz, ko'p mo'tabar!

Sultonbegim va mulozim ketadilar. Chol zohiran hech ajratib bo'l-maydigan bir g'orga kirib, teshikni berkitadi, G'or ichidan cholning yana g'amgin ashulasi.

Chol

O'yla, bir devonaman, mendan qochar devonalar,
Yostig'im tosh-u tikin, xonam o'lub vayronalar!

Yaroqbek to'ra va uning orqasidan bir to'da no'g'ul izchilari kirib keladi.

Qodog'on no'y'on

(*Yaroqbekka*)

Xorazm kiyimida ikki kishi edilar,
Izma-iz poylab kelib, ko'p yo'l bosdim barobar,
Shunda nihon bo'ldilar...
(yerga yotib izlarni iskab oladi va turib soy tomonni imlaydi)
Soy tomon ketgan ular...
(*Yaroqbekka*)

Shu tomonda bor ekan, yashirin so'qmoq yo'llar,
Sen mulozim, soqchilar sendan shubha qilmaslar.
(bir bo'xcha beradi)

Buni Sultanbeginning tuhfasi deb berasan!
(*bir xanjar beradi*)
Buni ulug' xoqonning jazosi deb urasan!

Yaroqbek

Men otamning tabarruk xuni uchun qasoskor!

Qodog'on no'y'on

Bari bir-ku, xoqonga bu zARBANGDA xizmat bor.
Menga qara.
(ko'r ko'zini ko'rsatib)

O'ylama, men tug'asi shunday ko'r,
Temur Malik o'qidan bu ko'zimdan uchdi nur!

Yaroqbek

Temur Malik?

Qodog'on no'y'on

Bilaman, u otangning qotili,

Uning ham bor payida yoronlardan bir xili.
Ammo sen-chi? Burgutlar boshlig'iga xanjar ur,
So'ngra xoqon qasrida sultonarcha davlat sur!

Yaroqbek

Yo, omad!

(keta turib)

Qodog'on no'yon

Xizmat qilgin mo'g'ulga johil, tentak muslimmon,
Olqishlaymiz shu tusda bir-birovga itsimon!
Temur Malik ko'zimga o'qui uzib degandi:
Qahrimizni ko'rmoqqa bir ko'zing bas, ket endi!
Shu bir ko'zning o'zilham dushman izin payqadi,
Shu yo'l ulug' dushmanaga to'g'ri olib chiqadi.

Chol

(g'ordan chiqadi)
Ilohim, har yoqda xiyonat, pastlik,
Odamzod qonidan ko'zlarda mastlik.
O'llimlar shohidi — ko'zlar devona,
Fikrim-chi? Ko'r emas, fahmim — nishona!
(qochib ketadi)

P A R D A

Nasaviy

(daftarga qarab)

Xorazmshoh voz kechdi jangdan, janggohdan,
Laqqa baliq qochganday yutqich timsodhan.
Xarob bo'ldi Buxoro, mahv o 'ldi Urganch,
Pok tupoqni toptadi majusiy jirkanch.

Ammo sher Jaloliddin tortdi na'rasin,

Tig' sug'urib o'pirdi mo'g'ul marrasin.

Beshta ulug' jaqlarda qochdi yov — vahshiy,
Rost debdilar: mo'g'uuni qochirgan kishi!

Jaloliddin

Xiyla bizni maqtabsan, do'stim tarixchi!
Xiyla bizni maqtabsan, do'stim tarixchi!

Nasaviy

Tarixni siz yasaysiz, bizlar yozamiz,
Ishingizga yaratsha bor andozamiz.
(chiqadi)

Mahram

Kelibdir qal'adan Yaroqbek to'ra!

Jaloliddin

Ayt, kirsin!

(chiqadi)

Ko'ray-chi, qochiqdan so'ngra —
Qaysi noibiga sig'in mish sulton?
(Yaroqbek kiradi)

IKKINCHI KO'RINISH

Parda ochiladi, Jaloliddin qarorgohi. Chodirlar. **Jaloliddin** sipohi
qiyoferda bir to'nka ustida o'tiribdi. Bir chetda Nasaviy o'z daftariga
so'ngi chog'larning voqealarini yozmoqda.

Jaloliddin

O'qigin yozganiningni, do'stim Nasaviy,
Sherikdur qilich birla qalam ikkovi.

Assalom: Valiahd, sardori zamon!
Yaroqbek

Jaloliddin

Nechuk xabarlar bor uzoq ellarda?
Yaroqbek

Ishingiz bo'lmishdir doston tillarda,
Sizni kutmakdadir ezilgan o'lka,

Boqar intizor-la doimo yo'lgan.

Sizga hasadkorlar tamom pushaymon,

Onangiz, singlingiz qal'ada omon.

Sizga yubordilar siphoh x'il'at,

Safarda yayar deb sardorga, albat.

Ko'p duo aytishdi malika xonim!..

(Bo'xchadden to 'nni oladi)

O'zim kiyintiray, shudir armonim!

Jaloliddin

(xursand)

Ha, meni ko'p o'yalar azizalarim,
Afsuski, ayirdi bu jang, shu g'anim,

Xanjarini o'giradi. Yaroqbek chopon ostidan xanjar chiqaradi.

Yaroqbek

Otam qonin unutmashman hech!

Xanjarni o'qtaladi. Shu chog'da devona chol otlib kiradi. Yaroqbekning orqasidan pichoq sanchadi. Orqasidan mahram, Nasaviy kirib keladi.

Chol

Shukurkim, madadkor qolmaptikan kech!

Eshiting avvalo, o'ldiring keyin,
Ha!

Men-ku, qotilman, ammo bu xoin...
Umrimda ilk odam o'ldirishim shu.

Ammo najot topdi bir el, yoshulli!
G'orimda poyladim men yashirinchcha —

Bitta ko'r no'yon-u shu mal'un bacha.
Ozurda ekanlar Temur Malikdan,

Sizga qasd qilgali bo'lishdi bir tan.

Xanjar o'qtalganga qadadim nishtar,
U yog'i ma'lumdir, hikoyat etar!

Jaloliddin

Tugul Jaloliddin ko'kragini san,
Qutqarding lashkarning yuragini san!
In'omlar berilsin cholga farovon!

Chol

Ne lozim, shahzodam, ulug' qahramon,
Kerakmas menga hech tuhfa, in'omlar...
Kerakmas unvonlar, oly maqomlar,
Sadoying eshitdim, o'zga kerakmas,
Kimsasiz ko'nqlimga shuning o'zi bas!
(qochib ketadi)

Jaloliddin

Koshki shunday bo'lsa jumla otalar.

Nasaviy

Shu xil ota bo'lsa barcha kattalar!

Nasaviy chiqadi, mulozimlar Yaroqbek jasadini olib chiqadilar.

Jaloliddin

Afsus, badbaxt bo'lsa bir o'lka agar,
Uning o'g'illari ko'r bo'lur yo kar.
Shunday buzuqlami fitnakor Chingizzxon
Makr ila tuzoqqa oldi u xumreza.
Ammo menga botmas nayza-yu xanjar,
Meni o'ldirohmas qilich yo zahar,
Suvlarga cho'kmayman, jardan yiqilmam,
Nomard qo'lidagi xanjardan ne g'am?

Nasaviy

(kiradi)
Sizga ajib bir sovg'a, sardor.

Jaloliddin

Chingizzxonning kallasimi, ufunat, murdon?

Nasaviy

Yo'q, boshqa!

Jaloliddin

Xo'sh, mo'g'ul tutqunlarimi?

Nasaviy

Yo'q, boshqa!

Jaloliddin

Ha, yordam qo'shinlarimi?

Qo'shinlarki,
kutaman G'iyo'siddindan?

Nasaviy

Yo'q, boshqa!

Jaloliddin

Kutirma! Darhol so'yla sen!

Nasaviy chodirning darpardasini ko'taradi. U yerda **Sultonbegin**
ko'rnadi. Nasaviy chiqadi.

Sultonbegin

Yo'q, og'am bu na amir,
Na mo'g'uldan bir asir,
Va na Chingizzon kallasi.
Bu bir qizning hyłasi.
Bu urganchlik g'arib qiz —
Tanirmsiz?

(quchoqlashib ko'rissadilar)

Jaloliddin

(hazilona)

Jajji kelin, bu qanday jahongash'talk
Kuyov jonga tegdimi? Sevgi shunchalik!

Sultonbegin

Yorim birdur va lekin og'am ham bitta,
Tug'ilmaydi ilkinci og'am albatta.
Siz jang ichra, har lahza holingiz qalts!
Diydoringiz g'animat, niyat shu yolg'iz!

Jaloliddin

So'ylagin sarguzashting, bo'layin ogoh!

Sultonbegin

Chiqdik Xorazmdan g'urbatga, evoh,
Yashirindik onam-la mulki Eronda,
Xayolim uyida Urganch har onda.
Shoh ziyyaratiga ketdi Badriddin,
Men esa og'ammi sog'imib g'amgin,
Hijronga chidolmay chiqdim qal'adan,
O'tdim daryolardan, bog'-u daladlan,
Yo'linda uchradi vayrona-yu dasht,
Nasib bo'ldi diydar, mana, sarguzasht.

Jaloliddin

Ko'p ulug' sovg'asan, azizim, singil,
Kelishing yaxshi fol men uchun, bilgil.

Sultonbegin

O'zim bo'lsam hamki ko'p ulug' sovg'a,
Sizga bir armug'on keltirdim, og'a!
(unga bir uzuk cho'zib)
G'alati bir uzuk, o'zi ham tumor,
Nizo-yu janglarda har dam xaloskor,
O'lmlar, yaralar bo'lur bexatar.
Samargand shahrida ulug' alloma
Buni Badriddinga qilmish iona.
U jangda yurmasa uzuk ne kerak?
Sarkarda og'amga berur deb ko'mak —

Bir omad keldi-yu, qo'lga tushirdim,
Esdalik qatori sizga keltirdim.

Jaloliddin

(uzukka qarab)

Ko'p nafis, munaqqash, sehrli uzuk!

Sultonbegin

Ustida duosi, undan ham tuzuk!

Lekin o'qib bo'lmas mushkul muammo!

Jaloliddin

Mullaga yechmoqlik osondur, ammo!

Hazrat Nasaviy!

Nasaviy uzukni olib davotdagi siyohni uning ko'ziga surkadi va
so'ngra ipak qog'ozga bosib, Jaloliddinga ko'rsatadi.

Nasaviy

Sardor, bu muhrdir, kechiring meni,
Lo havlo..., Siz o'qing shu kalimani!

Uzuk va qog'ozni topshirib chiqadi.

Jaloliddin

(qog'ozga qarab)

"Podsho Badriddin shohi barru bahr
Sultoni Samarqand, Movarounnahr!"

(Sultonbeginma)

Eringga shohlikni so'z bergen Chingizzon,
Bu ham xo'jasiga ishlagan shaksiz.
Yurtiga sarlashkar bo'llishdan ko'ra —
Shohlik nomi bilan mo'g'ulga to'ra...
"G'alati bir uzuk — o'zi ham tumor."
Emish: — o'limlarga qarshi madadkor, —
Endi shu uzukda ochildi tilsim,
Oh, yomon dahshatdir g'azabim, hirsim!

Uning bir boshiga yuz marta o'lim!..
Ering bir sotqindur, bechora singlim!

Sultonbegin

Voy, endi tushundim, so'ylardi doim,
Samarqand taxtidha bo'lurmiz qoim,
Bosh egmay hech kimga mustaqil, erkin!

Jaloliddin

Zohiran pok so'z-u, ma'nosi chirkin,
Pokiza labingga sen-ku, hamisha,
Qo'ndirmay yurarding hattoki pashsha,
Endi ko'r, labingga lab qo'ygan mal'un,
Yalaydi Chingizzomming u qonli qo'lin.

Uzukni yerga tashlab chiqadi, Sultanbegin chuqur alam ichida
uzukni yerdan oladi.

Sultonbegin

To'y kuni jang chiqib, dilpora bo'ldim,
Yurdan yiroq tushib ovora bo'ldim,
Evoh, nomard ekan suyulgan yorim!
Endi bas, endi bas, ey, bir-u borim,
(qo'lidagi uzukni barmog'iqa taqib)

Shuncha jilvakorsan munaqqash, nozik,
Ko'p yurding sen uning qo'lida, uzuk!
Lekin olmos ko'zing shuncha bema'ni,
Ularda xiyonat o'qilar ya'ni.
Iloyim, chiroyming zamirida ham,
Chirkinlik yashaydi iflos, nomahram.
(uzukka qarab)

Senga nishon bosmish sevgi, deydilar,
Seni ishq qasridan belgi, deydilar.
Lekin voqif bo'lgach maxfiy muhringdan,
Voz kechdim husningdan, ishq-u mehringdan,
Voz kechdim u nokas sohibingdan ham,

Seni tashlaganday tuproqqa og'am —
Chiqardim barmoqdan, dildan, xotirdan,
Sen ham xarob bo'lgin, yo'qolgin birdan!

Uzukni barnog'idan chiqarib tashlab, chodirdan chiqadi, **Jaloliddin**
va Elbors kirib keladilar.

Elbors

Hozir hamma lashkar katta o'rmonda,
Turgay pisturmada, tayyor shu onda...
Amir Badriddin birla kengashib...

Jaloliddin

Gapirgin, gapirgin Temur Malikdan,
Ofarin, u doim mardlikka yaktan!

Elbors
Bizni ko'p ovora qildi zo'r qal'a,
To'g'ri hamla qildi...

Jaloliddin

Ha, barakalla!

Elbors

O'zi Temur Malik o'tib daradan,
Quvdi mo'g'ullarni katta marradan,
Olindi Banokent qal'asi dарhol,
Tushdi qo'llimizga ko'p asir, ko'p mol,
Soyda to'igan edi ming kesik kalla,
Yovlarning kallasi...

Jaloliddin

Ha, barakalla!

Elbors

Nihoyat o'n yara yesa ham sardor
Tushmadi otidan, turdi ustivor,
Men ham qo'lida xanjar, og'zimda yalla,
Baqadri imkon...

Jaloliddin

Ha, barakalla!

Jaloliddin

Kim, kim?

Elbors

Shoh nomidan kelibdi shoshib...

Jaloliddin

Nima qilar unda u shayton, sotqin?
U yo murdor bo'lsin va yoki tutqin!
Oh, Temur Malik ko'p ulug' sardor
Va lekin dilsoda, hiylada nochor.
Mulozim!

(mulozim kiradi)

Ottangin turkman otiga,
Borib ayt, qo'shining so'l qanotiga —
O'rmondan chiqsinlar, soyga o'tsinlar,
Badriddin xoinni dathol tutsimlar!
U, Temur Malikka bir hiylal qurgan,
Yomon bir niyatda u yerda yurgan.

(mulozim kiradi)

Chiq jaming bo'yiga,
Yirtqich to'da birla tur unda pinhon!

(Elbors pahlavon chiqadi)

Mulozim!

(ikkinchil mulozim kiradi)
Otlanib jo'nagin, chiqqin sen tog'ga,
Qo'shin tog'dan tushsin orqa qishloqqa.

(mulozim chiqadi)

Jaloliddin

(o'zicha)

Bizning mavqelarni ham birin-ketin,
Yovga ma'lum qilgan sotqin Badriddin!

(o'ylab)

Adir bo'y yi yotar askar jum,
Kun botmasdan qilaman hujum,
Shapoq otday yovvoyi mo'g'ul,
Kunga qarab yurolmas nuqlu.

(Nasaviy kiradi)

Sultonbegin hozir serqayg'u,
Chodirida tinch uxlasin u.

So'rab qolsa meni basharti,

Tag'in oshib ketmasin dardi...

Ot solaman bostinib yovga,

Unga, meni chiqdi de, ovga!

(Nasaviy chiqadi)

*Hansirab bir chopar kiradi***Darhol**qo'ying bedovga egar,
Hujum uchun shaylansin lashkar!

Mulozim chiqadi, uzoqda hujum qilayotgan askarlarning "Oolloh-Oolloh", "ur-ur" sadolari... Jangovar kiyigan **Sultonbegin** va orqasidan Nasaviy kiradi.

Nasaviy

Unamaydi, shahzoda, begin!

Jaloliddin

Kim bo'y sunmas sarkardaga, kim?

Sultonbegin

Og'am, og'am, jangovar og'am,
Men ham sizga bo'l'g'ayman hamdam.
Ko'p xafasiz,

men xabardorman,

Men singlingiz, men ham sardorman!

Sizga jon va sut bergen ona —
Nahot bo'lsa menga begona!
Aybim nima? Ayolligimmi?
Kokilmmi?

Jaloliddin

(uni quchoqlab)

Barakalla, singlim! Kim deydi
Jalolning yo'qdır inisi?...
Tuhmatdur bu... Mana botir er.

Jaloliddin

(mulozimga)
Oh, dahshatli, ko'p yomon xabar,
Ming o'lindan ming marta battar.
Bir qanotim sindi Temursiz,
Go'yo qoldi bir ko'zim nursiz.

(mulozimga)

Bir ot bering, tez chopar, bardam,
Jaloliddin singlisiga ham!

Mulozim chiqadi. **Jaloliddin** va singlisi chodir eshigiga chiqadilar.
Uzoqda jang-g'avg'o sadosi. Boshqa mulozim chopib keladi.

Mulozim
Erovullar surib ketdilar,
Dashtgao qochar mo'g'ul darbadar.

TO'R'TINCHI PARDА

BIRINCHI KO'RINISH

Jaloliddin

(sevinib)

Oh... Oh...
Qasam bo'lsin Tangriga billoh,
Tiriklikda eng shirin holat —
Yov qochishin ko'rmoqdir faqat.

Jaloliddin qilichini sug'urib, o'pib baland ko'taradi. Singlisi ham shunday qiladi. **Jaloliddin** narigi tomonga qarab buyruq beradi.

Hujumga qo'shin!
Qon — qasos uchun!
Qilichni sug'ur,
Dushmanni ur-sur!

Jaloliddin va **Sultonbegim** yugurib ketadilar. Uzoqda katta olomon **Jaloliddin** buyrug'ini takrorlab, "Hu-jum qo'shin!", "Yo Oolloh, yo haq!" deya nidolar ko'taradi, otlar kishnashi va qilich, qalqon qarsillashi eshitilib turarkan, chodir ichida yakka va ticka turgan Nasaviy daftariqan nimalamidir yozmoqda.

Nasavy
Ha... Shu yo'sin tug'illar tarix.

P A R D А

Parda ochiladi, **Chingizzxon** qarorgohi. Bosib olingen shaharlardan bittasidagi koshona. Xoqonning a'yon, no'yon va navkarları kambarbasta turibdi. **Chingizzxon** taxtda o'tiribdi. Devorda qator mixlarga qoqligan kallalar ko'rindadi.

Chingizzxon

Falaklar yozganday bo'ldim olamgir,
Odamzod tug'ilgan bo'lay deb asir.
Nega mavjud erur ko'hna dunyolar
Kim aytar ma'nosin, ayo donolar?
Oyog'im tagida qadimgi tojlar,
O'lkalar ham o'lar, ham to'lar bojlar.
Meni jallod deydi olam barisi,
Xatodir, men o'zim o'lim Tangrisi.
Adolat yo insof nima degan u?

Tupurdim bularga, ming karra tpu!
Bu dunyo bir jangal, men usta qoplon,
Itimni alishman yuz inson bilan.
Ranglarda shirin rang, rangi — xunindur,
Kim nola tinglasa uniki huzur.

Birdan o'lдиrmasam deyman kishini,
Darhol bitirmasam san'at ishini.
Dastavval kessam-u olmasam jonin,
Menga yolvorsa-yu, men ichsam qonin.
Qo'linda ingrasa, endi men bo'g'sam,
O'lmasdan burunroq otashda yoqsam,
Va so'ngra kullarin olib hidlasam,
Ana kayf-u lazzat, ana baxtli dam.
(no'yonlarga)

Qani Jaloliddin? Qani va'dalar?
Yetsam ham qulqoqqa na'ras kelar.

Eh sizlar, maqtanchoq, mag'rur no'yonlar,
Sizga ustoz bo'lmish qaysi quyonlar?
(o'zicha)

Mening o'g'illarim, ularni deng-chi,
Ular sarkardami va yoki ko'nchi?
Besh tobqir qochirdi mo'g'uuni jalol,
Adashsam meni ham qillardi qamol.

1-no'yon
G'am yemang, g'am yemang, ey ulug' xoqon,
Uni mahv aylamak sizga ko'p oson.
Bir na'ra tortsangiz bo'lur parishon
U sahro o'g'risi...

Chingizzxon

Yolg'ondur, yolg'on!

Jalol qanday dahshat, sen o'zing iqror,
Nomini eshitsam men ham beqaror.

(no'yonga istehzo qilib)

Daryoda nahhangdur, sahroda arslon,
Xayriyat, u emas yurtida sulton,
Ko'p ham taajjubdir dunyoning ishi:
Yaxshi in' om olar noloyiq kishi.
Xorazmshoh uchun shunday bir farzand,
Otasi ne onqlar, ne bo'lur xursand.
Oh, koshki to'rt o'g'il o'miga falak —
Menga birin bersa jaloliddindek.

(xayolga bolib)

U garchi dushmandir, ammo ulug' yov,
Agar u qo'llimga tushsa, beayov
Yorib ko'kragini, ichardim xunin,
So'ngra... Tiz cho'kardim oldida uning!
Xo'sh, bormi daraklar Xorazmshohdan?

1-no'yon

Qochar bir qal'aga bir xilvatgohdan,
Keidan izma-iz otliqlar chopar,

Sichqon inidan ham bir kuni topar...
Lekin asir etdim haramxonasin.

Chingizzxon

Ofarin!

(xazinadorga)

Dinordan o'n ming donasini —
No'yonga berasan shu xizmatiga,
Va lekin shu qilgan jinoyatiga —
Hoy jalold! Uz buning kallasin hamon!
Xushomadgo'ylikda aytilgan yolg'on —
Qo'shinga xiyonat qilishdan yomon!

1-no'yon

(iz cho'kib)

Mening xizmatlarim, xoqon, marhamat!

Chingizzxon

O'lsang ibrat bo'lur, bu ham bir xizmat!
(jallod no'yomi olib chiqadi)
Dushmanni ko'ziga ilmagan sardor,
U sardor emasdur, maqtanchoq, ayyor.
Bilingiz, siz tomon o'tsa bir sotqin,
Undan foydalaning, ustalik qiling —
Ammo ado bo'lach qilarlik ishi,
O'ldiring, kerakmas unday bir kishi;
O'zining yurtini sotsa u agar —

Bir kuni sizlarni sotgusi battar.
Shu taxlit ayladim ellarni ishg'ol,
Maydonda men yenga olmasam darhol —
O'riga tushirdim zahar yo xanjar,
Yo pora, yo oltin, shirin va'dalar.
Dushmanlar safiga sololdim nifoq,
Ne'mat-u davlatdan, quroldan tuzoq!
Shunday olmoqchiman butun dunyoni,
Xon bo'lur mo'g'ulning har bir no'yoni,

Mo'g'ul otlarining tuyog'i bosgan —
Har bir yer xoqonga mulkdir yo maskan.

(navkar kiradi)

Navkar
Qabulga muntazir amir Badriddin!

Chingizzon
Hay-hay, kirib kelsin, kirib kelsin, deng!
Badriddin kirib ta'zim qiladi va borib Chingizzxonning qo'llini o'padi.

Badriddin

Oliy xizmatingda, aytay xoqonim,
Bajo keltirildi ahd-u paymonim,
Men Temur Malikni tushirdim asir!

Chingizzon

Samarqand taxtingin yamisi hozir!
A, Jaloliddin-chi?

Badriddin

Qiyin juda ham!
Chunki Jaloliddin mening qaynog'am,
Bu ishni payqasa singlisi albat —
Menga la'nat o'qir u ilal-abad.

Chingizzon

(qahqaha va istehzo bilan)
Muhabbat, muhabbat!.. Ahmoqona so'z!
Boshqa xotinlarda yo'qmi qosh va ko'z?
Muhabbat? Bu so'zni kimlar to'qigan?
Go'l shoir yozgan-u tentak o'qigan.
Sen agar shoh bo'lsang, yuzlab guluzor —
Yotog'ing boshida yalang 'och tayyor.
Kelsin asiralar!

Xorazmshohning haram ahli — xonimlari kirib keladi. Ular go'zal,
kibor kiyimli, lekin ma'yus va pajmurda.

Chingizzon

(iblisona qahqaha bilan)

Ana Xorazmshoh bog'idan gullar,
Mening bir zarabandan hammasi tullar!

Chingizzon bir kosa may ichadi. Turib, aylanib har qaysi ayolga ya-qindan qarab o'tadi. Uning dahshatlari qarashlari oldida xotinlar bukilib, munkeyib qoldadilar.

Mungli bir ashula aytинглар, qani?
Yig'langiz, eziling, kuldiring meni!

Asiralar jum. **Chingizzon** ishorasi bilan yasovullar asiralar tepasidan qamchilarini shuvullatadilar. Ular qo'rqib ashula boshlaydilar.

Asiralar

(xor)

Qal'анинг darvozasi
Ochiq ekan kechasi,
Ochiq ekan kiribi —

Majusiyining itbachchasi.

Oh, to'ram, voh to'ram,
Qayda qolding bekaram?

Shabadaxon, sekin es,
Holimizni so'rab kez,

Holimizni so'ragach —
Urganch yoqqa eltgin tezi!

Oh, to'ram, voh to'ram,
Qo'llim siqar nomahram!

Ko'z yoshim tomchisidan,
Ko'l bo'ldi tomchisidan,

Billoh yelkam yaradur —
Majusning qamchisisidan!

Oh to'ram, voh to'ram,
Go'rga eltar bu yaram!

Chingizzon

Endi o'yinga ham tushinglar, ko'ray,
Nozik baddanlaring o'zim tekshiray!

Xorazmcha raqs. Bu raqsda asiralarning musibati ifodalangan.
So'ngra mo'g'ul bakovullari va chavandozları ham "Qamchi raqsi" ni
o'ynab, xotinlar o'ritasiga tushadilar.

(may ichib)

So'ylagin bu kimdir, amir Badriddin!
(bitta xotinni qo'lidan ushlab)

Badriddin

Oltinchi xotini Xorazmshohning!

Chingizzon

Jallod, mandan senga ko'p shirin tuhfa,
Senga ham kanizdur ham yumshoq ko'rpa!
So'ylagin bu kimdir, ana bunisi?

Badriddin

Bu Xorazmshohning to'rtinchı qizi!

Chingizzon

Bakovul, ol senga shu do'ndiqcha qiz,
Unga tinchlik berna kecha-yu kunduz.
(olib ketadi)

Qani, bunisi kim, amir Badriddin?

Badriddin
Kenja xotinidur Xorazmshohning!

Chingizzon

(Badriddinga)

Nimang kam yo Sultan, Xorazmshohdan?
Ol, senga xushbo'y gul uzganman shoxdan,
Sening-ku, sirlaring olamga ayon,
Endi bosqinlarga bel bog'la hamon.
O'zing savalashgin Jaloliddin-la,
Iqboling kulmoqda, so'zimni tingla!
Seni kutib turar toj Samarqandda!

Badriddin

(o zicha)

Bu tojining zahmati shunchalar katta!
(Chingizzonga)

Amringga hozirman xoqonim har dam!

Chingizzon

(xotinlarni ko'rsatib)

Jo'nasin haramga qolgan ayollar.
(o'zicha)
Asalga o'ch bo'lur odatda chollari!
Boshqa xotinlarni bakovullar surib chiqaradilar, Badriddin ham
Kenja xonim qoladi. Chingizzon ham yarim mast chiqadi.

Badriddin

(xonimni quchoqlamoqchi bo'lib)

Bu kecha meniki bo'lasan, xonim,
Chun seni iltifot qildi xoqonim.
Shukur qil, o'ynashning emas gadoy, och,
Qo'yningga kirguvchi bu sohibi toj!

Kenja xonim

(nafrat bilan)

Yo'qolgin sen nomard, domod emas, yot,
Shohning xotiniga taklifing uyot!

Badriddin

Siz shohga qirqinchi xotin edingiz,
Endi-chi, sultonga sevikkii kaniz!

Kenja xonim

Benomus, esingni yedimi mo'g'ul!
Belingda kamarsiz yurganining ma'qul!
Sultonnish! BeVatan, belashkar bir qul!

Badriddin

(g'azabli)

Shoh — qochoq, taxt — barbod, nechun bu da 'vo?
Qatlingga boisdur kibring benavol!
Hoy navkar, sen yaxshi kallakesarsan,
Boltangni shu chechak birla bezarsan.

Kenja xonim

(ketarkan)

BeVatan banda!

(Olib ketadilar. Badriddin ham orqalaridan chiqadi)

Og'ir muzika ostida no'yonlar kirib kelishadi. Qo'l-oyequlari kishan-
langan Temur Malikni itarib kirkizadilar.

Qodog'on no'y'on

(unga yaqinlashib)

Tamidningmi, menman Qodog'on no'y'on!

(Temur Malik jim)

Bir ko'zimni sog' qo'ygan zamон,
O'ylamabsan, tanirman seni —
Kishanlarda so'roqlar kuni,
(Temur Malik jim)

Sen xoqonni aylading sарson,
Qirding mo'g'ul lashkarin beson,
Yashirmagin, sen Temur Malik,
Kamtar turmoq endi shunchalik!

Temur Malik

Gunohkorlar gunohdan tonar,
Men sardorman, tig' surmak hunar!
Guvoh bo'lar yer birla osmon
Yanchganimda sizni qurtsimon —

Guvohliging ko'r shayton, bekor!
Ha, mendurman, bil Temur sardor,
Shunday javob xonga ham tayyor!

Chingizzxon mahramlari bilan kirib keladi. Hamma tiz cho'kadi. Temur Malik tikka turib qoladi, Chingizzxon taxtiga o'tiradi.

Qodog'on no'y'on

Tiz cho'k asir, bandalik ko'rsat!

Temur Malik

Sardorlarda yo'q bunday odat!
Bukilmaydi tizzamiz hech vaqt!

Chingizzxon

(o'zicha)

Ko'p sazovor yovuz jangari,
Afsus, emas Chingizzxon sardori.
(Devorni ko'rsatib,
Temur Malikka)

Boq, barchasi sohibi farmon!
Ana budur shohi Turkiston,
Ana budur Qoshg'orning xoni,
Bu badbaxt bosh qipchoq sulton,
Bu Eronning sipohsolori,
Bu-chi, ahmoq Chin hukmdori.
Yo menga sen bo'lursan sardor,
Yoki bir mix senga ham tayyor!

Temur Malik

Hukmingni tez chiqar, jalodga buyur,
O'limgan qo'rqmaydi shu Malik Temur.
Va bilki, qo'limga tushsang agar sen,
Ho'kizzday so'yardim o'zim bo'g'zingdan.

Chingizzxon

Botirsan va lekin aqiling kam, evoh!
Qadringga yetdimi, ayt, Xorazmshoh?

O't menga, bo'lursan qo'shin ulug'i,
Senga besh qal'ada no'yonlik tug'i!

Donishmand

(sahna orqasidan)

Ko'zlarim... ko'zlarim kuyadi, imdod!

Temur Malik

Xorazmshohga men bo'lmadim sardor,
Jalol amri bilan men alambardor!
Yurtimga navkarlik ulug'verlilikdir,
Qal'ama erk tug'i chin tug'dorlikdir.
Vatanga qulchilik — shohna mansab,
G'azotdan qaytmasman bilgil, badnazhab!

Temur Malik

Xorazmshohga men bo'lmadim sardor,
Jalol amri bilan men alambardor!
Yurtimga navkarlik ulug'verlilikdir,
Qal'ama erk tug'i chin tug'dorlikdir.
Vatanga qulchilik — shohna mansab,
G'azotdan qaytmasman bilgil, badnazhab!

Chingizzon

Bilasan, yagona farzanding asir?

Temur Malik

Oh, dahshat, bu xabar motamangiz sir!

Chingizzon

Ehtimol, senda bordur otalik mehri,
Ha, desang o'g'lingning omonda umri.

Temur Malik

O'g'lim tirik qolsa, balki umrbod —
Meni la'nat birla aylasimmi yod?
Yo'q, yo'q, bundan ko'ra u bo'lsin barbod —
O'larkan, rahmat, deb meni qilsun yod.
Sharafdan ko'z yumib topilgan naiot,
O'g'ridan sadaqa so'rashday uyot!
(Chingizzon Qodog'on no'yonga
ishora qiladi)

Chingizzon

Mirg'azab o'zing bo', Qodog'on no'yon!

Qodog'on no'yon
Temurlar erigay panjamda.

Temur Malik

(o'zicha)

Donishmand... e falak, dastingdan faryod!
Koshki qulqolarim bekilsa kardek,
Chida, Temur Malik, chida, ey yurak!

Chingizzon

(zahrxanda ilo)

Bilkii, u ko'r emas hali unchaliq,
"Ha" de, rozi bo'lgin, ey, Temur Malik!

Temur Malik

Bilardim, sen qonli qassobi odam,
Endi tushundimki, kabobpazsan ham!
(bolaning nosasi)

Chingizzon

Bilkii, hali uning bir ko'zi tirk,
"Ha" de, rozi bo'lgin, ey, Temur Malik!

Temur Malik

Koshki qulqolarim bekilsa kardek!
Chida, Temur Malik, chida, ey yurak!
(bola nosasi)

Dahshatli urushlarni ko'rdim,
Bir sheri g'arron kabi bo'kirdim,
Ammo shu qadar azobni aslo,
Bergan emas edi haq-taolo,
Yo rabbano!

Donishmand

(orgadan)

Ota! Ota!..

Temur Malik

Evoх, kuyar u nuridiydam,
Alamdan ammo quridi ko'zimda yosh-nam!
O'g'lim, meni sen eshit, chidam ber,
Sherbachchaning ham bo'lur dili sher!
Sabr et, senga chora etgali men
To 'tiyo keltirgali Yamandan,
Oltansam edim bedovga chindan,
Nur javharin topardim Hinddan.
(o 'zicha)

Hayhot, siqar qo'lanni zanjir,
Maydonda tutib buxoriy shamshir,
Yo rabbano!

Chingizzon

(navkarlarni chaqirib)
Navkarlar, nega siz ishlamaysiz soz?

Qancha ham kuydirsak, chiqarmas owoz!
Qancha ham kuydirsak, chiqarmas owoz!

Chingizzon

La'nat, nafrat, hazar,
bu yurt, bu eldan,
Keltiring!
(Yuz-ko'zi qonli Donishmandni keltiradilar)

Donishmand
Voy, bir ko'zim bilan tanidim seni!

Temur Malik

Otang sotqin emas, guvoh bo'l o'zing!
Chingizzon
O'ying!
(Qizigan temirni Donishmandning
ko'ziga bosa boshlaysdi)

Temur Malik

Jigar qonga bottdi motam ichida,
Chida, Temur Malik, ey yurak, chida!
(o 'g'liga)
Jim turgin, Donishmand, chin o'g'lim ersang,
Garchi jussang kichik, o'zing zo'r ertsan.
Buyuraman, erday va sherdai o'lgin,
Xohishim birla sen tug'ilgan eding,
Jim turib o'lishing endi xohishim!
(Navkarlar bolani qiyinaydi,
lekin bola jum)

Donishmand

Erib kuysa hamki dimog'im, tishim,
Dada, sen buyurding, men jimman, ishon!

Temur Malik

(o 'zicha)
Sardor bo'ladigan o'g'il begumoni!
Chingizzon
Chekingiz to'xtovsiz ko'ziga milni,
To so'qir qilayin bu yurt, bu elni!
(Donishmandni olib chiqadilar)

Temur Malik

Sukunating bila yeng ablah mo'g'ulni!
Gar Temur Malikning ko'r bo'lsa o'g'li,
Avlod i ko'zları bo'lur yorug'li.

Navkar kirib Chingizzonga sekin so'zlaydi, Chingizzon g'azab

bilan navkarni itaradi.

Chingizzon
Ha, qayerdan o'tibdi deding?
Jaloliddin, ha... Jaloliddin?

2-navkar

(kirib)

Yovlar soyda!

Chingizzxon

Qani Chig'atoy?

2-navkar

Qo'shinlari qochar poyma-poy!

Chingizzxon

Uh, uch oylik mehnatim barbob.
Chop, qo'shinlar qaytib chiqsin bot!

Temur Malik

(ta'na bilan)

Tutqun sherga do'q qilmoq oson,
Erkin sherdan bo'lding haroson?

Chingizzxon

Fursat berma, chiqarib mahv et,
Ketmog'imga bo'lmasin shohid!

Temur Malik

(chiqa turib)

Jaloliddin o'lmas qahramon,
Yurt yasharkan, o'lsam yo'q armon!

Chingizzxon

Jaloliddin bosmish banogoh,
Jang qilmaymiz, chidamas sipoh!
Tashlang qasr-u chodirga darhol —
Xazinalar, liboslar, zar, mol!
Ular bo'lsin bunga sargardon!
Chekilsinlar qo'shinlar hamon!

Chingizzxon va a'yontular shoshilib chiqib ketadilar. Mulozimlar
qimmatli buyum, tilla va javohirlarni sochib, ularning ketidan ketadilar.
Tashqarida jang suroni eshitildi.

BESHINCHI PARDА

BIRINCHI KO'RINISH

Jaloliddin qarorgohi. Chodirlar... Urushdan qaytgan qurolli sarbozlar ikki qator saf tortib turadi. Zafar marshi chalinadi. To'qinli va bardam muzika ohangi ostida "Jaloliddin!", "Jaloliddin!" degan tabrik niodolari eshitiladi. **Jaloliddin**, uning orqasidan Sultonbegin, amirlar va sardorlar kirib keladi.

Jaloliddin

Rahmat sizga, sipohlar, rahmat, amirlar,
Dam oling,
amrim kuting, azamat erlar.
(askarlar tarqalib ketadi)

Nasaviy

Sultonbegin ko'rsatdi ulug' jasorat,
Dushmanlarga yetkazdi zarar, malomat.

Sultonbegin

Qarasam bir chekkada bir dushman — a'yon,
Bir tanholik izlardagi bamiqli quyon.
To'g'ri otni soldirib ayladim asir!

Jaloliddin

(sho'x)
Sen menga sardor eding,
endi bir vazir!
(Nasaviyga)
U asimi bu yoqqa olib keltirgil!
(Nasaviy chiqadi)

Qani bo'lsa sendayin yana yuz singil,
Hammasi ham vazirmi?

Sultonbegin

Hammasi ham vazirmi?

Jaloliddin

Yo'q, bu ko'p mushkul.
Har sohibi mansabga fuqaro kerak.

Jaloliddin

Qonli yoyning jazosi — itlar o'limi.

Sultonbegin

Xo'sh, bittasin chin sevib qolsa-chi, yurak?
Nahotki sevmak gunoh? Men kimdan yomon?
Yaxshi sevsxa yaxshiroq urushar o'g'lon.
Lekin Sultonbeginday bo'l'sin, vassalom,
Husni, fe'lli sen bilan barobar tamom!

Sultonbeginning qalpog'ini ko'taradi. Qalin kokillari yelkaga
tushadi, Jaloliddin kokillarni qo'liga olib:

Yana bir shart, kokili kokiling monand,
Mening sarkash ko'nglimga bo'lolsin kamand.
(Asirni keltiradilar. U soyada. Yuzi ko'rimmaydi)

Sultonbegin

Seni asir aylagan menman — bir ayol.
Sen kim?
(asir jim)

Jaloliddin
Sen kim?

Sultonbegin

Bayon ayla, sen kimsan, mo'g'ul no'yoni?
Bergay toki jazzangni hukmi rabboniy!

Nasavy

Bu sukut alomati — rizodir, sardor,
Ayting, jazosi qanday jazodir, sardor!

Jaloliddin

Asir tiz cho'kadi. Yorug'da yuzi ko'rindi. Bu Badriddin. Uning bir
qo'lida sug'urilgan qilich, ikkinchi qo'lida kafan.

Jaloliddin

Hech qasdim yo'q, shu qilich yodgoringiz,
Shu — kafanim, o'ldirin, ixtiyorin giz!
Asir bo'lib tushuvdim mo'g'ulga nogoh,
Chunki yarador edim xoh-u noxoh.

Sultonbegin

Yo'q, gapingiz yolg'ondur, to'g'risin aytинг,
Men bilaman, siz emas amir Badriddin.

Badriddin

Boqing, menman, unutmoq shuncha tez, evoh!

Sultonbegin

Siz Badriddin emassiz, siz Badriddinshoh!
(Amir Badriddinda o'zgarish)
Muhringizda shunday-kul!
Siz Badriddinshoh!

Nasavy
Xiyonat deb atalar siz qilgan gunoh!

Badriddin

(Sultonbeginninga)
Eslagin sevgimizni, visol chog'larin,
Samarqandning oydimli, gulzor bog'larin!

Sultonbegin

Qani va'dang, vafovodor bo'lgayman devding,
Ma'shuqanning qalbimi najot umiding?

Badriddin

Oliyhimmat deydilar sevgi dargohin,
U yerda afv etarlar oshiq gunohin!

Jaloliddin

(Badriddinga)

Vatan, sevgi, sadoqat nazaringda hech,
O'ylaganing toj bo'ldi sening erta-kech!
Sotding Temur Malikni, ishlattding nayrang,
So'yla, nedur xoining jazosi, so'yla!
(Badriddin andishada.
Xudoychilar kiradilar)

Xudoychi

Xorazmshoh shu onda
Qal'ayi "Sar jahon" da,
Yashirinchha omonda.
Kuyovning ahvolidan –
Xabar olgach u shu dam –
Tartib bo'ldi shu farmon:
Amirga amin-u omon.
Bo'shatilsin tez kuyov,
Qal'aga borsin darrov!

Farmoni Jaloliddinga beradi. Badriddin xursand. U Xudoychiga
bir xaltacha oltin tashlaydi.

Badriddin

Ahsan Ollo, olivhimmat shohimizga ofarin!
Soqchilar uni uzb bilan bo'shamoqchi bo'ladilar.

Jaloliddin

(Birtdan qat'iy qaror bilan)
Modomiki shoh jaqdan qochar ovora,
Farmoni ham soqitdir, bu bir xatpora.
(farmoni yirtib tashlaydi)

Badriddin

Shahanshohnning amriiga bu isyonkorlik,
Bu islomda fitmadur, oqpadarlik!

Nasaviy

Shomoniylar butiga cho'qingan "islom!"

Jaloliddin

Chirik farmon yirtilar, yirtdim, vassalom!
(Xudoychiga)

Shunday najotkor ekan hazrati sulton,
Nega qilar xoinga najotni ehson?
Asoraida yurarkan haramxonasi,
Yo'qdur kimdur o'lkanning bir begonasi!
Yo'qdur mendan boshqa hech sohibi farmon,
Ogoh bo'lgay azmimdan darbadar sulton!
(Xudoychilar ketadi)

Nasaviy

Na kun ko'rgan, na kecha shunday dahshatni,
Qurt yer ekan ichidan keksa daraxtni
Afsus, buyuk bir davlat bo'lsa-da, Xorazm,
Taxtnishinlar bo'ldilar beg'ayrat, beazm.

Jaloliddin

Buyur, singlim, hukmingni,
buyur shu mahal –
Ijro qilay hukmingni men ham behayal!

Sultonbegim

U ishqidan aynidi, aynidim undan,
Uning yuzin unutdim men o'sha kundan!
Shu qalbaki sevgi-chun loptaldi ko'nglim,
Shu xorlangan sevgim der:
xabisga o'lim!
(chodirdan chiqadi)

Jaloliddin

Ammo ablah tulkinning yana aybi bor:
Yurtfurushlik uchun u o'lsin ikki bor —
Ikki marta o'ldirgin buni jallod tez,
Avval o'q-la mixlagin, so'ngra bosshin kes!

Badriddin

Musulmonlar, qo'y manglar, men shohga domod!

Nasaviy

Domodlikning ipini uzding sen badzod!

Jaloliddin

Kallasini aylantir, ko'rsin el-diyyor,
Bilsinlarki, xoinga shu oqibat bor!

Badriddin

Tavba qildim valiahd, umrimmi ayang,
Bu bir xato, jaholat, ma'zurman diltang.
(Jalloddalar Badriddinni olib chiqadi)

Jaloliddin

Qo'rkoq o'lar har lahza, mard faqat bir gal.
Soya yanglig' yuradi biz bilan ajal.
Undan qochsang quvadi, quvsang qochadi,
Yalimoqni, ajabo, bormi hojati?

Nasaviy

Koshki hech tug'ilmasa xoinlar deyman!

Jaloliddin

Tug'ilsa ham baribir qirib haydayman!
Ko'rgannmisan, Nasaviy, Amudaryoda
Ba'zan sohil bo'yida yotgan bir xoda
Tegishadi suvlarning sarkash labiga,
Shunda o'sha xodani sekin-ohista,

Qimirlatib sudraydi suvlar ko'p usta.

Tepib-tepib tashlagach suvning bag'riga,
Polvon daryo ortadi uni sag'riga —
Bo'g'ib, ezib girdobda o'ymatar toshlar,
Xorazm dengiziga muttasil boshlar!
Men ham Amudaryoyman, o'jar, qasoskor,
Yo'llarimda har to'g'on bo'lur tor-tor.
Farmonim shu: dam olsin biroz lashkarlar.
Yangi hujum amrida kutsin xabarlar!

Jaloliddin chodirga, Nasaviy boshqa tomonga chiqib ketadi, Amir Ag'roq bir guruh qipchoq sarbozlar bilan kirib keladi.

Ag'roq

Ammo yomon bo'lindi, yigitlar, o'lia!

I-sipoh

(o'zicha)
Birovga xazina, birovga qulcha!

2-sipoh

Menga bopda o'lia-chi, yovning qochishi!

Ag'roq

(sahna orqasini imlab)
O'sha tulpor otni-chi, shohona bedov!
Sahna orqasida shovqin, Amir Muzaffarning ovozi.

Muzaffar

(sahna orqasidan)

Xo... xo... qonni to'kk'an biz, mazaxo'r qipchoq,
Yayov chopgan bizlar-u, ot minsin olchoq!
(O'z sarbozlar bilan kirib ketadi)
Amir Sayfiddin Ag'roq, haqorat yetar,
Qizimga tajovuzdan bu ishing battar.
Pisib bording orqamdan, bizlar qon to'kdik,
Menga tegish tulpori mimmaklik nechuk?

Ag'roq
Badbaxt g'urlar, haromxo'r, amir maqtanchoq,
Biz shahanshoh tag'osi, aslimiz qipchoq!

Muzaffar

Vahshiy qipchoq, dashti Gul!

Ag'roq

Jim, haromzoda
(qamchi bilan savaydi)

Tilingni

qis, o'g'ri g'ur!

Muzaffar

(keta turib)
Ha, shundaymi g'ur bo'lak, qipchoq ham boshqa,
Tag'oyilar bir o'zi qolsin savashga.
Yuring, g'urlar, kerakmas bizga shon-shuhrat!
(ketadilar)

2-sipoh

(keta turib)
Tag'oyilar bir o'zi ko'rsatsin g'ayrat!
(qipchoqlar ham ketadilar)

Ag'roq

Bizga tuhmat, adovat, ularga davlat,
Yuring Dashti Qipchoqqa, unda bor omad.

Jaloliddin

(chodirdan chiqib kelib)
Yana mening uyqunga iblis qildi rashk,
Go'yo janjal... Balki bu sipoh qilgan mashq!
Haftalar mobaynida mizg'idim biroz,
Tushlar ko'rdim qayg'uli, g'amgin jongudoz.
O'llim mangu uyqudir deydi shoirlar,
Achchiq xato; o'lmassdan buni kim bilar?
Tush olami bir bog'dur, xayollar, qushlar,

Ammo afsus go'rlarga kirmaydi tushlar
Ko'rdim chaman... Urganchda... Amudaryoda —
Arg'uvoni kosada xushbo'y bir boda,
Menga tutib qadim do'st der edi kulib.
Ko'p sog 'indim, shahzoda, sendan ayrilib!
Yana bir bor ichaylik, suvdan kechaylik...

Mayni ichdim, tanidim. U — Temur Mallik!
Yig'lamas deb o'ylaydi meni odamlar,
Ammo chaqmoqtoshga ham qo'nar shabnamlar.
Yashirib men olamdan ko'z yoshillarimni,
Kechalari eslayman yo'ldoshlarimni!

Nasaviy

(kirib)
Tong yorisha boshladи, hazrati sardor!

Jaloliddin

(kulib)
Tariixchiga shart erur bo'lmoqlik bedor,
O'tib qolsa basavlat biron hangoma —
Ko'rmay qolsang banuqsон bo'ladi noma.
Menga ayt-chi, urushdik, shuncha jang qildik,
Goho yovni yiqitdik, goho yiqildik,
Qal'alarni fath etdik, lashkarni ezzik,
Bodi sar-sar singari ellarda kezdik,
Kallamizni kesdillar, kallalar kesdik,
Sahrolarda yugurdik, daryoda suzdik,
Bosdik, yengdik, yengildik va yana yengdik,
Qilich o'pib, o'q uzb, ayz'irlar mindik.
Uni yutib ketmasni bevafo zamон,
Jayhun — soyga tashlangan bir kesaksimon!
Xo'sh, yozganing ne bo'lur, kmlarga yetar?

Nasaviy

(daftarni ko'rsatib)
Ko'p yulduzlar o'chadi, o'chmas bu daftari!
O'qir aziz avlodlar yuz-yuz yillarda!

Jaloliddin
O'qiydimi?

Jaloliddin

Qani, qipchoq amiri Sayfiddin Ag'roq?

Nasaviy
Albatta!

Nasaviy

O'qiydimi?

Jaloliddin

U ham ketdi va ketgan lashkari qipchoq!

Nasaviy
Nizo chiqqan o'rtada o'lja tufayli!

Jaloliddin

Amirlarning o'ljaga ko'p nafsi, mayli,

Urug'lar o'rtasida chiqqani nizo —
Zafarning marrasida dahshatli qazo!

Jaloliddin

Bo'lmasa yoz: shiddatli oyati jang bo'ldi,

Chingizzon qochedi Jaloldan, holi tang bo'ldi.

Bugungi tarixni yoz yettinchi jang deb,
Kimga qilar Xudovand zafarni nasib?

Turib ayylanadi. Ufqqa qaraydi. Ufqda sahar quyoshi.

Nasaviy
Shunday tuzoq qurganman Chingizzonga, bilsang,

Nogahoniyl hamlandan bo'lur hang-mang.

Chaqir, kelsun amirlar.

(Nasaviy ketadi)

Qurshab olay bu yerda uch yoqdan tamom,
To olamdan bu maraz bitkay vassalom.

Nasaviy, Elbors

va bir necha amirlar keladi.

Nasaviy
Qani boshqa amirlar, qami Muzaffar?

Jaloliddin

Xafalashib ketibdi g'urlar barobar.

Jaloliddin

Qani Balxiy qo'shini, qayerda A'zam?

Nasaviy
Chiqisholmay ketmishlar bundan ular ham.

Nasaviy
Ona keladi. Mahram ashyolarni chodirga kiritadi.

Jaloliddin

Qani, qipchoq amiri Sayfiddin Ag'roq?

Nasaviy
U ham ketdi va ketgan lashkari qipchoq!

Nasaviy
Nizo chiqqan o'rtada o'lja tufayli!

Jaloliddin

Amirlarning o'ljaga ko'p nafsi, mayli,

Urug'lar o'rtasida chiqqani nizo —
Zafarning marrasida dahshatli qazo!

Mulozim

Sardor, bo'ling xabardon!

Tog' yo'llidan mo'g'ullar kelmoqda, sardor.

Jaloliddin

Saflab qolgan lashkarni, tuzinglar to 'g'on!

Dovonni egallab tur, Elbors pahlavon,

Orqamiz Jayhun soyi va g'urbat ellar,

Mahkam turing, bo'lgayman o'zim sarlashkar!

Hamma ketadi, Jaloliddin yolg'iz. Sultonbegim keladi.

Sultonbegin

Og'a, sizdan sevinchi, aziz, mehribon —

Onam keldi qal'adan eson va omon!

Jaloliddin

Har choq xursand bo'lay desang, singiljon

Bir musibat yuz berar bizga nogahon.

Qochib ketdi amirlar, kelmoqda mo'g'u!,
Onasini shu holda kutarmi o'g'il?

Ona

Seni ko'rmak oxiri bo'lди moyassar,
O'g'ilginam, endi men o'lsam yo'q kadar!

Sultonbegin

Qara, og'am sher kabi zarba uradi!

Jaloliddin

(*quchoqlab*)

Kulfatlар лаҳзада ташриф буюрдинг,
Yolg'из қолмish майдонда, бил, Jaloliddin.

(*o'zicha*)

Onamni qutqazaymi дaryodan o'tib,

Yoxud yana urushay saflarni tutib?!

Yaxshi o'g'il yaxshimi, yo yaxshi sandor?

(*onasiga*)

Ana, qara, ya'jujday bo'lishiб g'ujum —

Bir to'daga mo'g'ullar qilmoqda hujum.

Ona, fotiha ber!

Bo'lsun pokiza duong jangda madadkor.

Ona

Xudo yor bo'lsin.

Jaloliddin

(*singlisiga*)

Posbon bo'l onamga, jaŋgga taylor bo'l!

(*onasini o'pib ketadi*)

Huium qo'shin, qon-qasos uchun
Qilichni sug'ur, g'animni ur!

(*Sultonbegin va ona tepalikdan*
ufqqa qaraydilar)

Sultonbegin

Qara, og'am otini jaŋgga suradi.

Ona

Ko'zim yaxshi ko'rmaydi, dilim ko'radi!

Ona

Ko'zim yaxshi ko'rmaydi, dilim ko'radi!
Ko'zim yaxshi ko'rmaydi, dilim ko'radi!

Ona

Ko'zim yaxshi ko'rmaydi, dilim ko'radi!

Sultonbegin

Boq, o'ng yоqda mo'g'ullar qochar parishon.
(*o'zicha*)

Ona

Yov onasi yig'lasin, qирғин beomon!

Sultonbegin

Oh, falokat, so'l yoqdan qochib afg'onlar,
Dushman yoqqa o'tdilar, tez beray xabar!
(*ketadi*)

Ona

Endi qilay sizni deb qiblagча duo!
Shoyad ijobat bo'lgay niyoz — muddao.

(*daryo labiga borib qo'llarini*
osmonga ko'taradi)

Ikki lochin yetkazib bo'ldim nomdor:
Bitta qiz-u bir o'g'il — ikkovi sardor.
Bitta siyna shunchalik parvarish qilur,
Bitta ona ko'p qilsa shuncha ish qilur.

Chodirga kirib ketadi. Sultanbegin qaytadi.

Sultonbegin

Dushman ko'pdur bag'oyat, muslimonlar oz,
Ming kalkatga ne qilur bitta shunqorboz?
(*ketmoqchi bo'lur*)
Og'am bilan o'lganim qo'lma-qo'l yaxshi...
(*o'ylab*)

Lekin onam, onam-chi... men unga soqchi!

Ona*(kirim keladi)*

Buni bargin og'angga, aytgın, bu ma'jun.
(bir shisha beradi)

Bilməsin, tomirimdən olingen sof xun!

U ochlikə yo liqsa safarda agar,
 Buning bitta yutumi unga jönpärvar.
 Endi sizlər boringiz g'urbat ellarga,
 Tutqun Vatan dardını chertib dillarga.
 Qaytib kelgach go'rlargə soling bir nazar,
 Balkı unda sunbul-u rayhonlar o'sar.
 Mo'g'ullarga bir oqsoch bo'lishdan ko'ra
 Balıqlarga yem bo'lsam — afzal ming karra.
 Dunyoga oldın kelgən, oldın ham kətar!
 Yashashım yetar!

O'zini suvgə tashlaydi. **Sultonbegim** yugurib sohilga yiqiladi.**Sultonbegim**

Ona, ona, oh, dahshat... To'xtang to'lqinlar!
 To'xta daryo, hech onang yo'qmidir magar?

Jaloliddin

(Bir necha mahram bilan qaytib keladi.)
Ko'zi Sultanbegimga tushadi)
 Sultanbegim, ne bo'ldi, onamiz qani?

Sultonbegim*(daryoni ko'rsatib)*

U bir murda, na go'r bor va na kafani.

Jaloliddin

(tiz cho'kib, boshini ushlaydi)
 Vatan deya kurashdim, onadan kechdim,
 Unisidan sut ichdim, bu deb qon ichdim.
 Mudhish tole bermishdir Jalolga Olloh,
 Na ona bor, na yurt bor, na lashkar, evoh!

Uzoqdan jang sadolari. **Jaloliddin** turib, yuragini ushlaydi,

Ko'tara olarmikin shu dardni yurak?
 Yo'q. Qasosni olay deb yashamoq kerak!
 Sarboz, qara, daryoda bormi qayiqlar?
(Mulozim chiqadi)

Sultonbegim*(shishani beradi)*

Bir ma'jun, bergen edi onam — yodigor,
 Dedi, qachon qilsangiz g'urbat ixtiyor,
 Och qolsa Jaloliddin, ichsin ma'jundan,
 Toqatsizlik va ochlik daf bo'lur undan.

Jaloliddin*(shishani o'padi)*

Balki yurak qonidur, yoki bir eksir,
 Bir eksirki, bag'ishlar abadiy umr.
 Aziz ona, qaydasan, o'lsang ham tingla,
 Qayerda men tiz cho'kay qabringga, so'yla!
 Bildim sening qabringdur butun shu Vatan,
 Daryo sening tobuting, ko'piklar kafan.
 Sohillar, izzat illa ko'taring yelka,
 Jayhun to'g'ri eltadi tobutni elga!
 Quyosh o'zi guvohki azaldan beni,
 Amudaryo oqqanmas aslo teskari!

Nasaviy*(yarador bo'lib keladi)*

Beshta og'ir yaram bor, yaram o'ldirar,
 Jangdan chiqdim, yo'qolib qolmasin daftar!
(daftarni chiqarib yoza boshlaydi)

Jaloliddin

Bir musht kabi yumilmay qoldi sultanat,
 Qabila-yu urug'ga tushdi adovat!

Nasaviy*(behob)*

Nafas bitar, Azroyil, yo'qol, badburush!
(sardorga)
Nima bilan tugadi yettinchı urush!
Nima yozay, sardorim... o'char nafas, xush!
(u behol yerga yotadi)

Jaloliddin

Yozgin, hali bitgannas yettinchı urush!

Nasaviy

(ko'krak yarasidagi qon bilan yozadi)
Siyya qonidan yozay so'ng fojiani.
(Yiqilib o'ladi. Daftар qo'lidan tushadi)

Jaloliddin

(uning sovuq qo'lini o'pib)
Shunday umring tugadi, buyuk tarixchi,
Ulug' jangga vasiqa shu qo'lning ishi.

Sultonbegin

Ko'msak Vatan yerida biz uni darrov,
Qaytib kelishimizga bu turfa garov!

O'llikni olib chiqadilar. **Elbors** pahlavon ust-boshlari qon, qo'lidagi
qilichi ham qondan qip-qizil bo'lgani holda kelib, holsizlanib o'tiradi va
qilichini tashlab,

Elbors

Qirmoq bilan tugamas bu ya'juj — dushman,
Trirk qolib ne qilay, jangda o'lgayman.

Jaloliddin

(Nasaviy tashlagan daftarni olib)
Yo'q, sen yasha, bu yerda qol mardonavor!
Biz aylaymiz yig'labon g'urbat ixtiyor!
(quchoqlashib xayrlashadi)

Nafas bitar, Azroyil, yo'qol, badburush!
(sardorga)
Nima bilan tugadi yettinchı urush!
Nima yozay, sardorim... o'char nafas, xush!
(u behol yerga yotadi)

Mulozim*(kirib)*

Hech qayoqda ko'rinnas qayiqlar, sardor!

Jaloliddin

Darhol, darhol egarlang chopog'on tulpor!

Mulozim

Egarlardan uzilgan jangda ayillar,
Daryoning suvi toshqin, quturmish sellar!

Sultonbegin

*(Birdan xanjarimi chiqarib,
o'z kokillarini kesadi)*
Arqonga ham yaraydi shu qalin kokil,
O'n besh otga chiqadi bermalol ayil!
(kokilini beradi)

Jaloliddin

Fido etding husningni, bahodir singlim!

Sultonbegin

(qalpog'ini kiyib)

Kokil yana o'sg usi, bo'lmasin o'lim!

*(Jaloliddin bir qo'lida kitobni ko'tarib, boshqa qo'li bilan Sulton-
beginni qo'liqlagan holda)*

G'urbatlarga yo'll olmoq uchun musibat,
G'urbatda ham armondir Vatanga xizmat!
Hali ado bo'lmapti ulug' hangoma,
Nasaviy bitirmasdan qoldi jangnomha.

IZOHLAR

Bir bo'lsaydi sultnat, el-urug'lar bir,
Dahshat sochib bo'lardik jangda olamgir.
Mangulikdan joy olgan — yashar abadiy,
Men-ku, Manguberdiman, olam biladi.
Ko'klardanni, suvdanni, yo yer tagidan,
Balki sahro bag'ridan, tog' etagidan,
Bir kun paydo bo'laman shu yurt, shu yerda,
Yurt shaydosi ko'milmas g'urbatda — go'ida.
Ulug' vor niyatlarg'a kor qilmas ajal,
Kim yurtdan yovni quvs'a — mendurman o'shal.
(mahram kiradi)

Mahram

Otar tayyor, fursat oz, tez bo'ling, sardor.

Uzoqdan Elborsning nayi eshitiladi. Jaloliddin singlisining qo'llini
ushlab,

Jaloliddin
Eshit, xalq ham u kuyday, mangu poydor!
Bilasanni, biz qaytar kunda u maqom
Yo'limizni belgilari! U kunga salom!

Nayning uzoqdan chalinayotgan sadosi va mo'g'ullarning kuchayib
turgan nidosi asnosida ikkalasi jarga tushib ketadi.

P A R D A

“Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasi Ulug’ Vatan uru-shining eng qizg'in bir davrida — 1944-yilda yaratildi. Drama o'tmishda chet el bosqinchilariga qarshi xalqimiz olib borgan mar-donavor kurashning yorqin sahifalaridan birini badiiy sahna asari vositasida tirtilirish va uni Ulug’ Vatan urushi yillarining jangovar vazifalariga hamohang idrok etish borasida katta tarbiyaviy ahani-yatga ega bo'ldi. Dramada XII asrning birinchi choragida O'rta Osiyo yerlariiga bo'stirib kirgan Chingizxon ga qarshi mustaqillik uchun olib borilgan kurashning eng xarakterli davri aks ettiligan. Asar voqeasi asosan 1217-1224-yillar orasida bo'lib o'tgan tarixiy hodisalarni o'z ichiga oladi.

Mazkur drama 1945-yilning yanvarida Hamza nomidagi O'zbek Davlat akademik drama teatrida sahnalashirildi, uni tomoshabinlar va keng addabiy jamoatchilik qizg'in kutib oldi. “Ko'pdan buyon uzun umrli, badiiy salmoqdor sahna asarlarini orzu qilar edik, (Jaloliddin) bu asar orzumizga javob berishga qo-dir”, — deb yozgan edilar akademik yozuvchilarimiz Oybek bilan G'afur G'ulom.

Sulton Muhammad Alovuddin Xorazmshoh — xorazm-shohlardan Tekeshning o'g'li, O'rta asr Sharqida vujudga kelgan qudratli feudal davlatlardan birining hukmdori (1200–1220). Sultan Muhammad mo'g'ul bosqinini daf qilish uchun sultanat taqdiri haqida jiddiy tashvish chekkan bilimdon siyosiy arboblarning oqilona maslahatlariга amal qilindi, aksincha, o'z mansaati va sha'n-shavkatni uchun qayg'urgan saroy zodagonlarining so'ziga kirdi. O'sha davr Sharq davlatlari orasida eng qudratli qo'shinga ega bo'lgan Sultan Muhammad (besh yuz mingdan ortiqroq) o'z qurolli kuchlарini birlashtirib yovga zarba berish o'rniغا, askar-larini mamlakatning turli qal'alariga bo'lib yuboradi. Dushmanga qarshi faol hujum qilmaydi, balki mudofaa jangi taktikasini afzal ko'radi. Iste'dodli sarkarda, donishmand davlat arbobi va bag'oyat dovyurak katta o'g'li Jaloliddinni qo'shinga boshliq qilib tayin-

lamay, onasi Turkon Xotun va tog'aları — qipchoq amirlarining so'ziga kirib, uni valiahdkdan mahrum etadi. Natijada, juda katta bir mamlakatda parokandalik yuz beradi. Xalq kimning farmoniga bo'y sunib, nima ish qilishini bilmay sarosimaga tushadi. Sulton Muhammad qochib borib, oxiri Kaspiy dengizidagi bir kimsasiz orolga yashirinadi va 1220-yilda shu yerda zotiljam kasalidan vatof etadi.

Jaloliddin — Sulton Muhammad Alovuddinning katta o'g'li. O'sha davr tarixchilar, ayniqsa, uning shaxsiy kotibi va tarixchisi Muhammad Nasaviyning Tarixi Jalolliya kitobida yozilishicha, Sulton Muhammadning vafoti xabarini eshitgan mamlakat a'yonlari Jaloliddinni Xorazm saltanatining sultoni deb e'lom qildilar (1220). Shundan boshlab Jaloliddin Chingizzxon bosqiniga qarshি kurashga otlangan barcha kuchlarga boschchilik qiladi. Mo'g'ul askarlari O'rta Osiyoda o'z hukmronligini o'matgandan so'ng ham Jaloliddin taslim bo'lismi xayoliga keltirmaydi. Kurashni Eron, keyin Hindiston yerlarida davom ettiradi.

Jaloliddin kurash davomida Chingizzxon askarlariiga qarshi birinchchi qaqshtaqich zarbani 1221-yil avvalida Nassa (hozirgi Ashxobod) shahri yonida beradi. Shundan so'ng G'azna tomon ketib, u yerda o'z qo'shinini 60 ming kishiga yetkazadi. Mo'g'ul qo'shinlari bilan jiddiy to'qnashuv 1221-yil o'rtalarida Afg'onis-tonning Panjshir vodiysida, Parvon mavzeyida bo'lib o'tadi, Bu jangda Jaloliddin mashhur mo'g'ul sarkardasi Shiki Xutuxu askarlariini butunlay tor-mor qiladi. Biroq, mo'g'ullardan olingan o'ljani taqsimlash paytida Jaloliddin qo'shini tarkibida janjal ko'tariladi. O'zbilarmon, manman amir va beklarni yaratshirib, ularning boshini bir yerga qovushtirishga Jaloliddin qanchalik urimmasin, natija chiqmaydi. Bir necha bek va amirlar arazlab, o'z askarlарини олиб, Jaloliddinning qarorgohidan ketib qoladi. Oqibatda Jaloliddinning kuchi ancha zaiflashadi. Lekin bu holat Jaloliddin irodasini bo'shashtirmadi. U o'zining qolgan kuchlari bilan Sind (Hind)daryosi tomon yuradi. 1221-yilning noyabr oyida Sind daryosi bo'yida hal qiluvchi dahshatlji jang yuz berdi. Mo'g'ul qo'shinlariga bevosita Chingizzxonning o'zi rahbarlik qildi. Avvaliga Jaloliddinning qo'li baland keldi. Ammo, Chin-

gizzxon tomonidan qo'yilgan o'n ming kishilik pistirma jang oqibatini hal qildi. Jaloliddin yengildi. Lekin taslim bo'lmadı. Onasi, xotini va singlisi Sultonbegimni mo'g'ullar qo'liga asir tushib, xo'rلانishini istamagan Jaloliddin ulami Sind daryosiga g'arg qiladi, o'zi oti bilan suvg'a sakrab, daryoning u qirg'og'iga suzib chiqadi. U bilan birga to'rt mingga yaqin askarlar ham om'on-eson hind yeriga suzib o'tishadi.

Muhammad Nasaviyning yozishicha, Jaloliddinning dovvurakligidan hayrarda qolgan Chingizzxon yonida hozir bo'lgan o'g'illariga qarab: Agar sununday o'g'lim bo'lganda, o'zimni... dunyodagi eng baxтиyor otalardan hisoblardim", deydi.

Jaloliddin hind yerlarida 1224-yilgacha yashadi, yana qo'shin to'plab, 1227-yilga qadar mo'g'ullar bilan jangni davom ettirdi. 1227-yilda Eron orqali Kavkazga o'tadi. U yerda vaqtinchalik o'z hukmronligini o'rnatadi. Ammo o'zi orzu qilgancha quadrati davlat tuzishga erisholmay, 1231-yilda Kurdiston tog'lارida ov paytida fojiali ravishda halok bo'ladi.

Temur Malik — Xo'jand hokimi, Mo'g'ul qo'shinlariga qarshi olib borilgan kurash bahodirlaridan biri. Jaloliddinning yaqin do'sti va sodiq sarkardasi, Xo'jand mudafaasida ajoyib sabot-matomatko'rsatdi. Qorong'i bir tunda 70 ta kemaga qurol-yarog', oziq-ovqat va qolgan askarlарини joylab, Sirdaryoning quyi oqimi tomon suzib ketdi va mo'g'ullar qamalidan qutuldi. Ko'p masqaqtlardan so'ng 1220-yilda Urganchga yetib bordi va Jaloliddinga qo'shildi.

Tarixchi Al-Juvayniyning xabar berishicha, Temur Malik mo'g'ullarga qarshi ko'pgina janglarda faol qatnashdi, ammo Jaloliddin qo'shinlari yengilgach, mo'g'ullarga itaat etishni istamagan bu sarkarda O'rta Sharq mamlakatlariiga ketdi. Bir necha vaqt Suriya, Iroq va Arabistonda so'fiyona darveshlar libosida darband umr o'tkazdi. Qarib qolgach, taxminan 1245-yillarda o'z yurti Xo'jandga qayrdi. Mo'g'ullardan qo'rqan xo'jandliklar uni qabul qilibidan bosh tortib, go'yo tanimaslikka oldilar. So'ng, u Chingizzondan keyin ulug' xoqon bo'lib qolgan O'qtoyxonning o'g'li Qodaxoqon huzuriga borib, o'ch olish maqsadida uning saroyiga xizmatga kiradi. Avvalgi janglarda Temur Malik o'qidan ko'zi ko'r

bo'lib qolgan bir mo'g'ul no'yoni (askarboshi) uni tanib qoladi. Va nihoyat Temur Mallikni tutib, taxminan 1250-yilda qatl etadilar. Bu xalq qahramoni haqidada Sadreddin Ayniyning Temur Malik risolasiidan mufassal ma'lumot topish mumkin.

Sultonbegim — Jaloliddinning tug'ishgan singlisi. O'sha davrt tarixchilarining xabar berishicha, g'oyat go'zal, oqila, dovyurak va tadbiikor ayol bo'lgan. Akasi Jaloliddin bilan birligida Chirgizzonga qarshii janglarda ko'p marta ishtirok etgan.

Muhammad Nasavy — Jaloliddinning yaqin a'yonlaridan. Mashhur tarixchi. Uning taqdiri qiziq, 1221-yil noyabrda Sind daryosi bo'yida bo'lgan mashhur jangda qattiq yaralanib, murdarasida qolladi. Mo'g'ullar uni o'lgan hisoblab, e'tibor bermaydilar. O'zining yozishicha, Chingizzxonning Jaloliddin jasoratidan hayratlanib aytgan gaplarini o'z qulog'i bilan eshitgan. Nasavy jaloliddindan so'ng ancha yashab umr ko'rgan va mashhur kitobi — "Tarixi Jaloliya" ni yozgan.

Imom Shahobiddin Xewaqiy — mo'g'ullarga qarshi marodonavor kurashda Urganchda qahramonlarcha halok bo'lgan ruhoniy arboblardan, shayxulislom.

Chingizxon — asli oti Timuchin bo'lgan. O'rtahol mo'g'ul feodalining o'g'li, xitoylar bilan bo'lgan bir jangda asir tushib, 24 yoshigacha qullikda umr kechirdi.

So'ng asrirlikdan qochib, mo'g'ul yeriga keladi va mayda-mayda mo'g'ul bekliklarini birlashtirishga kirishadi. XII asrning oxirlariga kelib, feodallar Qurultoyida unga Chingizzxon (buyuk xon, xonlar xoni) unvoni beriladi. Mo'g'ul mamlakatining yago-na hukmdori bo'lib qoladi. Qudratli qo'shin tuzib, Xitoy, Sharqiy Turkiyoti kabi qo'shni mamlakatnarni bosib oladi. 1218-yildan boshlab O'rta Osiyo yerlariga bostirib kirdi. 1222-yilda O'rta Osiyoda o'zining to'la siyosiy hukmronligini o'matadi. Chingizzxon 1227-yilda vafot etdi. Undan keyin O'rta Osiyoda uning ikkinchi o'g'li Chig'atoxyxon va avlodlari bir asrdan ortiqroq hukmronlik qildilar. 1363-yilda O'rta Osiyoda Temurning hoki-miyat tepasiga kelishi natijasida Chingizzxon sulolasi hukmronligiga barham berildi.

Izohlar muallifi M. Zokirov

MIRZO ULUG'BEK

Besh pardali tarixiy fojia

Qatnashuvchilar:

Mirzo Ulug'bek ibn Shohruh — buyuk olim, Movarounnahru hukmdori — 56 yoshda.
Abdullahif Mirzo — uning o'g'li — 30 yoshda.
Ali Qushchi — Ulug'bekning shogirdi va mahrami. Astronom — 35 yoshda.
Gavharshodbegin — Shohruh Mirzoning xotini, Uluq'bekning onasi — 75 yoshda.

Sakkokiy — mashhur shoir. Uluq'bekning do'sti — 45 yoshda.
Shayxulislom Burhoniddin — zamonaning tarraqqiyparvar ulamolaridan — 65 yoshda.
Firuza — Uluq'bekning sevikli xotini — 22 yoshda.
Nigor xonim — Uluq'bekning xotini. Xon qizi — 37 yoshda.
Sayid Obid — muhtasib. Reaksiyon diniy arbob — 65 yoshda.
Abbos — Sayid Obidning o'g'li. Abdullatifning mahrami — 28 yoshda.

Eshon Ubaydulla Xo'ja Ahror Vali Toshkandiy — Shayx — 45 yoshda.
Abdurazzoq Samarcandiy — mashhur tarixchi — 35 yoshda.
Bek Arslon — Sardor — 50 yoshda.
Mavlono Shamsiddin Muhammad Miskin — Samarcand qoziyi — 70 yoshda.
Farmonsoh Qo'rchi — Samarcand dorug'asi — 45 yoshda.
Piri Zindoniy (Hasan ohangar) — mahbus — 80 yoshda.
Bobo Kayfi — yoshini ham, ishini ham tayinlash mahol bo'lgan bir shaxs.

Berdiyor — Uluq'bekning navkari — 35 yoshda.

Buroqbek — Qipchoq begi, qo'zg'olonchilar boshlig'i – 47 yoshda.

Xo'ja O'zbek — devonbegi — 50 yoshda.

Abdurahmon Joniy — yosh olim va shoir — 26 yoshda.

Ota Murod — dehqon — 67 yoshda.

Chin, Hind, Farang, Misr, Rus elchilari

Amir Temurning arvohi.

Madrasa talabalari, ulamolar, haramxonalar, xotinlari, raqqosalari, ashulachi qizlar, sozandalari, xonandalari, dehqonlar, sipoqlar, mahramlar, bozor ahli, asirlar, mahbuslar, qalandarlar.

Samarqand atrofida Ko'hak tog'ining etagida, uch oshyonallik rasadxonaning old tomoni va eshigi ko'rindi. Bu imorat Obirahmat irmog'ining sohilida qurilgan. Pastroqda go'zal chorborg' ko'rindi. Ikkinchini tomonda Ulug'bekning Chiniy koshonasi ko'zga tashlanadi. Eshik oldida, chap tomonda, tepalikda baland minor yuksalmoqda. Avvalkuz fasli. Qosh qorayib qolgan payt. Onda-sonda osmonda yulduzlar charaqlaydi. Soqchilikda uch posbon turibdi.

I posbon
Jim, yigitlar! A'lolahazrat ilm o'ylaydilar.

II posbon
(ohistaroq gapirmoqchi bo'lib)
O'g'lon, sen ham julduzlarga tushunasanbi?

I posbon
Bo'lmasam-chi! Biz o'zimiz birlanchi posbon.

III posbon
(kulgisи qistab)
Tushuntir-chi!

I posbon
Bo'lmasa-chi, hay so'tak, eshit!
Yulduzlarни bilganimdan shu amaldaman.
Olampanoh Ulug'bekning zamonasida
Nodonlarga bu dargohda tirikchilik yo'q.
Hayronmanki, sandaqalar qanday kun ko'rар!
Tavba dedim...

III posbon
Xo'sh, tushuntir, biz ham bilaylik!

I posbon

Tavba... Tavba... Shuncha to'pos, kalvak ekansiz!
Billoh yegan noningizni harom yegansiz!

II posbon

Mulla aka... Bizlar qoyil... Sen zo'r bilag'on:
Bizlarga ham shu osmonni anglatib bergin!

Tun yaqinlashgan sayin osmonda yulduzlar ko'proq charaqlay boshlaydi.

I posbon

Bo'lmasa-chi!

III posbon

Bo'lmasa-chi! Senda hech gap yo'q!

I posbon

Sen qaqlidoq ilm qadrin bilib bo'libsan!

III posbon

Osmondag'i hamma gaplar yerning maq o'zi.
Mana senga misol uchun, shu zangori ko'k.
Fahming yetsa uni degin yalanglik o'tloq.
Mana senga misol uchun, 'bir to'da yulduz,
Fahming yetsa, uni bilgin bir suruv qo'y deb.
Mana deylik o'sha bulut... Lekin asli-chi,
Yaylovdag'i tog' tizmasin qorli sirthari.

II posbon

Bo'lmasa-chi! Bo'lmasa-chi! Ha, barakalla!

III posbon

Bu podaning qo'ychivoni oy degan xumpar.
Goh to'ni yag'rimiga tashlab kezdi,
Goh zim ketib, chodirida yotib pisadi.
Goh uyatsiz ishtonchangdir, turar yalang'och,
Pinagini buzmay kular yallo beparvo!

(ta'na bilan)

Ko'z tegmasin!.. Ko'z tegmasin, bu gap tagida
Ilm borga o'xshab qoldi.

(o'z-o'ziga)

Juda qiziq bu!

III posbon

Og'a mulla! Gapim sizga ma'qulmi, qani?

I posbon

Xo'sh, chaqmoqlar, xo'sh,
yong'irlar, xo'sh, qorlar, nima?

III posbon

Eh-he, buni bilmaysammi? Bechora to'ram!
Fahming yetsa, sen chaqmoqni hassa deb bilgin,
G'orillardagi bo'rilarni zirillatay deb
Qo'ychivon — oy o'dag'aylab urar tog'langa.
Yong'ir — osmon qo'ylarining tabarruk suti.
Qorlar esa oq qo'ylardan to'kilgan junlar.

II posbon

Xo'p bopladning, o'zing deyman qo'yboqarmisan?
Bunaqasi ilm bo'lmas. Aslini desang,
Har bir yulduz bir insomning joni degani.
Yulduz ketdi, demak, birov ajali yetdi.

II posbon

Julduzlarni egalarin billasanbi sen?

I posbon

Bo'lmasa-chi! Ana o'sha qibla tomonda
Charaqlagan yorug' yulduz Mirzomizniki!

O'shandan sal quyiroqda daraxt shoxiga
Ilinganday yaltiragan janob sardorning.
O'ng tononda tog'ga tomon osilgan yulduz
Shayxulislom yulduzidir. Unga chap turgan
Anu, qizg'ish xunuk yulduz kimmiki deysiz?

II-III posbon
Xo'sh? Xo'sh?!

I posbon
O'sha Ahmad hoji qassobniki-da!

Ko'kdan bir yulduz uchib ketadi.

II-III posbon

Qara, qara, yulduz uchdi. Kim qazo qipti?

I posbon
Qaydan bilay! Azroilga ro'yxatchimanmi?
Kim ajali yetgan bo'lsa, o'sha o'lgan-da!

Ajal kelib, san tentakdan ijozat so'rab
Vaqtin bo'lsa jonginangri olay demas-ku?!

III posbon
Gaplaringning na tuzi bor, na ma'nosi bor.

I posbon
Sen istagan cho'pchagingni so'ra, yechaman...
Bo'lmasa, oy qaysi jonnинг yulduzi ekan?

III posbon
Bo'lmasa, oy qaysi jonnинг yulduzi ekan?
Oy deganining, ya'ni, barcha yulduzga rais,

Ya'ni, ulug' iahongirga yulduz bo'лади.
Sohibqiron Temurbekning yulduzi...

III posbon
Bema'ni gap. Sohibqiron jannat bog'iga
Ko'chganiga qirq yil bo'pti, biroq yulduzi
Nechuk ko'chmay hamon-hamon yarqirab tursa!

I posbon

Xo'p anqovsan. Bilimdonlar aytgan kalomga
Shak keltirgan g'irt ahmoqlar, johillar, xolos!
Rasadxona tomonidan Devonbegi kelib qoladi.

Devonbegi

Bas qilinglar safsatani, hay, og'zi bo'shlar!
Yulduzlarни tekshirmoqni sultonga qo'ying.
Besh qo'lidek u biladi falak uyini.
Eh, sizlarga kim qo'yibdi munajjimlikni!
Davlatpanoh chiqmoqchilar, qopqaga borib –
Darvozaning poylog'ida sergak turingiz!
Poytaxtdan kelmoqchilar aziz mehmontar,
Odob bilan siz ularni kutib olg'aysiz!

Posbonlar darvoza tomon, Devonbegi esa qaytib rasadxonaga
yuradi.

P A R D A

IIKKINCHI KO'RINISH

Yana o'sha joy. Hamma yoq qorong'i. Faqat Chiniy koshonan
ning derazalaridan xira yorug' nurlar ko'rinadi. Osmon g'oyat
yorqin. Go'yo firuza rang marmar ko'zguga sonsiz oltin zarralar
sepilgandek fazoda va bepoyon samovotda sanoqsiz yulduzlar
porlaydi. Ko'kdagi oy o'rog'i usqlardan ko'tarilib kelmoqda.
Bir tomonda baland minorada Mirzo Ulug'bek qo'llarini qo
vushtirgan holda koinotning bu sehrli kitobini sayr-u tomosha
etmoqda.

Ulug'bek

Marhabo, ey samovotning oltin yo'lichisi!
Nega beling shuncha buzik, charchab qoldingmi?
Oh azizim, ming-ming yillar yinoq yo'llarda
Yurgan yo'lichi tolib qolsa, taajib emas!

Ammo doim umidvorsan. To'rt-besh kun o'tgach,
 Beling rostlab, qomatingni to'g'riliysan-ku!
 Oq yo'l senga, manzillarda hormagin, hilo!
 Sen ham inson fikri qadar charchamas, tolmas,
 Azmimizdek yo'llaringni hech kim to'solmas.
 Oy borgin-u omon kelgin, har bir kelishing
 Koinotining manguligin eslatlar tag'in.
 Va azalay qonunlarga qilar dalolat...
 Uuu... Qaragin, manzillaring qancha serhasham,
 Hech bir shohga shuncha izzat nasiib bo'lмаган.
 Yulduzlarining tofasi shuncha mehribon,
 Bir-birini olqishlaydi chiroqlar bilan.
 Shuncha aijib koinotning sirli kitobi...
 Falaklarining har qatida ne-ne olamlar!
 U sehrgar pardalarining orqa yog'ida
 Ko'p aksiriy husnlar bor, biz bexbarmiz.
 Go'shanganining shirin, mujmal damlarin poylab,
 Qalbi o'ynab tolpinuvchi kuyov singari
 Koinotdan nash'alarmi qidirar bashar.
 Chunki sirlar betidagi niqbni ochmoq,
 Ziddiyathar ma'nosini anghamoq, yechmoq
 Mutafakkir nazarida ulug' saodat.
 Ma'rifatning shaydoligi shunday sevgiki,
 O'chiray deb puflaganda so'nmay, yanada
 Yolqinlanib olovlangan gulxanga o'xshar.
 Go'dakliydan yulduzlarga bo'lдим oshifta.
 Bilmak, butun koinotga sirdosh bo'lmoqlik,
 Kitoblarining lol tiliga qulqoq solmoqlik,
 Haqiqatgo'y donolardan ta'lim olmoqlik,
 Menga orom bermas edi o'sha chog'larda.
 Esimdadir, bir kun ustoz Qozizodaning
 Qo'llaridan o'pganimmi ko'rganda bobom,
 Menga tanbeh berib: — O'g'lim! — degan edi u,
 Erkak qo'llin, Aflatun ham bo'lsa u kishi,
 Shahzodalar o'pmoqligi butkul nojo'ya,
 Dunyo sening oyog'ingni o'pmog'i lozim!

Bu — qalbimda chechaklarning kurtaklariiga
 Kuz cho'lidan esib kelgan ilk shamol bo'ldi. —
 Qirq yil bo'ldi koinotning kitobin o'qib
 Ma'rifatning dargohiga qo'ydim ixlosim.
 Og'ir bo'ldi qismat menga ortgan vazifa.
 Men sultonlar o'rtasida bo'lдим donishmand,
 Donishmandlari tepasida sulton sanaldim.
 Ma'rifatni hukumatga qilib rahnamo,
 Bu o'lkanning yerida ham yulduzlar yoqdirm.
 Insonlarga aytil turdim: boqquin samoga,
 Qancha toza va musaffo, farahbaxsh, zebo.
 Xayrixohlilik va balandlik xislatlariida.
 Shaltoqlarda ag'namagin, ko'taril, yuksal,
 So'qir baxtdan ko'rар ko'zli baxtsizlik afzal.
 Eh, saodat yaratilmas buyruqlar bilan,
 Zehmlarga nur urug'in sepdim muttasil,
 Katta hosil kutmoqdam'an, nuroniy hosil!
 Shu paytda Ulug'bek pastida ehtirom bilan intizorda turgan Devon-
 begini ko'rib qoladi.

Xo'ja O'zbek, ne xabar bor, sen ham meningdek
 Osmonga qaraysamni?

Devonbegi
 Yo'q, sulton, sizga.
 Xayolingiz qochirmoqqa botinolmadim.

Ulug'bek
(minbardan pastga tushib keladi)
 Xo'ja O'zbek, gaping ko'p rost, shu manzarani
 Kuzatganda shoir bo'lib ketadi olim.

Devonbegi
 Kelib qoldi chaqirilgan zoti shariflar,
 Musofirlar kelishadi biroz keyinroq.

Ulug'bek

Bog' ni tuz! Peshvoz chiqqin musofirlarga.
O'z vaqtida meni kutsin hamma bu yerda.

(Chiniy koshonaga ketta turib)

Ha, ayrgandek, Devonbegi, rasadga kirib,
Bizning keksa olimlarga ruxsat, deb aytgin.
Bechoralar fikran ishlab tolib qolishgan.
Tun paytidha Samarcandga otanmasinlar,
Tunasinlar Chiniy qasrin oshyonasida.
Yana aytki, Ali Qushchi ishni bitirsin,
Aytganimni o'z vaqtida bunga keltirsin.

Ulug'bek Chiniy koshonaga qarab ketadi. **Devonbegi** qo'llimi qo'liga
urib posbonlarga buyuradi.

Devonbegi

Hay, navkarlar, jadal bo'lgin! Samarqandni kut!

P A R D A

UCHINCHI KO'RINISH

Yana o'sha bog'. Parda ochilganda mehnmonlarni kutib olish uchun
hozirlangan manzarani ko'ramiz. Daraxt shoxlariда va ustunlarda ran-
go-rang fonus va qandillar. Bog' sahnida gilamlar, so'ri va supalarda,
kursillarda ko'tpa-yostidqlar. Saha bo'sh. Lekin bog' orqasidan, darvo-
za tomonidan gaplashib kelayotgan odamlarning tovushlari eshitiladi.
Devonbegi boshlab kelgan mehnmonlar o'rtaida sardor **Bek Arslon**,
Shayxulislo'm Burhoniddin, **Samarcand** dorug'asi **Farmonsoh**
Qo'rchi, tarixchi **Abdurazzoq Samarcandi**, shoir **Sakkokiy** va yana
ba'zi bir mahramlar kirib kelib, ba'zilari o'tiradi, ba'zilari esa oyodqa
turib o'zaro suhbattashadi. Hammadan alohida ravishda qozi **Miskin**
keyintoq kelib, chekkaroqda xomush bir holatda o'tiradi.

Shayxulislo'm

Ahsan sizga, baytingiz xo'b, shoir Sakkokiy.
Faxriyasi alalxusus manzur tushibdur.
Dubora bir qaytarilsa!

Sakkokiy

(qog'ozdan qarab o'qiydi)

Falakqadro, mening xud yo'q hunarda fazlim astrosang.
Va lekin bir duochiman, meni Tangri uchun asro!

Arastolis-u, Affotun-u, Petlimus-u, Jolinus.
Alisino-yu, Fayloquz Arastu-yu Abu Ma'shar,
Riyoziy, hashti hikmat-u rasad, aksir-u Aqlidus,
Badiiy-yu sanoyini seningdek bilmadi anlar.
Falak yillar kerak sayr etsa-yu keltirsa ilkiga
Meningdek shoir turk-u, seningdek shohi dononi!

Bek Arslon

Shohi dono deganlari?

Sakkokiy

Mirzo Ulug'bek!

Bek Arslon

Shoiri turk deganlari?

Sakkokiy

(o'zini ko'rsatib)

Bandayi ojiz!

Abdurazzoq

Asrlarning sarguzashtin tekshirib ko'rdim,
Ko'p o'rgandium sultonlarning amallarini,
Ammo hazrat Ulug'bekday olim bir sulton
Iskandardan keyin taxtda o'tirgan emas.
Fanning shohi, fazilatning podshohi erur.
Qomatiga xo'b kelishgan sultonlik to'ni.
Adolati mamlakatga yog'dirar yog'du.
Haqiqatning mahsumularin ko'b kashf etdi u.

Bu to'g'rida mashhur, ma'ruf o'z asarimda
"Matlaus — sa'dayn" degan muxtasarimda
Aynan shunday bitib qo'ydim. Bu bari to'g'ri.

Sakkokiyning "shohi dono" bahosi ko'b rost.
Ammo, ammo, o'zin maqtab aytganlariga
Nima deyman? Aytgan bo'lsa, demak to'g'ri-da!

Hamma kuladi.

Farmoshoh

Men hazrati shahriyorning o'mida bo'lsam,
Shoh haqidat a'rif uchun sizga o'zog'on
Qorabayir bedovini bag'ishlar edim.
Ammo shoir haqidagi faxriya uchun
Sizni bog'lab o'sha onning dumliga mahkam,
Qanchi savab quvar edim otni sahroga.

Sakkokiy

Lutfan, haqli bir taklifi aytdingiz, begin!
Ammo mendek turkiyyabon yangi bir shoir
Movarounnahr o'lkasida paydo bo'l guncha
Bu baytimni o'zgartarmayman. Ne deysiz, begin?
Ammo, ammo, ehtiyoj shart, mabodo menga
Janob sulton otni sovg'a qilg'uday bo'lsa
Duniq otni so'rayman-da, bexatar, begin!

Hamma kuladi. Chiniy koshona tomonidan Ulug'bek shohona libos bilan kelib, to'rga qo'yilgan ko'chma taxtga o'tiradi.
Devonbegi kelib uning orqasida turadi: Hamma turib ta'zim etadi.

Ulug'bek

Marhabo, ey ahli-urfon, xayrli oqshom!
Amir Temur himmatidin Ulug'bek so'zim!
Sizlami shu bemahalda aytishdan maqsad:
Hozir shunga bizlar bilan vidolashgani
Musofirlar kelganida xo'shlashib qolmoq,
Yaxshilikning irodasini izhor etmoqlik.

Hamma

Qulluq, janob shahriyori falak iqtidor!

Ulug'bek

Kam bo'l manglar!

(kulib)

Xo'sh, bittdimi munozarangiz?

Gapingizdan bir shingilin eshitib qoldim.
Bilib qo'ying: Sakkokiyning nafis ash'ori
Bizning turkiy tilimizda zang bosmas gavhar.
Taronaga tushar ekan shoir g'azali,
Demak, uning xalq dilida umri azaliv.
Xo'sh, Farmoshoh?

(tabassum bilan)

Devonbegi, isbot qilgin shu da'vomizni!
(tabassum bilan)

Devonbegi Chiniy koshonaga tomon ketadi.

Farmoshoh

Bu fikringiz ayman javohir, shohim!

Ulug'bek

Aha, shuncha tez o'zgarar ekan ra'yingiz!
Shoирга siz beradigan bo'ldingiz otni!

Sakkokiy

(mammun, Farmonshohga)

Lutfan, shunday qozilikka siz nima deysiz?

Shu paytda Chiniy koshona tomonidan soz va tarona eshitildi. Bir qizning yoqimli ovozi Sakkokiyning g'azalini ijro etadi.

Qiz ashulasi

Kuydirdi ko'ngil mammakatin yor firoqi,
O'idek suni so'ng'il g'am o'tin o'chrali, soqiy!
Yorimni ko'ra turmoq uchun umr tilarman,
Yo'q ersa, menga nega kerak umr uzog'i?
Yorimning erur qaddi chinor, enlari gulnor,
Jonlarga safo berur aning husni-yu toqi.
Yor qarshisida o'lurubon boda icholi,
Chiqsun ko'ra bilmas kishining ikki qaroqi.

Dunyo g'amin qo'y, bu jahon saltanatini,
Ishq ichra ul oy, oshiq o'larsan bu bayoqi.
Hasrat bila Sakkociy xud o'ldi, sen eson qol,
Ishrat bila, ey shohi jahon, dunyoda boqi!

Hamma zo'r ishtioq bilan ashulani tinglaydi.

Farmoshoh
Hukmingizga bo'yin egdim, janob shahriyor!

Ulug'bek
Mening emas, shu nag'maning odil hukmi bor!
(Devonbegi kelib ta'zim qiladi.)

Devonbegi
Musofirlar kelib qoldi huzuringizga!

Ulug'bek
Buyursinlar, buyursinlar!

Devonbegi qaytib ajnabiy elchilar — Chin, Hind, Misr, Farang, Rus
elchilar bilan kirim keladi.

Devonbegi
(elchilarni bittadan tanishitirib chiqadi)
Chin-u Mochin xoqonidan kelgan elchi bek!

(Chin elchisi ta'zim bilan bir chekkaga o'tadi)
Hindistonning poytaxtidan kelgan elchi bek!
(Hind elchisi ta'zim qilib, bir chekkaga o'tadi)
Qohiratul Misriyadan kelgan elchi bek!

(Misr elchisi ta'zim qilib, bir chekkaga o'tadi)
Farangiston podshosidan kelgan elchi bek!
(Farang elchisi ta'zim qilib, bir chekkaga o'tadi)
Rus-u Moskov diyoridan kelgan elchi bek!
(Rus elchisi ta'zim qilib, bir chekkaga o'tadi)

Ulug'bek

Xush kebdurlar elchibeklar, darborimizga,
Eshitgayman arzlarini!

Chin elchisi

Ma'lumingiz, shu huzurda turgan elchilar
Jannatmakon padaringiz Shohruk Mirzoning
Vafotida ta'ziyaga kelgan vakillar.
Undan keyin bizlar bir yil shaharma-shahar
Xuroson-u Turkistonni sayr etib yurdik,
Hamma yoqda mehmondo'stilik, ehtirom ko'rdik.
Endi yurtga qaytib ketmoq muhlati yetdi.
Sizga izzat va qulluqlar musofirlardan.
Uy egasi, janob sulton, bizga ijozat!

Hind elchisi

Hind mulkidan kelganimda niyat qilgandim,
Xuroson-u Turkistonni sayr etib chiqsam,
Undan keyin ko'ra olsam janoblarini!
Zero, Hindning barcha orif va olimlari
Siz hazzratning nomlarini ko'b ulug'laydi,
Madrasangiz, rasadningiz tillarda doston.
Samarqanddan Balkx orqali Dehliga qadar
Borib kelgan karvonlarning suhbatlariда
Ulug'bekning madrasasini xatm etib qaytg'an
Hindistonlik mullaarning har kalomida
Donishmandlar shohin shohi Ulug'bek nomi,
Shukurlarki, ko'ra oldim janobingizni!
Endi, qish payt yo'llarimiz yopilmasdanoq —
Yurtimizga qaytmoqlikka ruxsat so'raymiz!

Misr elchisi

Biz Misrdan ta'ziyaga kelib qolganda
Sultonimiz sizga yozgan salomnomani
O'zlariga bergen edim Hirot taxtida.
Turkistonning, Xurosning donishmandlari

Yozgan nodir asarları jahonda ma'ruf.
Samarqandning, Buxoroning olimlariga
Ilalabod minnatdordur arab elliari.
Hatto bizning tilimizni, tariximizni
Bizga ta'lim qilib turdı u donishmanddar.
Bizga agar lutf etilsa ruxsati oliy
U kitoblar nusxasidan olib ketgaymiz.

Farang echisi
Biz dunyoning goyat olis chekkasidammiz.
Mulkingizni kelib ko'rdik va ishondikki,
"Sharq vahshati" borasida hamma gap bo'hton,
Va ko'rdikki, Ulug'bekning zamonasida
Din-u millat xusumati yo'q Turkistonda.
Ko'p bilimlar o'rgangusi faranglar sizdan.
Yuraklarda minnatdorlik hissi bilan biz
Yo'1 olamiz usoq yurtqa — Farangistonga.
Mag'ribdag'i insonlarga rostin aytamiz!

Rus elchisi
Muzli, qorli mamlakatdan keldim bu elga,
Ammo singdi yuragiimga go'yo harorat.
Turkistonning matollari Moskovda tanqis,
Istar edik, uzilmasin karvonlar safi,
Karvonlarga shohi bilan yuklansin do'stlik,
Shohi kabi muloyimlik, paxtaday soflik!

Ulug'bek
Amir Temur himmatidin Ulug'bek so'zim!
Sizlar ranji qadam qilib diyorimizga —
Kelganingiz ehtirom deb tushunamiz biz.
Iannatmakan otamizning ta'ziyasiga
Qora libos kiyib kelgan do'stlarga rahmat!
Bundan buyon to'y larga ham, bayramlarga ham
Tashrif qilib kelgaysizlar! Endi aytunglar:
Xuroson-u Turkistonda safarlariningiz
Tahlikasiz va xatarsiz o'tdimi, yo'qmi?

Elchilar

Omon-eson! Sog'-salomat!

Ulug'bek

Ko'rasizlarmi?

Safardagi niyatlarin bir bo'lsa agar

Hamroh bo'lib yo'1 yurilsa, yuz bermas xatar.

Modomiki xavotinrik yo'llarda sizlar:

Buddoiy hind, nasroniy rus, muslimmon-arab

Din-u mazhab ayirmsandan yo'1 yurgansizlar,

Inoq bo'lib manzillarga yetgansiz omon,

Nega dunyo yo'llarida butun kishilk

Bir bo'lmagay? Nega odam avlodni nuqul

Millataro, dinlar aro janjalarga band?

Men sizlarga farmon qilib buyurganim yo'q.

Bu o'zimming e'tiqodim, tajribam, fikrim,

Insoniyat hayotining olyi qonuni.

Quyosh bir-u, dunyo bir-u, insoniyat bir.

Shunday so'lmash bir bog'dirki, bog'i ma'rifat,

Har elunga ekib qo'ygan o'z daraxtini.

Har o'lkanning dilidagi nafosat guli

O'sha bog'ning gulzorida yashnab bir mahal

Nasib bo'lgan har ulusga taratar atrin.

Bu tashbehga siz ne dersiz, shoir Sakkokiy?

Sakkokiy

Baytlarning gavharlarin, qiblayi olam,

O'z tilning iplanga tizarkan shoir,

Bir-bir qarat zargarlarning do'konlarini,

Qay o'lkada, qay bozorda bo'lmasin ular.

Har gavhamni kimki olsa, haqli deb o'ylar.

Nazarida go'zallikni yashirmak gunoh,

Odamzodga zavq bermog'i lozim nafosat!

Bunga subut — kaminaning ojijz ash'ori:

Qanday qilib muhabbatni izhor aylayin,

Qiyos qilmay arablarning rivoyatini,

U jongudoz Layli-Majinun hikoyatini,
Esga olmay Farhod bilan Shirin qissasini,
Ichib qolmay Nizomiyidan sevgi kosasini?
Men Xo'tamming ohularin, Chin naqshlarin,
Jodu ko'zli Kashmir qizin sho'x boqishlarin,
Tilga olmay turolmasdim husn bobida!
Men Yamanning sadafalarin, Adan durlarin,
Hindistoning to'ilarin, Badaxxon la'lin,
Oq chehrali Rum-u Farang nigorlarini,
Habashiston o'g'lonining zulfi siyohin.
Oltin sochi quyosh monand o'rur dilbarin,
Charkaslarining oy siymoli o'ynoqi qizin,
Misrdagi Yusufisifat erlar jamolin —
Zikr etmasam, yovg'on bo'lib qolardi g'azal.
Hammanglarning,

hammangizingning aziz qo'noglar,
Hissangiz bor shoirning har shoh misrasida.

Abdurazzoq

Elar kezib shaharlari ko'rgan har sayyoh
Biladiki, turli din-u, turli tillarda
Har xaloyiq tirikchilik o'tkazar ekan,
Yomonlardan tantilarning soni ortiqroq,
Zolimlardan ko'ra mushfiq mehribonlar ko'b,
Har diyorda topilsa ham besh-o'n qaroqchi,
Ammo aksar aholining tiynati yaxshi.
Necha yillar bundan avval vakolat bilan
Men sehrgar Hind mulkida kezgan chog'imda
Tug'ilibdi bu aytilgan fikrlar menda.
Go'yo Hindda qolib ketdi qalbim parchasi.
U parchadan unib o'sgay do'stlik g'unchasi!

Farmonshoh

Men Samargand qal'asining dorug'asiman.
Olampanoh Ulug'bekdan bo'lib iltifot,
Darvozalar kalitlari menga havola.

Lek muhtaram mehmonlarga, musofirlarga
Ketishga ham, ketishga ham eshiklar ochiq.
Bizning karvonsaroylarda o'chmaydi charog'.

Bek Arslon

Tangri guyoh, Sohibqiron Amir Temuring
Mahobati davlatimiz uchun posbon.
Qilichimiz qindan chiqmas do'star bazmida,
Ammo yovlar bezillaydi haybatimizdan.

Shayxulislom

Inshoolloh, qaror topgay sulh-u salomat,
Yaratganning sabri ham ko'b, inoyati ham.

Qozi Miskin

(o'z-o'ziga)
Mushriklarga, bedinlarga inoyat emish!
Bir diyorming shunday desa shayxulislomi,
Nima o'ylar dahriyiali?

Ulug'bek

Mavlono Miskin,
Allanima aytmoqchi bo'lganga o'xshar!
Hazrat shayxdan eshitganim kalomningina
Men zikr aylab turbibman!

Qozi Miskin

Ali Qushchi bir dasta qo'lyozma kitoblar olib kelib Ulug'bekning
oldiga qo'yadi.
Ali Qushchi — Ali Qushchi, mahramim, do'stim.
Sizlar uchun olib kelgan esdalik — tuhfa.

Ulug'bek

Bu — shogirdim Ali Qushchi, mahramim, do'stim.
Sizlar uchun olib kelgan esdalik — tuhfa.

Ali Qushchi

Ustoz Mirzo Ulug'bekning yulduz jadvali!

Ulug'bek

Bu asarlar uzoq mehnat samarasidur.
Shu jadvalda keltirilgan ta'rif va tafsif
Ko'nda bir ming o'n sakkizta yulduzga oid.
Borib bering shahringizda munajjimlarga.
Topganini baham ko'rар jo'mard odamlar.
Kashif etganim yashirmagay olimlar sira.
(osmonni ko'r'satib)

Qarang, olam kitobining zehnimiz bilan
Endi bir ming o'n sakkizta sahifasini
Uqib olgan ekammiz biz, fikr to'xtamay
Ochar har on yangi-yangi varaqlarini.
Yulduzlardan oshnangiz qancha bo'lsa ko'b —
Yo'lingizda adashmoqlik xavfi shuncha kam.
*(kitoblarni bir-bir elchilarga tutib,
ular bilan qo'l berib xayrlashadi)*
Ammo sizning sultonlarga munosib tortiq —
Arg'umoqlar va xatlami tayyorlab bergay
Xo'ja O'zbek devonbegi!

Hind elchisi

Shavkatmaob hukmdorga mangu baxt kelsin!
Tilaymizki, endi bir ming o'n to'qqizinch
Yulduzning ham niqobini tezda ochgaylar!
Xudo hofiz!

Hamma elchilar

Xudo hofiz! Ma'rifatpanoh!

Ulug'bek
Hammangizga yulduzlarining yo'liday oq yo'!
Elchilar, Ali Qushchi va Devonbegi chiqib ketadilar.
Devon rasmli endi tamom.
Hay, hudoychilar,
Mehmonlarga sharob tuting va yoki sharbat!

Qozi Miskin

Bir savolga ruxsat bormi, hazrat shahriyor?

Ulug'bek

Xo'sh, tag'in ham kufr bilan shar'i da'vesimi?

Bu asnoda hudoychilar la'liy barkashlarga tizilgan oltin qadahlarda
sharob olib kelib mehmonlarga tutadilar. Qozi Miskinga esa chiniy kosa-
da sharbat olib kelib beradilar.

Qozi Miskin

Shahriyorga bisyor ravshan ma'lumdir shoyad
Ahli Chinning kofirligi va bedinligi?

Ulug'bek

Janob qozi, chalkash ekan tasavvuringiz,
G'ayri dinda bo'lganlarni bedin demoqlik,
Bu qanday gap? Har xalqning bor o'zicha dini,
E'tiqodi, ibodati, o'z Xudovandi.

Qozi Miskin

Dini islom xorijida barcha din botil!

Ulug'bek

Unday bo'lsa, aql bilan, dalillar bilan
G'ayri dunda yurganlarga buni isbotlang,
Toki, ular ko'nib kelgay mazhabingizza.

Qozi Miskin

Kofir bilan musohaba yoki aloqa,
Yo qo'l berish, yoki unga nazar solmoqlik,
Uning qo'l'i tegib qolgan ashyonini tutmoq,
U yasagan olatlarni iste'nol etmoq,
Bular bari shariatda gunohi azim.

Ulug'bek

Demak, nafrat, qatl-u qirg'in, xusumat, hazar,
Shular bilan yashagaymi avlodи bashar?

Qozi Miskin

E'tiqodni pok saqlamoq shunga vobasta,
Shariati ni sifat qo'shi qo'shi.

Shayxulislom

Shariati ni sifat qo'shi qo'shi.
Yo hadisi sharifga siz xilof aytasiz.
Rasulilloh Muhammadning hadisini eslang:
"Talabulilm valo'v fis—Sin" — ma'nosi nima?
Ya'ni, hatto Chinga borib o'qing ilmni.
Ha, siz kofir deb xorlagan Chin-u Mochingga.
Ammo siz-chi, safsatalar to'qib yurasiz.
Xudovandning shafqatini, muruvvatini
Siz adovat olovida etasiz barbob.

Qozi Miskin

Xo'ja Ahror Ubaydullo eshonni — azim
Va'zlarida shaddodlikni qildadi ta'lim.

Sakkokiy

Lutfan aytin, Xo'ja Ahror deganining shu —
"Qishloqpi pir" deb tanilgan hazrat emasmi?

Qozi Miskin

Minglab murid "Yo pirim" deb ko'zlarin yumib
Uning faqat bir so'ziga bosh bermoqqa shay.
Bizlar uni qilolmaymiz ranjidaxotir.

Shayxulislom

"Qishloqpi pir" deganlari behuda emas,
U johil-u, lekin makkor va hamda zakkiy.
Zikrlar-u, ibodat-u, jazava bilan
U o'ziga banda qilib oldi avomni.
U ilmgaga va kitobga ashaddiy dushman.
U Toshkanddan Samarqandga ko'chib kelibog
Taassubni, xurofoni qo'zg'adi bunda.
Ehtiyyot shart, Mirzam, uning dasisisidan.

Bek Arslon

Amr etingiz, lashkarlarni men to'plab darhol,
Bir kechada hammasini yakson aylayin!

Farmonshoh

Sardor, bu gap oson emas. Xo'ja Ahroming
Muridi bor har mahalla va har xonada.

Ulug'bek

Sardor, agar biz xo'janing muriddarini
Talaf etsak, bu o'lkada bizga kim qolur?
Darveshlarning ko'zin ochmoq, zehnin yoritmoq
Va melumatning davrasiga solmoqlik lozim.
Qozi, biling, sizning shar'i y sultoningizman.
Har hukmingiz odil bo'lsin. Farmoyishim shu!
Sizni halol, vijdoni pok bilganimizdan
Qozilikka tayinladik, mavlono Miskin!
Siz eshonning johilona gaplarin qo'yинг!

Abdurazzoq

Siz, mavlono, Chimni kofir deb baqirasiz.
Chin buyumin qo'lga olish zo'r gunoh deysiz!
Qo'lingizda sharbat to'la u piyola-chi?

Miskin

O'zlar ne demoqchilar, tushunolmadim.
Ha, mavlono, siz ko'targan munaqqash kosa
Chimning mohir ustalari qo'lidan chiqqan.
Qozi Miskin hoyliqib, qo'lidagi kosani hazar bilan darhol taxta ustiga
ga qo'yadi va qo'llarini dastro'mol bilan artadi. Hamma kulib yuboradi.

Abdurazzoq

Ha, mavlono, siz ko'targan munaqqash kosa
Chimning mohir ustalari qo'lidan chiqqan.
Qozi Miskin hoyliqib, qo'lidagi kosani hazar bilan darhol taxta ustiga
ga qo'yadi va qo'llarini dastro'mol bilan artadi. Hamma kulib yuboradi.

Ulug'bek

(xaxolab kuladi)
Ko'rdingizmi, janob qozi, ellar, uluslar
Bir-biriga muhtoj ekan... Ular hamisha

Aql va qo'l ixtiroin ayirbosh qilib
Hayotlarin bezamasa vahshat muqarrar.
Qani, oling bodalarni do'stlar, mahramlar,
Ravshan bo'lsin kunduz kabi tunlarimiz ham!

Qozi Miskindan boshqa hamma piyolalarni ko'tarib ichadilar. Shu
paytda orqadan musiqa chalingani eshitiladi.

Sakkokiy
Oh musiqiy, she'riyatning hamshirasini!

Qozi Miskin

(o'z-o'ziga)

G'ino harom, uni esa eshitmoq gunoh!

(Qo'llari bilan quloqlarini yopib oladi)

Bek Arslon

Jasoratga va hamлага chorlaydi bizni.

Abdurazzoq

U go'yoki asrlarning bag'ridan qo'pib
Keltiradi faryodllarning aks sadosin.

Ulug'bek

Bu hammasi juda to'g'ri. Ammo, yoronlar,
Sizlar o'sha ohanglarning tub zamirida
Nash'a, hayot, o'lmaslikni, ijodkorlikni,
Xullas kalom, yorug' ayyon payqab olinglar!

Hamma musiqiyini tinglarkan, kuy raqs usuliga ko'chadi. Sahma
orqasida ashula aytlib turgan holda bir qator raqqoslar o'yinga tushadi.

P A R D A

TO'RINCHI KO'RINISH

O'sha sahna. Ulug'bek va haligi do'stlari g'ayri rasmiy davrada
o'tirib xushchaqchaqlik bilan musiqa eshitib, may ichib suhbat qilayotilar.
Shu paytda tashqarida, bog' eshigida allaqanday shovqin, g'avgo
eshitilib qoladi. Devonbegi kiradi.

Ulug'bek
Devonbegi, u ne g'avgo?

Devonbegi
Sayid muhtasib
Samarqanddan mirshablar-la hovliqib keldi.
Posbonlar "yo'q" desa ham qaysarlik qilib,
Ne bo'lsa ham, men huzurga kiraman, deydi!

Ulug'bek
Bitta o'zi kira qolsin!

(Devonbegi chiqadi.)

Shu Sayid Obid
O'ziga kasb qilib olgan dilozorlikni.

Muhtasib Sayid Obid kirib keladi. Qo'lida aso. Orqasidan Devonbegi kirib keladi. Musiqiy to'xtaydi.

Ulug'bek
Bemahalda shuncha tashvish, shuncha iztirob?

Sayid Obid
Davlatpanoh, mo'minlarning, muslimmlarning
Iffatini, nomusini qattiq qo'l bilan
Asraydigan podshohni istab keldim man.

Ulug'bek
Arzingni ayt!

Sayid Obid

Bir qizimni, qizginamni...

Shayxulislom

Kimilar o'ldirdi?

Sayid Obid

Yo'q, mavtono... Madrasaning bir talabasi
Olib aylab u tentakni safsata bilan

Biu qanday bir razolatki, men o'zim sayid,
Muhtasiblik mansabida yursam poytaxtda,
O'zim dinga, diyonatga nazorat qilsam.
Qizim meni tashlab ketsa bitta darbadar
G'affor degan andijonlik kelgindi bilan.

Sakdkoky

Qizning o'zi yigit bilan til biriktirib,
O'zi xohlاب qochgan bo'lsa, xo'sh, kimda gunoh?

Sayid Obid

Nima qipti u xohlasa? Qizlarning aqli
Ikki pashsha, uch kapalak fahmicha xolos.
Fitnakorga qattiq jazo so'rayman, sulton!

Ulug'bek

(muloyim)
Xo'sh, qayerda yashiringan qochoq oshiqlar?

Sayid Obid

Taassufki, ul badaxloq o'zin yoniga
Saboqdoshdan yetti-sakkiz bebosni to'plab,
Kech kirganda qochib kirgan boshhpana izlab,
Bilasizmi, davlatpanoh, qayga, ey tavba!
Sizning shahar bog'ingizga — “Bog'i-Mirzo”ga.
Talabaga o'zlaridan ruxsat bor ekan
Dars ko'rishga, dam olishga “Bog'i-Mirzo”da.

Bizning qizga ular yigit to'nin kiygizib,

Talabalar qatorida olib kirishgan.

Men ishonchli mirshablardan bir to'da olib,
Quva solib chopib borsam darvozabonlar
Kirgizmadi... Ulug'bekning bog'i bizga berk.
A'lolahazrat, so'raymanki, yorlig' bergaysiz,
Bog'ga kirib u zolidordan qutqazay qizni.
Zindon qilay G'affor degan u axloqsizni!

Ulug'bek

Sayid Obid, qizingiz xohishi bilan
Tekkan bo'lsa, tag'in nega shu janjal-da'vo?
Bir qovushgan yuraklarga ne lozim ig'yo?
Qo'ying, u qiz o'z ishqida topsin saodat.
G'affor degan yigit g'oyat xushaxloq, rostgo'y,
Qizingiza talqin etar bilim, ma'rifat!

Sayid Obid

Hazrat sulton, har qiz ota uyida bir qush.
Qushdan kim ham so'rab turar uning maylini?
Bizlar uni asrasak ham oltin qafasda,
Fursat topgach cho 'lga uchib ketar birpasda.
Qizlar aqli, farosati ko'zlaridadur,
Qiz yoqtirsa, qalbi sevib, aqli uchadi.
Aqli uchsa er o'mniga go'rga tushadi.
A'lolahazrat, men farmoyish so'rayman sizdan,
Yo'qsa xo'ja darveshlari yugurib tezdan
“Mirza bog'i”n zer-u zabar qilmagay shu tob.
Chunki, bundan Ahror xo'ja bo'lgu usi xunob!

Shayxulislom

(o'z-o'ziga)

Ajab! Ana qayga borib ulangan zanjir!

Ulug'bek

Sayid Obid, ahvol aniq. Farmonshoh Qo'rechi,
Mirshablarni dathol boshlab, u joyga boring!

Sayid Obid**Sayid Obid**

(suyumbi)

Rahmat, sulton!

Ulug'bek

Bizning bog'ni qo'riqlab turing!

Sayid ObidRahmat, sulton! Sizning bog'ni qo'riqlasinlar,
Toki, hech kim o'sha yerdan qochib ketmagay!**Ulug'bek**Toki, hech kim o'sha yerga bosib kirmagay!
Chunki, biling, Ulug'bekning madrasasida
O'qiyotgan talabaning hammasini ham
Men olgannan himoyamga. Bari shogirdim.
Shogirdlardan bironatasin burni qonasa,
Unga o'zing javobgarsan, Farmonshoh Qo'rchi!
Bog' ko'shkida oshiqlarga bir hujra ajrat,
Qozi, siz ham jo'nab o'qing ular nikohnin.
Darhol jo'nang!**Farmonsoh** va qozi Miskin chiqadi,**Sayid Obid**Xonumonim xarob bo'ldi. O'zim xor, muztar.
Zaifalar izzatda-yu, mujohidlar xor.
Ey, shahriyor, Xudovanddan xavfsirang biroz.
Davrингизда madrasalar — fasodning ini.
Talabalar nuqul buzar ahkomi dinni.
Mamlakatda hamma g'avg'o, dahriylik, bid'at
Madrasada ta'lim olib yurgan zottardan.**Shayxulislom**Siz bu yerda piringizdan, Xo'ja Ahrordan
Yoddab olgan bo'htonlarni qaytarmang, Sayid.
Bu gunohi azim, zero, madrasamizning
Yorug'idan fayz olmoqda ofoqi jahon.**(tajang)**Shayxulislom Burhoniddin, bu ajab emas,
Ajab emas, sizning shunday mulohazangiz.
Chunki, sulton Ulug'bekning bazmilarida
Dini islom barbod bo'lib, sharob ichilsa,
Ohang bilan o'yin qilsa yalandg'och qizlar.
Mo'min emas, koftilarning rasmi avj olsa,
Huzur qilib o'tursangiz siz shu davrada,
Ajab emas sizni shunday mulohazangiz!

Majlis ahli hayajonlandi.

Bek Arslon(g'azab bilan qilich dastasini ushlab)
Davlatpanoh, izn bering, shu devonani
Tilka-pora qilib tashiy!**Ulug'bek**(sokin)
Yo'q, sabr aylang!**Shayxulislom**Yo dargohi olampanoh, shu adabsizni
Mahkamayi shariatga bermoq farz erut.
Zillollohu fil-arz bo'lgan sultoni xorlash,
Xudovandning soyasiga dashnom qilmoqlik,
Mamlakatda ruhoniyat rahbari bo'lgan
Shayxulislom sha'ni uchun shuncha haqorat
Zo'r jazoga mustahiqdur. Sizning olamga
Mashhur bo'lgan shafqatingiz, muruvvatingiz
Bu ablahga behayolik baxsh ayilar, xolos.**Sakkokiy**Bu kechaning quvonchiga shumlik keltingan
Shu badnafs boyo'g'lini daf eting, lutfan!

Abdurrazoq

Mamlakatning hukmdori va qiblagohi,
Fuqaroning g'amin yegan pushti panohi,
Yeti iqlim olimlari "ustozim" degan
Ulug' zotga bir pastkashning masxaraligi —
Na tarixda ko'ringan bu va na ertakda.
Oydin tunda dovdiragan shaparak, xo'los.

Sayid Obid

Mazhabimning yo'lida men boshdan kechaman.
O'g'lim Abbos bir kun bilsa shahid bo'lganim,
Pok xunimni talab qilur...

Ulug'bek

Eh, g'arazning, taassubning badbaxt muridi.
Sayidlilikning sharafidan mahrum noxataf.
Siz yorug' ning g'animisiz, zulmat maddohi.
Odamlarni shod ko'rsangiz ortar g'amingiz.
Go'zallikka duch kelsangiz bo'lasiz xasta!
Hatto sizning o'z qizingiz sizga bo'lib oq
Qochar ekan sizning bo'g'iq, dam uyingizdan.
Siz, hattoki, qizingizning baxtidan xafa.
Siz, odamga o'xshaysiz-u, odam emassiz,
Axir, har bir juft oyqolqi, juft qo'lli maxluq,
Inson deya atalganda, barcha maymunlar
Yo muhtasib bo'lар edi yoki qalandar.
Bizga hayot bag'ishlagan, ishqni singdirgan,
Zahmatlarga, g'ayratlarga undab ko'ndirgan,
Eng umidsiz lahzalarda tasalli betgan,
Tilimizga til tegizib tilga kirgizgan,
Bizni doim yaxshilikka, mardonlikka,
Hatto nodon bo'lak hamki, chin donoliikka
Qistayotgan g'amxo'rimiz, u farishta kim?
Dillardagi zug'umlanmi, qahr-u shiddati
Munuvvatga, marhamatga evriguvuchi kuch
U qudratbaxsh, ilhom — nima? U xayriyoh kim?

Ayol, ayol! Shu xotinlar, qizlar emasmi?

Ha, siz fahmi pashshadan kam degan ayollar..
Sayid Obid, Buxoroga borgannmisiz siz?
Ha, albatta, ko'b borgansiz pirlar oldiga
Va ko'rgansiz madrasamming naq peshtoqida
Men o'ydirg'an shu hadisni: "Talabul ilm
Farizatun alo kulli muslim-u muslimot".
Shu kalomning ma'nosiga xo'b tushunarsiz.

Bu ne degan? — Ilm o'qimoq farz erur birday
Musulmonning erlari yu ayollariiga.
Siz bo'lsangiz, Ulug'bekning madrasalarin
Fisq-u fasod ini deysiz? ? Qayerda vijdon?
Yo'q, men sizga, Sayid Obid, jazo bermayman.

(*Majlis ahlini ko'rsatib*)

Garchi buni tilasa-da aziz ahboblar,
Bugun sizga xasorat yo'q... Yana bir o'ylang,
Odamzodning burchi nima?

Sayid Obid

Toat, ibodat,
Bedinlardan jirkammoqlik, butunlay nafrat,
Fony dunyo lazzatidan hazar, alhazar,
Din yo'lida shahid bo'lib saodat topmoq.

Shayxulislom

Siz na dinga tushunasiz va na dunyoga!

Ulug'bek

(*kinoya bilan*)

Sayid Obid, maqsadingiz menga xo'b ravshan.
Siz janobi payg'ambarning avlodiman deb,
Sayidman deb bu shaharda shuhrat topgansiz,
Sizga bunday shuhrat kamlik qilar chamasi.
Siz muhtasib bo'lib yurib shahr-u bozorda,
Tag'in shuhrat qo'sholgansiz shuhratingizga,
Ammo bular bari sizga kamlik qilarkan..

Endi bunda har xil dag'al, ta'birlar bilan
Siz meni ham tahoqir qilib xohlaydirsizki,
Men qahr ila a buyursam-da, sizni ossalar,
Undan so'ngra Sayid Obid shahid bo'ldi deb,
Shuhratingiz tutib olsa barcha olamni.
Shundaymi-a?

(majlis ahli kuladi)

Ammo, biling, anoyi Sayid.
Men, ataylab, bajarmayman shu orzungizni.
Endi sizga javob, keting!
Sayid Obid sarosimalanib chiqadi.

Ulug'bek

Uh... Bu mansur boyo'g'lilar, nur dusshmanlari,
Umrimizga egov bo'lgan haromi qurtlar...
Bu kishining sayidligini ayasam... Attang...

Ali Qushchi sekin kelib, Ulug'bekning yonida to'xtaydi. Uning
qo'lida allaqanday qog'ozlar va jadvallar.

Ali Qushchi, ko'b yaxshiki, sen eshitmading,
Johillarning ishimizga bergen bahosin.

Ali Qushchi

Davlatpanoh, eshitmadim. Ammo bilaman:
Sharapaklar qanday baho bergay quyoshga.
Ular bizning ilmimizni maqtasa shoyad,
Demak, bizning fanimizda ularga manzur
Jaholat ham, xurofot ham bor ekan, deya
Bu maqtovdan ko'b o'ksingan bo'lar edim man.

Ulug'bek

Do'stlar, qani, nima deysiz bizning Aliga?

Hamma

Borakallo. Shogirdingiz g'oyat zehnli.

Ulug'bek

Tun ham og'di yarimidan. Hammaga ruxsat!
Shahar borib, uyingizda rohat qilinglar!
Ammo bizar Ali bilan ikkimirz bunda
Biroz maxfiy gapimiz bor yulduzlar bilan.
Hind elchisi bizlar bilan xayr lashganda
Qanday tilak bildirgandi, eslang, Sakkokiy?

Sakkokiy

Tiladiki, lutfan, bir ming o'n to'qqizinch
Yulduzning ham niqobini tezda ochselinlar.

Ulug'bek

Shu tilakni bajarishga ruxsat beringlar!
Xayrli tun birla rohat kelsun sizlarga!
Ali bilan menga esa bedorlik, mehnat!

P A R D A

BESHINCHI KO'RINISH

Yana o'sha sahna. Ziyofat buyumlari yig'ib olingan. Rasadxonaga
kirish oldida baland kursi. Kursi ustida har xil astronomik olatlar va
yozug'ilik qog'ozlar. Saharga yaqin. Osman g'oyat murafshon. Yulduzlar
charaqlab porlaydi. Eshik oldida katta fonus osilgan. Ulug'bek va Ali
Qushchi qo'llarida ba'zi bir olatlar bilan rasadxona eshigidan chiqib
keladilar. Ular kursi ustidagi qog'ozlarga egilib, allanelarni tekshirgan-
day bo'ladilar. So'ngra, Ulug'bek osmonga qarab, botayotgan Oyga bo-
qib yana qog'ozdag'i jadvallarga tikildi.

Ali Qushchi

(qog'ozga qarab, o'yantib)

Davlatpanoh, shu nuqtada soniyalarining
Tanosibi Pitlimyusdan andak boshqacha...
Demak bunda yangilishibdi yunon hakimi.

Ulug'bek
Bizning hisob ancha to 'g'ri, ancha to 'g'riroq.
To 'g'rirog '-u, biroq hali mukammal emas.
Hali ro 'zi mahshargacha bashar avlodni
Kuzatar ham, tuzatar ham olam kitobin.
Sen shu joyni to 'g'rillab qo 'y.

Ali Qushchi
(jadvalni qalam bilan tuzata turib)

Janob shahriyor!

Oyga tikilib qarayotgan Ulug'bek uni eshitmaydi.

A'llohzrat!

Ulug'bek

(birdan uyg 'onganday bo 'lib)

"A'llohzrat... — A'llohzrat kim?

Ali, meni sen shu yerda "ustoz" deyaver!

Bilasanmi, xayolimni nima band etgan?

Ko'pdan beri andisham bor xusuf haqida.

Senga ma'lum: "xusuf" deymiz oy tutilishin.

Bu-ku yerning oyga tushgan soyasi, xolos.

Mana xusuf qachon, qay kun, necha daqqaq

Bo'lisligh'in topmoqlikning iloji yo 'qmi?

Bu muammo o'ylantirar meni tinchitmay.

Bu jumboqni yecha olsam, oh, yecha osak,

O'rin qolmas yahimaga ham xurofotga.

O'ylyashimcha bunda bordur riyoziy qonun.

Chunki, lobid va muayyan sababi bo'lmay

Hech voqeа koinotda ro 'y bermas axir!

Nima deysan? Usuli shu...
Qalamni qo 'liga olib egiladi va qog 'ozlarda allanimalarni ko 'rsatib
turadi.

Bu oy manzili...

Bog' ko 'chasida, darvoza tomonidan ot tuyoqlarining dukurlashi
eshitiladi.

Devonbegi

Davlatpanoh, chopar keldi.

Ulug'bek

(norozi)
Shuncha zarurmi?

Devonbegi
O'zlariga taalluqli paygirma ma bor.

Ulug'bek
Keltirsunlar!

Devonbeginning ishorasi bilan darvoza tomonidan bir mulozim kirib
Ulug'bek oldida tiz cho 'kadi va unga paygirma ma uzatadi.

Mulozim
Toshkentdag'i noibingiz Xo 'ja Tarxonadan.

Ulug'bek
(paygirdan xatni chiqarib tez ko 'zdan kechiradi)
Chiqib turgin!

(mulozim chiqadi)

Ali Qushchi, ko 'ngilsiz xabar.

Sirdaryoning yoqasida qipchoqlar tag 'in

Fitna qo 'zg'ab Toshkant qarab hujunga o'tgan,

Bunga dарhol chora lozim!

(Devonbegiga)

Orlar tayyora!

Devonbegi chiqib ketadi.

Oh, azizim, shu serxatar yirtqich zamonda
Sen-u menga ilm-u fanga fursat qayonda?

Chiniy qasrga qarab yo 'nalayotganida birdan Firuza unga ro 'baro'
chiqib qoladi.

Firuza

Valine'mat, ketyapsiz, bitta o'zingiz?
Firuzangiz bilan bir dam xo'shlashmasdan-a?

Ulug'bek

(*uni bir qo'li bilan quchoqlab*)

Senga kelayotib edim xayrlashgani,
Yangi tashvish yana hijron soldi o'rtaga.
Muhabbatning oshyoniga qo'nishdi zog'lari.
Isyonchilar talon-toroj, ig'vo qasdida.
Hujum qilib qurshab olgan Toshkant qo'rg'onini,
Oy — Firuza... Firuzaoy... Qay biri afzal?
Ikrovi ham bir-birdidan sevimpli, go'zal...
Endi ketmoq zarur bo'ldi...

Firuza

Men ham borayin!
Valine'mat, haqqim yo'qmi, zahmatingizdan
Bir zarrasin ushamoqqa, uyqusiz tunda
Tun parisin avrab-alddab olib kelishga...
Bu dunyoda ulug'lар ko'b, Ulug'bek bitta!

Ulug'bek

Yo'q, azizim, sen bu yerda men uchun qolgin.
Axir, bunda meni kutib tortsang intizor,
Bu hol tezroq qaytishimga katta vaj bo'lur.
Qol bu yerda! Ali Qushchi senga posbon.

Firuza

Jismim qolsa, dilim ketsa siz bilan hamroh,
Qalbsiz badan — o'chgan chiroq, olovsiz tutun.

Ulug'bek

(*yarim jiddiy*)

Firuzaoy! Eringizza xo'b demasangiz,
O'zim podishoh Ulug'bekning imzosin chekib,
Sizga farmon yozaman-u, majbur etaman.

Firuza

(*boshini uning yelkasiga egib*)
Ilmosga "yo'q" deyman-u, farmonga "mayli".

Ulug'bek

Oh, mehribon qumriginam, dono mahbubam.
Parvardigor ayollarni jang uchun emas,
Balki, jangni bo'l dirmaslik uchun yaratgan.
Qol, azizam!

Devonbegi qo'llida qilich, dubulg'a, sipohiy kiyim olib keladi.

Devonbegi

Otlar tayyor!

Ulug'bek

(*chakmanni kiya turib*)

Ali Qushchi, sen jadvalni tahrirlab ko'chiri!
Firuzaoy, xayrli tun! Qayg'urna, jonim!
Xayrli tun osmon oyi va yerning oyi!

Darvoza tomonga qarab qadamlaydi. Firuza daraxtga qarab qoladi.

Devonbegi va Ali Qushchi Ulug'bek ketidan chiqadilar.

P A R D A

2-PARDA

BIRINCHI KO'RINISH

Samargand qo'rg'onining darvozasi. Darvozaning tabaqalari lang ochiq. Samargand aholisi safardan g'olibona qaytayotgan Ulug'bekni kutib olgani chiqqan. Har xil toifadan odamlar bor. To'planganlar o'rasisida madrasa talabalari, to'ralari, savdogarlar, shahnar fuqarosi. Yuruvchilar o'rasisida ba'zan yuzlari ochiq, boshlariga ro'mol o'ragan xotinlar ham ko'rnadi. Qopqaning oldida kabobpazlar, mevafurushlar suv sotuvchi bolalar, dehqonlarni ko'rish mumkin. Bir chekkada cho'qqayib, oshiq tashlab o'tirgan qimorbozlar, ro'parada bir necha xotinlarga fol ocha-

yotgan folbinlar o'tiribdi. Odamlar o'rtasida ajnabiy savdogarlar yoki
sayyoohlar — xitoylar, arablar, eroniyalar, hindular, slavyanlar, kavkaz-
liklar, turklar va boshqalar o'z qiyofalari bilan ajraladilar.
Bir chekkada parishon kiyimli, beliga may meshini osgan **Bobo**
Kayfi shirakayf holatda bir tosh ustida o'tribdi. U ikki dehqonga ariza
yozib bitirib, qo'llariga beradi va chol dehqon unga cho'zgan tangani
olib cho'ntagiga soladi.
Bu yerda guruh-guruh yurgan qalandarlarni ham uchratish mumkin.

Qalandarlar

Yo ollo, do'st, yo ollo!
Haq, do'st, yo ollo!
Yo rabbano qalandar,
Dar xor-u xas barobar.
Darvozayi ajalga
Shoh-u gado barobar!
(o 'tib ketadilar)

I fuqaro
Barat og'a, jang juda zo'r bo'lgan deydilar.

II fuqaro
Ha, kelganlar ayтиб berdi.

Qirg'in zo'r bo'lgan.
Sag'onoqda Mirzo o'zi qurshovda qolgan.
Biroq, katta bahodirlik, mardlik ko'rsatib,
Ihotadan yorib chiqqan, lashkarni to'plab,
Yog'iyarni, fitnalarni tor-u mor qilgan.

III fuqaro
Inshoolloh, bundan buyon jang-jadal bo'lmas.

I fuqaro
Eh odsoqol, taxt bor joyda, shohlar bor joyda
Urushmasa sardorlarning qilichi zanglar.
Nafs qurg'urni hazil dema!

II fuqaro

Mirzo Ulug'bek
Sen o'ylagan podshohlardan emas, u — odil!

I fuqaro

Podshoh-ku, demak, taxt-u tojga ishqiboz,
Unga qarshi tig' yalanglab chiqsa osiylar,—
Tek o'tirib qaraydimi? Tek turib bo'lmas,

III fuqaro

U noiloj urushadi. Axir, ne qilsin!

Ko'r qalandar

Xo'sh, noiloj degan nima? Xo'sh, bir viloyat
Samarqandga bo'y sunmabdi ozodlik istab,
Ammo sulton Ulug'bek-chi: "Bosh eg!" der qistab.
Shu tufayli doimo jang... Tunovgi jangda
Derlar, go'yo, Mirzo bisyor qattiq yengillgan.

III fuqaro

(qalandarning yoqasidan ushabab)
Sen kim o'zing? Qalandarmi yoki ayg'oqchi?
Yo'qol bundan, itni emgan!

Itarib, haydab chiqaradi. Fuqarolar o'tib ketadi. **Ko'r qalandar**
yana qaytib keladi. **Bobo Kayfi** o'tirgan joyidan turib qalandarga ya-
qinlashadi.

Bobo Kayfi

(yonidagi may meshidan bir yutim may ichib)
Doniki, chi vaqt may buvad ruhafruz,
Yakshanba-yu, dushmanba-yu, seshanba-yu, chor,
Payshanba-yu, odina-yu, shamba, shabu-ruz.
Xo'sh, ne deysan ko'r jibirdoq? Ha, ko'r muttaham?

Ko'r qalandar

Nima deysan? Nima kerak ojiz bandadan?

Bobo Kayfi

O!, ich deyman!

(may meshini uning og 'ziga tiqadi)

Ko'r qalandar

Tavba, tavba! Kuf la'nati, maozoolloh, kuf!
Bu gunoh-ku! Ket, benamoz!

Bobo Kayfi

Nimasi gunoh?

Sening sassiq dahaningga sharob quyilsa
Toza bo'lib yuvilar-ku! Hay, isqirt hayvon!

Ko'r qalandar

Nega sassiq?

Bobo Kayfi

Boya aytgan ig'volaring-chi!

Unig og'ziga zo'r lab may quymoqchi bo'ladi. Ko'r qalandar qich-qirib: "Muslimmonlar, najot beriting kofir dastidan", deb dod-voy solishi bilan bir necha qalandar yig'ilib keladi.

Qalandarlar

(baqirishib)

Qalandarga tegा ko'rma!

Bobo Kayfi

Men tekkanim yo'q!

Ko'r qalandar

Meni zo'r lab ichirmoqchi, kofir qilmuoqchi!

Bobo Kayfi

Bu badbaxtga men tegmadim, may meshim tegdi!

Ko'r qalandar

Qalandarlar unga hujum qilmuoqchi bo'ladilar. Shu asnoda bir necha madrasa mullabachchalar yetib kelib, Bobo Kayfini darveshlar qo'lidan qutqazib oladilar.

Talaba

Shovqin-suron chiqarmanglar, befahm darveshlar,
Bilmaysizmi, yaqin keldi Mirzo Ulug'bek!
Odob bilan sukul saqlang, yo'qsa yo'qoling!

Ko'r qalandar

Yo ollo do'st, yo ollo,
Sarxushlarda hayo yo'q,
Olimlarda taqvo yo'q.
Kuf, kuf, lo iloho illolloh!

Bobo Kayfi

Sarxushlarda riyо yo'q,
Darveshлarda hayo yo'q!
Tuf, tuf lo iloho illolloh!

Ko'r qalandar

Sen kofir, jum!

Bobo Kayfi

Nega hojim, shuncha baqiroq?
(yana sharob ichib)

Ashulachchi baqirganda to'lashhar tanga.
Sarlashkarlar baqirganda bo'y sunar unga.
Qachon eshak hangraganda urishar tayoq.
Tentak bola baqirganda, haligi joyga shapaloq.
Talabalar kulishadi.

Mulla aka, she'rim qalay?

Talaba

Shoir bo'lmay, o'l!

(Sayid Obid keladi.)

Ko'r qalandar

Yo muhtasib, Sayid og'a, shu mast bezori
Ahli-olloh darveshlar so'kkani-so'kkani.
Hatto menga...

Bobo Kayfi

Hay, mug'ambir, ko'zim ojiz, ko'rman, deysan-u,
Muhtasibni dарhol tanib olding, bachchag 'ar!
Rost gap ekan: qorong 'ida topishar peslar.

Sayid Obid

Bobo Kayfi, masti mudom, bu yerdamisan?
Go 'ristonda...

Bobo Kayfi

Oayerda ham bo'lar edim, janob muhtasib?

Sayid Obid

Qo'ying uni, janob muhtasib.
Siz ulamo, u bir sarxush, ovora bo'lmang.

Talaba

Nega, Sayid? Bu yer senning yeringmi? Aytgin!
Yer Xudonning, shahar esa Ulug'bekniki,
Darvoza ham Mirzoniki, Ulug'bekniki.
Men ham Mirzo fuqarosi... Tag 'in ne kerak?
Sen Tangriming va Mirzoning haqqiga tegma!

Bobo Kayfi

U la'nati, u do'zaxiy, dindan aynagan.
Axir nega, hazrat Sayid, gunohi nima?
Sen bedinni bandi qilib, zindon tashlayman!

Qalandarlar

Sharob ichgan odamlarni qamab qo'yishmi?
Shunday bo'lsa sen Xayyomning o'zini qama!

Sayid Obid

Mastlik qilib mo'minlarni kalaka qilur,
Senga aniq aytayimmi mahallasini?

Bobo Kayfi

Bilasammi, Sayid Obid, bir kun bozorda
Umar Xayyon, xuddi sendek, ahli ollohdan,—
Bir muftidan dashnom — ta'na eshitaverib
Shunday degan:

"Ey mufti-yi shahr, az tu purkortarmi,
Bo in hama mastiy z—tu hushyortarmi.
Mo xuni razon xo'rimu tu xuni kason,
Insif bideh: — kudom xunxortarmi".

Sayid Obid

Bo'ldi, bo'ldi, jum, la'nati!

Sayid Obid

Qalandarlar
Bu ne degani?

Talaba

Xohlasalar, aytay buning tarjimasini:
"Ey shahar multisi, sendan ishkormiz,
Nuql mast yursak-da sendan hushyormiz.
Ichamiz biz uzum, sen inson qonin,
Rostin ayt: qaysimiz ko'proq xunxormiz?"
(kulgi)

Sayid Obid

Sen bedinni bandi qilib zindon tashlayman.
Bobo Kayfi

Sharoq ichgan odamlarni qamab qo'yishmi?
Shunday bo'lsa sen Xayyomning o'zini qama!

Sayid Obid

Qayerda u, mahallasin ayтиб ber darhol!

Bobo Kayfi

Senga aniq aytayimmi mahallasini?

Sayid Obid

Xayallama, darhol so'yla!

Bobo Kayfi

(hushtak chalib osmoni ko 'rsatadi)

Huu yaxshi boq, ko'rasanmi jannat eshigini?
U eshilki bog'chasiда Umar Xayyom
O'turibdi hur qizlarin belidan quchib,
Kosa-kosa qator turgan sharobdan ichib.

Sayid Obid

Kofir, iblis, sen betavfiq, shaytonur-rajim!

Bobo Kayfi

Shunday, taqsir!

Sayid Obid

Ablah, seni xorlaymanki, sen ham dashnom qil,
Bir yomon gap gapirib qo'y. Qani, so'ksang-chi!

Bobo Kayfi

Seni nega so'kay tag'in, Xudoning o'zi
Seni qarg'ab mardud qilib muhtasib qilgay...

Sayd Obid

So'kkin meni... Bir bahona bo'lsa menga bas.

Bobo Kayfi

Ming baqirsang so'kmayman ham, indamayman ham.

Sayid Obid

Tuf, haromi!

Bobo Kayfi

Sog'lig'ingga qasddan ichaman.

Sayid Obid

Aytgin, so'kkin, haromzoda!

Bobo Kayfi

Xo'b, sen — qizitaloq!

Sayid Obid

Padarso'xta! Bu nima gap?

Hujum qiladi, talabalar **Bobo Kayfini** yoqlab, muhtasibning oldini
to'sib qo'yadilar.

Talaba

Bu so'z uchun qamash joyiz emas, muhtasib.
"Qizitaloq" — bu tahqir emas.

Bu — amri shar'iy

Xotin qo'yish shariatda gunoh emas-ku?
Hatto, bir xil kuyovidan kuygan qaynata,
Qizi qaytib uyga kelsa, xursand bo'larku!

Sayid Obid

Senfarda ham menga g'araz borga o'xshaydi,
Madrasada fasod loyin yalagan avlod,
Axir, sizning jo'rangiz-ku u G'affor badzot.
Qalandarlar, benomuslar, nega turasiz?
(Bobo Kayfiga qarab)

Hali seni bir boplayman!

Sayd Obidning do'qiga talabalar kularkan, Bobo Kayfi olomon
ichiga kirib ketadi.

PAR DA

IKKINCHI KO'RINISH

Yana o'sha sahna. Xalq mutе va beshovqin tek turib **Ulug'bekning**
kelishini kutmoqda. Kutuvchilar doirasida oldingi saflarda **Shayxulis-**
lom Burhoniddin, Abdurazzoq, Sakkokiy va Ali Qushchilar ham bor.
Kelayotgan hudoychining ovozi eshitiladi.

Hidaychi

Shahriyori juvonbaxt, zebondayi toj-u taxt sulton **Ulug'bek** ibni sulton, ahli fasod gumrohlarni va ko'mamat badxoohlarni tor-u mor va asir-u zor qildilar. Al'on sulton ibni sulton g'olib va xurram shod-u mukarram Samarcandi firdavsmonandga tashrif buyurdilar, omon bo'lzin shahriyorumiz, omini!

Xalq

Omin! Omin! Shukur bo'lzin Parvardigorga!

Hidaychi jatini eshititrib va takrorlab yonida bayroq ko'targan ikki mulozim bilan kelib xalq ichidan o'tib, darvozadan shaharga krib ketadi.

Karmay tovushlari. Yaqinlashayoqan otlarning tuyoq dukurlashlari.

Shayxulislom

Alhamdulilloh, mulkka keldi osoyishtalik!

Sakkokiy

Afsus, har gal fitna-fasod chiqqan chog'ida,
A'llohaZRAT shaxsan o'zi bormoqqa majbur.

Ali Qushchi

Ha, maylono, bu so'zingiz g'oyat o'rinnlik.
Zero, hazrat shahriyoring urush-yurishda
O'tib ketgan har bir kuni bilimming, fanning
Toleyidan ko'p yillarni o'g'irlab ketar.

Abdurazzoq

Ne chora bor? Sulton o'zi lashkar tortmasa
Shohsiz shatranj o'yiniga o'xshab qolar jang.
Kayxusrav ham, Chingizzxon ham shunday qilganlar.

Ali Qushchi

Urushmoqdan bo'lak kasbni bilmagan ular.
Uylarida qiladigan ish topolmagach,
Noshir qolib jangbozlikda topganlar hunar.

Shayxulislom

Saltanatning fayzi uchun sog'-u salomat
Qaytib keldi saodatmand sulton Ulug'bek!
Hazor shukur! Shayyadollohu arkonuhu!

Ovozlar

Ana, otdan tushayotir hazrat Ulug'bsk.

Xalqning quvonch niodlari va "marhabo!" tabriklari ostida **Ulug'-bek** yonida **Bek Arslon**, Berdiyor va bo'lak **mahram** ham navkarlari bilan kirib ketadi. Hamma ta'zim etadi. Navkarlar darhol darvoza oldiga ko'chma taxt olib kelib qo'yadiar. Ulug'bek qilichini belidan yechib olib, qo'lliga aso tutadi. Chakmonini yechib to'n kiyadi, dubulg'asini yechib boshiga mudarris dastorni kiyadi. U xursand va mammun, ammouning chehrasida qattiq horg'inlik alomatlari oshkordir. Ulug'bekning shu kiyinib turgan paytda **Ota Murod** va yosh dehqon o'rtasida suhbat o'tadi.

Ota Murod

(sekin)
Arziholni bersak deyman, xuddi paytda!
Sulton o'zi xursand bo'lsa, shu quvonchida Fuqarosin suyuntirmoq istar, Ahmadjon!

Yosh dehqon

Payti kelgach arizani tutqizavering.

Shayxulislom

Saltanatning fayzi uchun sog'-u salomat
Qaytib keldi zafar bilan g'ozi Ulug'bek.
Hazor shukur! Shayyadollohu arkonuhu!

Xalq

Marhabo! Marhabo!

Sakkokiy

(o'zining mashhur qasidasini o'qiydi)

"Jahondin ketdi tashvish-u mabodiyi amon keldi.
Xaloyiq, aysh eting bugun, sururi jovidon keldi.
Ayo, shoho, malaksiyrat, sening vasfing so'zi ichra
O'qigin endi olingda yana bir doston keldi.
Salotin dunyoda ko'b keldi-yu kechdi, seningdek bir —
Falakning gar tili bo'lsa, ayitsinkim, qachon keldi.
Kishlikim, qahringga uchrar, shaqovat birla ub bordi,
Vale lutfingni topg' onga saodatdin nishon keldi.
Erurman xonadoningning ko'ngil birla duochisi,
Menga burhon tilosalar so'zim xud chin ayon keldi.
Shaho, lutfingni topqum deb duochi banda Sakkokiy,
Belin joni bila bog'lab bu xizmatga ravon keldi".

Xalq
Marhabo! Marhabo! Ofarin!

Ulug'bek

(ko 'chma taxtida o 'irigan holda)
Assalom, ey, Samarqandning vafokor xalqi!
Senga zafar va osoyish keltirdim al'on!
Mamlakatning tepasiga tushganda xatar,
Sultonlarning boshi bundan og'riydi battar.
Davlatimiz tanasini g'ajib yirtmoqchi
Shaqlarning galasini to 'zg'itib keldik.
Bir qanchasi halok bo'lди, anchasi asir,
Yog'iylarga minba'd bo'lur shu ibrat-ta'zir.
Biz Sayhunda qayta tikdik tinchlik tug'ini,
Qismatlarning eng og'iri sulton qismati,
Elini boqib, cho'pon bo'lmoq uning xizmati.
Saltanatda lozim erur shunday bir usul:
Mang'inonda tovuq yitsa, shoh bo'lsin mas'ul.

Ko'r qalandar

(orqadan)

Poytaxtida Sayid qizi o'g'irlansa-chi!

Olomonda qiy-chuv. Bir necha mirshab va Berdiyor piching tashlagan kishini topmoqchi bo'ladilar. Xalq o'rtasida g'azabli nridor: "Kim u sharmanda?"

III fuqaro

(talabaning qulog 'iga)

Boya shohga tuhmat degan pesning ovozi.
Ko'r qalandar podshohga ashaddiy dushman.

Ulug'bek

(sokin ham vazmin)

Eshitaman badxohhlarning ta'na ovozin.
Bu gap Sayid muhtasibning ko'nglidagi gap!
(Sayid muhtasibga ko'zi tushib)
Sayid, biling qizning o'zi xohishi bilan
Erga tegsa, bu hech qanday o'g'irlik emas.
Yana biling, kuyov'kelin, u ikki yosha
Shaxsan o'zim otaxonman, kimdanki shoyad,
Ullarga bir ziyon yetsa, menman da'vogar.
(o'rnidan turadi)

Ahli poytuxt, peshvozimga chiqqan fuqaro,
Hurmatingiz daf ayladi horg'inligimni.
Mayli pashsha, mayli chivin g'ing'illey bersin,
Pashshani ham, tovushin ham uchirar shamol,
Bo'ltionchilar hunaridur tuhmat, iftiro.
Har qanday ham uydirmani demang — ixtiro.
Xudovando, bundan keyin bo'lmagay urush!
Darvozaga qarab yo'l oladi. Dehqon Ota Murod Ulug'bek oldida
cho'kadi.

Ota Murod

Arzimizni eshitgaysiz, qiblayi olam!

Ulug'bek

Tur, tur ota, u qanday arz?

Sayid Obid

Buyuring sulton:
Bu gustohni yasovullar haydab jo' natsin,
Toki sizga dilozorlik yetmasin bundan.

(*Ota Murodga do 'q bilan*)

Bilmaysanmi, davlatpanoh safardan tolgan.

Ulug'bek

Sayid Obid, fuqaroning yo'lini to'smangiz!

(*Ota Murodga*)

U qanday arz?

Ota Murod

Shikoyatim shu arziholda.
Xirojlardan, o'lponalardan va zakotlardan
Qaddimizni ko'tarolmay qoldik, podshoh.
Dahada biz to'ralardan sob bo'lib ketdik,
Samarqanda muhtasibdan qurdi tinkamiz.
Sulton, bor gap shu qog'ozga to'liq yozilgan.
Biz-ku omiy. Biroviga so'rab yozdirdik.

Ulug'bek

(*arizani Ota Murodning qo'lidan ola turib*)

Hay-hay, shoshamang, dehqon bobo, sizni taniyman.

Ota Murod

Balli, hazrat! Ko'p yil bo'ldi, siz eslaysiz-a?
Bizdek xas-u xashaklarni yodda tutasiz...

Ulug'bek

(*arizani Ali Qushchining qo'liga berib*)

Arzingizni o'qib chora ko'rarmiz, ammo —
Bog'bonlarni xas-u xashak deyish bu — uvol!
Axir bog'bon ne'matlarning ijodkori-ku?
Balli, sebi — Samarcandiy har yoqda mashhur!
Xo'b eslayman.... O'n ikki yil... ikki oy bo'ldi.

U kun cho'lda ov payidan kun bo'yichopib,
Kech kirganda ham ochiqdik, ham suvsab qoldik
Shunda sizning bog'ingizza kirim o'tirdik.
Qimiz ichdik, tira-mohi olmalar yedik.
Yanglishmasam, sizni derlar Ota Murod, a?

Ota Murod

Shundog', hazrat!

I fuqaro

(*sekin ikkinchi fuqaroning qulog'iqa*)

Oyoyil, taqsir, Ulug'bek o'z es-u yodida
Umiringin har daqiqasini, har yulduz o'min
Saqlar ekan deganlari bejiz emaskan!

Ulug'bek

Xo'sh, u olma urug'idan haliyam bormi?

Bobo Kayfi

(*chekkadan*)

Davlatpanoh, muhtasiblar urug'i borkan,
Olmalarning urug'iga gullahash qayoqda?!

Sayid Obid

(*asabyi*)
Izn bering, zindon trashlay bu behayoni!

Ulug'bek

Hay, muhtasib, sizga qolsa butun millatning
Yarmi chirib ketar edi avaxtalarda.

Sayid Obid

(*shahriyor*)
Shahriyor, bu tegajaklik bilan hamisha
Mastlik qilib, kattalarni massxara qilar.
Alalxusus, darveshlarни so'kkani-so'kkani.

Bobo Kayfi

Ha, bunaqa odatim bor. Yashirmayman ham.
Maydan tonsam, may meshimni qayga yashiray?
May ichaman va kechaman o'z xatoyimdan.
Shafqatpanoh, aybinni siz kechirsangiz, bas!
Ammo dinning va mazhabning zuluklarini,
Haromtomoq daryeshlarni yomon ko'raman.
Va ularni masxaralab ichaman ko'proq.
Shunday qilib Bobo Kayfi jahonda yolg'iz,
Bir o'ziyu, may meshiyu, rostonha so'zi.

Ulug'bek

Bobo Kayfi! Ajabo, bu nommi, laqabmi?

Bobo Kayfi

Shafqatpanoh... Bir zamonda bo'lgan o'z ismim...
Ammo ismim o'z jismimga mos kelmas ekan.
Men voyaga yetganimda shoir bo'lay deb,
Mashqlar qilib bir taxallus izlay boshladim.
Boqsam, hamma taxalluslar talanib ketgan,
Biron durust taxallus ham qolmabdi ekan.
O'qigandim Umar Xayyom ruboilylarin,
Shoir uchun sharob ichmoq shart deya bildim.
Shunday qilib mendan shoir bo'lmay qoldi-yu,
Mayxo'rlikka lekin toza o'rghanib ketdim.
Men shoirlik taxallusin topmasdan burun
Menga ulus laqab qo'ydi: "Bobo Kayfi" deb.

Ulug'bek

Bobo Kayfi! Bobo Kayfi! G'alati odam!
Unutmaki, lazzatning ham bir sarhadi bor.

Bobo Kayfi

Shohim, menga bu dunyoda nima ham qoldi.
Ablahlarning boyiganin ko'rsam ichaman,
Dorishmandni haqiq ko'rsam ikki ichaman,

O'o'shi qizin puchuq ko'rsam uch bor ichaman,
Kambag'alning yakka-yolg'iz bir bosh sigiri —
Tug'gan buzoq dumisiz bo'lsa, to'it bor ichaman,
Cho'ponning bir iti o'lsa, besh bor ichaman,
Nafsin o'ylab nayrang qurban kallavaramlar
Sizga qarshi "g'iq" etdimi, oti ichaman.
Desalarki: "Bobo Kayfi, ichganing yeldi!"
"Nima?" — deyman: "Yettimi, ha?" — Yetti ichaman
Shafqatpanoh, aybinni siz kechirsangiz, bas!

Ulug'bek

Abdurazzoq, siz tolening hazilin ko'ringki,
Eng hushyor gaplar chiqar mastning og'zidan.

Abdurazzoq

"Mastlik — rostlik" degan maqol to 'g'ri gap ekan!

Sayid Obid

Hazrat, buni shunday qo'yib yuboraylikmi?

Ulug'bek

Qo'ying, qo'ying, ko'p hushyor befahmlardan,
Uning sarmast holidagi gapni purma'mi!

Ulug'bek darvozaga bormoqchi bo'ladi. Darveshlar uni ko'rib zikr
holida "Yo Olloh do'st, yo Olloh" deb baqirib zikr tushadilar.

Ulug'bek

(ularga qarab)
Qalandarlar, jazava-yu zikrdan o'zga
Qo'lingizdan biron yaxshisi keladimi?

Ko'r qalandar

Aqli Oolloh gadolarmiz. Qalandarlarimiz.
Xo'ja Ahror tariqati borgan yo'llimiz.

Ulug'bek

Nima ishga mashg'ulsizlar?

Ko'r qalandař

Ibodat, toat.

Bandalarga shafoatni haqdan so'raymiz!

Ulug'bek

Xo'sh, bulardan ne bahra bor?

Ko'r qalandař

Oxirat g'ami.

Ulug'bek

Sizga ust-bosh va yegulik kimlar beradi?

Ko'r qalandař

Avomun-nos darveshlarni boqmog'i lozim.

Ulug'bek

Shunday razil va tilanib iflos kun ko'rmak
Haromxo'rlik, o'g'irlikdir. Gumnohi azim,
Sen, Berdiyor, yasovuldan o'n kishi olib,
Shu ovora darveshlarni hasharga hayda.
Zarafshondan men chiqargan "Mirzo arig'i" n
O'zamini kavlab biroz terlab ko'rsinlar.

I dervesh

Biz – dargohi ilohining gadoylarimiz.

II dervesh

Ibodatdan bo'lak bizning vazifamiz yo'q.

Ulug'bek

Mehnat nima ekanini o'rgansalaring
Bundan a lo hunar ham yo'q, savob ham yo'qdır.

Berdiyor

Davlatpanoh, ruxsat bo'lsa, shu bedumlargacha
Elliktadan tayoq-payoq qoqtirsam deyman.
To shu darvesh-parveshlarning kasofatlari
Ariqning pok suvularini harom qilmagay.

Ulug'bek

Berdiyor, sen aytganimni qilgin, vassalom,
Ho'kiz bilan otga ishlat tayoqlaringni!

Ko'r qalandař

Ey, Xudovand, o'zing asra, bandalaringni,
Bedinlardan darveshlarga balo yetmagay!

Berdiyor

Yuring, sizga hunar-punar topib beraman.
Non-pon qaydan chiqar ekan, bir billib qo'ying!
(Berdiyor bir necha yasovul bilan
darveshlarni haydab ketadi)

Sayid Obid

Hazrat sulton qaltis bo'ldi shu farmoningiz,
Darveshlarni ahli Olloh debdi valilar.
Xo'ja Ahror buyurganki: Agar devorda
Bir darveshning naqshi tasvir etilgan bo'lsa,
U ko'chadan ta'zim qilib o'tib ketmoq farz!
Endi xo'ja darveshlari mardikor bo'lib
Ariq qazsa, Xo'ja Ahror arazlamasmagi?

Ulug'bek

Sayid Obid, bugun ko'rib turibmanki men,
Tunov kungi tanbeh sizga kor aylamabdi.
Menga aytинг: mamlakatda necha sulton bor?
Qani aytинг: kim bu yurtda sohibi farmon?
Siz sultonga qarammisiz, yo'qsa Xo'jaga?
(Sayid Obid j'm)

Siz sabrimming kosasini to'ldira ko'rmang!
Ketdik, do'star!

Ulug'bek va mahramlari darvozadan kirib ketadi. Xalq tarqaladi.
Sayid Obid holda ular orqasidan uzoq qarab turib qoladi.

UCHINCHI KO'RINISH

Parda oldi. Chap tomondan **Abdullahif** bir necha sippohlari va o'z mahrami **Abbos** bilan kirib kelib, o'tayotganida, o'ng tomondan **Xo'ja Ahror** bir necha muridlari bilan unga duch kelib qoladi. Ular yo'1 o'rtasiga kelib ro'para bo'lqanda **Xo'ja Ahror** to'xtab, keskin nazarlar bilan **Abdullahif** qarab qo'yadi. Bu qarashning sehti bilan **Abdullahif** birdan eshon oldida to'xtab, tikilib qaraydi. Ikkalasi ham bir necha soniya bir-biriga tikilib qarashadi. Birdan **Abdullahif** eshon oldida tiz cho'kib, uning qo'lini tutib o'padi. **Eshon** qo'l ko'tarib unga fotiha o'qib, so'ngra yo'lida davom etib ketadi. **Abdullahif** uning orqasidan bir muddat ixloskorlik bilan qaragandan keyin, o'midan turadi va o'z sippohlari bilan teskarai tomonqa chiqib ketadi.

* * *

Parda ochilganda Samargandda, Ko'ksaroyda katta mehnmonxonani ko'ramiz. **Ulug'bek**, **Shayxulislom**, **Bek Arslon**, **Sakkokiy**, **Abdurazzoq**, **Qozi Miskin**, **Devonbegi**.

Ulug'bek

Amir Temur himmatidin Ulug'bek so'zim:
Fitma-fasod bostirildi ko'b zahmat bilan.
Buni sizdan yashirmoqqa hech bir hojat yo'q.
Qo'zg'ononning boshligiqlari asir olindi.
Finachilar Shosh o'lkasin bizdan ajiratib,
Alohiba davlat qurmoq qasdida ekan.

Kalavasi hanuz to'la yechilgani yo'q.
Umid shulkim, bundan buyon urush bo'lmagay.
Lekin har dam sarhadlarni mahkam saqlashni
Hech faromush qilmagaysiz, sardor Bek Arslon.
Amu bilan Sirdaryoning o'ita yeridan,
Ajoddimiz avaylagan Movarounnahrdan
Bir kesak ham berilmaydi begonalarga.
Men sizlarga aytadigan ikkinchi so'zim:
Ma'lumingiz, Abdullatif Mirzo o'g'limiz,

Taxtimizning valiahdi, sultanat baxti,
O'z amakivachchalarini birla kelishmay.

Urush qilib yengilgandi, Alouddavla —
Mening inim Boysunqurning o'g'li, jahli ila
Uni Hirot qal'asida hibs etgan edi.
Mavlonolar, meni ko'proq tashvishga solgan
Temuriylar o'rasisida shu nizolardur.
Shayxulislom, bundan battar tahlikai bormi?

Shayxulislom

Yo'q, shahriyor. Yurt ichida og'a-inining
Yoqalashib urushgani, xorijidan bosgan
Hazor-hazor dushmanlardan ming chandon battar.
Qarindoshni o'idirmoqning uvoli buyuk.

Ulug'bek

Men ularni yarashtirib tinchita oldim.
Abdullahif eson-omon qamoqdan chiqib,
Bugun kelib yetgusidir bizning dargohgaga.
Shu uchun ham janoblarini chaqirtirdim men.
Endi mening madadkorim bo'lsa yonimda,
Sultanatning tadbiriga qo'shilari idrok.
Hukumatning o'ng qo'lida ortar quvvati.

Hamma

Inshoollo, bajo bo'lur aytganlarigiz.
Devonbegi (kirib keladi)
Shahzodayi juvonbaxt — Abdullatifbek!

Abdullahif yonida **Abbos** bilan kirib keladi. U otasining oldiga borib, ta'zim qiladi. **Abbos** eshik oldida haykalday qotib turadi.

Abdullahif
Amir Temur dargohining baland toqiga —
Davlatpanoh otamizga duo-yu salom!

Borib **Ulug'bekning** qo'lini o'padi. **Ulug'bek** uni quchoqlab peshanidan o'pib, o'z yoniga o'tqazadi.

Hamma

Marhabo, marhabo!

Ulug'bek

(mehrbon)

Mahbuslikning iztirobin dildan chiqaring.
Uzr istab tavba qildi Alouddavla.
Temuriylar xonadoni bir bo 'lsa agar,
Turkistonga na zavol bor, na xavf-u xatar.
Mahbuslikni bir ertak deng yo tush hisoblang.
Axir, inson bandi bo 'lib qolgani bilan
Uning ismi o'zgarmas-ku, zoti o'lmas-ku!
Axir, atir bir shishaga berkitilganda,
Bu gap, atir past narsadir degan emas.

Yo oltinni maxfy joyga yashirgan bilan
U, arzimas tosh ekan deb kim ayta olur?
Mahbuslikning iztirobin dildan chiqaring.
Samarcandda bo 'lib, bizning davlatxonada
Sultanatning ishlariiga qatmashib turing.
Toki, men ham ko'proq fursat topib shu zamон

Shug'ullanay chala qolgan fanlarim bilan.
O'g'lim, hayot bizga emas abadiy yo'ldosh.
Dunyo sirin endi biroz anglar-anglamas,
Ado bo 'lar tole bizga ajratgan muhlat.
Ha, azizim, mening umrim kuzi boshlandi...
Xo'sh, safarning hordig'ini borib chiqaring!
Abdulaziz ningizing bemorligini
Eshitgansiz?

Abdullatif

Ha, eshitdim.

(o'z-o'ziga)
Eshitmayin qolarmidim men!
(turrib)

Garchi safar bizni g'oyat toliqtursa-da,

Buzrukvorim, sizning so'z-u suhbatgizdan
Fayz olmoqlik bizlar uchun chin saodatdir,
Ota lafzin dilga ilmoq ezgu odatdir.
Ruxsat bo 'lsa qolib tinglay farmoyishlarin.

Ulug'bek

(mehrbon)

Borakallo! Arboblarning kamyoj xislati:
Muhim bilan nomuhimni ajrata olmoq.
Zotan, yoshlik va horg'inlik bir-biriga zid,
Qoling, mayli!

Abdullatif

Qiblagohim, mahramimni tamish tirayin:
Abbos o'g'lon ko'p sinashta yasovullardan.
Otasi ham sizga ma'lum: Sayid muhtasib.

Ulug'bek

Unga javob.

(Abbos chiqadi)

Abdullatif, shu mahramingiz
Otasinga o'xshamas deb umid qilaman.
Sayid Obid qo's va dag'al, kekchi, badraffor
Ko'r-ko'rona taassubchi, urfonga dushman.
Shikoyat ko'p, fuqaroga orom bermaydi.

Shayxulislom

Ko'b noto'g'ri talqin etar shar'i-sharifni!

Abdurazzoq

Muhtasibman, sayidman deb, safsata sohib
Hatto sulton sha'niga ham til tegizdi u.

Sakkokiy

Qizi bitta mullabachcha bilan sevishib,
Uydan qochib ketganiga shuncha tajangki,
Imkon topsa madrasa-yu mudarrislarini,

Talaba-yu kitoblarni kufrda ayblab,
O'tga yoqqan bo'lar edi. Faqat shahriyor
Savlatidan hadiksirab tiyadi o'zin.

Ulug'bek

Bu amalda qolishiga yetmaydi ko'zim.
Sayiddur deb ko'p kechirdim, amino befoyda.

Abdullatif

Buzrukvorim, shafqatingiz olamga mashhur.
Abbos o'g'lon, menga g'oyat berilgan mahram.
Og'ir sinov chog'lariда, bandiligmida
Xizmatimdan ketmay qildi kambarbastalk.
O'zi jasur, og'zi mahkam. Haftalab ba'zan
Undan biron "g'iq" sadosi ham eshitilmas.
Otasingning qilliqlarin yoqtirmasa-da,
Otasingning halolzoda o'g'li-ku, axir!
Bu to'g'rida menga biroz aytgan edi
Muhtasibni mansabidan haydamay hozir,
Yana bir bor kechirishni o'tinaman men.

Qozi Miskin

Payg'ambarning hurmatiga, siz shu sayidni
Muztar qilib xalq oldida sharmanda etmang!
Unga hatto Xo'ja Ahror qattiq ixlosmand!

Bek Arslon

Saltanatning g'animmlarin tobakaygacha
O'z holiga biz qo'yamiz, hazrat shahriyor!
Menga faqat bir imongiz yetadi, valloh.
Xo'jasini, sayidini, murid-muxlisin
Kallallardan minor tikish yangi gap emas!

Ulug'bek

Ha, chamasi Xo'ja bilan muhtasib qo'ldosh.
Har ikkovin chunki nurdan ko'zi qamashar.

Ammo, sardor, hovliqasiz shu taklif bilan
Bu ravshanki, sardorlarning boshidan ko'ra
O'ng qo'llari durust ishlar. Ammo, ne chora?
Bilasizmi, avomlarning kallalarida
Shu qadar ko'p qorong "ilik hujralar borki,
Har birida yashiringan bittadan xo'ja.
Yana biroz sabr etaylik. Abdullatifning
Itimosin inobatga oldim, hazratlar!

Men sizlarga aytadigan uchinchchi so'zim:
Xaloyiqning ahvolini o'ylamoq kerak.
Sultonlani "Zillolohu fil-arz" deydilar.
Bu — Xudoning yer yuzida soyasi demak.
Soya bo lib soyangdag'i yerni bilmasang,
Bu — sultonlik vazifasini unutmoqligidir.
Agar yurtning fuqarosi tunda uxlamay,
Faryod tortsa, demak shohning vijdoni uxtar.
Ko'p o'yladim dehqonlarning tirikchiligin.
Axir, olam obodligin sababi ular.
Bani odam oziqasini berar u qo'llar.
Lekin, bizning a'yonlar-chi, xo'sh, kiborlar-chi?
Hayyondan ham pastga urar qishloq ahlini.
Non Yeymiz-u, g'allakordan xabarimiz yo'q.
Kabob eymiz qo'ychivondan olmaymiz xabar.
Olma yeymiz bexabarmiz lekin bog'bondan!
O'ylab-o'ylab bugun shunday qaroqga keldim:
Tunov kungi g'alabaga shodiyona deb,
Va shahzoda eson qaytib kelgani uchun,
Qishloq ahli to'lab kelgan o'lpox-xirojni
Uch baravar kamaytishga farmon chiqardim.

Qozi Miskin

(o'z-o'ziga)

Piri eshon bunga sira rozi bo'lmaydi,

Xo'sh, xirojlar, daromadlar qisqarib ketsa,
Nizom, qo'shin, qasri sulton, davlatxonamiz,

Madrasalar, sipohiyilar qanday yashaydi?
Bu savolni men o'qiyman ko'zlaringga.
Buning faqat javobi shu: chet o'lkalardan
Kelayotgan savdogarlar va binobarin,
Chet yurtlarga mol-u mato chiqarayotgan
Bozorgonlar xirojini oshirmoq lozim.
Buni "Tang'a xiroji" deb farmon yozildi.
Bu to'g'rida fikrlarni bilmochi edim.

Shayxuliskom

Niyathari bisyor oliv va himmatparvar.
Lekin, andak mulohaza qilinsamikan?
Jannatmakon Shohruux Mirzo yasoqlariga
Bunday farmon xilof kelib qolmasmikan-a?
Odat, ya'ni: bu — ikkinchi tabiat, shohim.

Ulug'bek

Gapingiz rost,
Shayxuliskom biroq, insonlar
Odatlarning sarhadida qolganda edi,

Ochilmasdi yangi yo'llar, yangi ufqlar.
Bobolarning qonunhari gar ma'qul bo'lsa,
Ularni ko'z cho'g'i kabibi saqlamoq zarur.
Ammo, zamon zayli bilan eskirib ketgan
Qoida-yu qonunlarni ag'darmoq lozim.

Abdurazzoq

Nushiravon Odil o'zi bu farmonlarga
Ikki qo'lli bilan imzo chekardi, shaksiz...
Bu farmonlar muhrlansin, tarixga kirsin,
Ulug'bekdan bani odam bo'lsin minnador.

Bek Arslon

Hazrat sulton buyurgani hammaga qonun.
Kim "yo'q" desa uni darhol "ha" dedirmoqqa
Kuchimiz ham, o'chimiz ham kifoya, valloh.

Sakkokiy

Lutfan, ulug'ish qilingan, boshqa gapim yo'q.

Qozi Miskin

Daha ahli o'lpox, soliq to'lاب kelgan xalq.
Odamat o'zidan qolgan bu qonun.
Ular holin yengillatish davlatga xatar.
Yalqovlikka olib borar bu hol ularni.
Savdo ahlin siz, bil'aks, qynab qo'yasiz.
Savdogarlik payg'ambanning kasbi edi-ku!
Tamg' angizdan Eshon xo'ja ranjir, albatta.
Chunki, uning karvonlari Chinga, Misrga,
Balxdan o'tib Dehligacha qatnab turmoqda.
Janob sulton, balki bu gap sizga yoqmaydi.
Lokin, bizdan mulohaza so'rар ekanisiz,
Ra'yimizni yashirmayin aytgani yaxshi.

Ulug'bek

Masala hal. Mamlakatning og'ir yukini
Savdogarning yelkalarli ko'tara olur.
Chunki, katta daromadning imkon ham zo'r.
Birinchli gal xazinaga xiroj to'lagay
Ulug'bekning tijoratchi karvonlari.
Toki, ibrat bo'lgay barcha bozorgonlarga.

Abdullatif

Qiblagohning takliflari bag'oyat to'g'ri!
Unga xilof so'zlamoqlik — kam idroklikdir.
Ulug'bek

Sizlar bergen maslahatlar uchun tashakkur!
Qozi Miskin ne deyarin bilardim o'zim.
Lokin, uning aytganlari taklifimning
To'g'riligin yana bir bor aylaydi tasdiq,
Tun saharning bo'lishidan bergandek darak.
Devonbegi, farmonlarni keltir!

Devonbegi qo'lidagi farmonlarni Ulug'bek oldiga qo'yadi.

Bir, ikki...

(farmonlarni varaqlab imzo qo'ya turib,
yozilgan farmon so'zlarini o'zicha o'qiy turib)
"Amir Temur himmatidan Ulug'bek so'zim"
(farmonlarni imzolab oyoqqa turadi)

Farmonlarga javobgardir faqtat sultonlar...

P A R D A

TO'RINCHI KO'RINISH

Ko'ksaroy. Haramxon. Kunduz, nahor chog'i. **Ulug'bekning mu-**
tolaaxonasi orqasidagi eslik Firuzanining yotoqxonasiga olib boradi. De-
vordagi tokchalarda talay muzzayyan kitoblarning muqovalari ko'rindi.
Keng va baland marmar kursi ustida qog'ozlar va daftarlар taxlab qo'yil-
gan. Firuza kursi orqasida o'tirib dars tayorlaydi. U boshini ko'tarib
turadi va devordagi baland oynaga qarab o'z-o'zidan zavqlanadi.

Firuza

Ko'b g'alati bir nasibang bordir, Firuza!
Husning desang, rashk qilguday, joyida ekan.
Sen bog'bonning kulbasida dunyoga kelding,
Qashshoqlikda zahmat chekkan bir qizcha eding.
Ammo, bugun iqomatning shu qasri oliv.
Shuncha oddiy bir odamga shuncha xush tote.
Bular bari muhabbatning yaqqol isboti.
Seni sevar bu dunyoning eng ulug' zoti.
Haramdag'i xonzodalalar, kibor xonimlar,
Ulug'bekning nazaridan qoldi barchasi.
Oh, Mirzoning osmon qadar ulug' vor ishq'i
Faqt menga bag'ishlansa... Qanday saodat!
Bu shunday bir saodatki, tushga o'xshaydi.
Ko'z tegmasin, ko'z tegmasin bunga ilohim!

(derazadan kunga qarab)

E, ustozning keladigan vaqt bo'p qoldi.

Kursiga o'tirib, daftarni varaqlab shug'ullanadi. **Ulug'bek** kirib keladi.

Firuza

(turib)

Valine'mat buyursinlar, salom alaykum!

Ulug'bek

Xo'sh, Firuza! Xo'sh, bugungi darsning tayyormi?
Mulla bo'llib qolindimu yo hali bormi?

Firuza

Siz topshirgan masalalar bari yechildi.

Bir ko'ring: shu hisobimda maxraj to'g'rimi?

Ulug'bek

To'g'ri, to'g'ri, borakallo. Endi ash'ordan
Nimalarni yodllading-u, qanday tushunding?

Firuza

Men bitta bayt topib oldim, g'oyat ma'noli...
Uning forsiy matni shunday:

"Harchand, mo'iki-ho'sn baziri-negini to'st,
Shuxiy mako'nki chashmi-badon dar kamini to'st".

Ulug'bek

Shu bayting turkiysini anglatib ber-chi!

Firuza

Ya'ni, shoir demoqchiki: "Garchi go'zallik
Mulki sening uzugingning tagida turar,
Beparovlik qila ko'rma, zeroiki, har on
Pistirmadan yomon ko'zli dushmanlar qarar".

Ulug'bek

Ma'no senga tamomila tushunarlimi?

Firuza

Faqat, yolg'iz bir nuqtaga tushunolmadim:
— Uzugining ostidagi mamlakat — nima?
Qanday sig'ar bir uzulkning tagiga bir multk?

Ulug'bek

(kulib)

Uni bayning shoiridan so'ramaysamni?

Endi mening yuragimni sen yormasdanoq,
Aytib beray so'zning sirin:

(barnog'idagi uzugini ko'rsatib)

Mana bu uzuk.

Bu — uzukning ko'zxonasi... Bu gavhar emas.

Yaxshilab boq: podshohlik muhri o'yilgan.

Podshohning muhri esa farmonga dalil.

Farmon esa, mamlakatning egasiga xos.

Tushundingmi?

Firuza

(she'x)

Yo uni bayning shoiridan so'rayapman-da!

Ulug'bek

Firuza, ne demoqchisan?

Firuza

Buni yozgan... Siz!

Ulug'bek

Qoyil, qoyil... Yigitlikda gohi-gohida

Mashq qilingan g'azallardan qolgan bir parcha.

Lekin, buni qanday topding! Ko'p yil o'tgan-ku!

Firuza

Shayx Nizomiy "Xamsa" sinii o'qiganimda

Orasidan shu bayt chiqdi. Bu sizning xat-ku!

(ipak qog'oz parchasini ko'rsatadi)

Ulug'bek

Fosh etildim. Taslim bo'ldim. Iqror etaman.

Iqror bo'l sam yengillashar zora jazoyim.

Firuza

Siz uchun ko'p yengil jazo: aytib berasiz
Uzugingiz ostidagi mulk degan nima?

Ulug'bek

Menga bir vaqt "Ilmi aruz" ta'llim qilganda
Ismatullo Buxoriy, u — rahmatlik ustoz

O'rnatardi: "Alma ni fib — batnush shoir" deb.
Ya'ni: shoir ichidadur she'r ma'nosi.

Yaxshilab boq: podshohlik muhri o'yilgan.

Podshohning muhri esa farmonga dalil.

Farmon esa, mamlakatning egasiga xos.

Tushundingmi?

Firuza

Xo'b tushundim. Sog' bo'ling, ustoz!
O'zingizga oid ekan shu bayt ma'nosi.

Valline mat, dushmanlarning nayranglaridan
Xudovando o'zi sizni asrasin, omin!

Ulug'bek

Oh, Firuza, bo'imasayding sen bu olamda,
So'nar edi yuragimning musiqasi ham.

Sen borsanki, menga bahor so'lim ko'rinar,
Gul sepilgan sharofatli yo'llim ko'rinar.

Biz hayotning yo'llarida uchirashdik, biroq —
Bir uchida sen turibsan, u birida — men.

Sen bu yo'lning qadamlaysan boshlang'ichida,
Oh, men esam, yaqinlashdim yo'l oxiriga.

Ammo, yillar ko'paygani, soch oqargani
Qalbning sevmoq va sevilmuoq ehtiyojini

Inkor eta olarmi? Yo'q! Keksa yo'lichilar
Cho'llab qolsa yoshtardan kam suv ichmaydi-ku!

Bobom meni uylantirdi o'smir chog'inda.
Na muhabbat anglar edim, na muomala.

So'ngra, Temur avlodiga xuddi xizmatday
Xotin olmoq siyosiy bir vazifa bo'ldi.

Bir yostiqa bosh qo'yildi, yuraklar-chi: yot.
Xotirlasam, meni bosar xijolat, uyat.

Seni ko'rdim va yangitdan yashardi ko'nglim,

Go'yo endi umrim mangu, yo'q go'yo o'lim.
Hislarimni podshohlik quritolmadi,
Lang olovi muruvvatni eritolmadi.
A, Firuza, hammadan ham senga ayonki,
Sultonlarning ham ko'ksida o'tli qalbi bor.
Shohning qalbi tosh deganlar g'oyat xatokor.

Firuza

Valine'mat, shu oftobday menga ravshanki,
Koshonalar hashamati, dabdaba emas,
Shu insony qalbingizdir meni band etgan.
Axir, mening ustozimsiz, yagona ustoz,
Sizga qancha minnatdorlik bildirsam, bu oz...
Himoyaga olib faqir, nodon bir qizni,
Ma'rifatning chirog'iga maftun etdingiz.
Murabbiy ham, muallim ham bo'ldingiz menga.
Borib-borib qalbimdagi sizga ehtirom
Ehtirosli muhabbatga aylandi butun.
Hayotimning boisи ham, intilishi ham
Bo'llib qoldi bu dunyoda ustoz Ullug'bek!

Ullug'bek

Ha, Firuza, men bularni yaxshi sezaman.
Balki seni xo'rlaydilar orqavorotdan.
Bog'bon qizi, past tabaqa, fuqaro derlar.
Zotan, sira tushummaslar, bechora ko'rilar
Oltin ko'kdan tushmas, yerring tagidan chiqar.
Sen bek qizi emassanki, bo'lolsang beka,
Sen xon qizi emassanki, bo'lsang xonika.
Sulton va shoh nasabidan emasdир astling,
Xo'jalardan emasdир nasling.
Ammo sening shajaraqnda bir ustunlik bor:
Onang mehnat, otang esa — zakovat bo'linish.
Senga unvon o'zim topib qo'ygan bir laqab.
Sening noming Firuzaoy bo'lsa yarashur.
Chunki oydir eng vafoli aziz do'stimiz,

Chunki oydir dunyomizing sodiq hamrohi.

U hech qachon va'dasiga xiлоf chiqmaydi,
Tayinlangan muhlatida kelar muntazam.

Aldoqchilik, dangasalik unga begona,
Koinotda tanti qo'shni, dilbar dugona.
Oy suzadi firuzarang samovat aro,
Firuzarang ko'kka berar oy doim oro.

Firuza

Dunyo shuncha yaxshi ekan, yashamoq laziz.
Nahot shuni yoqtirmagan kishilar ham bor?

Ullug'bek

Bor, azizam, yomonlikning gumashatalari,
Tek tursalar, jigar-bag'ri ezilgan pastlar,
Mamlakatda osoyishning kushandalari,
Qon hididan sarxush bo'lgan boshi buzuqlar,
Zuluk bo'lib el qonini so'rgan hayvonlar.
Biz bulardan bittasini hozir ko'ramiz.
(qo'lni qo'lgan uch marta uradi)

Devonbegi

Devonbegi, hozir olib chiqing bu yerga
Qo'zg'olonchi qipchoqlanning qo'rboshisini!
(devonbegi chiqadi)

Ullug'bek

Shu Buroqbek degan g'oyat yovuz jonivor.
O'zi yurtiga bek bo'lmoqlik maqsadida u
O'z otasin, qardoshlarin so'yib tashlagan.

Firuza

Unday bo'lsa, sizga xalal bermay ketayin!

Ullug'bek

Yo'q, ketmagin, sen ham ko'r shu kallakesarni.
Angla, davlat tepasida ne-ne tashvish bor!

Devonbegi va uning orqasidan qo'llari bog'liq Buroqbekni kuzatuvchi ikki yasovul olib kiradilar. Buroqbek chinakam kallakesar qo'rboشidek har tarafa g'arazli, yovvoyi nazar tashlaydi. Uning qiyofasi ko'chmanchi boscin elatlariга xos haybatli va badaviy.

Devonbegi

(Buroqbekka)

Tiz cho'k, mal'un, podshohning huzurida, tez!

Buroqbek bo'rilarcha xavfsirab qarab turganda **Devonbegi** uning yelkasidan bosib tiz cho'kishga mafjbur etadi.

Ulug'bek

Tur! Turg'izing bu ablahni! Senmi, Buroqbek?
Aygin! Nega xaloyiqqa senlardan kun yo'q?
Sen insomni yoki odam shaklida bo'ri?
Bir dasta o'g'ri,
Suv o'miga qon ichasisiz, elatni to'zg'ib,
Sarsari och qashqirlanday yo'llarda izg'ib.
Endi tag'in kallallarda boshqa bir havas.
Sen sultonga nega qilich ko'tarding, nokas?!

Buroqbek

Sirdaryoning bo'ylarida bizning bobolar
Hulkun surgan. U tuproqlar bizning mulkimiz.
Biznikidir Toshkent shahri, Chirchiq uvasi.
Samardangda mute bo'lmoq istamaymiz biz.
Chunki, din-u shariatinning puturi ketdi.
Biz o'zimiz kofirlarning ellarin bosil,
Egallasak dini islom topadi rivoj.
Qul-u, pul-u o'lja bilan boyiydi beklar.

Ulug'bek

"Bizning", "bizning", "biznikidir!"
Axir sizilar kim?

Buroqbek

Chingizzxonning, Jo'jixonning avag'asi biz!

Ulug'bek

Sirdaryoning suvlarini sizning Jo'jixon
Qalpog'ida olib kelgan emas-ku, axir!
Bu muddao xom xayoldur. Rostini aygin:
Sen kimlarning qutqusiga uchib qo'zg'alding?

Buroqbek

Biz o'zimiz...

Ulung'bek

Shundaymlikan?

Devonbegi

(Ulug'bekka bir parcha qog'oz berar)
Hazrat shahriyor,
Bu yozuvular Buroqbekning qo'nijidan chiqdi.

Ulug'bek

Nega shunday pora-pora?

Devonbegi

Hazrat shahriyor,
Biz bu beki hozir sizga olib chiqqanda,
Ust-boshini tintib ko'rdik, etik qo'nijidan
Bir buklangan nomchiqdi, ammo bir zumda
U qo'qqisidan o'zin menga tomon tashhladi,
Qo'llari band bo'lganidan u og'zi bilan
Xatni qopib, yirtib oldi sirtlonday chaqqon.
Arang ushbu parchalarni qutqarib qoldik.

Ulug'bek

(qog'ozlarni qarab)

Eh, kerakli so'zlar ko'pi yirtib olingan.
Imzosi yo'q... Muhi ham yo'q. Jum¹alar uziq,
Faqat ayrim so'zlargina: "Inshoolloh biz" ...
"Kofir sulton" ... "Xo'jamizning fatvosi birla" ...
"Shariatni dastur qilib" ... "Bu xizmatlaring" ...
"Diyor Shosh" ... Boshqa so'zlar yirtilib ketgan.

Ammo bu ham dalil ekan katta fitnaga.
E-he, g'oyat uzun ekan isyoning ini.
Menga qarshi tayyorlashgan katta suiqaqd.
Shu xatni kim yozgan senga?
(buroqbek jim)

Aytgin, qo'rqmagan,
Sendan ko'ra u kishini bilmog'im zarur!

Abdullatif

Buzrukvorim huzuriga ruxsat so'rayman!

Ulug'bek
Xo'p keldingiz, Abdullatif, ko'rib eshitning,
Temuriylar davlatining yovlari kimlar?
Men ko'zimning qorasidek qirq yil asragan
Sultanatga tuzoq qurgan qanday razillar!
Razm soling, mendan keyin hukmdorlikda
Kimlar do'st-u, kimlar dushman bo'lishin biling!
Mamlakatning butunligin Tangri saqlasim!

Abdullatif

Mamlakatning butunligin Tangri saqlasim!

Ulug'bek

(Buroqbekka)
Aytgin, aytgin, sen-ku qo'lda qo'g'irchoq, xolos.
Aytsang seni bo'shataman, yurtga qaytasan.
Men bir so'zli odamman-ku! Kishanin oching!
Buroqbek qo'lidan kishanlarni ochadilar.

Mendan qo'rqma! Aytta qolgin!

Buroqbek jim.

So'yla, ko'mnamak!

Buroqbek jim.

Menga tobe bo'lmoqlikka ahd etsang agar,
Ulusingda, beklilingda qoldiraman, bil.

Faqat, so'yla!

Buroqbek jim.

Boq. Firuza, kushandalarda
Nomardlikning ildizlari shuncha chuqruki,
Ular hatto rostgo'ylardan gumonsirlar.
Vaholanki, Sharq-u G'arba kunday ayonki,
Umrida hech yolg'on aytgan emas Ulug'bek!

Buroqbek o'g'rinchha **Abdullatifga** qarab qo'yadi. U juda maxfy
tarzda unga "jim" degan ma'noda ishora qilib, lablarini tishlab qo'yadi.
(devonbegiga)

Olib borib avaxtaga tashlang, o'tirsin,
To egasin aytmaguncha zindonda tursin!

Buroqbekni olib ketishadi. **Ulug'bek** xat parchalarini **Firuzaga**
berib.

Ol Firuza! Oliymaqom mansabdorlardan
Menga kelgan barcha xatlar menda saqlangan.
Qaydaligin sen bilasan, solishtirib ko'r:
Bu xat kimning dastxatiga o'xsharkan, qani!

Firuza

Bosh ustiga, maktublarni ko'rib chiqaman!
Menga kelgan barcha xatlar menda saqlangan.
Qaydaligin sen bilasan, solishtirib ko'r:
Bu xat kimning dastxatiga o'xsharkan, qani!

Haram tomonga yuradilar.

Abdullatif

Qiblagohim, menga bir dam iltifot qiling.
(Firuzaga karab)

So'raymanki, bu gapimiz bo'lgay xilvati.

(Firuza chiqadi)

Qiblagohim! Men huzurga kirishdan maqsad:
Qo'zg' olondan xafaligim sizga bildirish,
Va tergovning boruvini tezroq jildirish.
Buroqbekning tergovini, lozim topsangiz,
Hozir menga siz havola etsangiz, deyman.
Undan simi olishimga imonim komil!

Ulug'bek

Shunday bo'l'sin!
(haranga kirib ketadi)

Abdullahif

(yolg'iz)

Nega, nega, yuragimmi qoplar iztirob
Uni ko'rsam yo eshitsam, yoki o'ylasam?
Axir u-ku, bu bevafo diyorda emas,
Mag'ribdan to Xonbaliqqa, Rundan Hindgacha,
Misrdan to Tabrizgacha eng multaram zot.
Ammo men-chi, unga faqat xusumatum bor.
Ko'rolmayman, ko'rolmayman uni, vassalom.
O'g'ilining o'z otasiga osiy bo'lishi...
Uh... Bu yomon bir jinoyat, dahshatl gunoh.
Ammo netay? Go'yo uning har tirik kuni
Meni bir yil qaritadi, go'rga eltadi.
Bu g'arazning boisi ne? Ko'p mushkul savol.
Shunday ekan, yaxshiliyni unutish oson,
Yomonlik-chi, xotiradan chiqmas umrbod.
Ne chora bor? Shunday ekan inson xislati.
Men saltanat noibiman, valiahdiman.
Buni kecha u qaytadan tasdiq ayladi.
Ammo qachon? Necha-necha yillardan keyin
Men bu baxtga erishurman? Tangri biladi.
Balki besh yil, balki o'n yil, balki o'ttiz yil.
Axir, uning o'z otasi Shohrux Mirzo ham,
Shohruux Mirzo padarları Amir Temur ham

Yetmishlardan oshirdilar umr manzilin...

Bordi-yu bu ulardan ham ko'proq yashasa!
Qachon, axir, shohlik tojin boshga qo'yaman?
Qarigandan keyin tojni boshga uraymi?
Barcha tishlar to'kilgandan so'ng dasturxonada
Mingta laziz taom tursa, tatiydimi? Yo'q.
Sulton bo'lsang, haramingda yuzlab dilbardan
Har kechada bittasining labin so'rmasang,
Hamla qilib boy ellardan o'lia olgani
Sipohlarga o'zing sardor bo'lib yurmasang,
Bunday shohdan sahrodag'i yo'lto'sar afzal.
Ammo unda hali qarish alomati yo'q.
Fikri tetik, o'zi chaqqon, vujudi sog'lom.
Hanuz sevgi bog'chasidan gullar temoqda!
Firuzaning og'ushida yashnashin qaratang!
Tavba! Xudo ko'rsatmasin, yuz yashasa-ya!
Yo'q, baxt uchun birovlarning ajalin kutmoq,
Bu — baliqni tavakkal deb qo'l bilan tutmoq!
Agar fursat qo'l dan ketsa, xarob bo'laman.
Hozir meni u valiahd desa-da, lokin,
Menga tamom ravshandirki, bu — nochorlikdan.
Men bilaman, u ko'p sevar Abdulazizni.
Biroq, imim og'ir xasta, bu — mening baxtim.
Otasi ham bilar uning norastaligin.
Menim boshqa qardoshlarim o'ldi yoshlilka,
Bunday yaxshi o'lmlar ham mening omadim.
Ha, u meni yoqtirmaydi. Chidár noiloj.
Chunki, istar o'zidan so'ng bu taxt-u, bu toj
Har qalay o'z farzandiga tuyassar bo'lgay.
Bo'llmasa, u meni sira yoqtirmaydi, yo'q!
Axir, Tarnob urushida, Aloudavla
Lashkarini yorib o'tib, qochirib qo'ygan!
Men edimi-ku, ammo sulton fathnomani
Abdulaziz sharafiga e'l'on ettirdi.
So'ngra, Hirot qal'asida Ixtiyoriddin
Qo'rg'onida yotgan mening lakkak oltinim

Dushmanlardan qaytarilib olinganida
Oltinlarni, bu sultanat pulidir deya,
Menga bermay xazinaga qo'shib qo'ysi.
Raqiblarim meni asir olib Hirotda,
Sazoyidek kamarimni yechdirib beldan,
Ko'cha-bozor rasvo qilib kezdirganida,
U, Firuza og'ushida yoki rasadda
Yulduzlarining mehri bilan band bo'lib yotdi.
Faqt o'zin sha'ni uchun meni bo'shatdi.
Yo'q, noiloj aytadi u meni "valiahd".
O'g'ilning o'z otasiga osiy bo'lishi!..
Uh... Bu yomon bir jinoyat, dahshatli gunoh.
Ammo Xo'ja Ahror bir kun va'zida degan:
Din dashmani bo'lsa hamki qardoshing, otang,
Unaqasin daf aylamak savobi azim.
Bu bahona vijdonimi biroz yupatar.
Uni dinga xilof yurgan sulton derlar-ku!
Tarbiyasi menga o'tgan Gavharshod bibim,
Bilganimcha, shu tufayli undan norozi.
Xo'ja Ahror o'z murid-u muxlisi bilan
Dahriy shoh deb unga qarshi yog'dirar qahrin.
Men bulardan istifoda etmog'im lozim.
Shoshamoq kerak Abdullatif... Yo'qsa har damda
Sir ochilib bo'lmagaysan tag'in sharmanda.
Undan keyin toj da'vosi narida tursin,
Sanoya ham yo'liqtirmay qo'yadi seni.
Qo'lin qo'lg'a uradi, mulozim kirib keladi.

Buroqbekni olib kirgin!

Mulozim chiqadi.

Har ehtimolga,
Bir chaqirib berk turishni, sir bermaslikni,
Tayinlashim, unga daldha berishim lozim.
Qarang, xatning egasini aniqlamoqni
Kinga qildi havola shoh? — Bir kanizakka!..

Mayli, ming-ning eski xattar ko'rilguncha
Xat egasi o'z ishini tugallab qo'yar.

Mulozim Buroqbekni olib kiradi.

Chiqib turgin, buni o'zim qilaman so'roq!

Mulozim chiqadi.

Epashanglik qildingiz, bek!

Buroqbek

Butkul puch bo'ldik.

Faqat o'zin sha'ni uchun meni bo'shatdi.

Yo'q, noiloj aytadi u meni "valiahd".

O'g'ilning o'z otasiga osiy bo'lishi!..

Uh... Bu yomon bir jinoyat, dahshatli gunoh.

Ammo Xo'ja Ahror bir kun va'zida degan:

Din dashmani bo'lsa hamki qardoshing, otang,

Unaqasin daf aylamak savobi azim.

Bu bahona vijdonimi biroz yupatar.

Uni dinga xilof yurgan sulton derlar-ku!

Tarbiyasi menga o'tgan Gavharshod bibim,

Bilganimcha, shu tufayli undan norozi.

Xo'ja Ahror o'z murid-u muxlisi bilan

Dahriy shoh deb unga qarshi yog'dirar qahrin.

Men bulardan istifoda etmog'im lozim.

Shoshamoq kerak Abdullatif... Yo'qsa har damda

Sir ochilib bo'lmagaysan tag'in sharmanda.

Undan keyin toj da'vosi narida tursin,

Sanoya ham yo'liqtirmay qo'yadi seni.

Qo'lin qo'lg'a uradi, mulozim kirib keladi.

Buroqbekni olib kirgin!

Mulozim chiqadi.

Har ehtimolga,
Bir chaqirib berk turishni, sir bermaslikni,
Tayinlashim, unga daldha berishim lozim.
Qarang, xatning egasini aniqlamoqni
Kinga qildi havola shoh? — Bir kanizakka!..

Mayli, ming-ning eski xattar ko'rilguncha
Xat egasi o'z ishini tugallab qo'yar.

Mulozim Buroqbekni olib kiradi.

Chiqib turgin, buni o'zim qilaman so'roq!

Mulozim chiqadi.

Epashanglik qildingiz, bek!

Buroqbek

Butkul puch bo'ldik.

Faqat o'zin sha'ni uchun meni bo'shatdi.

Yo'q, noiloj aytadi u meni "valiahd".

O'g'ilning o'z otasiga osiy bo'lishi!..

Uh... Bu yomon bir jinoyat, dahshatli gunoh.

Ammo Xo'ja Ahror bir kun va'zida degan:

Din dashmani bo'lsa hamki qardoshing, otang,

Unaqasin daf aylamak savobi azim.

Bu bahona vijdonimi biroz yupatar.

Uni dinga xilof yurgan sulton derlar-ku!

Tarbiyasi menga o'tgan Gavharshod bibim,

Bilganimcha, shu tufayli undan norozi.

Xo'ja Ahror o'z murid-u muxlisi bilan

Dahriy shoh deb unga qarshi yog'dirar qahrin.

Men bulardan istifoda etmog'im lozim.

Shoshamoq kerak Abdullatif... Yo'qsa har damda

Sir ochilib bo'lmagaysan tag'in sharmanda.

Undan keyin toj da'vosi narida tursin,

Sanoya ham yo'liqtirmay qo'yadi seni.

Qo'lin qo'lg'a uradi, mulozim kirib keladi.

Buroqbekni olib kirgin!

Mulozim chiqadi.

Har ehtimolga,
Bir chaqirib berk turishni, sir bermaslikni,
Tayinlashim, unga daldha berishim lozim.
Qarang, xatning egasini aniqlamoqni
Kinga qildi havola shoh? — Bir kanizakka!..

Yopiq hujra mijozimga do'zaxdan battar.
Bu zindonda chidolmayman, o'laman...

"Qix-x-x-x".

Abdullatif
Tentak...

Siz ermisiz, yoki mo'ylov yopishtirgan hez?
Axir men-ku bu yerdaman... Iksi kun chidang.
O'zim sizni ochiraman! To u chog'gacha
Og'zingizdan so'z qochirmang. Uqdingizmi?

Buroqbek
Ha!

Bu asnoda Firuza o'z xonasidan chiqib kursi ustidagi daftartarni
olib ketmoqchi bo'lganida bularning gapiga qiziqib qoladi va parda
orgasida to'xtab turadi, **Abdullatif** uni payqamaydi.

Abdullatif

Qo'lin qo'lga uradi, Mulozim kirib keladi.

Olib boring!

(*Mulozim Buroqbekni olib ketarkan*)

Yasovulim Abbosni aytin!

Bo'lak amr-u farmoyishni olasiz undan!..

Buroqbekning inobati yo'qqa o'xshaydi.
U yurakni oldirgandir, ko'p bardosh bermas.
Xoh-u noxoh u valdirab qo'ymasdan burun:
Tez qutulmoq lozim bunday tentak sherkidan!

Abbos kiradi.

Abbos
Qulgingizman!

Abdullatif

Buyruq shuki, sizga bor xizmat:
Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir bek yo'q ekan,
Bu kechadan qoldirmasdan!

(*Buroqbekning orgasidan ishora qilib, o'z bo'g'zini ko'rsatib ishora
qiladi*)

Abbos
Qulgingizman!

(*chiqadi*)

Firuza

(*birdan kulib yubori*)
Qix-qix!" Tavba! Bu nima gap? Anglating, Mirzo!

Abdullatif

(*seskanib*)
Obbo, xonim, o'zlar ham shunda ekanslar!
Buyursinlar. Nimanidir so'ramoqchilar?

Firuza

Hoziroq men daftarmi oglani kirmsam,
G'alati so'z eshitdim-u, qiziqib goldim.

Abdullatif

(*o'z-o'zicha*)
Shukur, shukur,
bo'lak gapni eshitmabdi bu.
(*Firuzaga*)
Erkaklarning lahjasida bir xil so'z borki,
Xonimlarga uni bilmuoq noqulay balki.

Firuza

Oliynasab shahzodalar lahjasida-y'a?

Abdullatif

Nima qipti?

Firuza

Xo'p eslayman, bolalikda, mahallamizda
Yigit-yalang birovini "qix" bo'ldi desa —
Allaqanday noxushlikka yo'yillardi bu.

(mag 'rur)

Siz gadoylar, bezorilar tilin aytasiz.
To'g'risini aytu qolsam, siphohiyarda
Bu so'z "xayr", "salomat bor" degan bo'ladi.

Firuza

Sipohiylar? Ko'p g'lati toifa ekan.
Ertak aytib tugatmasdan xayrlasharkan!

Abdullatif

Xonim, mendan gumonsirab qoldingizmi-a?
Otamizing muruvvati, shafqati bilan
Mahalladan koshonaga kelibsiz. Mayli!
Axir bunda siz mehmon-u, men esam — mezbon.

Firuza

Yo'q, shahzoda, bilib qo'ying, bu uy meniki.
Qul qiziman, ammo shohning shar'iy qaylig'i.

Abdullatif

(haran eshigini ko'rsatib)
Marhamati xonim! Lutfan, sizga ijozat!

Firuza

Yanglishasiz. U yer — yotoq,
bu yer — darsxonam.
Afv etsinlar. O'zlariga, lutfan, ijozat!
Abdullatif indamasdan ginali boqishlar bilan chiqib ketadi.
Ko'p taajjub... Hamma sharti go'yo joyida,
Lekin uni allaqanday andisha tig'lar.
Bir bor ekan, bir yo'q ekan... Tayba, alhazar!

PARDA

BIRINCHI KO'RINISH

Haramda katta xona. Bir guruh xonimlar, kanizlar va ashulachi qiz-lar. Xonanda qiz ashula aytadi.

Firuza

Ashula
Ey pari, kim surating ko'rsa ne qilsun jonini.
Egniga bog'gan kishi ko'zdan solur marjonimi.
Chin-u Hind mulkin parishon ayladi zulifing, vale —
Qildi yag'mo ko'zlarin majmuyi Turkistonini.
To'ksa qonim ko'zlarin, qildim bihil, to'ksin ravon,
Kim qachon topg'ay yana Sakkokiy bu nav qonini!

Nigorxonim

Mug'anniya, bas qil, kuydim. Olovli so'zlar.
Sakkokiyning she'ri menga mos tushar ekan.
Kim u zulfi Chin-u Hindni parishon etgan?
(zulfini ko'rsatadi)

Kimning ko'zi Turkistonni aylabdi toro?

(o'z ko'zalarin silaydi)

Ashulachi qizlar

Xonikamiz Nigorxonim!

II xotin

(nozik ta'na bilan)
Chehrangizni bit ko'ribiq shoir Sakkokiy
Ko'z yoshi-yu qonin to'kib mahliyo bo'lgan.

Nigorxonim

(oynaga qarab)
Barakalla, yaxshi qizlar! Gaplarining rost.
Husn oldida kim ham bardosh bera oladi!
Parilarga bosh egadi hattoki devlar.

Husn-u jamol xonzodalar qismati ekan.
Fuqaroning qizi qancha silliq bo'lmasin,
Unda asl go'zallikning fayzi topilmas.
Chiroy boshqa, joziba u — butunlay boshqa.
Kelişgan yuz mis chaqa-yu, jamol — zar dinor.
Xudo o'zi ulashganda ne'mat g'aznasiin
Bizga tushgan mulk-u mol ham, husn-u jamol ham.

II xotin

Xomikamiz Nigorxonim Chin-u Mochinni
Turkistonni, Hindistonni fath etganlar-u,
Ammo, attang, haligacha Mirzo ko'nglini
Oloymayin xunobdirlar.

Nigorxonim

Bu bo'limgan gap!

III xotin

Hamma balo u xumparda, bog'bon qizida!
Qandin ursin, kenja oyim, shirin-shirmoyim.

II xotin

Bog'bon qizi kecha-kunduz kitob bilan band,
Shohga manzur bo'lish yo'llin topgan juvonmarg.

Nigorxonim

Qo'ying, qo'ying, bu bemaza gapni bekalar,
Xizmatkorlik kanizlarning ota hunari.
Firuza kim? Bir kanizak, makkora, oqsoch.
Har erkakda bundoqlarga bor-ku ehtiyoj!
Ayollarning qatoridan chiqarmi Luqmon?
Yana qaytar kulbasiga — besh kunlik nehmon.

II xotin

Qancha meni qistab turdi marhum tog'oyim,
Men otindan xat-savodni o'rganmay qoldim.

Madrasada mullabachcha emasmiž-ku biz.
Ilm o'qisin tabiblar-u imomzodalar.
Bek va tarxon qizlariga ilm na darkor?

Nigorxonim

Gaping shakar! Jononlarning gul chehrasida
Necha kitob o'qigan bitilgan emas.
Nozaninlar sultanati — ularning husni.
Sarkardalar lashkar tortib qonlar to'kadi,
Bir qo'rg'on deb yillar bo'y zahmat chekadi.
Ammo bizning mujgonlarning bir nayzasiga,
Suzuk ko'zning sehllovchi bir g'amzasiga
Shahanshohlar shaharlami qilar armug'on.
Ko'yimizda bahodirlar tortadi fig'on!

III xotin

Xonikamiz, aytganingiz kelsin va lekin
Nazarimda shoirlarning maqtovlariga
Siz astoydil ishonganga o'xshaysiz, ionim!
Abdullahatif kirib keladi.

Nigorxonim

Keling, Mirzo, kelishingiz xayrli bo'lsin!

Abdullahatif

Haramsaro onaxoni Nigor xonika,
Va xonimlar, va bekalar, sizga xushxabar:
Bizning ulug' validamiz — Gavarshod Xotun
Ertal bilan shahrimizga tashrif buyurat.
Ma'lumingiz, Xurosou-u Turkistonda u
Muslimlar avliyosi, birinchli bonu.
Otamizingning validasi, bizning buvumiz,
O'z onamming vaftotidan keyin ko'p yillar
Ona bo'lib tarbiyalab ulg'aytgan meni.
U Hirotdan Samarcandga olis yo'll bosgan.
Ilmosim: izzat ila kutib olinglar!

Qiblagohim xohishi ham aynan shu o'zi.
Oshyonalar, dasturxonlar, libos, tortiqlar,
Bari bajo keltirilsun. Hozir bo'linglar!

Nigorxonim

Bosh ustiga! Xush kelgaylar Gavharshod bonu!
Peshvoziga shay bo'laylik, yuring, bekalar!

Xotinlar bitta-bittadan turli eshlardan chiqib ketadilar.

Abdullatif

Hamma narsa men o'ylagan yo'sinda borar.
Shatranjda ham men ko'p yomon emas edim-ku!
Meni faqat bog'bon qizi tashvishga solar.
Yo'q, u meni xush ko'maydi, gumonsiraydi.
Uni qarang! Xonimlarga qovushmaydi ham.
Men Hirotdan yozgan xatlar saqlangan beshak.
Hali balo chiqarmasin deyman xattardan.
Ammo, asli ko'p begona odamlarning ham
Dastxatlari bir-biriga o'xshar-ku ba'zan.
Bu-ku mayli! Meni tirmar boshqa bir tashvish!
Tag'in, bir kun kenia oyim hazrat sultonga
Farzand tutib: "Mang, valiah!" deb boplasa-ya!
Ana xolos! Darhaqiqat, to 'g'ri deganlar:
Balolarning eng yomoni kutilmagani!
Hmm! Sultondan Firuzani ayrimoq lozim.
Bunga chorha, ko'pdan beri sinalgan quroq:
Olov yoyib gap qozonin qaynatish kerak.
Qalovini topib olsa, qor ham yonar-ku!
Tuhmat gapning faziliati shundaki, uni
lymammasdan dayta-qayta takrorlay bersang,
Borib-borib ishonadi bir kun xaloyiq.
Men Abbosni bir muddatga yashirib qo'ydim.
Xunuk gapni, o'zi yo'qqa ag'darish oson.
Uning nomard qilig 'idan darg'azab bo'lib,
Go'yo uni xizmatimdan quvgan ekanman.
E'tibordan soqit bo'lib qolsa Firuza,

Bu — bitilmas yara bo'lur sulton qalbida.
Undan keyin...

Ichkaridan bir necha xizmatkor qizlar qo'llarida kumush barkash-larda har qanday noz-u ne'mat olib o'tib, boshqa eshkakka kirib ketadilar. So'nngi o'tayotgan kanizni Abdullatif to'xtatib qoldadi.

G'uncha qiz

Kechirgaysiz, Mirzo!

Abdullatif

Obbo! G'uncha qiz, qalay?
O'zing shunday qaymoqday oq, quymoqday laziz,
Kanizaklik xizmatidan bezmadingmi-a?
Senga "jon" der manman degan o'g'lonlar, billoh!
Har qanaqa uy husniga xol tusharsan-ku!

G'uncha qiz

Mahramingiz Abbas bo'lsa ulardan biri,
Ko'rinnmasdan zim ketdi-ku... Qayda u o'zi?
Qizga umid berib qochish insofsizlik-ku!
Nega, Mirzo, shu kunlarda o'zlati yolg'iz?

Abdullatif

Eh, G'uncha qiz, u tentakni qo'ya qo'ygin sen.
U ahmoqdan ra'yim qaytdi.

Nima qipdu u?
U yoqimli, og'ir, sipoh, kamgap yigit-ku!

Abdullatif

Ha, odamni tamimoqlik ko'p mushkul hunar.
Hatto men ham yanglishibman. Ablah ekan u!

G'uncha qiz

Ne qildi u?

Abdullatif

Ne qildimi? Haddidan oshdi.

Muhabbat ham evi bilan. Axir u yigit

Sayid o'g'li bo'lsa hamki, menga navkar-ku!

Haddin bilmay u betamiz bir-ikki joyda

Saroydag'i xonimlarni tilga olibdi,

Emish:

“Oh-voh, shaydo bo'ldim, devona bo'ldim!..”

G'uncha qiz

Kim ishqida?

Abdullatif

Firuzaning ishqida emish.

Kim biladi odamlarning ichini axir!

U tentakning haqqi bormi, yo'qni? Bu — gumon.

Bo'lsa hamki, bu to'g'rida valdirash — gunoh.

Xullas kalom: jahlim chiqib, so'kib haydadim.

G'uncha qiz

Voy o'lay-ey! Ana xonim! Shunday deng, Mirzo!

Ha, shunday deng...

Bebosh Abbas... Obbo, ey xonim!

Abdullatif

Hay, sayroqi! Sen nodonga achinib shu dam

Deganimni aytu ko'rma zinhor birovga!

Endi jo'na!

(G'uncha qiz chiqadi)

O'q uzildi, inshoollo, nishonga tegar.

Xotinlarning xulqini men biroz bilaman,

Xotinlarga: “Qilma!” desang, ataylab qilar.

“Qilgin” desang, qasddan qilmay o'pkalab yig'lar.
Qalits, piňhon tilaklarni, beor hislami!
(musiqa chalinishi to 'xtaydi)

Ko'rimmaydi o'rtangizda kenja kelimim?

Ne qildi u? Yoki uning xabari yo'qmi?

IKKINCHI KO'RINISH

Yana o'sha sahna. To'rda Gavharshod begin o'turidi. Oldida va atrofida qator haram xonimlari va orqalarda kanizaklar turidi. Bir bur-chakda qo'llarini qovushtirib Abdullatif oyoqda turidi.

Gavharshod

Ko'p yil bo'ldi, kelmagandim shahringizga men.

Sohibqiron Temurbekning vafotidan so'ng,

Shohruux Mirzo poytaxt qilib oldi Hirotni.

Ammo, sizga haqiqatni ochiq aytayin:

Chunki, bunga jam bo'lishgan mening qizlarim,
Tirik yoki marhum bo'lgan farzandiarimning
Kelinlari, qayliqlari yo'qizlaridir.
Xudovandim makrulhaldan asrasin sizni.

Samarqandning azizligin saqlang, qizlarim!

Samarqandni iffatpanoh shahar deganlar.

Ammo, ba'zi noxush gaplar yetdi quoqqa.

Maozolloh, maozolloh, eshitishimcha,
Shu dargohda aysh-u ishrat avjiga chiqqanmish.
May ichishar ekan ba'zi xonimlar hatto.

Iannatmakon Shohruux Mirzo zamonasida

Gunoh edi may ichmakklik Hirot shahrida.

Hatto sulton o'zi xuddi muhtaшиб kabi

O'g'illarin uylarini qidirib, shoyad

Sharob topsa do'pposlardi ularni o'zi.

Shohruux davri Hirot edi muslimmonobod.

Hamma yoqqa o'mashmadi afsus, shu odat!

(orqadan musiqa va qo'shiq eshiltiladi)

Hay, kanizlar, to'xtattinglar o'sha g'insoni.

Musiqaning haromnligin bilmaysizlarmi?

U uyg'otar xotinlarning tomirlarida

Qalits, piňhon tilaklarni, beor hislami!

Ko'rimmaydi o'rtangizda kenja kelimim?

Ne qildi u? Yoki uning xabari yo'qmi?

Abdullatif

Biladilar... Hozir bunga kelib qolarlar...

Uning ishorasi bilan bir k a n i z a k chiqadi.

Nigorxonim

U sultonga kotiblik qilar shekilli...
Davlatxona ishi bilan u band. Uzri shu!

Gavharshod

Ha, shundaymi? Demak paydo bo'libdi shunda,
Samarqandda ikkinchi bir Gavharshod Xotun.
Ammo biling: Temurbekning sultanatida
Faqat bitta malika bor: Gavharshodbegin.
Sohibqiron o'zin barcha kelinlariidan
Meni, tojim gavhari, deb siylardi mudom.
Bu maqomga Firuzaga hali yo'l bo'lsin!

II xotin

U, Abbosning qo'chganidan xunobdir, balki.

Abdullatif

(soxta koyish bilan)
Xonim, har xil bo'lar-bo'lmas ovozalarni
Bibimizga yetkazmoqning sira o'mi yo'q!

Gavharshod

Kechasiyoq qulog'imga yetdi bu gaplar.
Temurbekning o'rdasida bu gap — razolat!

Firuza kirib ta'zim qiladi va bir chekkada turadi.

Kelin, sizning mehmoningiz, qaynanangizman.
Biroq, juda kam turasiz xizmatimzda.
Temurbekning kelinlari erlaridan ham
Mahdi ulyo qaynanaga bo'lganlar mite.

Firuza

Xizmatningiz bizga sharaf, volida sulton.
Ammo ustoz... ammo davlatpanoh buyurgan —

Ba'zi ishlar meni picha band etib qo'ydi.
Juda lozim ishlar ekan...

Gavharshod

(zaharxanda bilan)

Astag'firullo!
Samarqandda erkaklardan munshi-yu kotib
Birdan qurib qoldimikan, Mirzo Ulug'bek —
Xotinlarin mullo qilib ishlata, tavba!

Nigorxonim

(sevinib)

Yo'q, shuillardan biz xolimiz, volida sulton!
Faqat tuban fuqaroning ishi bu, xolos.
Xonimlarga bu, xususan, sira yarashmas!

Firuza

Nazarimda, xonimlarga zap yarashgani
Ziynatlarga sig 'inmaslik, Nigor xonika!

Nigorxonim

Yo'qsullikda ko'z ochganlar shunday o'yaydi.
Malikalar, xonikalar, bekalar agar
Zeb-u ziynat taqmاسalar, u holda aytинг,
Gilamdo'zdan yo bakovul xotinlaridan
Beginlarni xalq-xaloyiq qanday ajratar?

Firuza

(kulimsirab)

Ha, bu juda mushkul savol, hal etish qiyin:
Chunki, saroy xonimlarin ajratadigan
Boshqa biron alomati bo'lmasa...

Gavharshod

Mayli!..

Ko'ramanki, Mirzo sizni ko'p erkatalган,
Ammo, chiqmang sira Mirzo itoатдан.

Firuza

Davlatpanoh xizmatida vafodor bo 'lmoq —
Mening burchim, mening vijdon vazifam, ona!
Chunki mening ustozim u... va... shar 'iy erim!

Gavharshod

Ammo, chiqmang sira Mirzo itoatidan!

Nigorxonim

Ammo, chiqmang,
Ammo, chiqmang,

II xotin

Sira Mirzo itoatidan...

Firuza

Bu o'g'ida biron imo borga o'xshaydi.

Abdullatif

Xonim, bular mahdi ulyo validamizning
Odatida yosh kelinga aytilgan tilak.

Gavharshod

Endi boring uylaringga. Suhbat yetar, bas!
Mahkam tuting kecha-kunduz dinning ahkomin!
Men ham biroz kichik Mirzo bilan so'zlashay!

Hamma xotinlar chiqib ketadilar.

Abdullatif

Kelishingiz o'z paytiда bo 'ldi, bibijon!
Faqt sizning qo'llingizda naiot va tole!
Bu dargohda na din qolgan, na imon, iffat.
Sulton bo'lsa, ilmi bilan bo'lib ovora,
Hamma ishga kitob ko'zi bilan qaraydi.
Men sultonga farzandman-u, u — sizga farzand.
Ammo bizga toj-u taxtning taqdiri afzal...
Na lashkarda yasoq bor-u, na g'aznada pul.

Oxir

taxtni egallasa boshqa temuriy,
Siz-u bizga o'rin qolmas koshonalarida.
Chunki qondan va qardoshdan sultanat shirin.
Qarindoshsga taxt egasi ularshmas o'rin.
Eshitdingiz Firuzaning javoblarini.
Mana, kimlar shoh dilida hukmron hozir!
Siz doimo hukumatga g'amxo'r bo'lgansiz,
Shoh bobomiz Shohrux davri ko'p zo'r bo'lgansiz.

Gavharshod

Tushunaman, kichik Mirzo...

Barcha gap ravshan.

Tarbiyanni xo p oqlabsiz... Men sizdan rozi.

(sekin)

Bilasizmi? O'zaro sir... Ne der xaloyiq?
O'yplashimcha, Temur toji sizga ko'p loyiq.

Abdullatif

Oh, bibijon, aytganingiz kelsin, yo rabbim!
Qachon sulton tojini men qo'ysam boshimga,
Biling, o'sha toj gavhari tag'in o'zlar,
Temurbekning zamонida bo'lgan singari.

Gavharshod

Ishonaman gaplaringga... Unutma o'g'lim,
Hokimalk shiddatidan zavq olar ko'nglim.

Abdullatif

(o'z-o'ziga)
Ha, sizni-ku ishontirish oson gap emas!

(Gavharshodga)
Sizga doim mute bo'lmoq mangu istagim.

Gavharshod

Siz xotirjam bo'ling, o'g'lim, ishlar joyida.
Ota toji o'g'il boshin bezashi — qoida.

Abdullahif

Aziz bibim, oltin so'zlar, ham odil, ham rost.
Inshoollo, har gapingiz: maqsadimga mos.

(ketadi)

Gavharshod

Ha, seni-kui ishontirish oson gap emas!
Ha, yarashar jasur boshqa saltanatlilik toj!
Birovlardan kechmoq kerak! Yo'q boshqa iloq!
Na o'g'llimga ko'nnglin moyil, na nabiranga.
Qaysi biri shoh bo'lmasin, meni keksa deb,
Bir chekkaga chiqaradi bu mirzolarim.
Ammo, bular o'rtasida boshhlansa nizo,
Taxt ustiga kelib qolar boshqa bir Mirzo.
Oh, juvonmarg bo'lib ketgan o'g'lim Boysunqur,
O'g'lingni men sulton ko'rsam, qolmas armonim.
Temurbekka voris bo'lgay Alouddavla!
Har so'zimni ul muqaddas oyat deb bilar.
Yana davlat sohibasi bo'lurman o'zim.

Xo'ja Ahror menga yozib yuborgan xatda
Ulug'bekning dinga xilof xulqin qoralar.
Qarang, mendan ko'mak kutar eshonning o'zi.

Ulug'bek kirib keladi.

Shavkatmaob validamiz, kayflari chog'mi?
Shahrimizda zerikmaslar deb ishonaman.
Shahrimizga qilibdilar ranjida qadam,
Validaning har qadami xayrlik manzil.
"Onalarning oyoqlari tagida jamat"
Degan hadis ulug'laydi ona hummatin....
Jannatmakon otamizning vafotidan so'ng,
Siz bizlarga uning tirik yodgorisiz.
Rohat qiling, istirohat sizning haqqningiz.
Endi davlat, siyosatning tashvishishlarini
Siz havola qilib qo'ying bizlarga, ona!

Sizga huzur va halovat va rohat lozim,
Nimaniki ko'ngil tortsa, hammasi tayyor!

Gavharshod

Ulug' Mirzom!

Qo'rqmang, hali susayganim yo'q,
Saltanatning ahvolidan ko'ngilda tashvish.
Jannatmakon Shohrux Mirzo menga kengashmay,
Hech tadbiriga bermas edi asti rizolik.
Horun Rashid xalifaga Zubayda Xotun
Hamma ishda qo'l dosh bo'lib yashaganidek,
Xurosonda o'zim bo'ldim ikkinchi sulton.
Bu yerda-chi: Samarcanda ko'ngilsiz ahvol;
Na diyonat, na itoat bor bu shaharda.
Hatto saroy xonimlari may ichar ekan,
Musiqadan qaynab ketgan sho'x ehtiroslar.
Taronayu o'yin bilan hamma ovora,
Eshonlarga, darveshlarga yo'qdir rioyerat.

Ulug'bek

Onalikning hurmatini saqlab deymanki,
Hayotdagisi har nafasim sizga minnat dor.
Lekin, ona, mendan ko'ra yaxshi bilasiz.
Men ellikdan oshganimga ancha yil bo'ldi.
Nahot, shuncha yoshga kirgan bir hukmdorga
Engalar kerak bo'lsa... Ajablanaman.

Gavharshod

Siz o'g'limsiz, ammo meni yaxshi bilmaysiz.
Chunki sizni bolalikda Temurbek olib,
Samarcanda keltirgandi, u chog'dan sizga
Murabbiya bo'lgan edi Saroy Mulk xonim.

Ulug'bek

Menda shoyad topilarkan yaxshi mayllar
Barisiga bois o'sha xonim rahmatlik!

Gavharshod

Yaxshi may!... Yaxshi may!... Mirzo, saltanat —
Yaxshilikni dastur qilsa qulaydi tezdan
Taxtni saqlash lozim ekan, shaddodlik kerak!
Bu sir emas. Ota-bobo udumi-ku bu.
Istaymanki, farzandlarim sulton bo'lsa ham,
Xohishimga itoatkor, qaram bo'lsinlar.
Kelinlarim kaniz kabি tursin xizmatda.

Tarbiyamda bahren topgan nabiralarim

Shu axloqda o'sib-undi. Misol, o'g'lingiz.
Ko'z cho'g'idek asrab boqdin Abdullatifni.
Dono, jasur, oliyanob, fahmli, zakkiy,
Diyonatl, mo'min, mute, asl muslimon.
Shu talabni eslatgani keldim Hirotdan.
Ha shularga odatlangan Gavharshodbegim.

Ulug'bek

Ha, chindan ham sizni yaxshi bilmas ekanman.
Onalikning haqi, ammo, bor bo'ynimizda.
Biroq, humrat — ko'r-ko'rona itoat emas.
Taajubki, sizda shunchha zakovat bot-u,
Boshqa hamma xotinlarni pastga urasiz.
Axir siz ham ayollarning vakilasi-ku.
Jannatmakon otamizing sizga ixlosmand —
Bo'lganidan foydalaniib, hamisha, har on
Siz Hirotda erk va ongri siqdinigiz yomon.
Tarbiyangiz ko'rib olgan nabiralar-chi,
Qarang, ular bir-biriga qanday g'arazkor!
Abdullatif, Alo bilan Bobur — uch qardosh
Bir-biriga lashkar tortib savashdi yovuz.
Abgor bo'ldi qancha shahar, inson, xazina.
Uchovi ham nabirangiz, dastparvardangiz.

Birin qo'zg'ab, birin qoqib, birin erkabal,
Nuqlu janjal chiqardingiz o'rtalarida.
Yo'q, bu axloq, bu tarbiya, bu odat-udum
Samarqandda o'mashiga yo'l qo'yolmayman.

O'g'lingizman va o'paman qo'llaringizni,
Tiz cho'kmakka omodaman huzuringizda.
Ammo, shu yurt sultoniman, hukmdoriman,
Bu o'lkanning taqdiroti menga havola.
Aralashmang bu davlatning ishlariiga siz.
Hamma tadbir, buyruqlarga o'zim javobgar.
Siz — malika, biling, emas hokima!

Gavharshod

Bunday javob eshitgani kelgamidim men,
Sahrolarni, daryolarni o'tib mehmonga?

Ulug'bek

Javob achchiq, lekin ochiq, ayni haqiqat.
Eh, sizsiz ham badxoхlarim kam emas edi,
Endi ona qo'lidan ham zarba olaymi?
Xafa bo'limgang. Lekin, shoyad arazlasangiz,
Yana deyman: mamlakatning hayot-mamoti
Menga barcha azizlardan yanada aziz.

Gavharshod

Ulug' Mirzo; bu sultanat Temurbekniki.
Unga voris Shohrux Mirzo bo'ldi, otangiz.
Otangizdan keyin Temur xonadonida
Yoshi ulug', fikri to'lug' men — volidangiz.
Nabiralar o'z o'rtada urushsa, mayli!
Bu ularga jangovarlik mashqidit, xolos.
Men ularni bir-biriga ko'z qilib qo'ydim,
Toki chiqsqa buyrug'imdan biron ta farzand,
Ikkinchisi unga qarshi otlanib darhol,
Odobini bergay uning... Bu yo'l yomonmi?

Ulug'bek

Esiz mashqlar, esiz odob bermak usuli.
Qizishtirib ulardagi kekni va nafnsi.
Qancha-qancha qirg'inlarga bo'ldingiz bois.
Bular bani menga faqt andisha bo'ldi.

Gavharshod

Shahzodalar savashlarda, jang-u jadalda odobasit
Puxta bo'lib sardorlikni egallaydilar.
Siz bo'lsangiz xushtor bo'lib hisob-kitobga
Boy berdingiz qo'ldan hatto hushyorlikni.
Aslzoda va mo'tabar odamlar emas.
Har xil tuban toifalar sizga ma'qulroq.
Eshitdimki, eng ishongan mahramingiz deb,
Olim, fozil deb maqtangan dastyoringiz
Ali Qushchi degan bitta noasl ekan.
Kim ekan u? Shu dargohda quillardan chiqqan.
Lochinlarni boqib yurgan qushbozning o'g'li.
Laqabini ko'maysizmi? "Qushchi!" Yo pirim!
Mahramingiz – "Qushchi",
shuncha qovushmag'an nom

Turkiston-u Xurosonda hech bir xonzoda
Sizga manzur bo'lmabdi-yu, ammo negadir,
Bog'bon qizi sizni butkul qilgan oshifta!
Koshki, tagli-zotli bir qiz bo'lsa edi-ya!

Ulug'bek

(xanda bilan)
Ha, siz aytg'an odamlarning pastdir nasabi,
Aqlari juda bland, lekin, mansabi...

Gavharshod

Asli yo'qdan har balo ham chiqsat ehtimol.

Ulug'bek

Qanday balo?

Gavharshod

Yo xiyonat, yoki pastkashlik!

Ulug'bek

Bu shartmikan?

Gavharshod

Yo'q, shart emas, ammo bor gaplar.
Bu dargohga kirgan bilan hamon duv-duv gap:
Firuz-a-yu Abbos, tag'in Abbos Finuza...
Nega, axir bu ikki nom aytilar birga?
Men aytmoqchi emas edim sizga shu simi.
Balki mendan oldin bundan o'zingiz voqif.
Savolningiz javobidan gapirdim, xolos.

Ulug'bek

(o'z-o'ziga)

Tag'in ig've, tag'in fasod, oh, muttahamlar!
(Gavharshodga)
Bu uydirma gap, volida, ishonmang shunga!

Gavharshod

Har holda men bu gaplarni tilimga ortib
Keltirganim yo'q Hirotdan! Bu ko'p xunuk gap!
Shunday, o'g'lim, uy egasi hushin yo'qotsa,
O'g'rillarga o'sha qo'ra ochiq guliston.
Namoq vaqtib bo'lib qoldi. Borayin endi.
(yon eshikdan chiqib ketadi)

Ulug'bek

Iftironi, yo bu gapda bir haqiqat bor?
Abdullatif yasovuli edi-ku Abbos...
Kaftini kaftga uradi, mulozim kiradi.
Topib chaqir bunga dathol Abdullatifni!

Mulozim chiqadi.

Ba'zan gapning yolg'onligin aniq bilasan,
Ammo, yana qora shubba ichni kemirar.
Chunki, ayol o'qilishi qiyin bir kitob.
Goho ko'rib uning zarthal muqovasini,
Mazmuniga voqif bo'lmay "ofarin" deymiz.
Vaholanki, ne chistonlar bor varaqlarda!
Kim biladi, kim biladi ular qalbimi?

Muhabbatning ko'zi bilan qarab ularga
Farishtalar yaratamiz xayolimizda.
Eh, o'tkinchı umrimizning temir mantig'i!
Xazon faslin so'lib qolgan bargi qayda-yu,
Bahordagi qizil gulning yaproq'i qayda?
Balki, mening hayotimning kun o'rta chog'i
Allaqachon o'tganligi asl sababkor.
Shunday bo'lса, kimdan qilay kimga shikoyat,
Bu azaliy va abadiy ko'hna hikoyat.

Abdullatif kiradi.

Abdullatif
Buzrukvorim, so'ratganlar meni?

Ulug'bek
Ha, sizni.
Menga ayting, mahramingiz Abbas qayerda?

Abdullatif
Oh, aytmangiz qiblagohim, u ko'mamakni.

Ulug'bek
Nima qildi?

Abdullatif
Jahlim chiqib haydab yubordim.
Qayergadir qochib ketgan. Ko'rimmas sira.

Ulug'bek
Ne sababdan?

Abdullatif
Beodoblik qilgani uchun.
U betamiz do'stlar aro hangomalarda 'o's qolad.'
Haramdag'i xonimlardan birin nomini imzalashtirish
Go'yo sevgi tariqida tilga olarmish.
Eshitiboq men chaqirdim, uni koyidim.

Bu so'zlarim kor qilmabdi. Tag'in bir marta
Jo'ralari o'rtasida ashula aytib,
U xonimning ismlarin...

Ulug'bek (so'zini bo'lib, asabiy)
Qaysi xonimning?

Abdullatif
Finruaoj ismlarin ayтиb yig'larmish.
Qahrlandim u tentakning surbetligiga
Va xizmatdan darhol uni haydab, ketkazdim.
Biroq, so'ngra qarab ko'rsam, bo'shlirk qilibman,
U ablahqa lozim ekan og'irroq jazo.
Buyurdimki, axtarsinlar, ammo afsuski,
Topilmadi, qochib ketgan shahardan shayton.

Ulug'bek
Uning og'zi mahkam yigit der edingiz-ku!

Abdullatif
Shunday edi. Ammo zolim muhabbat, qarang,
Bu sho'rikni qilib qo'ydi loschi-maqtanchoq.

Ulug'bek
U shahardan qochganmikan?

Abdullatif
Shubhasiz, qochgan.
Ammo uni topdiramiz.

Ulug'bek
Qanday razolat!
Podshohning nomusiga isnod kelsa-yu,
U, bu gapni hammadan ham keyin eshitsa...

Abdullatif
Sizga, qasddan, bu xususda o'zim demadim.
Nodonlarning qilmishini donoga aymoq,

Bu — olimga ehtiromning shartin unutmoq.
Yana shuki, mahramlarga, saroy ahliga
G'iring-piring qilmasinlar deya buyurdim.

Ulug'bek

Siz shuncha ham soddha emas edingiz, Mirzo!
Xo'sh, mahramlar nega shuni duv-duv gap qilgan?
Nega, darhol Samarcandga kelgan kuniyoq
Bu g'iybatni validamiz eshitib olgan?

Abdullahif

Men ham hayron!.. Balki buni xonimlar aytgan.
Balki, bu gap zamirda bir hodisa bor.
Esmasa yel, qimirlamas daraxt tepasi.
Qiblagohim, bu voqeя bir tekshirilsa!

Ulug'bek

Muhtasibning o'g'li degan edingiz uni?

Abdullahif

Shunday!

Ulug'bek

Toping otasini darhol o'zingiz!

Abdullahif

U o'zi ham ostonada turgandi boyta,
Fursat topib kirmoqchiydi huzurlariga. u otun!

Ulug'bek

Olib kiring.
Abdullahif chiqadi.

Yo o'g'linda bir o'zgarish bor,
Yo Hirolda bandiligi aynitgan fikrin,
Yoki mening ko'zlarimda o'tkirlik oshgan?!

UCHINCHI KO'RINISH

Yana o'sha sahma. Ulug'bek, Abdullahif va Sayid Obid

Ulug'bek

Ne ish bilan siz kelibsiz dargohga, Sayid?
(Ulug'bekka qog 'oz cho 'zib)

Sayid Obid

Shu haftada qilgan kori badlari uchun
Qamalganlar ro'yxatini keltirdim sizga.

Ulug'bek

(qog 'ozni olib bir chekkaga qo'yadi)
Bu ro'yxatni biz keyinchalik ko'ramizi!.. Sayid!

Sayid Obid

Labbay, sulton!

Ulug'bek

O'g'lingizning joyini aytинг!

Sayid Obid

Bilolmayman, bilolmayman, qo'ying, shahriyor.
Allaqachon u sabiylik yoshidan chiqqan.
Unga xushtor kishilardan so'ramoq kerak.

Ulug'bek

Kimlar ekan u xushtorlar?

Sayid Obid

Saroy bekasi.

Ulug'bek

Menga qarang, siz doimo din-u shariat,
Taqvodonlik va axloqqa soqchiman deysiz.

Ammo sizning o'z o'g'lingiz, dargohda yurib,
Vallamati sharafiga isnod keltirsa,
Bu fe'lini shar'an mankum etmoq lozimmi?

Sayid Obid

Bilolmayman, bilolmayman, qo'ying shahriyor!
Bilsam hamki, aytmoqlikka ixtiyorim yo'q.
Men shariat dushmanlarin izlayman faqat,
Oshiqlarni axtarmoqlik vazifam emas.
Kamohuva haqqahu!

Ulug'bek

Yaxshi, o'ylang, o'g'lingizning joyini aytинг.
Haqiqatni aniqlamoq uchun kerak u,
Tanbeh uchun emas, biling, haqiqat uchun.

Sayid Obid

Sulton, qizim mullavachcha bilan sevishib,
Meni tashlab qochganida uni qidirib,
Topishimni siz taqiqlab qo'ydingiz qat'iy.
Hozir o'g'lim oshiq bo'lib ishqidan cho'chib,
Qochib ketsa, nega uni qidirayin men?
Kamohuva haqqahu!

Ulug'bek

Bu uzingiz safsatadan iborat, Sayid!
Qorong'ida nurga qarab qizingiz uchgan.
Bu tufayli buyurdimki: ta'qibdan qayting!
O'g'lingiz-chi, nur – chiroqqa loy tashlab qochgan.
Shu tufayli buyuraman: joyini aytинг!

Sayid Obid xomush va jum.

Abdullahif

Sayid Obid, bu qaysarlik, bu g'ashlik nega?
"Bilolmayman" deganingiz betayin javob.
"Bilolmayman" – "Men aytmayman" degan bilan teng.

Nega sulton g'azabini shuncha qo'zg'aysiz,
O'g'lingiz-ku bu shaharda zim bo'lib ketgan,
Uning joyin bilasizmi? Bilsangiz "ha" deng.
Yo'q, bo'lmasa, "bilolmayman" deb qutulib keting.

Sayid Obid xomush va jum.

Ulug'bek

Garchi sizni Sayid deya ko'p ayab keldim,
Ammo bugun toshib ketdi sabr kosasi.
U kun sizni Abdullatif uchun kechirdim,
Lekin ko'rib turibmanki, fikr-u zikringiz.
Ulug'bekning niyatiga tamoman xiolf.
Garchi sizni Abdullatif bu gal, tag'in ham
Yoqlamoqchi, oqlamoqchi... ammo, bu shoyad
Fe'lingizni u durustroq bilmashigidan.

So'z asnosida Gavharshod begin kelib o'z joyiga o'tiradi.

Din va imon niqobida yurgan qallobsiz,
Eisq-u fasod uyasidir chirkin kallangiz,
Samarqandni bulg'amoqda kasofatingiz.
Siz fikring, ma'rifatning, insoniyatning
Eng ashaddiy dushmanisiz, erkning jallodi!
Qat'iy qaror...

(qo'lini qo'lga uradi)

Gavharshod

Ulug' Mirzo, nega shuncha qaysarlanasiz!
Biz Hirotda eshitgammiz Sayid Obidni.
Din yo'llida uni g'oyat jonboz bilamiz.

Ulug'bek

Yo'q, volida! Siz eshitgan bo'lsangiz uni,
Biz har kuni ko'rib keldik chirkin fe'lini.

Devonbegi kirib keladi.

Amir Temur himmatidan Ulug'bek so'zim:
Muhtasiblik amalidan Sayid Obidni
Men shu kundan soqit qildim. Ammimi darhol
Borib aytin Shayxulislom hazratlariga.

Bu xususda u farmoyish yozib keltsins.
Sizga ruxsat, Sayid Obid! Hali shukur deng,
Sayyidsiz deb, qirdimadim soqolgingizni.

Devonbegi olib chiqadi.

Abdullatif

Sulton ota, buyrug' ingiz ko'p odilona,
Ammo bu gap dushmanlarni qo'zg'atmasmikin!
Derlar, go 'yo, Xo'ja Ahror Sayid Obidni
Hatto Muso payg' ambarday voiz degammish.
Biroz deyman muroso-yu madoro kerak.

Ulug'bek

Abdullatif, bibingiz ham eshitsin shuni;
Endi sizning umringizda yetuklik chog'i.
Ilk yoshlidka ko'p xatolar yuz berdi sizdan,
Tanbeh qildim, xatolarni tan oldingiz siz!
Ammo sizda ikkilanish belgilari bor.
Kishi doim ikkilangan holatda yursa,
Bora-bora oxir bo'lur ikkiyuzlama.
Sizga ruxsat!

Abdullatif

Sulton ota, kechiring meni!
Balki, mening haddan oshiq ko'ngli bo'shligim —
Sizda shunday bir ishtiboh tug'dirgan. Uzr!

Abdullatif chiqib ketadi.

Eh, yoshlarda ulug' larga qolmadi hurmat,
Bu yigit ham shu shaharga kelib aymibdi.

Ammo hozir, men aytmoqchi bo'lganim o'zga:
Muhtasib-ku soqit bo'ldi. Ammo, ne foyda?
Tutib bo'lmas axir elning og'ziga elak.

Ulug'bek

Ha, bilaman shuv-shuv gapning, pastkash g'iybatning
Xaloyiqni chalg'itishda fasodi katta...

Gavharshod

Shoh sha'niga gap tarqalsa, bu ko'p xatarli,
Mamlakatni buzuqlikki olib borar bu.
Sultonning o'z nikohlangan shar'iy xotini
Borasida shu xil noxush ovoza yursa,
Demak, barcha fuqaroning sho'ri quriydi.
Demak, shunda muslimmonning xotini, qizi —
Muhabbatning har shallaqi xaridoriga —
Sekingina ochib qo'yar uyning eshigini,
Ko'z o'ynatgan har yigitga quchog'in shaylar
Har pastqamda, har daraxtning xilvatgohida
Qaynab ketar o'ynashlikning bozori chaqqon.
(turib)
Bu yog'ini siz o'zingiz bilasiz, Mirzo!
Oh, ko'rgilik boshginamda ne-ne balolar...
Men Hirotda mashhur rammol Urdustoniyya
Siz uchun fol ochdiribdim: u ta'bir aylab,
Sizni sevgan xotinidan ajralur dedi.
Yo pirim-ey!

(ketadi)

Ulug'bek

(chuqur xayolga botib)

Ko'p g'alati zamonada yashar ekannan.
Qalbimdagji haroratni insonga berib,
Evaziga olmoqdaman sovuq g'arazlar.
Men otamga, jannatmakon Shohrux Mirzoga
Kamarbasta o'g'il bo'ldim qirq yil multasil.

Ammo, shuni o'g'illardan ko'r madim, hayhot!
Abdulaziz fikri zaif, jismi nogiron.
Abdullahif — jisman tetik, xulqi xatarli.
Bu-ku mayli! Onalarming ikrom-izzatim —
Umr bo'yti talqin etdim ahli Vatanga.

O'z onamga ehtiromim evaziga men
Ne eshitdim? Zug'um bilan ta'na, arazlar,
Bu ham mayli! Firuzaning sha'niga g'iybat!

Yoki uning biron aybi bormikan bunda!
Yoki, osmon kitobini varaqlab ochib,

Sirlarini o'rganmoqchi bo'lganim uchun
Falak mendan qasos olish payiga tushgan!
Yo'q, tushmagin vasvasaga, Mirzo Ulug'bek!
Shubha — boshqa, da'il — boshqa, xulosa — boshqa!
Vasvasalar shaytonga xos, umid — insonga..
Boshini qo'llari orasiga olib chuqur o'yga botadi, haram tomonidan
Firuza kirib keladi. Ulug'bek uning kelganini ko'rib, boshini ko'tarib
unga uzoq tikilib qaraydi.

Firuza

Ustoz, sizning fikringizga xalal berdimi?
Kechirgaysiz! Zarur bir ish bilan kelgandim.

Ulug'bek xomush.

Yoki mayli, siz dam oling, kelurman keyin!
(Firuza qaytib ketmoqchi bo'ladi)

Ulug'bek
(og'ir)

Ketmay turgin! U qanday bir zarur ish ekan?

Firuza

Amringiz-la maktublarni taqqoslab ko'rdim.
U xat o'xshar... Abdullatif xatiga, ustoz!
(xatlarni ko'rsatib)

Mana shu xat: sulton Shohrux va fot etganda,
Abdullahif yozgan ekan sizga Hirotdan.
Bu xat esa, Buroqbekdan topilgan nomasi!..

Ulug'bek

Bular tursin... Ayt, Abbosni bilasanni sen?

Firuza birdan yerga tiz cho'kib, Ulug'bek qo'llini tutib, ho'ngrab
yig'lab yuboradi.

To'g'risin ayt! Yig'layapsan! Yoki bu rostmi?

Bu rost bo'lса, e'tirof et, men kechiraman.
Chunki gunoh senda emas, mening o'zimda.
Ha, albatta tabiatning bor o'z qonuni.
Soch oqardi, dil bog'ida boshlandi xazon.
Ko'zda endi yashin emas, so'nayotgan sham,
Sen boshqasan! Sen bahorning hamal oyisan,
Kundan kunga avjiga chiqar senda harorat.
Tur, yig'lama, to'g'risin ayt!

(Firuzaning boshini silab)

Axir, ustozing

Senga doim rostgo'yilikni ta'lim etgan-ku!

Firuza

(Yig'i aralash)

Ustoz, ustoz, odil sulton, valine'matim,
Demak, g'iybat sizga yetgan... Bu bari yolg'on.
Yolg'on, tuhmat! Bag'ri toshlar uydirgan ismod.
Biling, sizga aytganlari fima-yu fasod!
Toshbo'rondan, sirtmoqlardan qo'rqmayman asti,
Ishonchingiz yo'qotmog'im o'limdan battar!..

Ulug'bek

(uni turg'azib)

Tur, Firuza, o'zingni bos! Sen pokizasan!

Firuza

Valine'mat, faqat bir bor, esingizdam,
Buroqbekning so'rog'idan chiqib ketdik biz,

Darsxonadan daftaramni olib kelay deb,
Qaytib kelsam, Abdullatif Mirzo oldida
Bir shumshukni ko'rgandayin bo'lib edim men.
Allaqanday imo bilan so'zlashdi ular.
Mirzodan u buyruq olib hamon yo'qoldi.
Men hazzlakam bu laflarni Mirzodan so'rsam,
Jahli chiqdi, o'rtamizda biroz gap o'tdi.
Undan keyin u shumshukni hech ko'rganim yo'q.
Tangri guvoh...

Ulug'bek

Nega buni aytmading menga?

Firuza
Oh, ishoning, ota bilan o'g'il o'rtasin —
Buzishlikni men o'zinga bilmadim loyiq.
Axir, uning o'z onasi ko'pdan marhuma,
Men, har qalay, uning uchun o'gay onaman.

Ulug'bek
Endi menga oshkorki, shu mojaroda
Bir zarra ham gunohing yo'q. Bu — nomard ishi.
(o'z-o'ziga)
Buroqbekning afsomasin anglay boshlayman.
Emish: asir so'roqdan so'ng qochmoq bo'lganda —
Nochor qolib, Abbas unga xanjar tiqqannish.
Abbos! Abbas! U naqadar mash'um kushanda!
Eh, firibgar! Oh, nechun yo'q uchinchil o'g'lim?!

(Firuzaga)
Yig'ini qo'y! Men bilaman har bir ko'z yosning —
Yulduzlarning u sehlri nafasiday sof!
Seni tahqir aylamoqqa hech kim haqqi yo'q.
Devonbegi kirib keladi.

Devonbegi
Shayxulislom ham Farmonshoh!

Ulug'bek

Aytgin, kelsinlar!

Devonbegi chiqib, qaytadi, orqasidan Shayxulislom va Farmonshoh Qo'rihi kirib keladi.

Shayxulislom
Jahonpanoh, farmoyishni yozib keltirdik.

Farmonshoh

Amringizda Sayid Obid amaldan tushdi.
Endi yangi muhtasibni tayinlasalar,
Toki yasoq buzilmagay shahr-u bozorda.

Ulug'bek

Samarcandga keragi yo'q muhtasiblarning
Siz — dorug'a. Tartibotga siz javobgarsiz!
Endi sizga boshqa buyruq: Bog'i Chinorda
Mening Chiniy koshonanni taxlab-tayyorlab —
Firuzani u qasrga ko'chirib qo'ying.

Xizmatiga ajratilsin kaniz va navkar,
Yurishiga taxtiravon tayin etilsin.
Xarojatin to'lاب tursin xazinadorim.
Qayg'urma, bas, borgin oyim, aziz Firuzam...
Orom olgin!

Ulug'bek uni qandaydir bir ichki iztirob bilan jo'natadi. Firuza hayron ham xursand, u Ulug'bek qo'lini o'pib chiqarkan.

Biz Shayx bilan kengashimiz bor.

Firuza va Farmonshoh chiqadilar.

Shayxulislom
Shu farmoyish hukmi shar'iy bilan bitildi.
Faqat sizning imzongiz-u, muhringiz kerak!

Ulug'bek

Shayxulislom, Sayidni-ku mansabdan quvdim,
Lokin uni Samarcandda qoldirib bo'limas.

Siz, Majlisi ruhoniyyda fatvo tayyorlang!
Samarqandning shaharidan, viloyatidan
Surgun qilib chiqaramiz uni daf' atan.

Shayxulislom

Nur — alannur. Bu noplkn xiyyla muqaddam
Daf aylamoq zarur edi doruldavatdan.
U mustahiq emas edi shafqatingizga.
Boshqa xizmat?

Ulug'bek

O'ylayapman muhim tradbirni.
Sizga sodiq imomlarni va multilarni
Birga to'plab kengashingiz, ammo xilvati.
Ulamoning aksaridan rozilik olib,
Mahkamayi shar'iyada fatvo chiqaring:
Samarqanddan surgun qilib Xo'ja Ahromi,
Yuboramiz Toshkent begin nazoratiga.
Turg'un bo'lisin "Bog'iston"da, o'z qishlog'ida.

Shayxulislom

Taklifingiz amri vojib. Ammo shahriyor,
Ulamoning aksarini ko'ndirmoq og'ir.
Chunki, eshon nufuzidan hayiqar ular.

Ulug'bek

Siz bu ishni puxta o'ylab, tayyorlik ko'ring.
Bu — Sayidni haydamoqdan yuz chandon mushkul.
Mahkamadan oldin bir-bir ulamolarni
Uyingizga da'vat etib, suhabat o'tkazing!
Ammo shoshmang... Ehtiyyotkor va zukko bo'ling.
Biling, toki Samarqandda Xo'ja Ahror bor,
Urfonimiz va taxtimiz xatarga duchor.

Shayxulislom

Aynan shundog'. Dinni shior qilgan bu eshon
Xaloyiqda taassubni qo'zg'atib har on,
Hokimiyat da yosiga berilgan jazman.

Siz buyurgan usullami qo'llayman, sulton!
Boshqa xizmat?

Ulug'bek

Muhtasibning beboshligi kasofatidan
Avaxtada ko'p begunoh qiymlasa kerak,
Shu kechasi ko'rib chiqsak zindonni deyman.

Shayxulislom

Xo'b savob ish. Boshqa xizmat?

Ulug'bek

Ayting, mavlono,
Siz Firuza haqida gap eshitdingizmi?
Poytaxtda uzunquloq gaplar yuribdi,
Ammo buning tagsizligi men uchun ravshan.
Mankuhangiz Firuzaoy farishtadek pok!

Ulug'bek

Sizning shunga barkalomli qanoatingiz?

shayxulislom
Men Qur'onga qo'l bosishga hozirmay, sulton!

Ulug'bek

Undoq bo'lsa, oling qog'oz, qalam, dovomi.
Firuzaga taloqnomma yozasiz hozir!

Shayxulislom

Woasafo! Ne gap sulton? Qulog'im og'ir,
Balki, xato eshitibman...

Ulug'bek

Yo'q, bu muqarrat.
Demak, umga ishonchimda yanglishmabman men,
Buni tasdiq etib berdi sizning ra'yingiz!

Shayxulislom

Xo'sh, bo'lmasa, ne zarurat, ne uchun taloq?

Ulug'bek

Sultonlarning nasibasi shu taxlit ekan,
Siyosatga qurbon ketar ularning qalbi.
Zero, hazrat, yaxshi biling va unutmangki,
Shoh xotini bo'lsa hamki, mutlaq begunoh,
Uning nomi har xil gapdan,
shubbadan, so zdan
Xoli bo'lib, oliv bo'lib turmog'i lozim,
El og'zida chaynalmog'i baloyi azim.
Firuzani seva-seva taloq beraman!

P A R D A

BIRINCHI KO'RINISH

Ko'ksaroy tagida zindon. G'ira-shira qorong'i. Goho yer tagidan
bandilarning bo'g'iq nolasi eshitildi. G'or ichidan yorug' chiqqanday
birdan yaqinlashayotgan mash'alining olovi ko'rinish qoladi. Berdiyor
qo'lida mash'al, kirib keladi. Uning orqasida Ulug'bek, Shayxulislom
Burhoniddin, Farmonshoh Qo'rchi. Obxonalar ustida katta toshlar
qo'yilgani ko'rindi.

Ulug'bek

(bir chohni ko'rsatib)
Dorug'a, siz zindon ahlin yaxshi bilasiz,
Bu chohda kim yotar ekan?

Farmonshoh

(qo'lidaq'i daftarga qarab o'qiydi)
Yoryoyloqning ovulidan o'g'ri Toshbuqa,

Ulug'bek

Nima qilgan? Nimalarni o'g'irlagan u?

Farmonshoh

Malik Tarxon qo'tanidan uch echki, o'n qo'y!

Ulug'bek

O'tirgani qancha bo'ldi?

Farmonshoh

Uch oy, o'n uch kun.

Ulug'bek

Bo'shatilsin!

Pastdan ovoz

Omon bo'ling, qiblayi olam!

Ulug'bek

(ikkinchchi choh oldida to'xtab)

Kim bu chohda azob chekkan badbaxt zindoni?

Farmonshoh

O'ratepa tumanidan Qodir chavandoz.
Zakotching chap qulog'in kesib olganimish.

Ulug'bek

Nega axir?

Pastdan ovoz

Xotinimi zo'rhamoqchi bo'lgan edi u.

Ulug'bek

Qancha bo'ldi bandiligi?

Farmonshoh

Besh oy, bir hafta.

Ulug'bek*(kulib)*

Bo'shatilsin! Lekin, tag'in zakotchingin sen
O'ng qulog'in kesa ko'rma... Shu sharm o'zi bas!

Pastdan ovoz

Dard ko'rmangiz, Ulug'bek Mirzo!

Ulug'bek*(uchinchchi choh oldida to'xtab)*

Bu yerda kim?

Farmonshoh

Ota Murod degan bir dehqon.

Muhtasibning amri bilan qamab qo'yilgan.

Ota Murod*(pastdan)*

Davlatpanoh, tunov kuni sizga ariza –
Topshirganim bilan olib bunga tiqishdi.

Ulug'bek

Muhtasibdan bu chol menga noligan edi,
Shu sababli u noinsof qamabdi buni.
Axir mening ota bilan oshnoligimni
Bilmaysizmi?

Farmonshoh*(daftarga qarab)*

Xirojlarini kamaytirish haqida farmon
Berganimidan voqisiz-ku, Farmonshoh Qo'rchii!
Dorug' asiz, hamma gapdan ogoh bo'lingiz!

Ulug'bek

Xirojlarini kamaytirish haqida farmon
Berganimidan voqisiz-ku, Farmonshoh Qo'rchii!
Dorug' asiz, hamma gapdan ogoh bo'lingiz!

Bo'shatilsin! Ota Murod, boring qishloqqa!
Yaxshi boqing, qurt tushmasin olmazor bog'ga

Ota Murod*(pastdan)*

Omon bo'ling, ming yil yashhang, qiblayi olam!

Ulug'bek*(to 'rtinchi choh oldida to'xtab)*

Bu yerda kim o'tirbdı, gunohi nima?

Farmonshoh

Muhtasibning amri bilan, Sulaymon Meshkob,
Ramazonda suv ichgan-u, ro'zasin buzzgan.

Ulug'bek

Muhtasib ham zahmat chekib shuncha ishlasa,
Zarafshonning bor suvini sipqarar edi.
Bo'shatilsin!

Sulaymon*(pastdan)*

Omon bo'lsin, qiblayi olam!

Ulug'bek

Qayda qipchoq asirlari?

Farmonshoh*(bir necha chohni ko'rsatib)*

Mana, o'ralat!
Shahriyorning dushmanlari, yuzi qoralar!

Ulug'bek

Mayli, mayli, o'tgan ishga salavot derlar.
O'zlarini aldatganlar bu badbaxt ko'rlar.
Boshliqlari halok bo'lди... Halok qilindi.
Bo'shatilsin, uy-uyiga tarqab ketsinlar!

Farmonshoh

Men ulami sizdan so'rab olmoqchi edim,
Ekin-tikin ro'zg'orimda ishlatish uchun.

Ulug'bek

Yo'q, ularning o'ksiz qolgan bolalari bor,
Boraversin yurtlariga! Ozod etilsin!

Shayxulislom

Davlatpanoh, bular sizga bergen tashvishlar
Bir umriga unut bo'lmas. Jazolash lozim.

Ulug'bek

Yo'q, muhtaram Shayxulislom, jazo shart emas.
Bilasizmi, birovidan o'ch-qasos olib,
Uni xunob ko'rmoqlikning zavqidan ko'ra —
Kechirishning halovati shinrin ming karra.
Qasoskorlik bo'lomlaydi shohga rahmamo,
Alaxsusus, bu elatki aldangan, xolos.

Pastdan ovozlar

Tavba qildik, bosh ko'tarib, nodon ekanmiz!

Ulug'bek

(boshqqa bir choh oldida to'xtab)
Xo'sh, bu chohda o'turgan kim? Nimadir kasbi?

Farmonshoh

(daftarga karab)

Bir bechora, Ko'r Qalandar degan bir darvesh.

Berdiyor

Kasbi-pasbi odamlarga bo'hton ag'darish.
Siz Sirdaryo safaridan qaytganingizda
Ko'p bemaza g'idi-bidi tarqatganiga —
Talabalar g'azablaniib, tutib keltirdi.
Keyin bilsak, hamma buning tilidan bezor.

Ulug'bek

Ha, eslayman, shu boyqushning xurujllarini.
Iftirochi, o'g'ridan ham battar bir maxluq.
Chunki, o'g'ri multoililikdan shu yo'lga tushar.
Biroviga g'arazi yo'q,unga non kerak.
Bo'hton nima? G'ayirlikning qopog'on iti,

Iymanishdan, xijolatdan xolidir beti.

Bo'hton, ya'nii birovlaming fazilatiga

Ich-ichidan qoyil bo'lmoq, zohirda esa,

Xuddi o'sha fazilatning aksin aymoq.

Tuhmatchi u — jirkanch tana, qurtagan maraz.

Qalb o'mida qormida bor bir kissa g'araz.

Yurak degan bu kissani qo'ysangiz agar,

Och shaqallar g'ajishdan ham qiladi hazar.

Sirtlon cho'chib tegizmaydi uni tishiga,

Ilon kelib undan zahar olar nishiga.

Suvga otsang ko'k hovuzlar sasiydi, yoxud —

Alangaga bir tutqizsang ko'kni bosar dud.

Mana shu xil murdorlardan birdir bu zot.

Ko'r qalandar

(pastdan)

Ne qilayki, tilim emas ixtiyorimda,
U o'zicha g'o'ldiraydi mendan beruxsat.

Berdiyor

Zindonda ham u timmaydi, hazrat shahriyor.
Amr etsangiz, tilin-pilin kesib tashlasak!

Ulug'bek

Tuhmatchining dardi tilda emas, dildida.
(pastga qarab Ko'r qalandarga)
Boq, sen tag'in o'z tilingga iftiro qilding,
Til, u nima? Fikrlarning qaroli, xolos.
Sening diling,

tynnatlarin, xulqing behayo.

Ulug'bek boshqa choh oldiga o'tmoqchi bo'lganida, **Farmoshoh** to'xtatmoqchi bo'lib

Farmoshoh
Bugun barcha bandilarga shafqat qilganday
Darveshni ham ochsakmikan, hazrat shahriyor.

Ulug'bek
Yo'q, o'tirsin hali bunda bu el balosi.

Berdiyor

(pastga qarab)
Ko'r qalandar, tuhmat-puhmat to'qib o'tirgin,
Hechqisi yo'q, sening kasbing-pasbing bemalol.
Asbob-pasbob bo'lmasa ham ishlayverasan.
Sasib yotgan tiling-piling senga uskuna.
Chohning ustiga tosh yopib qo'yadilar.

Ulug'bek
(boshqqa choh oldida turib)
Bu quduqning sokini kim?

Farmoshoh
Bu — Bobo Kayfi!

Ulug'bek
(kulib)
Obbo, yana ne qilibdi rindi mastona?

Farmoshoh
Muhtasibning amri bilan tashlangan shunga,
Mast holida muhtasibni xo'rlagan emish.

Ulug'bek
Tag'in o'sha pes badbaxtning kasofatlari!
Bo'shatilsin bu — beozor, bechora odam!

Bobo Kayfi

(pastdan)

Yo pirim-e! Bu yerga xo'b ko'nikib qoldim,
Lekin, meni bo'shatinsinlar, der ekansiz shoh,
Yalinaman, siz ketmayin tez chiqarsinlar!

Farmoshoh

(darg'azab)

Yasoq-yarog' bilmaysanmi, hay behafsala!
Bemormisan?

Bobo Kayfi

(pastdan)

Bemormammi? Yo'g'-ye, xumorman!

Ulug'bek

(navkarlarga)

Chiqaringiz!

Navkarlar arqon tashlab Bobo Kayfini chiqarib oladilar.

Nima qilding muhtasibga sen?

Bobo Kayfi

(ta'zim bilan)

Kechirgaysiz, haddan oshsam, qiblaysi olam
Aybim shuki, ul janobga "qizitaloq" dedim.

Ulug'bek

Faqat shumi?

Bobo Kayfi

(ta'zim bilan)

Shuning o'zi unga bas ekan.
Ammo unga tag'in boshqa bir laqab topdim:
Xo'b desangiz, shu laqabni unga aytisam-u,
Keyin, mayli, zindon qilsin meni qaytadan.

Shayxulislom

Muhtasib yo'q, Sayid Obid badarg'a bo'ldi.
Boravering!

Bobo Kayfi, bu nima gap? Bu kimning she'ri?
Ko'ksaroyning fonusida kuyayotgan kim?

Bobo Kayfi

Shunday ekan, surbetligim kechiring, sulton.
Buyursalar, may meshimni qaytib bersinlar.
Habibim ham, tabibim ham o'sha may meshim.

Ulug'bek

(kulib, Berdiyorga)

Bu odamning may meshini to 'Idirib bergin.
O'tirgani tovoniga bizzdan mukofot.

Berdiyor

Yurgin, Kayfi, sening piring-miring Xayyom ham,
Sendek choh-poh tushganida may-pay ichganni?

Bobo Kayfi

Eh, jo'rajon, mullo Xayyom davrida bilsang,
Sayid Obid, ko'p shukurki, tug'ilmagandi.
(ketaturib)

Shafqatpanoh, omon bo'ling, yashhang o'zingiz!
Haytovur, shu erkinlik ham zap yaxshi narsa.
Bandasiga ko'rsatmasin shu Ko'ksaroyni.

Farmoshoh

(daftarni yopib)

Davlatpanoh, bandilarning ro'yxati tamom.

Bobo Kayfi

(keta turib xirgoyi qiladi)

"Tushgali band ichra bo'ldim ul pari devonasi,
Ko'ksaroy fonus erut, ul sham, men — parvonas'i".

Ulug'bek

(qiziqib)

Bobo Kayfi

Davlatpanoh, Xurosonda o'smir chog'imda
Bu nolani eshitgandim bir qo'shiqchidan.
Bu kunlarda Ko'ksaroya bandilligimda —
O'sha baytni ming'illardim gohi-gohida.
Bilishimcha, buni aytgan Mavlono Tarxon.

Ulug'bek

Ammo, nega, qachon, kinga, bilmayman, volloh.

Ulug'bek

Senga ruxsat!

Bobo Kayfi va Berdiyor chiqadilar.

Shayxulislom, shu misralarda
Fojiali bir nasiba borga o'xshaydi.

Shayxulislom

Eshitgiz, ojizona izohotimni:
Sohibqiron Amir Temur zamonasida
Padarimiz Shayxulislom bo'lgan uzoq vaqt:
Menga aytib bergen edi padar rahmatlik:
Bir zamonda Samarqanda bir guruh bebosh
Haydab mo'g'ul xonlarini, tarxonlarini
Samarqandni bir yilgacha qo'lda tutganlar.

Ular hatto Temurbekka egmaganlar bosh.
Fuqaroga har xilkatta va'dalar berib,
Olomonni o'zlariga moyil qilganlar.
Bu guruhni tarixlarda sarbador derlar.
Bu hammasi yaxshi ma'lum davlatpanohga.
Sohibqiron amri bilan sarbador qavmi —
Jazoland: yo so'yildi, yoki osildi,
Saltanatni Xudo qildi Temurga nasib.
Bu hammasi yaxshi ma'lum davlatpanohga.

Lekin o'jar sarbadorlar yana har zamon
— 281 —

Shaharlarda onda-sonda xuruj aylarmish.

Temurbekning avzoyini buzarmish nuqul.
Binobarin, Sohibqiron bir tadbir o'ylab,
Unga be'at keltirmasdan qaysarlik qilgan
Sarbadorning peshvosidan ba'zi birlarini
Ko'ksaroyda bir umrlik bandga buyungan.
Chohga emas, huiralarga qanab ularni,
Toki tavba qilmaguncha chiqarmang, degan.
Fonus ichra bir sham kuyib qanday tugasa,
Bularning ham aksar qismi huiradan chiqmay,
So'nib ketgan... Shu tufayli maylono Tarxon —
Uko'p jumard kishi edi, Qarshi shahridan,
O'lganiga ko'p yil bo'ldi. Tanirdim uni —
Sarbador dan biron do'stin g'amida kuyib,
Shu baytarni hasrat bilan nolib aytgandur.
Bular shoyad ma'lum emas davlatpanohga.
Sohibqiron buni juda pinhon tutarmish.
Padarimiz buni aytdi o'lim oldida.

Lekin al'on o'sha Xudo osiyaridan —
Biron tasi tirikmikan? Bu — amri mahol.
Tirik bo'lsa, karomadadir, volloh bissavob!

Ulug'bek
Bu qanday sir, qanday sirk, bexabar qolsam?
Ayt, Farmonshoh, bormi tag'in bunda mahbuslar?

Farmonshoh
Menga ham bu majhul bir sir, bilmayman, sulton.

Ulug'bek
(zindon chekkasin ko'rsatib)
U yopiqlik eshik nima?

Zindonbon
(yerga ta'zim qilib, cho'kib)
Ha, ha... yo'q, yo'q! U huirami? U — xilvatxona!

Ulug'bek

(u tomonga qarab yurib)

Och!

Zindonbon

Davlapanoh, uvol bo'lar men uni ochsam.
Sohibqiron farmoyishin nechuk buzgayman?
Menin otam, bobom shunda zindonbon bo'lgan.
O'zgalarga unga kirmoq — butun qatag'on!
Sohibqiron: hatto menin avlodlarim ham
Bundan voqif bo'imasinlar, deya buyurgan,
Toki, birdan ayab amrim buzmasinlar deb!

Ulug'bek

Ol kalimi, ochgin darhol!

Zindonbon

(boshqqa bir eski daftarni ochib)
Bu daftarda, mana sulton, o'sha farmoyish:
Marhum bobom qo'lli bilan yozilgan ekan.
Deyilganki, yovuz bandi mahkam ushlansin,
Iqomati chohda emas, hujrada bo'lsin.
Istagancha ovqat bering, toki u o'lmay,
Uzoq yashab, bandilikning azobin tortsin.

Yana aytgan: sira qo'y mang-u o'lsin, zero,
Jazolarning eng yengili qatl etilmoqdur!
To bir kuni bandilikdan bezib "dod" desa,
El oldida qilmishidan pushaymon yesa,
Temuriylar davlatiga be'at keltirsa,
Temurbekning avlodiga humrat bildirsa,
Faqat shunda podshohhoga qilinsin xabar!

Ulug'bek

O'zi u kim? Nomi nima? Buyuraman, ayt!

Zindonbon

(daftarni yopib)

Bunda ismi o 'chirligan... ammo zindonda
Unga laqab qo 'yganmiz biz: Piri Zindoniy.
Yil boshida har yil borib so 'raymiz undan:
— Senga so 'roq, qani ayt-chi, Piri Zindoniy,
Qilmishingga sen pushaymon yedingmi, yo 'qmi?

Ulug 'bek

Xo 'sh, so 'roqqa nima deydi Piri Zindoniy?

Zindonbon

Bizga pirming javoblari hamisha shu so 'z;
Temurbekka aytganimdan bo 'lak gapim yo 'q!

Ulug 'bek

Och hujrani!

(O'sha tomonga qarab yuradi)

P A R D A

IKKINCHI KO 'RINISH

Yana o 'sha zindon. Alovida hujra. Eshik ochilgach, mash 'alning olo-
vi hujrani yoritadi. Bir chorpoysada odam yotgani ko 'rimadi.

Ulug 'bek

Men bir o 'zim kirib ko 'ray, u qanday inson!

Berdiyor mash 'alni hujraga tikib qaytadi. Boshqa odamlar hujraga
kirmay, qaytadilar. Ulug 'bek hujraga kirib ketadi. Birozdan so 'ng chor-
poyada yotgan odam, mash 'alning yorug 'idan bo 'lsa kerak, uyg 'onib
turadi. Bu haddan tashqari keksa bir chol. Hamma yog 'ini soch - soqol
bosib ketgan bandi.

Piri Zindoniy

Kim bo 'lursiz? Nima kerak bu g 'amxonada?
Meni yana aynatmoqchi bo 'lasizmi, ha!
Qilmishingga men nadomat chekmayman, biling!
Temurbekka aytganimdan bo 'lak gapim yo 'q.

Ulug 'bek

Men Ulug 'bek Mirzodurman. Shohruxing o 'g 'li —
Sohibqiron nabirasi. Zamon sultonii.
Sening barcha sarguzashting bilmak istayman.

Piri Zindoniy

Nega darkor? Sarguzashtlar, sarguzashtlarmish!
Men ularni aytgan bilan yoriydimi kun?
Yo la 'nati zindon qulab kelarmi erklik?
Yo qaytadan men yosharib, jo 'ralar bilan —
Jum 'alikda yallaxonlik qilamanmi-a?
Podshohga insonlarni o 'ldirmoq oson!
Ammo, qani, ular kimni tiriltgan? Hayhot!

Ulug 'bek

Yo 'q. Bularning chorasi yo 'q. Bilmak istayman:
Sen kim?

Piri Zindoniy

Menmi? Hasan degan bitta chilangar.
Bu zindonga tushganimga necha yil bo 'ldi,
Buni o 'zim bilolmayman, eslayolmayman.
Ko 'p chidamli narsa ekan, deyman odamzod...
Hech bir maxluq chidolmasdi shuncha jabrga.
Bu do zaxxa tashlaganda meni bobongiz,
Siz, dunyodan bexabar bir go 'dak bo 'lgansiz.
Ko 'p taajijub til - u lafzni umutmaganim.
Chunki, bir chog ' o 'tib ketgan hodisalarni
O 'z-o 'zimga mashq qilaman o 'zim yodaki,
Ayting, hozir hijriyadan necha yil o 'tgan?

Ulug 'bek

Sakkiz yuz - u ellik ikki tarixi — hijriy.

Piri Zindoniy

Voh-voh, demak elliik yildir men bunda bandi...
Ammo ko 'rib turibsizki, o 'lgan emasman.

Chunki, yig'lab ko'z yoshini to'kmadim sira.
Yo'q, shahriyor, men o'imloqchi emasman hali.
Bu yer go'rdani farqi yo'g'-u, ammo go'nda ham
Tirik odam yashar ekan, demak olamdan
Zilziladan, qirg'inlardan va yong'inlardan,
Faryoddardan, ur-urlardan, chop-ha-choplardan
Aks sado kelib turar bu mozorga ham.
Ha, Temurbek ko'p azamat jahongir edi.
Ammo, mening nazarimda u — qon Tangrisi.

Ulug'bek

Temurbekka shu g'araazning boisi nima?

Piri Zindony

Samarqanddan haydab mo'g'ul zolimlarini
Sarbadotlar qo'lga oldi hokimiyatni.
Kosiblarning, faqirlarning qadri bilindi.
Men chilangar, otam, bobom, bari ohangar.
Hokimlardan faqat tupuk, dakki ko'rganniz.
Bolg'agine boqib kelgan toifamizni.
Ammo, amir Sohibqiron ishgir jahongir,
Qal'alarni qaqshtuvchi qo'rmas sarkarda,
Ochiq jangda bas kelolmay sarbadorlarga
Konigilga chaqitirib nayranglik qilib,
Boshliqlarin so'ydirgan yo ostirgan dorga.
Chunki, ular o'z azmidan aynamabdilar,
Har xil va'da, qutqlarga unamabdilar.
Mening bobom, mening otam boshlarin dorga
Berib qo'yib haqiqatda sarbador bo'ldi.
Endi aytin, insof bilan,

Mirzo Ulug'bek,
Nechuk bo'lmay bobongizga o'zim da'vogar?

Ulug'bek

Otalar-ku, qo'z'oloning jazosin chekdi.
Senga nechuk bobom qildi shu xil siyosat?

Piri Zindony

Chunki bizlar shahid bo'lgan sarbadorlarning
Yetim-yesir sabiyatlari ulg'ayib bildik:
Zulmi jafo boishlari podshohlar ekan.
Biz Qarshining qo'rg'onida bir lo'p fidoyi
Temurbekdan o'ch olgani isyon ko'tardik.
Va yengildik, sheriklarim bari so'yildi.
O'ta chapdast qassob edi, lekin bobongiz!
Ha, bu gapga endi bilsam ellik yil bo'pti...
Ellik yil-at!. Bandilikda umrim chirigan,
Demak qancha farzandlarim tug'ilimay o'lgan,
Qancha o'roq, qancha omoch yasalmay qolgan.

Ulug'bek

Sohibqiron seni nega qatl ettirmadi?
Yoki seni ayadimi?

Piri Zindony

Yo'q, unday emas.
Behad zolim bo'lsa-da, u zol kishi edi.
Minba'd isyon bo'lmasisin deb Temur mulkida
Menga taklif qo'ydi amir... Katta jomeeda
Jamoatni birga to'plab o'z og'zim bilan
Qorolasam va qarg'asam sarbadorlami,
Va'da berdi to'qqiz tortiq, mansab-u davlat.
"Xo'b" demasam, mangu zindon, umrbod zulmat!..

Ulug'bek

Tiriklayin ko'milmoxqa unading, biroq
U taklifga ko'nmaddingmi?

Piri Zindony

Men go'daklikdan
Sultonlarga adovatni ko'nglimga bitdim,
Zo'ravonning zillatiga hech toqatim yo'q.
Baloxo'rilar nazarmda ayni qalloblar.
Tekin yegan hazratlar-chi, xuddi hasharot.

Ulug'bek

So'zlarining tafakkuridan zug'um ortiqroq.
 Sultonlar ham Xudovandning navkarlari-ku!
 Kecha-kunduz el g'amida bezovta yurgan —
 Podshohlary yo'q deysammi? Ular tashvishi
 Ming toshtarosh zahmatidan og'irroq, ishon!
 Yo'q, bularni haromtomoq deyish nohaqlik!
 Sultanatki, sultoni yo'q — boshsiz bir tanga.

Piri Zindoniy

Ummatarning ixtiyorin faqat bir odam
 Uhdasiga olmoqligi xatarli da'vo.
 Yoshligimda talabadan oshnam bor edi.
 Tunlarda u o'qir edi har xil hikmatdan.
 Abu Nasr Forobiying bir kitobida —
 Yozilganki, donishmandlar kengashib turib,
 Mamlakatni boshqarsalar el bo'lur obod!
 Birovining nafsi, kayifi, g'arazi emas,
 Insos ahlin vijdoniga qolsa idora,
 Na haqsizlik, na fitnalar, na fisq-u fujur,
 Na mulk uchun talash bo'lur, na qonli nizo.
 Ezilganlar qaddin rostlar, zolim tiyillar.
 Xurosonda sarbadorlar shunday deyishgan:
 — Podshohsiz o'zimizcha yashhab ko'raylik, —
 Nonimizni hadik olmay oshab ko'raylik! —
 Sabzavorda barcha qullar ozod etilgan,
 Og'ir o'lpox-xirojlardan ulus qutulgan,
 Bek va to'ra, xon-u tarxon yurtdan quvilgan.
 Sarbadorlar kengashib o'y o'ylashar ekan.
 Donolardan raislarni saylashar ekan.
 Ammo, axir, ularni ham yo'q qildi Temur,
 Go'yo falak qahrlanib yuborgan ma'mur.

Ulug'bek

Sen o'ylagan masalalar ko'p qiziqarli,
 Lokin, zamnon va zamindan uzilgan xayol.

Shu uchun ham bekor ketdi g'ayratlarinigiz.

Mamlakatga urfon kerak, ilm-u ma'rifat,
 Boshhoshdoqlik emas, idrok, nizom, farosat.
 Shunday qilsa, borib-borib ravnaq topar yurt
 Birinchi gal orif bo 'lsa sultonlar o'zi,
 G'allat ketib ochiladi ulusning ko'zi.

Piri Zindoniy

Eshitganman, o'taketgan fozil ekansiz.
 Ammo, asli shoh o'g'lisiz, shu uchun har dam
 Ko'zingizni qamashtirar toj yaltirog'i.

Ulug'bek

Kim biladi, bo'lmasaydim shu zamonada
 Bu davlatning boshida men, neler bo'lardi!
 Balki, diyor zuhmatlarga cho'kib qulardi.
 Ammo, biling, gapim xolis, Piri Zindoniy,
 Faqat tojining mehri emas shu andishalar.
 Men shohlikni ma'rifatga qildim dastyor.

Piri Zindoniy

Tushunmayman, tushunmayman, shavkatli Mirzo.
 Taxt qanaqa ma'rifatga poydevor bo'lgay?
 Vaholanki, toj boshhdagi filgiga qafas.

Ulug'bek

Siz ellik yil g'aflat ichra qolgansiz, usta.
 E, ellik yil... Ellik, yuz yil kechsa-da tag'in,
 O'zgarmaydi podshohlarining zulmkor xulqi.

Piri Zindoniy

Zamonaniz g'oyat nozik. Har yoq xatarnok!
 Bizga lozim zabardastlik, birlik va idrok.
 Bu fursatda olomonga g'alayon solib.

Ulug'bek

Zamonaniz g'oyat nozik. Har yoq xatarnok!
 Bizga lozim zabardastlik, birlik va idrok.
 Bu fursatda olomonga g'alayon solib.

Bizga qarshi qo'zg'arganlar bizga do'st emas.
Ular Temur xonadonin yoruz dushmani.
Bunday ovoz zindonlardan chiqmay bo'g'ilalar.

Piri Zindoniy

(qahqaha solib kuladi)

Mayli, bizlar hurriyatning fidoyilarini,
Hurriyat deb bandilikka ko'ngan erkinlar.

Ammo, Mirzo, men zindonning hatto qa'rida
Sizning baland fahmingizdan bo'ldim xabardor.

Istasangiz tiz cho 'kayin oyog 'ingizga,
Sizga, buyuk qalbli inson, ulug' munajjim!
Ammo, sulton Ulug'bekka, sohibi tojiga
Bosh egmayman, ego mayman, yo'q, ego mayman!

Boshini ko'targanicha mag'rir vaziyatda devorga yastanib qotib
qoldi.

Ulug'bek

Siz ellik yil g'aflat ichra yotgansiz, usta!

Ulug'bek og'ir qadamlar bilan hujradan chiqadi. Chuqur o'ylanish
bilan o'z-o'ziga.

Uh... ko'p og'ir munozara! Bunaqasini
Ko'rmagandim umrim bino bo'lgandan beri!

Farmoshoh va zindonbon unga yaqinlashib keladilar.

Farmoshoh
Bu keksani chiqarishni buyurarlarmi?

Ulug'bek

Ne xohlissa berib turing, izzat ko'rsatting!
Lekin... Bandda tura tursin Piri Zindoniy!

Ulug'bek eshikka qarab yo'naladi. Zindonbon darhol hujra eshagini
yopib quflaydi.

PAR DA

UCHINCHI KO'RINISH

Samarqanddan jilla uzoq bo'lмаган qishlog. Uzoqda tog', dara, ov-
log, o'morlar va bog'lar ko'rindi, bir tomonda dehqon daxmalari. Ota
Murodning sodda kulbasi, hovlisi va bog'i yo'ning qirg'og'ida o'mash-
gan. Berdiyor va bir necha navkarlar yelkalarida va qo'llarida ovdad otil-
gan parranda, quyon, kiyik, alqor ko'tagan holda kirib keladilar.

Berdiyor

(qichqirib)

Ota Murod, hay, oqsoqol!

Bog' tomondan Ota Murod qo'llida ketmon bilan shoshib keladi.
Uy eshigidan xotini yuguradi.

Ota Murod

Labbay, taqsir, xo'sh!
Xush kebdilar kichik to'ra!

Berdiyor

Voy oqsoqol-ey,
Qo'y hazlingni, to'ra-po'ra demagin meni!
Endi asl bosh to'ranı kutgin, oqsoqol!
Ovdan qaytib kelib, biroz dam olmoqchilar.

Ota Murod

Xush kelurlar, xush kelurlar bizning kulbagा.
Yorab, qanday aziz mehmон, qiblay olam!
Xotin, ko'rp'a-yostiq chiqar!

Berdiyor

Non-pon ham bo'lsin!

Xotin

(yuragin ushlab)
Xo'p bo'jadi, oh,

shodimarg bo'lmayin tag'in.

Berdiyor

Yanga, qo'ying, siz unaqa hazil-pazilni.

Shodimarg ham gap bo'ldimi? A, Murod og'a?

So'riga gilam, ko'rpa-yostiq, tashlashadi. Barkashda non, meva-cheva, pishloq olib chiqadi.

Ota Murod

Suyunadi, suyunadi kampir mushtipar!...

Ulug'bek, Sakkokiy, Ali Qushchi, Abdurazzoq ov libosida hovli-

ga kirib keladilar.

Ulug'bek no'nok xon'ab'li'on botum. Shu q'ubonomaqt 'yoxdi
Salom, ota, yana sizga qo'moqqai keldik. Shu dahaga kelganimiga ko'p yillar bo'ldi!
Huuuuu... daraxtlar qarang, qarang, qancha ulg'aygan!
Onaboshi tuzukmlar? Hormang'lar!

Xotin

Shukur!

Ota Murod g'enshi ni' oq-en' oq-
Hazrat tashrif buyursinlar. Xush kelibdurlar!
Mehmonlar so'rida va kursida o'tirshadi.

Ulug'bek

Ota Murod, siz ovora bo'lmanang, o'tiring!
Bir kosadan qimiz ichib jo'naymiz uyga!
Suhbat asnosida Ota Murod ham Berdiyor meshda qimiz olib kelib

kosalarga quyib, mehmonlarga tutadilar.
Ha, birodar shikorbonlar, bugungi ovni
Chindan quling o'rgilsin ov desa arziydi.

Ali Qushchi

Ovning o'ndan sakkiztasi sizning o'hlangiz.
Men o'zin ham, otamiz ham bürгutilar boqib,

Shikorbonlik hunarida harif bo'lgamiz. Ammo sizning yoyni tortib uzgan o'qingiz, uq
Har ta'rifdan o'zib chiqar, sira yanglishmas. Merganlikni Tangri o'zi sizga buyurgan.

Ulug'bek

Nega bir men? O'qui hamma barobar uzgan.

Abdurazzoq

O'q barobar uzilgan-u, lokin hamma gap
Shu o'qlardan kimnikilar hadafga teggan.

(Sakkokiyga)

Oh, mavlono, she'ringizning hamma o'qlari
Ovda uzgan o'qingizga o'xshasa agar,
Demak sira dilbar dilin ovlamabsiz-da!
Ovchilikda o'qlaringiz ancha beparvo.
Qofiyasi qovushmaydi, juftin topmaydi.

Ulug'bek

Nega shunday, siz mavlono, quyonni ko'zlab,
O'q uzzangiz borib tushar laylak iniga.

Abdurazzoq

Siz mavlono, shaxsan o'qni uzgandan ko'ra,
Birovlarining o'qin ko'proq yepsiz chamasi.
Yanglishmasam, shu misralar o'zlariniki:
"Majruh bo'lar g'amzang o'qi birla damodam,
Bag'rimki, erur tiri-malomatga nishona".

Hamma kuladi.

Sakkokiy

Shundog' hazrat!

Nazarimda zolimlik qilib,
Ohulami o'ldirmoqlik fe'lidan ko'ra
Ohu ko'zli dilbarlarga nishona bo'lmoq,
Va ulardan yaralammoq yuz chandon a'lo!

Ali Qushchi

Bu yaxshi-yu, dilbarlarning oldida biroq
Ovchilikdan ertak to 'qib maqtanilmasa!

Sakkokiy

Jonon bilan vasl chog'i maqtansak agar,
Bu yolg'oni kechiradi Olloham, shoh ham.

Ulug'bek

Oolloham kechirmsa-u, men kechiraman.
(kulib)

Bu bechora shoirlarga nima qoladi?
Kechiraman, kechiraman, hazrat Sakkokiy.
Yaxxhi niyat bilan yolg'on — jinoyat emas,
Ayniqsa u — ishq ko'yida aytilgan bo'lsa!
(Sakkokiyning qulog'iga)
Bu hazillar ammo sira umutirolmas
Finuzani, u mehribon dildor parini.
Usiz go'yo yuragimda hamisha dard bor.
Ko'p haqsizlik u sho'rlikning tushdi boshiga.

Sakkokiy

Aynan, falak zahar qo'shdii shirin oshiga.

Ulug'bek

Dard shundaki, bila turib, shu ishni qildim,
Mulohaza muhabbatdan chiqdi ustunroq.
Eh, Sakkokiy, o'zingizdan qolar gapim yo'q...
Hay,

Berdiyor, yana quyib bergin qimizdan,
Sovuq qimiz biroz bosar dilning tashnasin.

Berdiyor

Qimiz-pimiz, qazi-pazi, qo'zi-po'zisi
Buyerda ko'p soz bo'lur-u, ammo oz bo'lur.
(meshdan kosalariga qimiz quyadi)

Ulug'bek

Xo'sh, Berdiyor, gapingdag'i qo'shoq so'zlardan
Tanob eshsa Buxoroga yetgaymi deyman!

Berdiyor

Hali sizga tejab-tejab gapirganim shu.
Men mabodo uyda-puyda bola-chaqaga,
Yoki gohi bozor-pozor jamoatiga
So'zni juftlab aytaganimni ulab qo'yganda,
Gap tanobi borib yetar Makkatulloga.

Ulug'bek

Sen so'zingni shoshmay gapir! So'zlarни so'zga
Juftlay berib eshitganni garang qilasan.

Sakkokiy
Har qachonki, aytayotgan so'zing yoniga
Qo'shaloq so'z chiqqay-chiqqay deb qolsa borni,
Bir nafasga yo'talib qo'y, so'ngra miyangdan
U yaroqsiz alfozlarни sitib chiqargin!

Berdiyor

Yo, mavlono, men ham so'zga oro beray deb
Shoshilmasdan gapirganda so'zni juftlayman
Zora, she'r-per chiqib qolsa, deyman-da!

Sakkokiy

Sen ham bizning shoirlarni mayna qilasani!..

Abdurazzoq

Uning gapi juftlashadi istar-istamas.

Berdiyor

Taqsimi...

Ulug'bek

(kulib)

Mayli, taqsir-paqsr, ishingni qilgin.
Sening menqa sadogating har gapdan afzal.
Bir xil so'zchan, tili shirin zotlar bo'ladi,
Ammo, so'zin chaqib ko'rsang, uning danagi —
Sharq-u Hindda o'sgan zahar-zaqqundan achchiq.
Bilki, sulton Ulug'bekning ko'zida sening
Tiling-piling emas, balki diling mo'tabar!
Mayli-mayli, taqsir-paqsr, jilaylik endi!

Hamma kuladi. Mehmonlar turadilar. Ulug'bek Ali Qushchiga sekimroq:

Yoningdag'i aqchalardan otaga pul ber,
Hamda ovning o'lijasidan qoldir bir qismin!

Ali Qushchi Ota Murod oldiga borib, bir chekkaga chaqiradi va
unga bir kissa aqcha cho'zadi.

Ota Murod

Yo'q, mavlono, bizning elda bunday rasm yo'q,
Mehmonlardan xarjlik olish bizga ep emas.

Ali Qushchi

Oling, oling, mehmon emas pul berayotgan.
Mamlakatning mezbonidan sizga tortiq bu!

Ota Murod tashakkur bilan oladi. Shu paytda sahna orqasidan xotin-xalaj qichqirig'i eshitiladi. Buning ustiga, siphohlarning do'qi quoqqa kelib yetadi. Ota Murod u tomonga yugurib boradi.

Ulug'bek
Bunisi ne? Ne to'polon? Qanday beboshlik!

Ota Murod qaytib kelib Ulug'bek oldida tiz cho'kadi.

Nima gap bu? Ota Murod, turgin, tushuntir.

Ota Murod

Sipohiyilar shu qishloqning ahlini tamom —
Talon-toroj qilib haydab quvib ketmoqda.
Elat judo bo'lidi topgan-tayanganidan.

Ulug'bek

(Berdiyor)
Sen ulamni to'xtatib ko'r, bu ne kirdikor?

Berdiyor

(yo'lga chiqib, sahna orqasidagi sipoqlarga)
Hoy, to'xtanglar, sizlar kimlar, bu ne to'polon?

Yo'lga bir-ikki yasovul chiqadi.

Yasovul

Biz Mirzoning kamarkasta xizmatkorlari,
Xurosondan olib kelgan sipoqlarimiz.
Nimaniki u buyursa, bo'lidi. Gap tamom.
Chiq ko'chadan. Bu hovlining egasi qani?

Berdiyor

Qaysi Mirzo? Aytgin, nodon!

Yasovul

Mirzoniz bitta!
Bu bebosqlar behurmatlik qilgan Mirzoga.
Muhlatida qazi-qarta, kaklik va qimiz.
Tayinlangan ko'lamida tayyorlashmabdi.

Chol

(orgadan)

Hay, zolimlar, shu o'lponni qaydan beraylik?
Bolalarning etidammi qazi qilaman?

Yasovul

Ularning shu qilg'ilig'i uchun jarima
Qoraqunga ko'chirishni buyurgan Mirzo.

Biz bu yerda Mirzomizga ovloq ochamiz.
Qani endi, bu qo'rani ko'raylik. Sen qoch!
Qo'ra eshididan hovliga kirmoqchi bo'ladilar.

Berdiyor
Hayvon-payyon bu eshikdan kirolmas, to'xta!

Yasovul
(*qilichni sug'urib*)
Qoch deyapman! Xudo urg'ur. Bu Mirzo amri!

Eshikdan bosib kirmoqchi bo'ladi. Berdiyor va yonidagi navkarlar ham qilichlarini sug'uradilar.

Berdiyor
Qayt, xumkalla!
Sendaqasin biz ko'p ko'rganmiz!
Kallang senga og'ir bo'lsa, kel bunga, qani!
Sahna orqasidan ot tuyoqlarining dukurlashi eshitiladi.

Yasovul
Nima deding? Xo'rozlanma! Shu zahotiyooq
Mirzom o'zi adabingni beradi. Shoshma!

Abdullatif o'z sipohlari bilan oldan tushib keladi.

Abdullatif
Bu qanaqa lapashanglik, nega to'xtading?
(*yasovulga qamchi o'qtaladi*)

Yasovul
Mirzo, axir nima qilay? Bu betamizlar
Tig' o'qtalib yo'llimizni to'sib turibdi.

Abdullatif
Bosavergin! Qarshilikka kimning haddi bor!

Payt kech bo'lgani uchun Ulug'bek hovlidagi daraxt tagida turib qo'llarini Sakkokiy va Ali Qushchingning yelkalariga qo'ygan holda o'zi ko'rimmasdan ko'chadagi bu hodisani kuzatib turadi.

Ulug'bek
(*Abdurazzoqqa sekin*)
Mana, qarang, bir odamning ikki chehrasi!

Abdullatif va yasovullar hovli eshididan bosturib kirmoqchi bo'lgan-larida Ulug'bek daraxt tagidan chiqib, ularga qarshi yuradi!

Mening haddim sig'ar shunga... G'azabingni tiy!

Abdullatif
Oh, sizmisiz, buzrukvorim! Uzr so'rayman!
Ha, bu menman!
Yaxshiki, bu o'zga emas, men!
Sabr bilan men shu joydan kuzatib turdim,
Sabr bilan, ammo dilda g'elayon bilan.
O'rmonlarda yo'lbarslar ham shu ishni qilmas,
Odamxo'rlik yo jinnilik?
Bu fe'ling nima?
Senga qarab o'yladimki, mana odamzod
Qanday ikki basharalik bo'lar ekan-a?

Abdullatif
Bu yog'iylar jazosini bermoqchi edim.
(*Ulug'bek*)

Ulug'bek
Kimga? Nega? Nechun? Nima ixtiyorning bor?

Abdullatif
Darhaqiqat, sizdan ruxsat olmoqchi edim,
Ammo, o'g'ri shabxun qilsa to'satdan uymi,

Shu baloni daf etgali, qiblai olam,
Yuqoridan farnoyishni kutmoqlik shartmi?

Ulug'bek
Qani o'g'ri? Sen elatni talamoq bo'lib,
Uni qasddan o'g'ri desang,
bu isbot emas.

Abdullatif
Bu qishloqning aholisi butkul qotillar!

Ulug'bek
Kimi ular qatl etibdi?

Abdullatif
Aytaman hozir.
Men, odatda, sultanatning holin bilay deb,
Qishloqlarni, tumanlarni kezib yuraman.
Bugun-erta bu qishloqdan Buxoro tomon
Borayotgan katta yo'ldan daraga tushsam,
Yo rabbim — ey, nima ko 'rdim, achinali hol:
Sayid Obid! Sayid Obid...

Sho'rlik multasib...
Bir terakning butog 'iga osig 'iq, badbaxt...
Samarqanddan uni surgun qilganingizga
Buxoroga ketayotgan bo 'lsa kerak u...
Bu qishloqning yoshidir bu,
bunga shubha yo'q!

Ulug'bek
Gumon bilan bir qishloqni kuydirasanni?
Ro'zg'orini talaysanni shuni vaj qilib?
Haydaysanni yerdan iudo qilib ularni?
(Abdurazzoqqa)
Ayting, bu ham insofdammi, janob tarixchi?
Chingizzonning qilmishlari bizga maqbulmi?

Abdullatif

Yo'q, bu qonli jafokorlik, hazrat shahriyor
Sayid Obid o'zi xalqqa ko'p ozor bergan.
Samarqandning bozoriga qatnab turganlar
Muhtasibdan talaygina tahqir ko'rganlar.
Bilib bo'lmas, qaysi qishloq, qaysi tumanot.
O'ch olgani uni ushlab terakka osgan.

Sakkokiy
Nima qipti? Martabasin batland qipti-da!

Berdiyor

(O'z-o'ziga)

Endi iblis jahammanning naq o'rtasida
Cho'g' qizigan temirlardan bosar taniga.

Ulug'bek

Bu taaddi bas qilinsin!

Darhol, tamoman
Qishloq ahli qaytarilsin uy-uylatiga!
Qaytarilsin mol-u anjom darhol va mutlaq.

Abdullatif

Amringizdan obrio'yimga isnod keladi!

Ulug'bek
Amrim emas, ko'p bema'ni kirdikoringdan.
Valiahdning har bir ishi el nazarida —
Sultanatning tadbiti deb baholanadi.
Shu qilningish axir bari xalqni qo'zg'aydi —
Menga qarshii, taxtiga qarshi,
davlatga qarshi.

Abdullatif
Beshta isqirt dehqonga ham o'tmasa hukmim
Valiahdklik mansabiga tushunolmadim...

Ulug'bek*(asabiy)*

Menga qara, bu yurt qay yurt?
Mengalib, qara qay yurt?

Abdullatif

Movarounnahr

Ulug'bek

Movarounnahr hukmdori kim ekan hozir?
Shahriyori falkaviqor hazrat Ulug'bek!

Ulug'bek
Ulug'bekni bilarkansan, u men bo'laman!
(sipohlarga)

Farmoyishim hayallamay bajo keltirin!

Sipohlar ketadi, sahna orqasida dehqonlarning rozilik nidolari

Sen aytdingki, fuqaroga jabr etolmasang,
Valiahddlik mansabiga tushunolmaysan.
Demak, xato tushunibsan o'z vazifangni.
Talay sirlar endi menga ayon bo'Imoqda.
Hirotdagi janjallassing, boshboshoqliging,
Buroqbekning etigidan topilgan noma,
U badbaxtning hiyla bilan o'ldinilishi,
Abbos kabi nobakorning g'oyib bo'lishi,
Xo'ja Ahror ig'volari, taxt da'volari,
Isyon, tuhmat,
talon-toroj,

hammasi bir gap.
Bulardan-ku, sen bexabar emassan, Mirzo!
Valiahddlik mansabiga tushunolmabsan,
Chunki senga bu lavozim kamlik qiladi.
Mayli, sening e'tirofing menga yetarli...
Bu mansabdan seni bugun xorij qilaman.

Abdullatif*(hayajonli)*

Buzrukvorim, naslingizni nobud qilasiz.
Axir bemor, aqli qosir Abdulazizmi
Ulug'bekning sultanatin davom ettirgay?
Taxt o'tadi begonalar qo'liga, sulton!

Ulug'bek

Taxt, temuriy xonadonin bobo merosi.
Chiqib qolar aqli raso biron temuriy.
Ne qilayki, Ulug'bekning surriyotiga
Bu taxt nasib emas ekan. Va yana bilki,
Mening hali o'Imoqqa ishtiyoqim yo'q.

Abdullatif

Bu zillatdan mening halok bo'lmog'im afza!

Xanjarini sug'urmoqchi bo'ladi, sipohlar qo'lidan ushlaydi.

Ulug'bek

Tuting uni! Jahlingsi bos! Sen sipohmisan?
Toj-u taxtga jazmanliging shunchalik zo'rmi?
Senga asli og'ir jazo bermoq kerakdi.
Ne qilayki, o'z pushtimdan kelgan farzandsan.
Ota mehri ushlab turar jazoning dastin.
Amir Temur himmatidin Ulug'bek so'zim:
Bugun oqshom senga yorliq yozib berilur.
Ertal bilan jo'nagaysan Balx qo'rg'oniga!
Minba'd o'sha viloyatda hokim bo'lasan.
Menden ruxsat bo'Imaguncha Balx qo'rg'onidan
Hech qayerga jilmaysan. Gapni uqdingmi?

Abdullatif

Uqdim... Lekin...

Ulug'bek
Lekin... Lekin...

TO'RINCHI KO'RINISH

Jomiy

Jahonpanoh, ulug' ustoz, buyuk alloma!
Bugun bunda jam bo'l shigan fan tolibari.
Yillar bo'yil imlingizdan, shafqatingizdan
Bahra olib xatmi-kutub qilgan yoshlardur.
Shamchiroqqa parvonalar uchib kelgandek,
Biz ham Hinddan, Xurosandan, Mulkı Koshg'ardan
Ashtaxondan, Bag'dod yoqdan, Ozarbayjondan
Kelgan edik madrasangiz ostonasiga.
Endi sizning nuringizidan bo'lib fayziyob
Ta'lim uchun, tadrис uchun "shukron" aytamiz.
Oliy ruxsat bo'lsa agar uyga qaytamiz.

Iroqlik talaba

Buqrot hakim deganlarki: umrlar qisqa,
Lokin san'at nafosati yashar abadiy.
Ammo, darhaq to'g'ri yozgan Mirzo Ullug'bek:
"O'lmay mangu yashar ekan fan haqiqati".

Eronlik talaba

Aksar dunyo zulmatlarda to'lg'onar ekan,
Samarcanda shu oshyon — yagona chiroq.
Baxtiyormiz tahsil shu madrasada.

Koshg'arlik talaba

Xatmi-kutub qilayotgan mullabachhalar,
Domullomiz Ullug'bekka ming umr, omin!

*Ulug'bek va Ali Qushchi kirib ketadi. Talabalar turib, bosh egib,
Ulug'bekning ishorasi bilan yana o'z joylariga o'tiradilar.*

Ulug'bek
Xayrli kun, yosh olimlar anjumaniga!

Abdurahmon Jomiy talabalar o'tasidan turib Ulug'bek huzuriga
borib ta'zim qiladi.

Ali Qushchi
Ushbu mullo Jomiy, o'zi Hirot shahridan!

Ulug'bek
Mullo Jomiy?! Abdurahmon?! Sizni bilaman.
Alalxusus, men rahmatlik Qozizodadan
Eshitganman, bir zamonda ta'rifingizni.
Sizni hakim, aqli ravshan, dono derdi u.

Ulug'bek
Ilm yo'lida himmatningiz muborak bo'lisin!
Lekin, sizga ketish oldi ba'zi mastahat:
Avval shuki, ilm nurin xalqqa eltishda
Tushunarli tilda aytning maromingizni.
Ilmi hikmat, riyoziyot, falakiyotning.
Tabobatning, jug' rofiyaning hamma dasturi
Insonlikka naf qilmasa bu katta nuqson.
Sizga misol: o'ttiz yilcha bundan muqaddam,
Birinchi dars o'qib berish sharofatini —
Men, mavjilno Xorazmiyga topshirgan edim,
Chunki menga oshkor edi bilimdonligi.
To'qson olim, yuz talaba huzurida u
Ko'p bama ni, serfazilat kalomlar aytdi.
Ammo... uning hikmatomuz kalomlarini
Faqat bir men, birda Qozizodadan o'zga
Hech bir kimsa tushunmad! Shu uchun sizlar
Hazar eting takallufdan, g'aliz so'zlardan.
Ilm inson ko'zin ochar, qulog'in ochar.

Fan miyaga idrok bilan yorug'ni sochar.
Fan miyaga kirgan joyda, biling, muhaqqaq,
Na shaytonga o'rinn bordir va na folbinga.

Alalxusus abadiydur hikmat fanlari.
Daqiq fanlar tanishtirar bizzga dunyonи.
Koinotga ochib berar es derazasin,
Olib tashlar niqoblarini sirlar yuzidan:
Zamon o'tar, vahshat bitar, yomonlik ketar,
O'zgaradi dunyomizda dinlar, millatlar,
O'zgaradi millatlarda tillar, odatlар,
Ammo fanning shavkatiga cho'kmaydi g'ubor.
Yana shuni unutmangki, ilm-u ma'rifat
Xudovandning dargohidan bizga inoyat.
U olimming shuurida omonat, xolos.
Uni fisq-u fujur uchun qo'llamoq gunoh,
Yaxshilikka, taraqqiya xizmat etgay u.
Men sizlarga aytadigan nasihatim shu.
Xotirlarda saqlanurni shu o'gitilarim?

Jomiy
Albat, ustoz, pandlaringiz yodda saqlanur,
Kitoblarning zarhallangan sarlavhasidek.

Ulug'bek
Endi mendan tuhfa bo'lsin har biringiza —
Shu jadvallar! Ali Qushchi, tarqatib bergin!

Ali Qushchi
katta ipak qog'ozlarga ko'chirilgan jadvallarni talab
balarga taqsimlab beradi.

Madrasada yo olimlar anjumanida
Menga yetar shu: mudarris Mirzo Ulug'bek!
Ali Qushchi
Ustoz, uzrim qabul eting, chunki fanda ham
Bizlar sizni olimlarga sulton bilamiz.
Hamma
Aynan to'g'ri! Biz hammamiz shunga qoyilmiz!
Ulug'bek
Bu fikrda allaqanday xatoliklar bor.
Chunki, sulton buyurradi, majbur etadi.
Iazolaydi, goho esa qatl ettiradi.
Ammo, ilm olamida buyurib bo'lmas.
Chunki fanning o'z shohi bor, o'z dargohi bor.
Uning shohi — haqiqatni topmoq qonumi.
Dargohidir kitoblarning muqovalari.
Endi, hammang eshitting'lar: shu jadvallarda
Tarixlarning tafovuti, tanosibi bor,
Va birini ikkinchiga ko'chimoq tarzi.
Biz dunyoning bino bo'lgan chog'in bilmaymiz.
Ammo inson alisboni ixtiro etib,
Tarix yozmoq hunarini egallaganda,
Hodisalar silsilasini bog'lamoq uchun
Tarixboshi belgilabdi — yillar sanog'in.
Turli dinlar va millatlar turlicha olgan.
Hijriy tarix boshlanadi payg'ambarimiz.
Muhammadning Madinaga ko'chgan yillardan.
Rumiy tarix yunonlarda qabul etilgan,
Iskandari Zulqarnayning vafotidan so'ng
O'n ikki yil o'tganida boshlanibdi ul.
Eroniylar tarixboshi deya sanaydi
Yazdi Jurdning shoh taxtiga chiqqan kunini.
Turkmanlarda maqbul ekan Malikiy tarix,
Jaloliddin Malikshohning nomiga bog'liq.

(*mutoyiba bilan*)
Ali Qushchi, men bir-ikki senga aytgandim,
Tag'in seni bu xususda ogohlantiray.
Ilm-u fanda shoh-u grado tafovuti yo'q.
Men devonda va o'lkada sultonman, xolos.

Boshqa-boshqa tarixlar bor Chinda, Farangda.
Bu xil-xillik fikrimizni chalkashtiradi.

Ayni bitta voqeani turli tillarda
Har tarixchi har raqamda bayon etadi.

Voqeя bir, yillar boshqa, tasavvur chigal,
Millatlarning o'rtasida anglashmovchilik.
Biz uzoq vaqt bu farqlarni qiyoslab ko'rdik,
Istadirki, g'ov to'smasin do'stikhning yo'lin.
Qo'lingizda ushbhu jadval — bu ish samari
Bu sohadra bizga doim rahnamo bo'ldi,
Abu Rayhon Beruniyning yoqqan mash'ali.
U buyuk zot — Xorazmning nurafshon aqli
Nomi bilan Vatanimiz faxr etsa haqli.
"Al-osori boqiya"da yozganlarini

Eesda tutib biz hal etdik bu muammoni.
Bu jadvalda turli-tuman yillar sanog'in
Bir-biriga aylantirmoq tarzin, usulin
Raqamlarda hisobladik, osonlashtirdik.
Bular sizga ishingizda qo'llanma bo'lsin.
Misol uchun: Abu Ali ibn Sinoning
Tug'ilgani, hijriy uch yuz yetmishinchchi yil,
Safar oyi ekanimi yaxshi bilasiz!

Xo'sh, rumlarning tarixida bu qaysi yildir?
Mana jadval! Shu xonadan topasiz javob.
Yoxud bizning Samargandni hoqon Chingizzxon
Olti yuz-u o'n oltinchi hijriyda bosib,
Yerga yakson etganligi bizlarga ma'lum.
Xo'sh, chinlilar tarixida bu qaysi yildur?
Mama jadval! Shu xonadan topasiz javob.
Ko'rasizki, biz tarixni, riyoziyotni
Birlashtirib shu mushkulni hal eta oldik.
Nega shunday? Chunki uzoq yillar mobayni
Biz hisoblab quyosh kumin aniqlay oldik.
Zero, barcha eski sanoq xatolik ekan.
Har yilda bor uch yuz oltmish beshta to'liq kun,
Yana to'qqiz daqqa-yu olti soniya.

Ana, hozir hijriy yilni shunga zarb eting!

Endi nima qilmoq kerak?

Berdiyor kirib kelib Ulug'bek qo'lliga paygir topshiradi. Ulug'bek xatni olib tez ko'zdan kechiradi. Ali Qushchini imlab, xatni unga ko'r satadi.

Endi nima qilmoq kerak?.. Mavlono Ali
Masalaning yechimini sizga uqtirar.
G'oyat og 'ir kulfat tushdi davlat boshiga.
Menga yana xatarli yo'1... Sizlarga oq yo'1!

Tez qadamlar bilan darsxonadan chiqib ketadi. Orqasidan Berdiyor ham ergashib boradi. Ali Qushchi chuquq o'ya toladi. Talabalar hayron.

Jomiy

Ne hodisa ro'y beribdi, ayteng mavlono?
Nega shuncha iztirobda ustoz Ulug'bek?
Yo bu sirmi?

Ali Qushchi

Afsus, buni yashirib bo'lmas.
Turkistonda zo'r falokat yuz bergan, do'star.
Abdullahif katta isyon ko'targan Balxda!

Hamma

(hayrat va tashvish bilan)

Ha?!

P A R D A

BESHINCHI KO'RINISH

Parda oldi.

Chap tomonдан sahna oldiga Ulug'bek va Berdiyor chiqib keladilar. O'ng tomonдан esa Shayxulislom, Bek Arslon, Farmonshoh Qo'rchi kelib, Ulug'bekka tenglashganda ta'zin qiladilar.

Ulug'bek

Nomard o'g'il kirdikorin eshitdingizmi?

Uchalasi
Shunday, sulton!

Ulug'bek
Shayxulislom, fatvo ne bo'ldi?
Shu pallada Xo'ja Ahror eng yirtqich g'anim,
Uni darhol panjalarin qirqmoqlik lozim.

Shayxulislom
Sulton, fatvo tayyor! Ammo...

Ulug'bek
Nimasi ammo?

Shayxulislom
Shu kechasi u besh-o'nta muridi bilan
Xufiya holda chiqib ketgan Balx tomoniga.

Ulug'bek
Nima? Nima? Siz ko'misiz, Farmonshoh Qo'rchi?
Nechuk bundan dorug'a ham bexabar qolsa?!

Farmonshoh
Davlapanoh, siz bir qoshiq qonimdan keching!
Balx isyonin endigina biz bilib qoldik.
Eshon esa kecha ketgan aftidan uning
Ilgaritdan bu fitnadan xabari bo'lgan.

Ulug'bek
Eh, lapashang!
(Bek Arslonga)
Siz eshonning ketidan darhol
Chaqqon, abjur yigitlardan bir to'da yo'llang!
Shayxulislom, endi sizga safar mos kelmas,
Poytaxtida qolib xalqqa dalda beringiz.
Farmonshoh, siz to'zim-tartib saqlang shaharda!

Ammo endi bo'sh kelsangiz, afv etmayman.
Berdiyor, sen saroydagi tinchlikka ko'z bo'l!
Siz bilan biz erta bilan sardor Bek Arslon
Lashkar tortib otlanamiz! Ey, toleyi madad!

Parda ochilganda Samarcand darvozasini ko'ramiz. Oqshom chog'i
Ulug'bek Damashq qishlog'idagi qattiq jiangda yengilgan lashkarlarning
qolgan-qutqani bilan qayтиb Samarcandga kirmoqchi, ammo darvozalar
berk. Ulug'bek bir tosh ustida ma'yus o'tiribdi. Uning yonida Bek Arslon
va boshqa sipohiyilar tikka turganlar, tepasida yonayotgan mash'ahlari
bir mahram tutib turgan. Samarcand qo'rg'onining ustida shahar soqchilari ko'rindi. Ular o'rtasida poytaxt dorug'asi **Farmonshoh** Qo'rchi ham bor. Parda ochilganda **Bek Arslon** bilan **Farmonshoh** o'rtasida
bo'lib turgan muzokalarlarning davomi eshitildi.

Farmonshoh

(qalqonni yuzga tutib)

Ocholmayman darvozani, sardor Bek Arslon!
Bek Arslon
Bu — janobi shahriyorga ko'mamaklik-ku!

Farmonshoh

Yo'q, bu zamон taqozosin anglaganligim.
Ketib qoldi Ulug'bekning omadi, taxti.
Yangi sulton kelayotir anovi yo'ldan.
Anu Damashq qishlog'ida Abdullatif xon.
Toqatim yo'q u janobdan jazo olmoqqa.
Birdan uzoqdan uzilib kelgan bir o'q Ulug'bek yonida turgan
sipohning ko'kragiya sanchildi.

Sipoh

(yiqila turib)
Ular sizni mo'ljalabdi, sizni, shahriyor.
Mash'allarni o'chirsinlar, Alvido, dunyo!
Sipoh o'ladi. Mash'al dathol o'chiriladi. O'rta tag'in ham xiralanib
ketadi.

Bek Arslon

Ular qasdi siz ekansiz, qiblayi olam.
Chopar shoshilib keladi.

Chopar

Yov ko'prikkha kela solib hamla qilmoqda.
Sipohiyalar jon ayamay tursa-da, sulton,
Istehkom ko'p bardosh bermas. Yov qo'shini ko'p.

Ulug'bek

(*o'rnidan turib*)

Nomard o'g'il bilganimi qila bersin, qo'y!
Siz ko'prikkha saqlab turing, so'nggi damgacha!
Sipohlarg'a amrim so'yla: agar darvoza
Tez fursatda ochilmasa o'zim qaytaman,
— Bor kuch bilan yov ustiga hamla etaman.
Chopar chopib ketadi.

Chopar

A'llohzrat, yov qo'shini o'tai ko'prikkha!

Sipohiyalar nobud bo'ldi...

Ulug'bek

Oh, tolesiz yurt!

Badnafslarning fitmasidan quladi davlat!
Endi jangda shahid bo'lib bosh qo'ymoq a'lo!
Sardor, qani, uyushtiring qolgan lashkarni!
Hay, ontiga sodiq qolgan mardlardan kim bor?

Shu asnodda qo'rg'on tepasida Firuza, yonida kanizi va Berdiyor paydo bo'lib qoladilar.

Chopar

Tole bizdan yuz o'girdi, u bilan birga
Yuz o'girdi men ishongan noiblari ham.
(*qo'r'g'ondag'i Farmonshohga*)
Eshit, Qo'rchi! Bobom Temur poytaxtida sen
Men topshirgan omonatga xiyonat qilding.
O'z egasini qopgan ko'ppak — quturgan itdur,
It o'limi birla o'lgay quturgan ko'ppak!
Seni haydab daf etaman dorug'alikdan!

Bek Arslon
Posbonlar, Ulug'bekdur yurtning sulton.
Bu xoimni yo'qotingiz, har biringizga —
Shahriyordan in'om tushar shu xizmat uchun!
Posbonlar o'rtasida bezotalki.

Farmonshoh

Qimirlamang, qulbachchalar, qirib tashhayman!
(*qilichining dastasini ushlaydi*)
Sen, Bek Arslon, sobiq sardor, hovliqma hali,

Senga sobiq shohing bilan, ko'p o'may, tezdan
In'omlarni yetkazadi Abdullatif xon!
Chopar chopib keladi.

Chopar

A'llohzrat, yov qo'shini o'tai ko'prikkha!

Sipohiyalar nobud bo'ldi...

Ulug'bek

Oh, tolesiz yurt!

Badnafslarning fitmasidan quladi davlat!
Endi jangda shahid bo'lib bosh qo'ymoq a'lo!
Sardor, qani, uyushtiring qolgan lashkarni!
Hay, ontiga sodiq qolgan mardlardan kim bor?

Shu asnodda qo'rg'on tepasida Firuza, yonida kanizi va Berdiyor paydo bo'lib qoladilar.

Firuza

Valine'mat, bizlar bormiz!

(*qo'lidagi qog'ozni Farmonshohga ko'rsatib*)

Farmonshoh Qo'rchi!
Mana sizga, darhol shar'iy fatvoni o'qing!
Shayxulislom Burhoniddin imzosi, muhri.
Shahriyording mushkul holda bo'lganin bilgach,
Fatvo yozib buyurdilar: — Ochilsin qopqa,
Va shaharga kiritilsin sulton Ulug'bek!

Chunki, shar'an va qonunan udir hukmdor.

Farmonshoh

Shayxulislom Burhoniddin menga buyurolmash,
Uning o'zi bedin shohning muxlisi, bedin.
Men qo'l berib, keltinganman be'at shu kunda —
Ulug'eshon Ubaydullo Ahror Xo'jaga.
O'zlari ham Abdullatif Mirzoga hamroh,
Damashq yoqdan inshoolloh tezdan kelurlar.

Bek Arslon
U badkirdor pirmi aytma, u qallob eshon.
Sipohlarim unga yetay-yetay deganda,
Qayiq tushib qochib kegan Amudaryodan,
Pirming o'zi g'oyib bo'lsa, hukmi ham bekor.

Farmonshoh

Eshonimiz g'ozillarning murshidi, piri!
Har kimdaki quvvat bo'lsa, shariat unda.
Shayxulislom hukmi esa, ojiz va soqit,
Fatvosi ham, xutbasi ham men uchun bir pul!
(*Fatvoni Firuzaning qo'llidan olib yo'qotmaqchi bo'ladi*)

Bir siphoh

Hay, shallaqi, qanday jonsan, hay falak urg'an!
Qal'a ichidan ovoz

Shar'i sharif toptaysamni, telba, quturgan!
Qal'a ichidan darveshlar

Yo rabbano, qalandar,
Dar xor-u xas barobar.
Darvozayi ajalga
Shoh-u gado barobar!

Berdiyor

(*ayyorlik bilan*)
Barakalla, barakalla, Farmonshoh noib!
Ziyrankilging-piyrakliging juda joyida!
(*unga yaqinlashadi*)

Farmonshoh

(*ehliyotkorona*)
Senga nima? Sen-ku, axir ana ulardan.

Berdiyor
Yo'q, aynadim. Senga qoyil, senga qo'llberdim.
Barakalla! Sendan menga xizmat tegsa bas!
Barakalla! Quchib olay sendek botimi!

Bek Arslon

Hay, Berdiyor! Podshohingga paymoning shumi?

Berdiyor
Ha, Bek Arslon, paymonim shu!
(*Farmonshohga*)

Ha, barakalla!

(*Farmonshohni quchoqlaydi va Farmonshoh uni quchmoqchi bo'l-ganda xanjar tiqb Farmonshohni o'ldiradi*)

Qal'a ichidan ovoz

Balli, o'g'lon! U lainni do'zaxga jo'nat!
Farmonshoh qal'a orqasiga yiqiladi. Qo'rg'on ichidagi posbonlar dod-voy solib qochib ketadilar.

Firuza

Ustoz, ustoz, ko'zlar oydin, ochilsin qopqa!

Qal'a orqasida quvonch nidolari. Darvoza tambalari orqadan jaranglaydi. Darvoza tavaqqlari ochiladi.

Bek Arslon

Yuring sulton, bu Samarcand o'z poytaxtingiz!
Jadal bo'ling, ana yaqin keldi ganimlar!

Ulug'bek

(*darvozadan kira turib*)

Salom senga Samarcandim, dorilssaltanat!

O'z kishilari bilan ichkariga kirib ketadi. Darvoza dарhol yopiladi. Qo'rg'on tepasida Firuza g'oyib bo'ladi. Berdiyor va bir necha sipoхlar qo'rg'on tepasida qoladi. Yaqinlashayotgan isyonchilarning hayqiriglari eshitiladi.

Isyonchilar

Urho-ur! Urho-ur!
Berdiyor

(*ularni masxara qilib*)
Urho, urib bo'libsan! Urmay tur, hoy qurg'ur!
Shundan ko'ra, sen ko'ppak, hurho-hur!

5-PARDA

BIRINCHI KO'RINISH

Samarqand. Ko'ksaroy. Kechki payt. Ulug'bekning devonxonasi.
Shifida qandillar. Sakkokiy va Abdurazzoq shatranj o'ynab o'tiribdi.
Bular yonida Ali Qushchi tikka turib qarab turibdi.

Abdurazzoq

(kulib)

Mana biz ham filni yurdik. Sizdan, mavlono!

Ali Qushchi

(kulib)

Mavlononing yo'llari berk, shohlari asir.
Sakkokiy
E, ko'rnabman, pistirmada ekan ruhingiz!

Abdurazzoq

Ko'rmaysiz-da, shatranj uchun tajriba kerak!
Buni so'rang tarixchidan... Shoirlar esa,
Hadis emas, sezgi bilan ish qiladilar.

Ali Qushchi

Yo'q, shatranjda ish beradi olimming zehni.
Ichkaridan Ulug'bek chiqib keladi.

Ulug'bek

(hazilona)

Shatranjbozlar tek turmaydi.
(*shatranja qarab*)
O'ho'-o', Sakkokiy,
Shohingizing jiladigan yo'li qolmabdi.
Shu bechora endi taslim bo'lmosg'i lozim.
(*jiddiy*)
Ko'rasizmi, aziz do'stlar, shu charx gardishin,
Taxtlar dengiz tug'yonida qayiqqa o'xshar.
Bugun shohsan, ertaga-chi, zanjirband asir.

Bugun ioying baland dargoh, boshingda toj bor,
Ertaga-chi, boshing balki baland dordadir.
Ana ko'ring: bir tasodif, nogoh bir jur'at
Halokatdan najot berdi menga ul oqshom.
Firuzaning topqirrili, Berdiyor tig'i —
Bo'lmaganda qirq yil taxtda o'tirgan sulton
Beboshlarning fitnasiga bo'lardi qurban.
Biz-ku, u kun Samarqandga kiroldik omon.
Lokin, hozir xalqning kuni qamalda yomon.
Bilamanki, qahatchilik bu elni ezar,
Ko'chalarda qonsiragan Azroil kezar.
Shu iztirob qiyognog'ida, tunda uyqu yo'q,
Ko'z oldimga kelib turar ochlar sharpasi.

Devonbegi kirib keladi.

Devonbegi

A'lolahzrat, mahdi ulyo Gavharshodbegin
Huzurlariga kelmoqchilar!

Ulug'bek

Ayting, kelsinlar!

Abdurazzoq va Ali Qushchi
Bizga ruxsat!
(chiqadilar)

Sakkokiy
Davlatpanoh, lutfan ijozat!
Gustohligim kechirsinlar shu so'zim uchun.
Firuzaoy ko'p qiyndi nazardan tushib.
Bir soyaday kezib yurar atrof-atrofa.
Bir gunohsiz gunohkorday, umidsiz qushday.
Uning sizga sadoqati ochiq, ayon-ku!
Meni ko'rib, Bog'i Chinor yo'lida kecha
Binafshaday boshin bukib ko'z yoshi to'kdi.
Menga aytdi: siz-ku, shoir, hassos bir odam,

Ishq to'g'rali ko'p yozgansiz, ammo o'zingiz
Chin yurakdan sevgannmisiz, hech kuygamnisiz?
Yo'qsa, nega haqimda siz og'iz ochmaysiz?
Yana aytdi. — Bo'stonidan quvilgan qumri
Men bo'laman, umrim o'tar darbadar, giryon.
Taajibki, bu ayolda bor sher jur'ati,
Tag'in ohu nozikligi... Ha, zaifa-da!

Ulug'bek

Xo'p bilaman, uning holin, mehribon shoir.
Ammo lozim shu bo'htoning fosh etilishi.
Shuning uchun u shum Abbas mutlaq ushlanib,
Ig' vosini zimmasisga olishi kerak!
Aks holda shu qamalda, shu qora kunda,
Firuzani olib kelsak, el nazarida —
Aza chog'i yalla tortib o'ynaganday gap.
Eh, bo'lmasa, sizga ovda aytganimdek,
Firuzasiz yurak-bag'rim qonar hamisha.

Gavharshod kirib keladi. Sakkokiy ta'zim bilan chiqadi.

Gavharshod

Mirzo, barbob bo'layapti butun Samarcand.
Xotin-xalaj och-yalang'och, gangib yuribdi.
Uch oydan ham oshib ketdi qamal, arosat.
Bu holatni ko'rmoqlikka dilm chidamas.
Meni endi jo'natsangiz Hirot shahriga,
Qolgan umrim zora o'tgay osoyishlikda.

Ulug'bek

Validajon, yo'llar xatar, zamona betinch,
Xurosonga borib yetmoq oson gap emas.
Samarcandning qal'asidan qanday chiqasiz.
Abdullatif sizni omon o'tkazadimi?

Gavharshod

Bunga qanday botinadi mening nabiram?

Ulug'bek

Siz parvarish qilgan sizning nabirangiz-u —
Ammo sizni qamab qo'yar, bunga shubba yo'q.

Gavharshod

Nega axir?

Ulug'bek

Chunki aniq biladiki u,—
Sizning suygan arzandangiz Alouddavla.
Uni podshoh ko'rmoqlikdir chin armoningiz.
Shu uchun ham o'tkazmaydi sizni Hirotga.

Gavharshod

Yo'q, u bunga jur'at qilmas, iymanar biroz.

Ulug'bek

Nishopurda sizni, xuddi shu Abdullatif
Qamaganin unutmagan bo'isangiz kerak.
Ne chora bor? Tarbiyangiz nevasidir u!
Men shularni aytmas edim sizga volda.
Ammo ogoh qilay dedim safar xavfidan...

Gavharshod

Xato qilib kechiring deb uzr so'radi,
Yoshlikdir deb afv etdim, umutib qo'ydim.

Ulug'bek

Men ham uning uzrin tinglab, kechiraverib,
Axir shunday bir baloga yuzma-yuz keldim.
Aniq, uning har bir uzri, har bir tavbasi
Yangi-yangi ig'volarga debocha ekan.

Gavharshod

Men namozni kanda qilmay, borayin endi.
Parvardigor mo'minlarga qilsin shafoat!

Ulug'bek

(xonada aylanib yurib)

Meni tug'gan ona bundoq! Mendan tug'ilgan —
O'g'il undoq! Ey, kajraftor falak, uyalgin!
Devonbegi kiradi.

Devonbegi

Davlatpanoh, hech aytgani tiliim bormaydi.

Yana vakil kelib qoldi "haligillardan".
Ularga men nima aytay?

Ahvol ko'p og'ir.

Xaloyiq och, el norozi, yov qo'li baland.
Kechalari shahar ichra talon-tarojlar.Hatto hazrat Shahriyorning sha'niga doir
Goho nobop qiyqiriqlar chiqib turibdi.

Butun shahar go'yo qafas ichida asir.

Kim shaharga bir zaxira keltiray desa,
Ushlab burun-qulog'ini kesadi ular.Kim shahardan chiqay desa, qo'lga tushirib,
Po'pisaga baland dorga osadi ular.

Uch oy o'idi, ammo ular ketmoqchi emas.

Aholining to'lib-toshdi sabr kosasi.

Sulton, tag'in bir falokat chiqib qolmasin!

Ulug'bek

Kim ekan u, "haligilar" yuborgan vakil!

Devonbegi

Qozi Miskin.

Ulug'bekTopib olgan qozig'in Qozi.
Xo'sh, qanaqa talab bilan kelgan shu vakil?**Devonbegi**

Talablarni o'zi kirib aytmoqchi Qozi.

Ulug'bekYo'q kirmasin, ko'mayin ham uning aftini.
Ostonada turib aysin!

Devonbegi chiqadi. **Qozi Miskin** eshik orqasidan gapiradi. **Devonbegi** eshik o'rtasida to'xtab turadi.

Qozi Miskin

(orqadan)

Mirzo Ulug'bek!

Parvardigor amri bilan shu zamona
Davlat qushi Abdullatif boshiga qo'ndi.
Shahzodayi juvontaxning takliflari shu:
Yo Samarqand darvozasi ochilib kushod
Sultanatdan voz kechadi sulton Ulug'bek,
Yoki tag'in shiddatlanib bosqin va qurshov,
Urush davom etgusidir beayov, berahm.
Qahatchilik sirtmog'iga solinib poytaxt,
Azroilning hosiloti oshadi behad.

Ulug'bek

Qozi, siz-ku, bir vaqt to'g'ri odam edingiz,
Endi nechun Azroilga shuncha xayrixoh.
Mayli, mayli, taqozoyi zamon ekan shu.
Talablarga javobimni sizlar ertaga,
Olasizlar shu dargonda, namoz peshinda.

(devonbegiga)

Jo'natingiz! So'ogra bunga chaqiring darhol
Koshonada hozir bo'lgan davram do'stilarin.**Devonbegi**

Qozi Miskin.

Yov nayzasin ko'kragimga o'qtalib turib,
"Hami, yo'qmi?" deb turibdi shu kun, shu kezda.
Samarqandning ahollisi, yuz mingta kishi
Hayot-mamnot taqdirini kutar bir so'zda.
Zamonaning zayli bilan o'zgarib tole,
Haqqa — nohaq, mardga — nomard qildi ustunlik.

Dunyodagi binolarning eng liqildog'i
Temuring shu koshonasi, Ko'ksaroy ekan!

Shayxulislom, Abdurazzoq, Bek Arslon, Ali Qushchi, Sakko-
kiy va Devonbegi kirib keladilar.

Ahvolumiz sizga ma'lum, aziz ahboblar:
Shahrimizni dushman temir halqaga olgan.
Yo qamalga bardosh berib, ochidan o'lmoq,
Poytaxtni mozoriston holiga solmoq,
Yoki tojni qo'ldan berib, taxtdan voz kechib,
Shuncha xalqni halokaldan qutoqarib olmoq!
Nima deysiz bu to g'ida, sinashta do'stlar?

Shayxulislom

Bayon qilay ojizona mulohazanni:
Fitna-fasod yurti bo'lди Mavaroumnahr.
Bu hammasi inqirozning ibtidosidir.
Qachon tungar? Tugaydimi bu fisq-u fujur?
Yetmish yashar cholning ko'zi bu ishda ojiz.
Fikrim shukri, chora topib eson va omon.
Bu diyordan chiqib ketmoq, jomni saqlamoq.
Zamon o'tib ravshan bo'lса yurting kunduzi,
Boz poytaxtga, inshoolloh, qaytib kelarsiz.

Ulug'bek Abdurazzoqqa ishora qilib, fikrini so'raydi.

Abdurazzoq

Tarixlarda o'qigannimiz va bilamizki,
Bir xil dahshat yuz berganki, buzrukvorlarga,
Bizning qamal o'shalarga nisbatan bayram.
Ammo ular aynimagan qilgan azmidan.
Sohibqiron Amir Temur qochoqlik chog'i
Murg'ob yoqda turkmanlarning qo'liga tushib,
Bir quduqda o'tirganda oltmish ikki kun
U noumid bo'lgan emas, jazm etib chiqqan.
O'zi chiqib u quduqdan amri haq ila
O'zin barcha dushmanlарin quduqqa tiqqan.

Siz ham chidang, har kurashida qurban muhaqqaq.
Xudo sobir degan gapda ma'no bor, alhaq.

Ulug'bek Arslonga ishora qiladi.

Bek Arslon

Taslim bo'lmoq ma'qul emas, qiblayi olam.
Birz poytaxtini isyonchilar qo'liga bersak,
Kamar bog'lab yurganimiz bekor ekan-da...
Bahodirlirk sha'ni bilan shahidlik mutlaq
Tizza cho'kib yashamoqdan ming bor yaxshiroq.

Ulug'bek

Nima deydi shu holatga mehribon shoir?
Nima deydi shu holatga mehribon shoir?

Sakkokiy

Faqat sulton hal qilolur taxt masalasin.
Bizga o'xshash bandalarning bunga haqqi yo'q!
Lutfan, sizga chin ko'ngildan iltimosim bor!
Qaroringiz ne bo'lса-da, aziz shahriyor,
Vaqt asrasin Ulug'bekning yulduz jadvalin.
Saqlagandek elning tili shoir g'azalin.

Ulug'bek

Ali Qushchi, aziz do'stim, sen nima deysan?
Bilamanki, sen iyumanmay, rostin so'zlaysan.

Ali Qushchi

Osmanni va zamoni kuzatlib turgan
Valine'mat ustozimga nima der edim.
Agar g'anim qasam ichib ishontiolsa,
Olimalni qiynamasa, quvg'in qilmasa,
Oxonaga ag'darmasa madrasamizni,
Girdibodga sovurmasa rasadxonani,
Tandirlarda kuydirmasa fan kitoblarin,
Fan yo'lida saltanatdan kechgani yaxshi,
Shu zamonda siyosatning avzoyi vahshiy.

Ulug'bek Devonbegiga ishora qiladi.

Devonbegi

Iloj qilib bir murosa topolsak ma'qil.
Sultonlikda gohi lozim qilich bilan dor,
Gohi esa yovni quchib, bo'lmoqlik dildor.
Hokimiyat jilovlari raqibga o'tsa,
Keyin davlat otin minmoq bo'lmas tuyassar.

Ulug'bek

Hammangizning ra'yingizni tингладим, do'sтлар
Hammangizga astoydil arzi tashakkur!
Bilamanki, gaplarining qayg'usi, xolos.
Do'sтлик bilan sadoqatning qayg'usi, xolos.
Yolg'iz qolib bu pandiarini tortib ko'raman
Tafakkurning g'oyat hassos tarozusida.
Endi ruxsat, hammangizga – xayrli kecha.
Mening yana bir kengashim bordur, buzrukvor,
Men u bilan shu tundayoq kengashmoqchiman!
(hamma turib chiqadi)

Tomirinda oqar ekan Temurning qoni,
Nafas olib turgan shahrim, bobom poytaxti.
Men yuz yillik xonadonning muqaddarotin
Yolg'iz o'zim hal qilmoqqa ixtiyorim yo'q.
Mamlakatning egasi u, mezboni udir.
Daydi yillar suruvining cho'poni udir.
Shu alpozda nima derkan?

P A R D A

Mahramlar chiqadi

Shu — qirq yillik andishaga alamlı yakun.
Ketib qoldi zamonađan diyonat, rostlik.
Mudhish bir jar yoqasida turmish mamlakat.
Zulmatli tun qo'nayotir yurtning ufqiga.
Bobo Temur, omonating saqlayolmadik.
Avlodlaring chiqib qoldi g'oyat noqobil.
Bobo Temur, tirigingda o'zing va so'zing
Ulkankilda sig'mas edi shu yer yuziga,
Endi nega maydalandi Temur urug'i.
Endi nega razillashdi hokimlar ruhi.
Endi nega mirzolarning ko'zları ojiz,
Qulog'i kar, idroki bo'sh, iroda kuchsiz.

Yov nayzasin ko'kragini ga o'qalди yovuz,
Bu yov sening evarangdir, g'oyat benomus.
(mash'a'l sekin o'chib boradi)
Men u yovni ko'kragini parvarish etdim.
O'g'il dedim, nuqsonlarin undan berkitdim.
Yaxshi so'zning urug'idan yaxshilik kutdim.
Tarbiyada talabchanlik shartin unutdim.
Xo'p mehribon ota bo'ldim, shafqatl sulton.
Ma'rifatning dushmanlari misoli shayton.
Vasvasalab qitiqladi uning tomirin.
Shonparastlik, takabburlik kekin, g'ururin.
Otalarining musibati shundaki, ular
Farzandlarin boridan ham yaxshi deb o'ylar.
Maslahat ber, menga bobo!

(qabr yoniga o'tiradi)

G'oyat muhtojman!
Men, o'smirlilik chog'larmida panding esimda.
Ikkilanmay sen har kimga yo'l-yo'riq berib,
Buyurarding, jazolarding yoki silarding.
Bu kulfatliz zamonađa bergin maslahat,
Tag'in lashkar, tag'in jang-u, yarog'-aslsha!
Oxiratga qadar shumi, sultonlar ishi?
Temuriylar manglayiga bitilgan shumi?

IKKINCHI KO'RINISH

Samarqand. Go'ri Amir. Temurning maqbarasi. Ulug'bek kirib keladi, orqasida mash'al ko'targan ikki mahram.

Ulug'bek

(mahramlarga)
Siz mash'alni shunga tikib eslikda kuting!

Tomirimda garchi yurar Temurning qoni,
 Ammo menida Temurbekning shaddodligi yo'q.
 Men hech qanday tahlikadan hayiqmayman, yo'q
 Men o'llinni hokim emas, qil deb sanayman.
 Uni falak ovchisining ko'ppagi deyman.
 Turkistonda garchi menga teng keladigan
 Mergan yo'g'-u, ammo urush ta'bimga yoqmas.
 Jang, ma'raka, odam qirish, safarda yurish.
 Barakatning bog'larini kesib kuydirish —
 Sening sevgan nabirangga, menga iztirob.
 Bobo Temur, bu jumbog'ga o'zing ber javob:
 Shohlar burchi yashatmoqmi yoki o'lummi?
 Quvvat nima? Muruvvatmi yoki zulmimi?

Ulug'bek qabrga engashib chuqur xayolga botadi. Birdan Temur
 tobut qarsillab ochilgan eshitildi. Sag'anani tutun bosib, mash'a
 o'chadi. Shu paytda sahnaning orqa pardasida soyalar qo'yndida bir ba-
 landilikda Amir Temuring mujassam qonmati paydo bo'ladi. Uning qi-
 yofasi haybatli. Qo'lidagi uzun qilichini havoda o'ymatib, qahqaha urib
 yuboradi.

Ulug'bek qabrga engashib chuqur xayolga botadi. Birdan Temur
 tobut qarsillab ochilgan eshitildi. Sag'anani tutun bosib, mash'a
 o'chadi. Shu paytda sahnaning orqa pardasida soyalar qo'yndida bir ba-
 landilikda Amir Temuring mujassam qonmati paydo bo'ladi. Uning qi-
 yofasi haybatli. Qo'lidagi uzun qilichini havoda o'ymatib, qahqaha urib
 yuboradi.

Temur arvohi

Urho-urho! Yog'i qochdi, yo Olloh, urho!
 Yer yuzida buzilganga o'xshar intizom.
 Avlodimdan Sohibqiron chiqolgan kim bor?
 Eh, janglarning dag'dag'asi, gashti qolmabdi.
 Maydonlarda issiq qonning bug'i ko'rinnmas.
 Men to'ldirgan ummonlarning savlati qani?
 Qani o'shal quturuvchi yoldor dengizlar?
 Ummonlarning o'mida men hovuz quraman.
 Bir hovuzki, kaftimga ham qiladi kamlik.
 Qon purkagan sipoohlarning tuyoq izidan
 Sanqib yurar bugungi kun anqov sarbozlar.
 Men oltmish yil ot belidan tushmadim, toki,
 Ilal-abad avlodlarim bo'lsin jahongir.
 Harkun besh bor aytar edim: butun yer yuzi

Torlik qilar: sig'dirolmas ikki podshohni.

Ammo, bugun ko'tamanki, ellik shohga ham
 Kenglik qilar, ortib qolar shu latta dunyo,
 Osmonda bitta Tangri, yerdä bir sulton.
 Aks holda to'polonlar lobid, muhaqqaq.
 Shahrisabzlik Temurbekning vahimasidan
 Qaltrirdi yetti iqdim tog'-u toshlari.

Samarqandda bir yo'talsam, buning zarbidan —
 Yorillarda xalifayi Bag'doddining o'ti,
 Isfahonda zilzhadek qimirlardi yer,
 Bir na'ramdan qular edi shohlarning toji,
 Poytaxtimga oqar edi dumyoning bojji...
 ... Ulug'bekni men ko'rgudek bo'laman hozir.
 O'g'lim, sening irodangni yeb qo'ydi kitob.
 Sipohiylik rasmlarin qilmayin pisand,

Yulduzlarining qo'shiniga bo'lding farmon dor.
 Osmoniyl o'lkalamni olmoqchi bo'lib,
 Yerdagi naqd diyoringni boy berding qo'lidan.
 Unutdingki, shamshir, hujum, qaqschatg'ich zarba...
 Va bularga aks sado bo'lар g'alaba.

Insoniyat tarixining qalami shamshir,

Uning uchi qonli bo'lsa o'xshaydi tasvir.
 Qilich bilan qurgan edim saltanatimni,
 Qilich bilan yozgan edim vasiyatimni.
 Umrim vafo qilganida yana besh-o'n yil,
 Men o'magan biyon daryo qolmas edi, bil!
 Oh. Ur-urning, qilich chopib yovni qummoqning
 Ko'z yoshlarda qilichlarning qonin yuvmoqning,
 Kimki senga bosh egmasa, boshin uzmoqning,
 Kallalardan falakoso minor tuzmoqning
 Lazzatini unutmayman qiyomatgacha!
 Urho... Urho... Yog'i qochdi! Yo Olloh, urho!

Temur qilichini o'ynatib, haybatli qahqahalar qo'yib yuboradi. Shu
 paytda birdan **Temur** qiyofasi yonida to'satdan boshqa bir inson jussasi
 paydo bo'lib qoladi. U qo'lidagi bolg'anı baland ko'tarib **Temur** qilichi-

ga qattiq uradi. Qilich Temurning qo'lidan tushib ketadi. Shu asnoda birdan sahma orqasi yorshib ketishi bilan Temur yer tagiga cho'kib ketadi. Tepalikda qo'lid'a bolg'a ko'targan Piri Zindoniy turgani ko'rindi.

Piri Zindoniy

(*qahqaha urib kuladi*)

Hol!.. Yoruqqa chiddolmadi, zulmatshoh Temur!
Bolg' alarning zarbi, ana, qilichingdan zo'r.
Hayotparvar mehnatga nur, qotillarga — go'r.

Yana qorong'i bo'lib qoladi. **Piri Zindoniy** g'oyib bo'ladi!

Ulug'bek

(*chuqur xayoldan uyg'onib*)

Hay, mahramlar, qayerdasiz, mash'al keltiring!

Mahramlar

Sag'anadan biron kishi chiqdimi?

Mahram

Yo'q, yo'q!

Ulug'bek

Bo'limasa, kim kirdi bunga?
Ko'rmadik. Hech kim!

Mahram

Shu atrofda biron maxluq ko'rindimi?

Mahram

Yo'q!

Ulug'bek

(*Temur qabrini va yonidagi go'rлarni diqqat bilan ko'zdan kechirib*)
Unday bo'lsa, bu xayolot samarasidur.
Yo kunduzgi andishalar soyasidirki,

Tush libosin kiyib kelar fikr uyiga.
Bo'limasa shu berk go'rida Temur g'afplatda.
U hech qayg'a qimirlamas qiyomatgacha.
A, bu yodda otam Shohnux unga hamsoya.

Uxlang, uxlang shum dunyoning betinch shohlari.
Siz pashshadan ham beozor yotibsiz bunda.
Faqat goho kiraszilar tushlarga tunda.
Yotasizlar yangi-yangi qo'shnilar kutib,
Shahringizzga ular kelar vaqtida yetib...
Shohlар umrin puchligiga bu isbot tugal.
Trirklaming ro'yxatidan, kim bilar, bu gal —
Qay birini o'chirarkan kotibi azal.

Kim biladi, balki navbat menga yetgandir,
Chunki umrim ozi qolib, ko'pi ketgandir.
Yo'q, yo'q, sulton o'lsa hamki, donishmand yashar.
Olimlarga mangu hayot tarixi — bashar.
Nima, nima degan edi Piri Zindoniy?
"Hayotparvar mehnatga nur, qotillarga — go'r..."
Eh!..

Mahramlar, otni olib keling eshikka!

P A R D A

UCHINCHI KO'RINISH

Samarqand. Ko'ksaroy. Katta mehmonxonha. Uning bir yonida qabulxonha ham ko'rindi. O'rtadagi eshik ustiga zarbof pardalar osilgan.
Shayxulislom, Abdurazzoq, Sakkokiyl, Bek Arslon, Devonbegi.

Devonbegi

Tuni bilan uxlamayin hazrat Shahriyor,
Sohibqiron mozorotin ziyyarat qildii.

Abdurazzoq
Hozir shahar betinch mahal. Tun pallasida
Davlatpanoh qanday qilib bir o'zi bordi?

Xo'ja Ahror kelishimi kutib quturgan
Yovvoyi it qalandarlar daydib yurmoqda.
Har baloda Ulug'bekni ayblashadi.

Bek Arslon

Men, sultonga bildirmasdan hamma joy-joyda,
Ko'ksaroydan Go'ri Amir qopqasig'acha
Pistirmada sipohlarni poyloqda qo'ydim.
Daryeshlardan bir galasi xonaqohlardan
Xuruj qilib chiqqan edi, buyurdimki, men.
Sipohiyilar savab-savab quvsin ularmi.
Xayriyatki, ablahlarning shu xurujidan
A'lolahazrat ozor topmay, qaytoldi omon.

Shayxulislom

Xo'p qilibsiz, tadbirdingiz savobli amal.

Sakkokiy

Taajjubki, mamlakatda birinchchi mergan
Shahriyorning o'zlarì-yu, ammo, dushmanning
Ko'kragiga o'q uzishga qo'llari bormas.

Abdurazzoq

Chunki, dushman o'z o'g'li-da, illat shunda-da!

Bek Arslon

Tumov kungi ma'rakada, Damashq yonida
Abdullatif kela solib hamla qilganda,
Sulton o'qniunga qarab mo'ljalladi-yu,
Ammo yana bir zum o'ylab o'qni uzmadni,
"Shum surriyot" deb o'qini sanchdi tuproqqa.
Sal qolgandi halokatga. Ilg'orlar arang to'mir
Yovni to'sib shahriyorni chiqardi jangdan.

Ali Qushchi

Urush uning tiynatiga tamoman xilof.
Zilziladan imoratsoz qancha hayiqsa,

Mirob qancha yoqtirmasa selni-toshqinni,
It uvlashin qancha mansur bilsa bastakor,
Ulug'bek ham qirg'inlardan shuncha jirkanar.

Ulug'bek kirib keladi.

Ulug'bek

Birodarlar, g'oyat og'ir o'ylashlardan so'ng,
Qat'iy qaror chiqarmoqqa majbur bo'ldim men.
Bilamanki, ko'p-ko'p do'stlar ranijydi shundan.
Bilamanki, toleyini menga ulagan
Arboblarda bezovtalik boshlanur al'on.
Amir Temur himmatidin Ulug'bek so'zim:
Birodarlar, eski do'stlar, og'ir bo'lingiz!
Balki, bunga kengash bergen janoblarga ham
Bu qarorim tuyulgusi nogoh balodek.

Men — taxtimdan voz kechmoqqa jazm etdim bugun,
Sokit bo'ling, og'ir bo'ling, izzatlid do'stlar!
Hech bir kimsa tug'ilmabdi boshda toj bilan.
Temurbekdan og'ir meros bu qalpoq, xolos.
Bilamanki, shu kungacha temuriylardan
O'zi xohlab hech kim tojini tashlagan emas.
Podshohlik hashamidan kim ham ajralgay?
Ammo, men-chi, ko'p yovvoyi dashtlar ortida
Nur qo'shig'in havosida bog'lar ko'raman,
Ilm-u urfon zamonasida bog'lar ko'raman,
Insoniyat saroyining dabdabasini,
Ufqularning tumanida gulgun yo'llarda,
Firuzarang baxt shahriga uchib boruvchi
Ilm ahlining sim qanotli aravasini —
Tirik qolib ko'masam-da, hozir ko'raman.
Olislardan sanabgina sayr etish emas,
Yulduzlarga oyoq bosib, qo'l bilan ushlab,
Qaytib kelgan sayyoohlarni ravshan ko'raman.
O'tib ketar bu dahshatlar, bu ma'rakalar.
Urush, vabo va jaholat o'tib ketadi.
Oh, naqadar saodatli bo'lur dunyomiz,

Va naqadar aziz bo'lur erkin odamzod.
Bu jahonda birodarlar qolur-ku, oxir
Bir so'zimiz yo izmiz. U oydin elda
Zora meni va bizlami eslasalar bas!
Shunday do'stlar.

Hammada hayajon.

Ammo, hanuz sulton ekanman.
Saltanatning muhri mening qo'llimda ekan,
Buyurishga hali borkan salohiyatim,
Bu mansabda qilib qo'yay so'ngi yaxshilik.
Aziz o'g'lim, Ali Qushchi, olgin qalamni,
Farmovish yoz!

Sakkokiy

(o'z-o'ziga)

O'g'illardan yalchimagan, benasib padar,
O'z shogirdin o'g'il deya topar tasalli.

Ulug'bek

Amir Temur himmatidin Ulug'bek so'zim:
Avaxtadan bo'shatilsin Piri Zindoniy!
Tayyorlab ber!

Abdurrazzoq

Kim ekan bu Piri Zindoniy?

(sekin)

Shayxulislom hazratlari, siz bilasizmi?

Shayxulislom

Bunda yotgan eng ashaddiy sarbadorlardan...

Abdurrazzoq

Davlatpanoh, sarbadorlar qissasini o'zim
Eshitanman tarixnavis Hofiz Abrudan.
Sohibqiron o'zi unga naql etgan emish.

O'ylashimcha, sarbadorlar chin inson bo'lgan.
Haq yo'lida, xalq yo'lida bosh qo'ygan ular.
Halol, rostgo'y fuqarolar ekan hammasi.

Ulug'bek

Bu gaplar rost... Ammo taxtga dushman ekanlar.
Shu tufayli bandda ko'rib uni, tanishib —
Avaxtada qolsin dedi sulton Ulug'bek.
Hozir esa, men qutlib taxt havasidan,
U odamga ozodlikni qaytib beraman.
Shohlar zulmin toki olim qilolgay bekor...
Ali Qushchi, farmoyishni yozib bo'ldingmi?
Bergin menga!

(ko'zdan kechirib)

Farmonlarga oxirgi imzom!

(farmonga imzo va muhr qo'yadi)

Ali Qushchi, Abdurrazzoq, mehrbon do'stlar!
(farmonni ularning qo'liga berib)
Siz zindondan olib chiqing u bechorani.
Qarorimni men g'animnga aytishim bilan.

Samatqandning qurshovi ham tugatiladi.
Hayallamay, Xurosonga yo'lga chiqingiz.
Ali Qushchi, to'plab mening asarlarimni —
Hirotg'a elt. Zindon pirin topshirgaysizlar

Jomiy bilan shoir Lutfiy panohlariga.

Sizga ruxsat, tez va puxta tayyorlaningiz.

Zamonada inobat-u ishonch qolmadı,
Menden keyin bu shaharda sizlarga kun yo'q.
Sizga hamroh bo'lib borgay, bizning Berdiyor.
U ko'p jasur, sadogatl, yo'l bilog'on, sho'x.

Qismat bo'lsa ko'rishgaynimiz!
Bundan keyin bu shaharda sizlarga kun yo'q.
Sizga hamroh bo'lib borgay, bizning Berdiyor.
U ko'p jasur, sadogatl, yo'l bilog'on, sho'x.

Ali Qushchi va Abdurrazzoq

Inshoolloh, xayr!

Chiqadilar.

Ulug'bek
Fitnakorning odamlari keldimi?

Devonbegi

Sulton,
Ostonada kutmoqdalar ular o'zlar.

Ulug'bek
Kelsinlar-u, kirmsinlar bu yerga lokin...
Men ularning basharasin aslo ko'rgum yo'q.
Sobiq o'g'lim ovozini eshitgum ham yo'q.
Ayt, ularga, bitta vakil tayinlasinlar.
So'zlashaman ular bilan parda ketidan.

Devonbegi chiqadi.

Saktkokiy

(o'z-o'ziga)
Shoir qalbi bu motamga chiday olmaydi.
(sekin chiqadi)

Shayxulislom
Xudovando, oqpadarning jazosin bergin!
Qabulxonaga Devonbegi ketidan **Abdullahif**, **Xo'ja Ahror**, **Qozi Miskin** va yana bir necha imom va mufitilar kirib ketib pardar orqasida to'xtaydilar. Devonbegi ichkari kiradi.

Ulug'bek
Vakilingiz kimdir, aytisin!

Qozi Miskin
Men, Qozi Miskin!

Ulug'bek
Amir Temur himmatidin Ulug'bek so'zim:
Mamlakatning oromini nazarda tutib,
Nizolarga barham bermoq niyat bilan...
Qaror qildik: Amir Temur poytaxtida biz

Uning bizga meros qo'ygan oltin tojini
Boshimizdan bilkulliya olib qo'ymoqqa!

(boshidan oltin tojni olib mahram tutgan
oltin barkashga qo'yadi)

Bir zamonalr yetti iqlim xazinalari
Xiroj bergen bu toj endi hukmin yo'qotdi!

Abdullahif guruhida bosiq holda quvонch holatlari ko'rindi. **Xo'ja Ahror** qo'llarin osmonga ko'tarib, Xudoga hamdu sano qiladi.

Ammo, buning shartlari bor. Eshitasizmi?

Qozi Miskin
Eshitamiz.

Ulug'bek

Mamlakatda fitna-yu fasod
Butunicha tugalishi, bitishu lozim.
Rozimilar bu shartimga?

Qozi Miskin

Abdullahifga qaraydi. U ham o'z navbatida **Xo'ja Ahrorga** boqadi. **Xo'ja Ahror** boshini rozilik ma'nosida qimirlatib qo'yadi. **Abdullahif** ham unga o'xshab boshini qimirlatib, **Qozi Miskinga** ko'rsatma beradi.

Rozimiz, ma'qul.

Ulug'bek

Qo'ni-qo'shni o'lkalarga bosqinlar qilib,
Naslimizga yog'ilmasin qarg'ish va la'nat.
Bu shartimga ahli parda rozimi?

Qozi Miskin

(yana boyagi usul bilan)

Rozi!

Ulug'bek

Xizmatimda, suhbatimda yurgan do'stlarga,
Arboblarga qasos tig'i botirilmasin!
Bu shartimga ahli parda rozimi?

Qozi Miskin

(yana boyagi usul bilan)

Rozi!

Ulug'bek
 Bizzga oid haram ahli, ahli ayohning
 Iffatiga, izzatiga g'ubor cho 'kmasini!
 Bu shartimga ahli parda rozimi?

Qozi Miskin

(yana boyagi usul bilan)

Rozi!

Ulug'bek

Madrasaga va rasadga yetmagay zavol!
 Kutubxonam, kitoblarim saqlansin omom!
 Shu shartimga ahli parda rozimi?

Qozi Miskin

(yana boyagi usul bilan)

Rozi!

Ulug'bek

Picha taskin topay deya ketgum safarga.
 Bu diyordan tez fursatda jo'nab ketaman.
 O'zim esam iztirobdan, anduh-u g'amdan
 Shartim shuki, berilmagay bizlarga xalal,
 Shu shartimga ahli parda rozimi?

Qozi Miskin

(yana haligi usul bilan)

Rozi!

Ulug'bek

Bu va'daga ahd-u paymon qilasizlarmi?

Abdullatif odamlari

Ont ichamiz, ahd etamiz, bahaqqi Xudo!

Ulug'bek

Bilib qo'ying, bu qasamni buzsangiz agar,
 Qayda bo'lmay, men o'zimman sizga da 'vogar.
 Tangri sizni osiy sanar, el sharmanda der.
 Tarix sizga la'nat o'qir.

Abdullatif odamlari

Qasam ichamiz!

Ulug'bek

Bugun barcha vasiqlar yozilib bo'lur,
 Imzo uchun madrasaga kelsin elchingiz.
 Alvido, taxt va saltanat iztiroblari!
 Endi sulton Ulug'bek yo'q, do'stlarga rahmat.
 Majlis tamom. Ahli pardsa sizlarga ruxsat.
 Abdullatif odamlari chekinib ketadilar.
 Bugun oqshom Samarcanddan chiqib ketamiz.
 Devonbegi va Bek Arslon, borib shu topda,
 Ot va navkar, pul-ozuqa tadbirin ko'ring!

Bek Arslon

Oh, shahriyor, nega kerak menga bu qilich?
 Shu peslarga sira xizmat qilomayman, yo'q!
 Siz qayerga, hatto Hindga borsangiz boray...

Ulug'bek

Sadoqatli mard sardorim, ma'yus bo'llmangiz.
 Ketib qolsa bu shahardan hamma yaxshilar,
 Kimlar yeydi xaloyiqning, elning g'amini?
 Buyurganim bajaringga!

Devonbegi va Bek Arslon

Mayli, o'tsin oqpadarga ertangi kundan
 Saltanat ham, iztirob ham, bezovtalik ham.
 Ko'p afsuski, Abdullatif boshga toj qo'ygach,
 Otin tag'in yogurtirar zulm yo'lida.

Unga mendek qirq yil sulton bo'lish qayerda.
Qirq hafta ham taxt tutolmas.. So 'zimmi eslang!

Shayxulislom

Davlatpanoh, siz bularga ishonasizmi?
Tag'in ahdin buzmagaylar bu benomuslar!

Ulug'bek

Shayxulislom, bular ahdin buzishi aniq...
Xoinalarga inonmoqlik o'zi tentaklik.
Ular bilan men barala ahq qilganimda.
Biroz fursat qozonmoqdi asl maqsadim.
Xoin kishi qancha pastkash, razil bo 'lsa ham,
El oldida qasamini darhol buzolmas.
Shayxulislom, siz bir muddat shaharda qoling.
O'shalardan hech kim menga yo 'ldosh bo 'lolmas,
Chunki yo 'lim mashaaqqat va yiroq bo 'lgusi.
Chiday olmas xonimlarining oyog 'i bunga.
G'oyat erka yayraganlar ular saroyda.

Men Tabrizda yo Bog'dodda qilib iqomat,
Qolgan umrim baxsh etgumdir ilmga – fanga.
G'urbatlarda bu ham xizmat bo 'lur Vatanga.
Yurtga qaytmoq bo 'lmas esa menga muyassar.
Xonadonim ko 'chib borar turgan shahrimga.
Shayxim, doim umid bilan bashar avlodni
Har baloga bardosh berib olg 'a yuradi.
Endi safar hozirligin ko 'rmoqlik kerak.

Sakkokiy

Sizdan garchi beijozat bo 'lsa ham hazrat,
Bir muxlisni olib keldim huzuringizga.

Ulug'bek

(kayfiyati yaxshilanib, quvnoq tarza)

Shoir, shoir... Darhaqiqat, beboshoq go 'dak.
Na chiqishga u sultondan ijozat olar,
Na muxlisiga ruxsat so 'rar sobiq sultondan.
Oh, benizom, Ulug'bekning taxtdan tushgani
O'n daqiqa bo 'lmagan-u, siz ortiq unga
Tobe bo 'lmay, o'zboshimcha ishlar qilasiz.

Ha, shoirlar yaxshiliqning jazmanidurlar,
Bo 'Imasaydi she'r-u shoir, balki odamlar
Bir-birini etin yerdil... Siringiz ma 'lum
Va 'dangizni bajaribsiz, qani muxlisim!

Sakkokiy

Mana, hazrat!

Qayrilib eshik orqasidan Firuzani qo 'lidan tutib ichkari kirgizadi.
U hayajon bilan Ulug'bek oyog 'iga yiqilib, qo 'llari bilan quchoqlaydi.

Firuza

Hamma gapni bilaman, ustoz!
Hatto mozor uyigacha sizga yo 'ldoshman.

Ulug'bek

Shuncha tuhmat va haqorat seni yengmabdi,
Bir mansabsiz musofirga ko 'ngil berasan!

Firuza

Siz dilimga nur berdingiz, umrimga ma 'no.
Dunyodagi insonlarni, hodisalarni
Mening ko 'zim ko tar sizning ko 'zingiz bilan.
Sulton nomi sizga keyin taqilgan umvon.
Undan oldin Samarcandda, mening shahrimda
Bor edi-ku, axir yigit Mirzo Ulug'bek!
Tog'ga qorlar yog 'ib so 'ngra erib boradi,
Ammo tog'ning cho 'qilari hamon turadi.

Ulug'bek

Tur, Firuza, sening o'rning oyoqda emas,
Tojillardan ham aziz bo 'lgan ko 'z ustiddadir.

Zotan, sensiz bu diyordan ketarmidim men?
Senga taloq bergen edi sulton Ulug'bek,
Qayta nikoh o'qittirar Ulug'bek sayyoh!
(xursand)

Ishoningki, sodiq do'stlar,
billoh, odamzod
Toj yukidan qutulganda vijdoni obod.
Ketdik, do'stlar!

P A R D A

TO'R TINCHI KO'R RINISH

Ko'ksaroy, Mehmonxonha. Namozgar payti. Chap tomonda mehmonxonaning ikkinchi bo'lagi ham ko'rindi. Xo'ja Ahror va Abdullatif. Eshik oldida qotib qolgan vaziyatda Abbas turibdi. Ko'cha tomon dan qalandarlarining: "Yo Olloh, do'st, yo Olloh" sadolari eshitiladi.

Xo'ja Ahror

Alhamdulilloh rabbil olamin! Parvardigori layazolga shukurlar bo'lg'ayki, Samarcandi firdavsmonand valahazo bilkulliya Turkistoni islonpayvand sharoratdan va qabohatdan xalos bo'ldi. Yillar mobayini olib borgan jumbushlarimiz zafar bilan xitom topdi. Mirzo, al'on o'zlariga ayon bo'lib qolgandirki, mening duoyi badim birla podshohlar xarrob bo'ladi va duoyi xayrim birla gadolar fayziyob. O'zingizni shu oliv mansabga va ezgu mattabga yetkizgan piringizga rioya qilsangiz, har qanday baloyi musibatlarga balogardon topishingiz ayni haqiqat.

Abdullatif

Pirimming nafasi muboraklari bilan men erishgan shu sultanating har fuqarosi va ko'zimning oq-u qorasini hazratimga tasadduq.

Xo'ja Ahror

Ammoki, g'animlar makridan g'o'fil va Ulug'bek fikridin johil qolmaslik farz. U ketgani ketadi-yu, biroq qaytmaslikka ahd etgani yo'q. Borib-borib, deyman bирор бoshpanada fursatni poylab turmagay!

Abdullatif

Sobiq sulton va sobiq ota!.. Ul shahardan bugun chiqib yo'iga jo'naydi. Ammo uning bu shaharda muxlislari ko.p. Iblis qadar sehrgar va iblis qadar ziyrak Firuza ham u bilan birga. Biz uning shartlariga va ahdonmasiga qo'l qo'yib, xato qilmadikmikin? Yo, pirim! U bizga na muhrini topshirdi va na tojini! Bir bahona birla qaytadan sultanat da'vosini qo'zg'asa-ya! Uni qamab qo'ysak, qanday bo'lar ekan, hazrat?

Xo'ja Ahror

Ko'p besabr ekansiz! Sabr qilmoq — sobirlik Xudovardning maziyatlaridan-ku! Sizning jismoniy otangiz u kishi bo'lsa, ruhoni otangiz men! Tinglang, Mirzom, agar biz Ulug'bekni qamab qo'ysak ertaga Farg'onadan, Toshkenidan, Hirotdan, Xorazmdan temuriy qarindoshlar va orif, olim deb atalgan bedinlar va eng yomoni shuki, kosib ham fuqaro Samarqandga yuzlanib, uning yotgan zindonini ziyyaratgoh maqomida tavoq aylaydilar. Menga bisyor oshkorki, birovni qiynoqqa itarish degani, uni el ko'zida avliyo qilib ko'tarish degani bo'ladi.

Abdullatif

Buning iloji qayerda, pirim?

Xo'ja Ahror

Bu masala sizga hali ham muammo bo'llib ko'rimumi? Bilgaysizki, tiritik Ulug'bek bizning naqshibandiya tariyqatimizga hamisha jonli tahlidur!

Abdullatif

Ya'ni?

Xo'ja Ahror

Ya'ni, ya'ni! Shuning o'zi purma ni... Ammo shunday qilmoq lozimki, na ziyyaratgoh bo'ladigan mozori, na uning g'oyib bo'lgani osori qolmagay. Bu amal hukmi shar'iy birlan bo'l'mog'i darkor.

(qog'oz ko'rsatadi)

Abdullatif

Hukmi shar'iy bilan-a? Abbas o'g'lon, bormisan? Endi sening qochiqilik zahmatlarining tamom bo'ldi.

Abbos

Sulton azimushshon! Qulimgizman!

Abdullatif

Abbos, sen axir otangning kimdan jafo ko'rganini bilasanni? U bo'lmasa badarg'a, kim osardi uni dorg'a? Sen o'zing halozodami, yo'qsa haromzoda?

Abbos

Men qulinqiz, sayidzoda...

Abdullatif

Sayidning xunini tug'gan farzandi olmasa, bog'gan asrandi oladimi?

Abbos

Men qulinqiz!

Xo'ja Ahror

Abbos o'g'lon, hazratlarni kutib ol!

Mehmonxonaga ulamolar, imomlar, multilar, faqihlar, qozilar kirib keladi. **Qozi Mistkin** ham ular qatorida kelib, har qaysisi o'ziga xos o'rinda o'tiradi. **Xo'ja Ahror** majlisning to'ridan joy oladi.

Xo'ja Ahror

Yo hazarot! Podshohi azimushshon Mirzo Abdullatif saodatlariga hamd-u sano o'qiylik: ilohim, sultoni zamон va hoqoni jahонbon Mirzo Abdullatifxon lozoli ziloli rif'at olo oxiri! — davron! Omin!

Hamma

Omin!

Abdullatif

Shar'i sharifning har bir hukmi ulamoyi zamонning o'z ra'yи birlan bo'lgay. Podshoh bu ishgа aralashmog'i joiz emas.
(Yon eshilidan ikkinchi bir bo'lmaғa o'tadi va u yerda razm solib ulamoning majlisini eshitib turadi)

Xo'ja Ahror

Hamdu sano Xudovandi lamyazalgaki,
Ulug'bekdan najot topdi Mavarounnahr.
Kamoluvu haqqaho, u sazoyidur
Ahli Oolloh nazzdarida og'ir jazoga.
Uzoq zamон jafo ko'rdik uning dasidtan,
Eshonlarni, qozilarni tahqir etdi u.
Shayxlar so'zin nazorati ostiga oldi,
Hadislarining tafsirini taqiqladi u.

Shariatning posbonlari muztar bo'lildilar.
Bunday dindan aynaganning jazosi nima?
Sulton, vazir shayxulislom,

mahramlар, saroy,
Malikalar, og'achalar, sarbozlar bari
Aysh-u ishrat, o'yin bilan o'tkazar kunin.
Xonimlarning yuzi ochiq, bari beparda,
Fahsh-u zino avj olgандur har kun, har yerdA.

Bunday dindan aynaganning jazosi nima?
Xudovandning o'zi sohib bo'lgan osmonni
Kavlab allanimalarni izlar Ulug'bek.
Bir-u borning hikmatiga sherik bo'lmoqchi.
Bunday dindan aynaganning jazosi nima?
Tang'a degan falokatni o'ylab chiqarib,
Bozargonlar xirojini oshirdi ziyod.

Bizga banda bo'llib kelgan qo'shchi dehqonni
Qalandardan baland qo'yib quturtirdi u.
Samarqandda dini islom tayanchi bo'lgan
Sayid Obid o'z shahridan haydaldi nega?
Aks holda Buxoroning xilvat yo'lida
Uni osib qo'yarmidi osiy o'g'rilar?
Mavlonolar, kamohuva haqqaho, ayting:
Bunday zolim hukmdorning jazosi nima?

Ulamolar bosqlarini quyи solib o'ylagan mahalda, bordan eshik ol-dida turgan **Abbos** majlis oldiga borib tiz cho'kadi.

Abbos

Qulqizman, ey shariat peshvolari,
Men o'z shahid padarimning xunin istayman!

Xo'ja Ahror

Mavilonolar nima deydi? Bu — shar'iy da'vo!
Otasidan judo bo'lgan bu o'g'lon haqli.
Bu xususda biz fatvo ham tayyorlagandik.

Qo'lida yozilgan fatvoni cho'zib mullalarga beradi, ular bitta-bit-tadan muhr bosib o'kazadilar.

Munozara yo ishtiboh bunda ortiqcha,
Ulamolar shunga muhrin bosib qo'ysa bas.
Ulug'bekdan otasining qonin olmoqqa
Abbos o'g'lon haqli degan fatvodur, xolos.
Qozi Miskin, yo mavlono, siz nega xomush?
Yo muhringiz esdan chiqib uydami qolgan?

Qozi Miskin

Yo'q, pir-eshon, shunga muhrim bosolmayman men.
(qahrlanib, fatvoni qozining qo'liдан tortib oladi)

Xo'ja Ahror

Ra'yingizni tafsir eting, mavlono Miskin!

Qozi Miskin

Shariatga va insofga xilof bu fatvo.
Men Ulug'bek ishlariqa ko'p zid bo'lganman,
Ammo yolg'on va nomardlik u janobga yot.
Men sizlarga bovar qilib qasam ichdimki,
Ulug'bekning boshida bir tuki chertilmas.
Men bu yoshga kelganimda ontxo'r bo'laymir?
Qozi Miskin ko'r bo'lar-u jallod bo'lolmas.
Yo'q, muhrimmi bosolmayman...

Mashoyixlar buni joiz bilganlar mutlaq.
Kofirlarga qarshi jallod bo'lmog yomonmi?
Piri A'zam Bahouddin xo'ja Naqshband
Bir chog' jallod bo'lgan bilan faxriangan-ku,
Men ham agar lozim topsam jallod bo'laman.
Siz ne deysiz?

Qozi Miskin

Hazrat eshon, ra'yingizda mubolag'a bor,
Ulamoni ko'p siqqandur Mirzo Ulug'bek,
Ammo Tangri taoloni inkor etmadı.
Bu qanday gap: biz-ku uning taxtini oldik,
Xonadondan judo aylab darbadar qildik.
Oromini barbod etdik va pirovardi
Vatangado qilmoqqa ham tuyassar bo'ldik.
Yetar eshon, shuncha jazo. Biz qasam ichdik.
Men qasamni buzolmayman, muhr bosmayman.

Xo'ja Ahror

Ulamoyi islon — imomlar, muftilar, qozilarning aksariyat ri-zosi, muhr va imzosi bilan ushbu fatvo fe'liy quvvatga o'tadi. Ol, Abbos o'g'lon, hukmni ijro et!

Qozi Miskin

Shayxulislom lavozimini qo'lga olsangiz,
Siz qozilik mansabidan bo'shating meni.
Chiqib ketadi, Abbos fatvoni olib o'pib, ko'ziga bosib, qo'yniga soladi va orqa-orqa tislaniib eshikdan chiqadi. Ikkinchisi bo'lmada shu vo-qealarni eshitib turgan Abdullatif umi orqasidan ushlab to'xtatadi.

Abdullatif

Bu hukmni shafqat qilmay iijo etgaysan,
Men ularning orqasidan chopar yuborib,
Bir vaj bilan pastqam joyda to'xtattiraman.
Sen hukmni bemurosa amalga oshir.

Xo'ja Ahror

Kimga qasam ichilgan-u, nega va qachon?
Ubuzilsa, shundan kelsa — islonnga ravnaq,

Jo'nab borgen! Mana, senga xanjar shoshiy.
Buni Toshkent ustalari toblkab yasabdi.
Hatto filga uchi botsa cho'kdirar hamon.

(*Abbosga xanjar beradi*)

Ammo o'sha bog'bon qizni sog'-u salomat
Bir chodraga o'rabi olib o'rдaga keltir.
So'ngra esa... Jon seniki, jonon seniki.

Abbos

(*ta'zim bilan*)

Qulinqizman!

(*chiqadi*)

Abdullatif ulamolar majlisiga kiradi.

Xo'ja Ahror

G'ozzi sulton Abdullatif Nizomiddinning
Davlatlari dunyo borcha bo'lг'ay poyanda!

Hamma

Omin!

Ulamolar chiqib ketadi. **Xo'ja Ahror** bilan **Abdullatif** ikkisi qolib,
xususiy suhabatga beriladilar. Shu payt ko'cha tomonidan shovqin eshitiladi. **Abdullatif** borib derazadan qarataydi va kaftini kaftiga urib sipohni chaqiradi.

Abdullatif

Maydondagi u to'polon, u g'alva nima?

Sipoh

Xo'ja eshon hazratlari bilan kelishgan
Qalandarlar pirmi kutib turgan mahalda,
Qayerdandur Bobo Kayfi kelib qoldi-da,
Darveshlarini mayna qildi, haqorat qildi,
Darveshlar ham uni tutib xo'p do'pposladi.
Shuni ko'rib madrasaning talabasidan
Uch-to'rt yigit darveshlarha hamla qilishdi.
To'polonni bosayotir hozir mirshablar.

Abdullatif

Olib kelgin ul ablahning o'zin bu yerga!

Sipoh chiqadi.

Xo'ja Ahror

Astag'firullo! Ulug'bekning sarxush muxlisi,
Egasini g'oyib qilgan itdek dovdirar.
"Ko'p befahm hushyorlardan u dono" emish!
Sipoh Bobo Kayfini sudrab olib keladi.

Abdullatif

Bobo Kayfi, xo'sh, dunyodan xabaring bormi?
Hozir sulton kim ekanin bilasanmi, sen?

Bobo Kayfi

Bilsam bildim, bilmam bildim, bilmamasam bilmam.
Bilganim shu; haq barhaqdir, bilmaganim-chi;
Haq nohaqdir, nohaq haqdir, haqiqat yo'qdir.
Haqq-u nohaq, nohaqq-u haq... Bay-bay-bay... boy...
Bobo Kayfi kallasining tarozulari
Shuncha yukni torta olmas, charsillab sinar.

Xo'ja Ahror

Safsatangni endi bas qil, tavba qil, kofir!

Bobo Kayfi

Tushummayman, tushummayman, tushunolmayman.
Ulug'bekni yomon deysiz, taxtdan haydaysiz.
Xudo bilur, balki bo'lak qasdingiz ham bor.
Tushummayman, tushummayman, tushunolmayman!
Yaxshi — yomon. Yomon — yaxshi. Tafovut qayda?
"Ulug'bekning madrasasi" olamga mashhur.
Madrasasi ko'p yaxshi-yu, Ulug'bek yomon.
Maza qilib siz yuvingga "Mirzo Hammomi"
Tagi marmar, suvi kavsar, Ulug'bek qurgan.
Hammom o'zi zap yaxshi-yu, Ulug'bek yomon.

Zarafshondan suv chiqarib ekin-tikinga

“Mirzo ariq” o’zanini u kishi ochgan.

“Mirzo ariq” ko’p yaxshi-yu, Ulug’bek yomon.

Suvga botmay, siz daryordan o’tasiz omon.

Ko’priq bor-da! U kishining “Mirzo ko’prigi”,

Ammo ko’priq yaxshi narsa, Ulug’bek yomon.

Bitta bog’ bor. “Bog’i Maydon”, Ulug’bek ekkan.

Musulmonlar unda kezib topadi huzur.

U bog’ yaxshi, ammo bog’ni yashnatsan kishi.

Sho’rpeshhana Ulug’bek-chi, yomondan yomon.

Xo’ja Ahror

Bas, beimon, joning chiqqr!

Bobo Kayfi

So’radingiz, so’raganga bilganim dedim.

Bilmaganim bildiring deb bildirdim sizga.

Ammo hanuz bilolmadim, men sho’rlik nodon:

Hazrat eshon, Tangri ko’nglin rozi qilay deb,

Qancha-qancha sabiyarni qoldirgan yetim,

Qancha beva mol-u mulkin changallab olgan.

Bilolmadim sanab-sanab sanayolmadim.

Necha qizcha zo’rlab unga nikoh qilingan,

Necha ming qo’sh ho’kiz uning yerin ekadi,

Necha ming qul eshon pirlga bo’yin bukadi,

Bilolmadim, sanab-sanab sanayolmadim.

Xo’ja Ahror

Abdullatif, qachongacha shu telba itni

Uvlatasiz? Bu badmastonning gaplarin qarang:

Bu mast emas, bu o’zini mastilikka solib,

Arkonin din, valillardan kulgani kulgan.

Bobo Kayfi

(kulib)

Gaplarimning joni borga o’xshaydi, eshon!

Abdullatif

Olib keting, avaxtaga, lahad tortgurni!

Bobo Kayfi

Qaysi joyga buyurdilar?

Abdullatif

Zindonga! Darhol!

To suyagi chiriguncha yotsin u yerda!

Sipoh Bobo Kayfini olib ketarkan

Bobo Kayfi

Zindongami? Eh, u bizning o’z xonamiz-ku...

Yo’lin o’zim xo’p bilaman, ovora bo’lmang!

Ulug’bek yo’q, demak butun shahar zindon-da!

Emish-demish, emish-demish! Bay-bay-bay-bay...

Buxoro quvvati islomi din ast,

Samarqand sayqali ro’yi zamin ast...

Bay-bay-bay-bay...

Olib chiqadilar.

PAR DA

BESHINCHI KO’RINISH

Samarqand atrofida qishloq. Namozgar vaqt. G’ira-shира qorong’i.

Kuz fasli. Ota Murodning hovlisi. Bog’cha, gulzor, ayvon, shiypon

ko’tinadi. Havo bulut. Ota Murod bir o’zi hovlining o’tasida turib os-monga qaraydi. Bog’ tomonda xo’rozlar qichqiradi.

Ota Murod

Eh, qovog’in shuncha solgan, badburush falak.

Xo’mrayadi Xo’ja Ahror kabi beo’xshov!

Ha, ne kerak, bol bermasang, meva bermasang,

Shu yetmasmi, hali menga do’q ham urasan.

Nuqul senga qarzdor ekan bechora qo’shchi!

Yoki, sudxo’r rastasida Hoji Kalmisan?

Jala quymay o'tib ketsa shu bulut, yorab!
Dadalagi mehnatimiz nobud bo'lmagay!...

Yo'lida, darvoza orqasida otlar tuyog'inining dukurlashni eshitildi.

Kim ekan, shu bemahalda kelgan otiqliqr?
Baxayr bo'lsin!

Borib darvozani ochadi. **Ulug'bek**, **Firuza**, **Sakkokiy**, **Devonbegi**
va ikki navkar kirib keladilar.

Ota Murod

Buyursinlar, boshlarimiz osmonga yetdi,
Qadamlariga hasanot, qiblayi olam!

Ulug'bek

(*xushchaqchaq*)
Ota Murod, bardammisiz? Ha, barakallo!

Ota Murod

Sizku, borsiz, bizga quvvat, qiblayi olam!

Ulug'bek

Siyosatdan sen bexabar qolibsan, ota!
Men qiblayi olam emas shu kundan boshlab.

Ota Murod

(*ma'yus*)
Xabarim bor, xabarim bor, qiblayi olam!

Jonim bilan quvonardim, bexabar bo'lsam.
Ammo, hazrat, ishoningki, minba'd hamisha —
Bizlar uchun siz o'zingiz qiblayi olam.
Haligi, u nomard bo'lsa... Telbayi olam.

Ulug'bek

Yo'qotganim toj bo'ldi-yu, topganim erklik!
Ota Murod, olis safar oldida birpas
Samarqandning tuprog'ida o'tirmoqchimiz.

Ota Murod

Havo salqin. Buyursinlar kulbaga tashrif!

Ulug'bek

Ochiq havo bizga ma'qul. Biz ko'nikkamniz!
Shu ayvonda do'stlar bilan xayrlashgani
Biroz suhabat qilamiz-u, non ushatamiz.
Axir, siz-la, yerning, yurting bog'boni bilan
Vido qilib xo'shashmasdan ketarmidim men?

Ayvonda kursiga o'tirishadi. O'zaro suhabat qizib ketadi. **Ota Murod**
va xotini dasturxonqa non va meva olib kelib qo'yadi. Navkarlar sharob
olib kelib piyolalarga quyadilar.

Ulug'bek

(*uzumdan olib*)
Sohibidek uzum bormi yana dunyoda?
(*xomush va ma'yus o'tirgan*
Sakkokiyga hazillashib)

Xo'sh, Sakkokiy, nega yana g'amga g'arq bo'lding?
Taxtdan tushgan semni, menmi? Nima o'ylaysan?

Sakkokiy

Ayrliqning shu jongudoz qayg'usi, g'ami
Chumqortog'dan ming bor og'ir tuyular menga.
Oh, Shahmiyor, sizsiz she'rim qolur bemazmun.

Ulug'bek

Eh, birodar, Samarqanddan Tabrizga qadar
Qancha bo'lsa yo'l orası biling, qaytganda
Yana o'sha masofadir, kamaymas, ortmas.

Devonbegi

Koshki, koshki!

Firuza
Bitta g'azal o'qib bering, shoir Sakkokiy!
Tag'min, qachon sizni tinglash tuyassar bo'lar?

Sakkokiy

Lutfan, agar tinglasalar, ba'zi parchalar,
Hozir yo'lda kela turib shunga bitildi.
Sizlar ketib, men ketolmay qolganimdan ham,
Bu hijronda dard-u g'amga to'lganimdan ham
Kuyib-kuyib nola bilan tug'ilgan baytlar.
“Ko'zlarining ohuni har dam jigarxun ayladi,
Mushk hidli zulfiqiz Laylini Mainun ayladi.
Niyatim bor erdi kezsam dunyoning majmuini.
Ko'r oni davri falak ne tak digargun ayladi.
Shukur, bori dushmanim bilmas yuzimming storig'in,
Kahrabo yanglig' ingimni ashk gulgun ayladi.
Movarounnahr ichra qoldim, chunki ikki yonima —
Ko'zlarimning biri Sayhun, biri Jayhun ayladi.
Ishq fani barcha fanlardin erur nozik, magar —
Ishqningiz Sakkokiyni bu fanda zufnun ayladi”.

Firuza

Oh, naqadar chiroyli bayt, nafis manzara:
“Movarounnahr ichra qoldim, chunki ikki yonima,
Ko'zlarimning biri Sayhun,
biri Jayhun ayladi”.
(ko'zlarining ro'molcha bilan artib)
Darhaqiqat Sirdaryomiz, Amudaryomiz,
O'rtasida qolgan o'lka Movarounnahr.
Bizning diyor, ona yurti, otalar bog'i...

Ulug'bek

Sizning yurtda qolishingiz kerak, Sakkokiy,
Shoirsiz, yurt bir bog'dirk'i, bulbuli o'lgan,
Yurtda qoling, yaxshillikni tarannum aylang,
Baytingizda bizlarni ham goho yod eting,
Qayda bo'lsak, ruhimizni siylab, shod eting!

Ota Murod fonus olib kelib shiyp onidagi daraxtga osadi.

Qorong'ilik quyuqlashdi. Qaytib boringlar
Bekilmasdan Samarqandning darvozalari!
Xo'ja O'zbek, vafokor do'st, tashakkur senga!

(piyolani ko'tarib)

Yaxshi kunda yana birga ko'rishmak uchun
Iching do'stilar!

(quchoqlashib xayrlashadi)

Sakkokiy

Shu yorug'da diyordoringiz yana bir ko'rib,
Tilda “xayr”, dilda “evoh” bilan qaytamiz.
Ouchqolashib bo'lgandan keyin **Sakkokiy** va **Devonbegi** chiqadilar. Darvoza orqasidan uzoqlashayotgan otlarning tuyoq dukurlashi eshitiladi.

Firuza

(bulutli osmonga qarab)
Go'yoy sirli samovotda biron ta qasd bor,
Niqob kiygan kushandaga o'xshar koinot.

Ulug'bek

Sabr et, jonim! Irodaning farzandi umid.
Tundan keyin tong otmasdan qolganmidi hech.
Anov tog'lар orqasida, bulut sirtida
Koinotning yosh kelini mohtob o'rnalar.
Garchi uni ko'rmaymiz, u bizlarni ko'rар.

Firuza

Ustoz, ketish qancha og'ir, ammo siz bilan
To dunyoning chekkasiiga borsam roziman.
Lekin ayting: sikringizcha yana bir karra
Samarqandni ko'rishbizga bo'lumi nasib?

Ulug'bek

Sizlar beshak ko'rarsizlar. Men-chii, mabodo
Umrim vafo qilsa, men ham ko'rarmen albat.

Bu o'g'rilar sultanati ko'p uzoq bormas.
Ammo shoyad Samarcandni nen ko'rmasam-da,
Samarcanding shahri meni albatta ko'rар.

Ota Murod
Chunki sizni vijdoni bor el yaxshi ko'rар.

Firuza
Nima degan, siz ko'maysiz, sizni u ko'rар?

Ulug'bek
Ya'nii tirk qaytolmasam Samarcandga men,
Bu shaharda ko'milgusi tanim har holda.
O'z o'g'lini nahot chetda qo'ysa Samarqand?
Nahot, qirq yil mehnatimming evaziga men
Oz shahrimdan ikki gazlik yer olmasam...
Eh, shu g'amgin tashvishlarni qo'ygin, azizam,
Men umrimda ko'p sarguzasht, ko'p odam ko'rdim,
Xoqonlarga hamkasb bo'ldim, janglarda yurdim,
Gohi tunda musofirlar libosin kiyib,
Shaharlarni, qishloqlarni birma-bir kezdim.
Qirda, dashtida ovchilikning gashtni sezdim,
Tamilmasdan o'g'rilarga goho yo'liqidim,
Ko'kni aniq ko'rimoq uchun tog'larga chiqqidim,
Ba'zan ovul to'ylarida o'yinga tushdim,
"Manman" degan pahlavonlar bilan kurashdim.
Bular senga qiziq-qiziq qissa enasmi?

Men bularmi senga bir-bir aytil beraman,
Inshoolloh, uzoq safar manzillarida.
Yigitali, ot-egarni yaxshilab taxla!
Yo'l qorong'i... Biz tundayoq dovondan oshib
Shahrisabzga yetmog'imiz lozim saharda.

Firuza
Valine'mat, men siz bilan bo'lsam har qayda
Ajdarini ham, devlarni ham ko'zga ilmayman.

Ulug'bek

(*kilib*)

Zo'r ekansan, ammo ular yo'q narsalar-ku!

Navkarlar ba'zi ashylarni ko'tarib bordilar.

Yigitali, ishlar taxtmi?

Yigitali

(*yo'l tomondan kelib*)

Taxtdur, shahriyor.

Ammo, sizni so'rayapti shahardan chopar.

Ulug'bek

(*biroz bezovtalanib*)

Kelsin, qani!

Chopar kirib keladi.

Chopar

Yangi sulton, sizdan qilar iltimos:

Istaydilar, safaringiz yasalsa

Sultonlarga layoqtali shohona.

Istaydilar, karvonningiz, ismingiz

Tantana-yu, dabdabaga o'rlasin.

Shoh otasin hashamatli yurishin

Katta-kichik, turk-u tojik ko'rolsin.

Shu kechani shunda tunar ekansiz,

Izdihom-la erta jo'nar ekansiz.

Ulug'bek

Ular xohlar shu safarim bo'lgay shohona!

Yo'q, Ulug'bek bola emas. Bu — bir bahona.

Men ketaman. Men jo'nayman. Modomki, ular

Halitdanog menga qarshi suiqasd o'ylar,

U nomardilar qasamlarin buzzdilar shu kez,

Buni-ku, men bilar edim, ammo shuncha tez —

Bo'lishini o'ylamagan edim sira ham!

U ablahlar o'yladiki, Ulug'bek sayyoh!

Safaridan qaytib kelsa tag‘in bo‘ur shoh,
Temur toji yana topar o‘z vorisini.
Shundan cho‘chib xon yuborgan suvorisini.

Ulug‘bek dadił turib hovlıdan chiqmoqchi bo‘ladi. Chopar darhol
ko‘zdan yo‘qoladi. Anno Ulug‘bek qaysi tomonga yo‘nalsa, devor
orqasida, eshil oldida, daraxt tagida, panjara yonida mayzalik sinohlar
pistirmada turgani ma‘lum bo‘ladi. Sipohlar uning yo‘lini to‘sib, hovli-
dan chiqarmaslik uchun qurshovga olganligi ayon bo‘ladi.

Ulug‘bek

Ah-ha, tuzoq! Bir kishiga qarshi bir lashkar!
Oqpadarning qo‘rqoqligi shundan oshkor!

Ota Murod

Yo rabbano, bu zolimlar nima qilmochqi!
Yalmog‘izmi, nima bular, aqidan ozgan!

Firuza

(yugurib Ulug‘bekni quchoqlaydi)

Ustoz, to‘xtang, bular bilan olishmang, ustoz!
Shu paytda daraxt tagida soyada turgan **Abbos** yorug‘ga chiqib
Ulug‘bekka qarab yuradi.

Ulug‘bek

Sen hali ham tirikmisan, haromi, xabis!

Abbos

Tirkmanki, toki ko‘ray o‘limingizni.
Men otamning xunini deb, qasosin kutib,
Bir-u bordan shu fursatni yalinib keldim.

Ulug‘bek

Otang qilgan badkirdorlik, beinsoflikka
Eng yengilroq jazo edi shahardan surgun.
Balki undan jaibr ko‘rgan olomon o‘zi
Alash qilib o‘z hukmicha terakka osib,

Xud asfala sofilinga jo‘natgan uni.
Bu gaplaring yo tuhmatdir yoki bahona.

Abbos

Padarimning o‘limiga shar‘iy mahkama
Faqt sizni javobgar deb biladi.
Mana!
(fatvoni qo‘ynidan olib ko‘rsatadi)

Ulug‘bek

Jalloddarning malayisan, badbaxt kushanda!

Bir zarba bilan urib **Abbosni** yiqitadi. **Abbos** o‘rnidan turib sipohlar-
ga ishora qilladi. Sipohlar **Ulug‘bek** navkarlariga hujum qilganda bit-
tasi qochadi. Yigitali esa qilichini sug‘urib, ulami yaqinlatmaydi. **Ota**
Murod: “Musulmonlar”, “voy dod”, “bosqin” deb qichqirib qishloq
tomonga qochadi.

Yigitali, qilichimni bergen, ko‘ray-chi,
Qilichbozlik bilarnikan bu nobakorlar!

Yigitali **Ulug‘bekka** qilich beradi. O‘zi ham qilich tutib **Ulug‘-**
bekning chap tomonida turadi.

Yo‘q, bo‘shashgan emas hali Ulug‘bek qo‘li,
Men qilichni olmaslikka qasam ichgandim,
Ammo bunga sen haromi majbur etasan.
Goho kerak bo‘lar ekan bobo merosi.

Ulug‘bek fonus orqasida turib hujum qilayotganlarni ravshan ko‘r-
gani uchun **Abbos** va sheriklarining hammlalariga raddi badal berib ya-
qinlatmaydi. U o‘zini ham Firuzani himoya qiladi. Yigitali jarohat yeb
yiqiladi.

Abbos

(sipohlarg‘a)
Fonusni ur! Yo‘qsa unga bas kelolmaymiz!

Bir necha sipohi fonusni urib tushiradilar. O‘rtaga qorong‘ilik cho‘-
kadi.

Ulug'bek

Eh, nomardlar, yapaloqlar, ko'rshapalaklar,
Qorong'ida faqat sizning ishingiz unar!

To'rt sipohi qorong'idan foydalanim, Ulug'bekka orqadan hujum
qiladilar, o'ng qo'lidan yaralaydilar, qilich **Ulug'bek** qo'lidan tushib
ketadi.

Abbos

Darhol bog'lang! O'chni o'zim olmog'im kerak.
Sipohlar arqon tashlab Ulug'bekni daraxtga bog'laydilar.

Firuza

Qo'llaringiz falajlansin, yirtqich sotqinlar!
Bilasizmi, ne kishini yaraladingiz!

Abbos

Oling uni, paranjiga o'rab ko'taring!
Ikki sipohi Firuza boshiga paranji tashlashadi.

Firuza

Sen azozil... O'sha ablah, o'sha g'arazgo'y!
Sen tufayli boshim ko'rdi ne-ne balolar!

Abbos

Xo'ja eshon buyruqlari: barcha ayollar
Yettidan to yetmishgacha yopinib yurgay...
Oling, jadal!

Ulug'bek

O'lim meni qo'rqtmaydi. Lekin, afsuski,
Men do'stlami hasrat ichra qo'yib ketaman.
Firuza, sen, mendan ko'rgan jafoni unut,
Asl sevgi hummatiga meni esda tut!

Firuzani olib ketadilar.

Abbos

Hukmi shar'iy bajarietur. Aytung vasiyat!

Ulug'bek

Vasiyatim, vasiyatim! Kim ham eshitgray.
Mulkin yo'qli, birovlarg'a meros qoldirsam,
Xazinam yo'q, birovini boyitib qo'ysam.
Merosimdir kitoblarim va jadvallarim.
Bir meroski, zam'on uni mahv etolmaydi,
Bir meroski, vorislari bu Vatan ahli,
Bir meroski, bahra topar undan yer yuzi.
Esiz, esiz, Vatanimga so'ng xitobimni

Na biroylar eshitadi va na yozmoqqa —
Bu bog'log'liq va yarador qo'limg'liq qo'lim qodirdir.
Parvardigor, bundan ortiq bormikan zulm?
Yovuz dushman oldida men bog'log'liq qo'lim,
Qayerdasan dastyorim, sodiq navkarim,
Hay, Berdiyor, nega yo'qsan shu damda o'zing?
Nega seni men jo'nattdim o'zimdan yiroq?
Sen bo'lmasang ketar ekan omadim, har choq.
Sen qaydasan, hay, Berdiyor, Chotqol shunqori!

Sahna orqasidan Berdiyor toyushi eshitiladi.

Berdiyor

Labbay, hazrat, sadongizdan aylanay, hazrat!
Hozir keldim, hay, nomardlar!

Abbos

(cho'chib, sipohlarga)
Jadal bo'ling, tez ottaning, darhol ketamiz,
Mana qasos, mana sizga otamning xuni!
Ulug'bek ko'ksiga xaniyar tiqadi.

Ulug'bek

Haromzoda!

Arqonda daraxtga osilganicha sustlashib qoladi. **Abbos** va sheriklari
qochayotganida **Berdiyor** va yana bolta, tayoq ko'targan dehqonlar va
Ota Murod chopib kiradilar.

Berdiyor

Seni tirk qochirmayman!

Abbosga o'q uzadi. Abbas "o'ldim" deganicha yerga yiqildi. Berdiyor va dehqonlar Ulug'bekni darhol daraxtdan yechib yerga yotqizadilar. Odamlar uning atrofida tiz cho'kadilar.

Ulug'bek

(ko 'zini ochib)

Bu semmisan, Berdiyorni? Kechikding biroz.

Berdiyor

Oh, kechikdim bir daqqa, qiblayi olam!
Biz u cholni ayab sekin yo 'l yurib edik,
Bu qishloqning yaqinidan o'tganimizda,
Ota Murod jar solganin eshitib darhol.
O'zim topib keldim bunga... Oh, zolim falak!

Firuza

(uy ichidan)

Vallamatni ko 'ray, voy dod, qutqaizing meni!
(Ota Murod yugurib uyga kirib ketadi)

Berdiyor

(Abbos qo 'lidan olgan xanjar ni qarab)

U la'nati, sizga tiqqan shu xanjar tig 'in,
Abdullatif ismi bunga yoz zug'luk ekan.
Bu Toshkandning xanjaridur, dani zaharli...
Abdullatif kallasini olmasam agar
Yuz ming la'nat bo 'lsin menga!

Firuza va Ota Murod uy ichidan chiqib keladilar. Firuza kelishi bilan Ulug'bek yoniga cho'kib, uning qo'llini o'padi, ko'kragini yechib yarasiga ro'mol qo'yadi va yig'laydi.

Firuza

Uh, bu yara koshki menga urilsa edi...

Valine'mat, sizga emas, bu qonli xanjar.
Bu diyorning miyasiga berdi jaroqat.

Abdurrazzoq, Ali Qushchi va Piri Zindoniy keladi.

Ulug'bek

Men davramda do'stlarimni ko'raman yana,
Demak, bizga o'lim yo'qdir, men bo'limasam-da.
(odamlarni bir-bir ko'rsatib)

Sen yasharsan, siz yasharsiz, siz yasharsiz, siz!
Ha, qo'limda Firuzaning shu ipak qo'li.
O'lganda ham men qo'lingni adashtirmayman.
Qo'ling siqb, bu dunyodan ko'zim yumaman.

Shu paytda osmonda bulutlar orasidan to'lin oy ko'riniq qoladi.
Sen ham biroz kechikibsan, ko'kning fonusi!
Dushman meni yengolmasdi, chiqsang oldinroq.
Ortiq tamom, g'urbatlarda daydib yurmoqdan
Shu Vatanda shahid bo'lmox oliv saodat.
Xayr sizga, sho'x yulduzlar, senga g'amli oy!
Xayr sizga, do'stlar, xayr jami insonlar!
Xayr senga, oh Firuzam, qalbim singilisi!
Abdurrazzoq, batafsil yoz bu qissalarни!
Dunyo, dunyo, bevafosan, bilaman seni.
Ammo, senga yomon farzand emas edim-ku!
Yorug' kunda, baxt ayyomi, meni yod ayla,
Bitti nafas. Yig'lamayman.

Siz ham yig'lamang!

Ota Murod

Boshpanamiz to'zib ketdi, sindi belimiz!

Abdurrazzoq

Ey-yoh! Endi yetim qoldi aql-u ma'rifat.
Lak-lak ablah Abbosdeklar harom qotadi.
Ammo, hayhot, trirlinaydi bitta Ullug'bek!

Ali Qushchi

Koinotning chamaniga ochgan yo'lingiz
Yo'lchilarsiz qolmas, biling, aziz muallim!
Orta borar yulduz soni iadvalingizda.
Qoningizdan o'sib chiqar shodlik gullari.

Piri Zindoniy

Men ellik yil zindonlarda chiritdim tanim,
Ne-ne balo, uqubatlar ko'rmadi ko'zim.
Ammo Tangri shohiddirki, biron lahma ham,
Ko'zlarimda ko'z yoshlari yalt etgan emas.
Voasafo, hech kimsadan uyalmay bugun,
Men yig'layman, yurak qoni bilan yig'layman!
Yetim qolgan el dardiga kuyib yig'layman!
Bosh qo'yaman tuprog figa ulug' insонning!

Firuza

(Ulug'bek jasadini quchoqlab)

Ustoz, ustoz!

Parda asta-sekin tushayotganida, uzoqdan qizlar qo'shig'i eshitiladi.

Qizlar qo'shig'i

Uchar yulduzlar, ko'char yulduzlar.
Ko'klarda oq yo'l ochar yulduzlar,
Visol bog'iga, yor yotog'iga
Oltin nurini sochar yulduzlar.
Zumrad chamandan kechar yulduzlar,
Uchar yulduzlar, ko'char yulduzlar.

P A R D A

T A M O M

LUG'AT VA IZOHLAR¹

A

Abu Ma'shar — IX asrda Bag'dodda yashab, matematika va astronomiya bilan shug'ullanigan olim Abu Ma'shar Ja'far bin Muhammad bin Umar Balxiy (vafoti 886-y.) ko'zda tutiladi.

"**Abu Nasr Forobiyning bir kitobida...**" — Ulug' o'zbek olimi, faylasuf va san'atshunos Abu Nasr Muhammad bin Tarxon bin O'zlig' Forobiy (870–950) o'z davrining chuqr mutafakkiri bo'lib, tabiiyot, tib (meditsina), siyosat, falsafa, psixologiya, mantiq, muzika sohasida yuzdan ortiq ilmiy asarlar yozgan. Uning "Kitobul-madinatal-sozila" asarida adolati davlat, do'stona jamiyat hamda donishmandlar qatoridan saylangan hukumat haqida g'oyat ilg'or fikrlar bayon qilingan. Piri Zindoniy Forobiyning shu asariga ishora qiladi.

Adan — Arabiston yarim orolining janubida kichik bir arab o'lkasi. Bu o'lkanning sohillariga tutashgan Arab va Qizil dengizlardan qimmatbaho durdonalar chiqarilar edi. Shoirlar dilbarlarning tishlarini durga o'xshatib, "Durri Adan" (ya'ni Adan surri) deb ta'riffaganlar.

Aksir, aksiriy — qadim astronomlarning fikricha, fazoni qoplagan sehtli modda, "eleksir" so'zidan olingan.
Ali Sino — buxorolik buyruk faylasuf, tabib, tabiiyotchi va shoir Abu Ali ibn Sino (980–1037).

Alloma (a) — g'oyat chuqr ma'lumot egasi bo'lgan olim. O'tmishda kamdan kam olimga shu unvon berilgan.
Alouddavla — Shohrux o'g'li, Boysunqurning farzandi, ya'ni Abdulatifning amakivachhasidir. U Hirot viloyatida ko'p yillar g'avg'o ko'tar-gan va Abdullatif bilan nizolar qilib, uni asir olib qamoqqa ham solgan shahzoda.

¹Lug'atlari va izohlar mualif 'tomonidan tuzilgan.

So'zlarining yonida (a) belgisi so'zning arabchadan, (f) belgisi esa forschedan olinganiga dalolat qildi.
(Q. o'zb) ta'bir so'zning qadim o'zbek tiliga xos bo'lganini ko'rsatadi.

“Amir Temur himmatidin Ulug’bek so’zim” — Mirzo Ulug’bek o’zining farmonlarini, buyruqlarini shu tadbir bilan boshlab berar ekan. Hatto, u zarb ettirgan aqchalarida ham shu ibora o’yilgan edi.

Arikoni din (a) — din arboblari.

Aflatun — mashhur yunon faylasufi Platonning Sharqdagisi nomi.

“Axir atir bir shishaga berkitilganda.

Bu gap, atir past narsadir degani emas” — Ulug’bekning zamon-doshi, tarixchi Abdurrazooq Samarcandiy o’zining “Matlaus-sa’dayn va majmaul-bahrayn” asarida yozganidek, haqiqatda ham, Abdullatif Hirotdagi bandilidän qutulib, Samarcandga kelganida Mirzo Ulug’bek unga tasallii berib, shunday degan: “Band bar mushk na az xoriy nahand va qayd bar zar na az kama ‘yoriy” (ya’ni: mushknik bekitar ekanlar, bu uning xorligiga dalo-lat qilmaydi va oltinga tang’ a bosililar ekan, bu uning me’yori kam ekamiga isbot bo’lmaydi).

Ashk (f) — ko’z yoshi.

Ash’or (a) — she’r so’zining ko’plik shakli, she’rlar.

A’lohażrat (a) — Sharq mamlakatlari dagi hukmdorlarning shaxsan o’ziga murojaatda yoki ular eslanganida (hayotlik vaqtlarida) “a’lohażrat” deydilar.

Aqli qosir (a) — kaltafahm, yetilmagan aql. Odatda, bu ta’birmi kamtarinlik tariqasida ishlatiib kelingan.

Aqlidus — mashhur yunon matematigi Yevklid (miloddan oldin III asrda yashagan) Sharqda ana shunday nom bilan yuritilgan. Uning asosiy asari “Unsurlar” matematikaning taraqqiyotga katta ta’sir ko’rsatgan.

Aḥbəb (a) — do’sthar, og’aynilar, jo’ralar.

Alkomi din (a) — dinnig qoida va qonunlari.

Aḥli ırufon (i) — ilm va ma’rifat ahllari, ziyolilar.

Alsan (a) — biron so’zni yoki ishni qadralash ma’nosida deyladi, “barakalla”, “balli” degan ma’noni ifodelaydi.

B

Balx qo’rg’oni — Balx viloyati va qal’asi (hozir Afg’oniystonda) Misr Ulug’bek davrida va undan keyin ham bir necha astlar davomida O’rta Osiyoming siyosiy tuzumlariga kirib, o’zbek davlatlarining bir viloyati hisoblangan.

Be’at (a) — podshohga itoat qilish.

“Bilishimcha, buni aytgan mavlono Tarxon” — Bobo Kayfi zikr qil-gan bayt mavlono Tarxoniy degan kishiga mansubdir. Alisher Navoiy ham o’zining “Majolis un nafois” asarining ikkinchi majlisida uni eslab o’tadi.

Bilkulliya (a) — butunlay, tamoman.

Billoh (a) — “Oollohga qasam ichaman” degan ma’nodagi ishora.

Bihil (a) — kechirmoq, afv etmoq.

Boda (f) — sharob, may.

Botil (a) — to’g’ri bo’limagen fikr, yolg’on va soxta ishonch.

Boqiy (a) — doimiy, abadiy.

“Bog’i Mirzo” — Tarixchi Hofiz Abri (vafotи 1430-y.) o’zining “Zul-datut-tavorix” asarida Samarcandga tutash solingan o’nta katta bog’ni sanab o’tib, “Bog’i Shimol”, “Bog’i Dilkusho”, “Bog’i Chinor”, “Bog’i Bihish”, “Bog’i Mirzo Shohrux”, “Bog’i Bo’ldi”, “Bog’i Zog’on”, “Bog’i Baland”, “Bog’i Maydon” qatorida “Bog’i Amirzoda Ulug’bek” ning ta’rifida “bu bog’da shohona ko’shk ayyonlar bor edi”, deydi. Bu bog’ xalq o’rtasida “Bog’i Mirzo” nomi bilan mashhur bo’lib ketgan.

“Bu shogirdim, Ali Qushchi, mahramim, do’stim”. — Pastki tabaqadan chiqib o’z aql-u farosati bilan zo’r ilmiy kashfiyotlar qilgan Ali Qushchini Ulug’bek ko’p yaxshi ko’tar va “mening o’g’lim ham do’stim” deb atar edi. **Buddoij** — budda mazhabidagi ikishi.

“.Buni yozgan... Siz!” — Firuza yoddan o’qib bergen forsiy bayt ha-

qiqatan Ulug’bekning ijod samarasidir. Alisher Navoiy o’zining “Majolis un nafois” asarida Ulug’bek haqida ma’lumot bergenida uning she’r bilan

ham shug’ullanganini ayтиб, bu fikrga dalil tariqasida mazkur baytni keltiradi.

Burhon (a) — dallil, isbot.

“Buxoro quvvati islomi din ast.

Samarcand sayqali ro’yi zamin ast..” — Bu bayt forscha bo’lib, o’tmish astlarda xalq o’rtasida keng tarqalgan. Ma’nosи: Buxoro muslimon dinining tayanchi bo’lsa, Samarcand yer yuzining sayqali (jilosj)dir. Bobo Kayfi bu ta’birni kinoya va ta’na bilan ishlatiib, Samarqandning Mirzo Ulug’bekdan keyin inqirozga yuz tutishiqa ishora qiladi.

Buqrot — qadimiy Yunonistonning buyuk olimi, antik tibbiyotning asoschisi Gippokrat (miloddan oldin 460—377-yillar) Sharq mamlakatlari-da ham mashhur bo’lib, uni arab manbalarida “Buqrot” deb ataganlar.

D

Davlatpanoh (a–f) — Sharqda podshohlarga murojaat qilishda qo'llanigan ta'bır. Ma'nosi — davlat va mamlakatning tayanchi, sig'inadigan bosipanasi, demakdir.

Darbor (f) — podstolhning qasri va qabulxonasi.

Dasisa (a) — ig'vo, fisq-u fasod.

Dahriy (a) — dunyo masalalariga qiziqib, din va oxirat tashvishlariga beparvo qaragan kishi.

"Demak, bunda yanglishibdi yunon hakimi" — Ali Qushchi shu bilan milodning II asrida yashagan yunon astronomi Ptolemyus (Ptolomey) jadvalining to'liqsiz bo'lganiga ishora qildi.

"Derlar, go'yo, Xo'ja Ahror Sayid Obidni. Hatto Muso payg'ambarday voiz degannish..."

Abdullahif shu so'zi bilan Xo'ja Ahronning Sayid Obidga (Sayid Oshiqqa) yuksak baho berganini uqtirmoqchi va shu bilan muhtasibni jazor dan qutqazmoqchi bo'ladi. Darhaqiqat, "Rashahot" muallifi Ali ibn Husayn Voizning ayvishichcha, Xo'ja Ahror muhtasibga shunday ixlos bilan baho berib, uning obro'yini quvvatlab turar ekan: "Samarqandda men ikki kishining va'zlariga qoyil edim: biri mavlono Oshiq, ikkinchisi mavlono Abu Sayid Toshkandiy. Sayid Oshiq Muso Kalimullo darajasida voiz va so'zamol edi".

"Domullamiz Ulug'bekka ming umr, omint!.."

Mirzo Ulug'bek Samarcanddag'i o'zi qurgan madrasasida dars berganini tarixchilar ta'kidlaydilar.

Dorildavlat (a) — davlat markazi, poytaxt, ba'zan hukumat mahkaması ma'nosida ham qo'llaniligan.

Dorissaltanat (a) — saltanat markazi, poytaxt.

Dorug'a — shahar boshlig'i.

E

En, eng (q. o'zb) — yuz, chehra.

F

Faylaqus — yunonchadan Filipp ismining arabcha buzilgan shaklidir. Sakkociy shu Faylaqus nomi ostida kmni ko'za tutganini aniq aytish qiyin. Shu ism bilan Yunonistonda bir qancha hukmdorlar o'tgan bo'lib, bular ilm sohasida shuhrat qozongan emaslar. Ehtimol, shoir Iskandar Zulqarnayning shaxsiy tabibi mashhur medik Filippni zikr etmoqchi bo'lqandir.

Falakiyot (a) — yulduzlar va osmonni (falaqni) tekshiruvchi fan. Astronomiyan shunday ham deb yuritganlar.

Fan toliblari — fan va ilm izlovchilar. Odatda, oliv o'quv yurtlarida (madrasalarda) o'qigan shogirdlar. "Talaba" so'zi "tolib" so'zining ko'plik shaklidir.

Farang — umuman G'arbiy Yevropa xalqlarini XV asda "farang" deb ataganlar. Bu so'z "frank" so'zidan buzzib olingan.

Faxriya (a) — shoir o'z qasidasining oxirida o'ziga yuksak baho berib, o'z mahoratini madh etish usuliga eski poetikada "faxriya" (faxrlanish) deb nom qo'yanlar. Arab she'riyatida "faxriya" degan alohida lirik janr ham bo'lib, boshdan oyoq shoiring o'z fazillatlarini ta'rif qilishga bag'ishlanar edi.

G

Gulgun (f) — gul rangli.

H

Hazarat (a) — hazrat so'zining ko'plik shakli.

Hazor (f) — ming. Hazor-hazor — ming-minglab.

Hashit hikmat (f—a) — o'rtalarda muslimmon Sharqida hikmat (falsa) bilimining "ilmiy tabliy" degan qismida dumyonni o'rganish uchun sak-kiz (hashit) usul belgilangan edi. Sakkociy o'z she'rida shunga ishora qiladi.

Husn-u toq (a) — husn o'z ma'lum ma'nosida, ya'nii go'zallik ma'nosida qo'llanilgan, toq so'zi esa aslida gumbaz, qubba demak bo'lib, bu yerdan majorizi ma'noda dilbarning qoshiga taqqoslangan.

J

Jayhun — Amudaryoning qadimiy nomi.

Jannatmakon (a) — o'lgan kishi haqida xayr-duo ma'nosida aytildi-gan ibora. "Joiy jamnatda" demakdir.

Jigarkun (ж) — xunob, qattiq ma'yus bo'lgan kishi.

Jollinus — Qadimiy Rimda yashqagan (130 – 200) mashhur tabib ham tabiiyot olimi Galen (lotinlarda ham uning to'g'ri nomi Galenus bo'lgan).

Jumbish (ж) — intilish, talpinish, harakat.

Jug'rofiya — yunoncha "geografiya" so'zining arablashtirilgan shakli.

K

Kamohuva haqqquhu (а) — "Haq gap shu" ma'nosidagi ibora.

Ko'ksaroy (yoki Ko'k saroy va Ko'ksaro) — Samarqandda Amir Temur tomonidan qurilgan katta koshona. Temuriylarning davlatxonasi va iqomatgozhari shu saroy doirasiga o'matilgan edi. Saroyning tag qavatida mashhur Ko'ksaro zindoni bo'lgan.

L

Lobid (а) — noiloj, muqarrar.

M

Mavlono (а) — "janob" degani bo'ladi. Odatda, olim, fozi, shoir kishilarga nisbatan murojaat qilishda shu iborani ishlatganlar.

Maziyat (а) — fazilat, ustunlik.

Mankuha (а) — nikohli xotin.

Marhabo (а) — "Xush kelibsан" ma'nosida qutlov.

Mathab (а) — maqsad, niyat.

"**Matlaus-sa'dayn**" — Abdurrazzoq Samarcandiyning mashhur tarixiy asari. Bu asarning to'la nomi "Matlaus-sa'dayn va majmuan bahrayn" (ikki baxning tug'ilishi va ikki dengizning qo'shilishi).

Mag'rib — umuman G'arb mamlakatlari arablar "mag'rib" deb yuritganlar. XV asrda "mag'rib" so'zi ostida G'arbiy Yevropani ko'zda tutar edilar. Horiz esa "mag'rib" deb Shimoliy Afrikani — Marokash, Tunis, Jazoirni belgilaydiar.

Mahdi ulyo (а) — podshohlarning onalariga berilgan unvon. Bu ta'biring lug'aviy ma'nosi — "baland beshik" demakdir.

Mahobat (а) — salobat, vahimali savlat.

"**Men, ataylab, bajarmayman shu orzungizni...**" Mirzo Ulug'bek Sayid Oshlqnii (pyesada Sayid Obidni) ta'na bilan mot qilib, aynan shunday javob berganini tarixchilar ochiq ko'rsatadilar.

"**Men sehrgar Hind mulkida kezgan chog' imda...**" Mirzo Ulug'-bekning yaqin muxlislaridan bo'lgan tarixchi Abdurrazzoq Samarcandiy

(1413–1482), haqiqatan ham Shohruhx Mirzo va Ulug'bekning topshirig'i bilan 1441–44-yillarda temuriylar elchisi sifatida Hindistonga safar qilgan. O'zining bu sayohatini va umuman zamonasidagi muhim tarixiy hodisalarni u o'zining mashhur "Matlaus sa'dayn" asarida batafsil tasvir qilgan.

"...Men o'zim Sayid..." — Musulmon mamlakatlariida sayidlar Muham-mad payg'ambarning avlodji hisoblanganlar va shu uchun imtiyozli tabqa bo'lganlar.

"**Mirzo arig'i**" — Zarafshondan Ulug'bek chiqargan kanalni xalq u vaqtida "Mirzo arig'i" deb yuritar ekan.

Movarounnahr — (ba'zan she'rda "Movaromnahr" shaklida ham ish-latiladi) — arablar Amudaryodan Sharqqa tomon cho'zilib yotgan yerlarni "Movarounnahr" ya'ni "daryo orgasidagi yer" deb ataganlar. Bu termin taqriban hozirgi O'zbekiston hududini o'z ichiga olgan.

Musiqiy — yunonchadan (muzika) olingan so'zning arablashtirilgan shu shakli Sharqda va, shu jumladan, o'zbek klassik adabiyyotida qo'lla-nilgan.

Mushriklar — yagona Tangriga emas, bir qancha Xudolarga topingan, ya'ni Tangrining sheriklari bor degan e'tiqoddida yurgan toifalarni musulmon ruhoniylari "mushrik" deganlar. Bu yerda haqorat tariqasida keltirilib "kofir" ma'nosida qo'llanilgan.

Muhtasib (а) — feodal muslimon davlatlarida katta shaharlearning bozor va ko'chalarida tartib va intizomning saqlanishi ustidan nazorat qilib turuvchi diniy amaldo. Muhtasiblar diniy qoida va qonunlarning buzilmasligini ham kuzatib yurganlar. "Muhtasib" so'zining lug'aviy ma'nosi — fuqaroden hisob so'rovchi, aybdorni javobgarlikka tortuvchi demakdir.

N

Nasroniy — xristian.

Naqshibandiya tariqati — o'rta asrlarda, ayniqsa, XV asrda O'rta Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf (sufizm) oqimi. Bu oqim diniy-falsafiy mohiyatda bo'lib, turli davrlarda va turli shaharlarda turli xarakterga ega bo'lgan. Bu tasavvuf oqimiga o'z davrining peshqadam siymolari (Abdu-rahmon Joniy va boshqalar) mansub bo'lganidek, o'sha zamonnинг eng ashaddiy reaksiyon arboblari (Xo'ja Ahror va boshqalar) ham kiranlar. Le-kin, bulardan birinchi guruh (ilg'or guruh) naqshbandlik falsafasidan o'z gumanistik maqsadlarida foydalangan bo'lsa, ikkinchi guruh (reaktivlerlar)

naqshbandlikning diniy aqidalarini pesh qilib, xalqni jaholatda saqlashda va ilm-u ma'rifatga qarshi kurashda quroq qilib toydalanganlar. Bu diniy-mistik oqimning asoschisi mashhur avliyolardan sanalgan Xo'ja Muhammad Bahouddin Naqshband (1319–1390) bo'lib, u tasavvufga doir "Hayotnoma" va "Dilhilul-osniqin" nomli asarlarning mualifidir.

"Nishopurda, sizni xuddi shu Abdullatif..."

Tarixchilarning aytishicha, 1447-yilda, Shohruux vafotidan keyin, Abdullatif o'z amakizodalari Aloudavla va Abulqosim Bobur bilan qilgan janglardan birida Ray va Simon (Eronda) o'ttasida buvusi Gavharshodni (u boshqa nabirasi — Aloudavlanji yoqlagani uchun) qamab, Nishapur qal'asiga band qilgan. Keyinchalik Aloudavlia qaytadan hujumga o'tib, Abdullatifning o'zini asir qilib olgan va buvusini qal'adan ozod etgan.

Nukta (a) — nozik gap — imo va ishorali ta'birta.

Nur-alammur (a) — juda soz, g'oyat ma'qul ma'nosini ifodalovchi bir ta'birta.

Nushiryon (yoxud Anushirvon) Odil — Eronda hukm surgan sosoynilar sulolasining yigirmanchi hukmndori bo'lib, uning davrida Eron mamlakati ancha ravnaq topgan. Qariyb yarim asr hukmdorlik qilib, miloddining 579-yili vafot etgan. Sharq tarixchilari uni ideallashirib,adolatli va insolfi shoh sifatida ta'rif etganlar va shu tufayli Nushirvonga — "Odil" (adolatli) laqabini qo'shganlar. Shu vajdan ko'p shoirlar ham Nushirvon Odilni o'z zamonalardagi sultonlarga va xonlarga o'mak qilib talqin etganlar.

O **Olampanoh (a—J)** — podshohha murojaat qilganda qo'llaniladigan hummatni ifodalovchi so'z. Ma'nosi — dunyoning boshpanasi" demakdir.

P **Petlimyus** — miloddining II asrida Iskandariya shahrida yashab, "Al'machest" (Sharqda "Almaisidi") nomli mashhur astronomik asarni yaratgan buyuk yunon olimi Ptolemy.

Q **Qabohat (a)** — ablahlik, razilik, yomonlik.
Qaroq (k. o'zb) — ko'z, qarash.
"Qishloqiy pir" — Mirzo Ulug'bek davrida va undan keyin ham Samarganddagagi ilg'or ziyoli va olim doiralarda Xo'ja Ahorning ilm-u fanga

qarshi bo'lganidan kilib, uni "Shayxi rustoyi" ya'ni "Qishloqiy pir" deb yurur edilar.

R **Rasad (a)** — kuzatib turmoq. Yulduzlarini kuzatib turishni ham "rasad" deb ataganlar. Borib — borib "rasad" so'zi "rasadxona" (observatoriya) ma'nosini ham ifoda etgan.

Riyoziy yoki riyoziyot (a) — matematika fani.
Rum — bu yerda Kichik Osiyo va ko'pincha Turkiya ko'zda tutiladi.

S **Sabiy (a)** — fahmi va yosthi yetilmagan go'dak.
Saboqdosh (a—o) — maktabdosh, hamdars.
"Sayidisiz, deb qirdirmadim soqolningizni..." — Ulug'bek zamонидар рунонай арбобларда sodir bo'lgan noloyiq harakatlar uchun, jazo shakkillari dan biri sıfatida aybdorning scqoli qirilib, shaharda xalq oldida sazoyi qilin edi.

Sayhun — Sirdaryoning qadimgi nomi.
Samarqandi — firdavsm'onand (f) — Jannat bog'iga o'xhashlik Sarqand demakdir. O'tmish tarixchilar va shoirlar Samargandning XV asrda qidabda va hashamatini ko'zda tutib, uni doimo shunday ta'rif etganlar.

Sanoyi (a) — san'atlari, nozik hunarlar.

Sarbadorlar — XIV asrning birinchi yarmida Xurosonda va Turkistonda mo'g'ullar hokimiyatiga va mahalliy feodal larga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonining faol ištirokhchilari. Bular o'zlarini "sarbador" deb ataganlar. Ular "Yo zolimlarni yo'qotib ozod bo'lamic, yoki boshimizni dorga berib halok bo'lamic!" degan shiorni qo'llaganlar. Sarbadorlar 1337–1381-yillarda davomida Sabzavor shahrimi markaz qilib olib, deyringanlar. Yarim yarim asr mobaynida siyosiy hokimiyatni o'z qo'llarida turganlar, 1365–66-yillarda Samargand fuqarosi ham mo'g'ul xonlariga qarshi sarbadorlar rahbarligida qo'zg'olon ko'targanlar. Biror Amir Temur makkorlik bilan ularning boshliqlarini halok qilib, Samargandga bosib kirgan va o'z hokimiyatini o'mag'an.

"Siz sikrning, ma'rifatning, insomiyatning
Eng ashaddiy dushmanisiz, erkning jaloldi".

Mirzo Ulug'bek zamonasida Samarcand shahrida muhtasib (diniy tergovchi) bo'lib yurgan Sayid Oshiq (pyesada Sayid Obid) bilan Mirzo Ulug'bek navkarları u "Bog'i Chinor" dan shaharga qaytayotganida, yo'lda otib o'ldirganlar va kallasini kesib olib kelib Ulug'bek madrasasining darvozasiga osib qo'yganlar.

"Siz eshonning johilona gaplarin qo'ying!" — Ulug'bek, Qozi Miskinga qarab aygan shu ogohlantirishida "Eshon" deb Xo'ja Ahromi ko'zda "Eshon" unvonini olgan avlyyo Xo'ja Ahror bo'lgan.

Sohibqiron — Amir Temuring unvoni bo'lib, "qiron egasi" demak-

dir. Eski astrologiyada Zuhra (Venera) yulduzu bilan Mushtariy (Yupiter) yulduzining bir burchda yaqinlashuv payti (qiron payti) baxtili irm deb hiloblangan. Amir Temurni yaxshii tole egasi degan ma'noda shunday ataganlar, go'yo u tug'ilgan mahalda Zuhra va Mushtariy bir-biriga yaqin masofada turganlar.

Sultonni azimushshon (a) — ulug' sulton.

"*Sultonimiz sizga yozgan salomnomani...*"

Mistr elchilar Shohrux va Ulug'bek davrida temuriylar davlatiga tez-tez kelib turganlar. Abdurrazzoq Samarcandy Misr podshohi Sultan Azzohir yozgan nomani elchilar Hirotg'a olib kelganini ko'rsatadi.

T Tabobat (a) — tibbiyat va umuman kasalliklarni davolash hunari. Talaf (a) — yo'q bo'limoq, halokatga uchramoq.

Tiynat (a) — kishining xulqi, tabiat.

Tashbih (a) — o'xshatish.

U

Ummon — Arabiston yarimorolining janubidagi dengiz. Bu dengizdan qimmatbaho sadalar chiqariladi. Klassik poeziyada dilbarning tishlarini oq sadalga o'xshatish an'ana bo'lgan.

"Unga mendek qirq yil sulton bo'lish qayerda,
Qirq hafta ham taxt tutolmas..."

Mirzo Ulug'bekning bu so'zi karomatday bo'lgan, haqiqatan ham zonda, 1449-mildiy yilning 7-noyabrida so'ng 1450-yil 8-martda, ya ni

otasining vafoitidan yigirma to'rt hafta (6 oy) o'igach Abdullatifni Mirzo Ulug'bek navkarları u "Bog'i Chinor" dan shaharga qaytayotganida, yo'lda otib o'ldirganlar va kallasini kesib olib kelib Ulug'bek madrasasining darvozasiga osib qo'yganlar.

V Vali (a) — avlyyo. Zotan, avlyyo so'zi arabcha "vali"ning ko'plik shaklidir.

Voasafo (a) — attang, afsus, hayhot ma'nolarini ifodalovchi nido.

Vollohbissavob (a) — chin haqiqatni faqat Xudo biladi (ta'bir).

X Xabis (a) — pastkash, badkirdor, razil kishi.

Xasorat (a) — zafar, ziyon.

Xatmi-kutub (a) — madrasada o'qish vazifasini bitirishni, umuman olyi tahlil olib chiqishni "xatmi-kutub qildi", deb yurgizilar edi.

Xatokor (a—f) — yanglishuvchi, xato qilib qo'yan kishi.

Xitom (a) — tugash, oxirga yetish.

Xonaqoh (f) — darvishlarning ibodat va zikru-jazavalari uchun tayinlangan uy va hovli.

Xuroson — XV asrda temuriylar qo'lidagi davlatlardan eng kattasi Xuroson sultanati bo'llib, unga hozirgi Erонning Sharqi-shimoliy qismi, Amudaryoning chap tomonidagi yerlar, Xorazm hamda Afg'onistonning G'arbi-shimoliy qismi kirar edi. Bu katta davlatning markazi Hirot shahri edi.

Xonbaliq — Pekinning qadimiy nomi, ma'nosi "xon shahri" demakdir. "**Xo'ja Ahror buyurganki...**" — reaksiyon darveshizm va xurofiy dimparsastlikning piri hisoblangan Xo'ja Ahror Vali Toshkandy (1404 – 1490) haqiqatan darvishlar haqidha bunday degamini "Rashahotul – ayn hayot" kitobining muallifi Ali ibn Husayn Voiz Xo'jadan o'zi eshitganimi naql etidi.

Xo'tan — Sharqiy Turkistonidagi bir viloyat. Odalda, Sharq poeziyasida Xo'tanning ohularini mashhur bo'llib, dilbarlarning ko'zlarini Xo'tan kiyiklarining ko'zlariga o'xshatish an'ana bo'lib qolgan edi.

Z Zakkiy (a) — ziyrak, puxta va topqir kishi.
Zamir (a) — bir narsaning ich-ichi.

“Zillalohu fil-arz bo’lgan sultonni xorlash..” Musulmon davlatida podshohlarni Tangrining Yer yuzidagi soyasi deb hisoblaganlar. Shuni oqlash uchun “As — salotin zillalohu fil-arz” (sultonlar Xudoning Yer yuzidagi ko’lankasidir) degan arabcha hadis ham yaratilgan.

Zoti sharifflar (*a*) — sharofatli, hurmatli, ollynasab janoblar.

Zurriyot (*a*) — bola-chaqa, avlod.

Zufnun (*a*) — bilimdon, keng fan va tajiriba egasi.

Sh

“Shayyadollohu arkonuhu” (*a*) — birovga xavri duo o’qish tariqida aytildigani ta’bir. Ma’nosi: “Xudo uning negizlarini mustahkam qilsin!” demakdir.

“Shayx Nizomiy “Xamsa” si” — tarixchi va tazkira sohibi Davlatshoh Samarqandiyning ko’rsatishicha, Mirzo Ulug’bek Nizomiyning “Xamsa” sini juda sevar va uni hamma boshqa shoirlardan yuqori qo’yib, adabiyot masalalari bo’yicha inilari Boysunqur va Ibrohim bilan xat yozishib bahashar ekan.

Sharofat (*a*) — sharaf, yaxshilik.

Sharqul hind — eski arab jug’rofiyachilari Indoneziyani shunday deb ataganlar.

Shaqqovat (*a*) — yomonlik, badbaxtlik.

Shahriyor (*ø*) — podshohlarga aytiladijan laqablardan biri.

Shahriyori falak iqitor (*f — a*) — osmoncha kuch va qudratga ega bo’lgan podshoh degani bo’ladi.

“Shohrxux davri Hirot edi muslimmonobod”.

“Shohrxux Mirzo g’oyat dindor, taqyodor va shariyatparast podshoh bo’lgan. U haqiqatan (1440-y.) muxtasiblarning gapi bilan o’g’li Jo’ki Mirzoning uyiga borganini va uyda topilgan sharobni to’ktirib tashlaganini zamondoshlari xabar qildilar.

G'

G’ino (*a*) — qo’shiq, umuman, xushohangli muzika.

MUNDARIJA

Maqsud Shayxzodaning ijodi merosi haqida (*Mahkam Mahmudov*) 3

She’rlar

She’r chin go’zallik singlisi ekan.....	8
Bahorda yomg’ir	8
Muqimiyy....	10
Muallim.....	11
G’afurg’ xat	12
Ko’zlar	15
Yaxshilar qadri	15
Toshkentnomma	16

Jaloliddin Manguberdi

Besh pardali tarixiy fojia

Birinchchi parda.....	62
Ikkinchchi parda	90
Uchinchchi parda	108
To’rtinchchi parda.....	125
Beshinchchi parda.....	139
Izohlar	157

Mirzo Ulug’bek

Besh pardali tarixiy fojia

1-parda	163
2-parda	197
3-parda	241
4-parda	272
5-parda	316

Lug’at va izohlar

363

M 36

Maqsud Shayxzoda [Matn]: nars va nazm / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Ma'mura Zohidova. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022. – 376 b.

ISBN 978-9943-8723-3-2

UO'K 821.512.133-3
KBK 84(50')-44



MAQSUD SHAYXZODA

16-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner Bobur Tuxarov
Teknik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Makhmamova*
Musahih *Zulfiya Gulomova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*
Isrom Azamatov

Tasdiqnomalarraqami № 4642. 22.07.2020-y.

Bosishga 18-oktabr 2022-yilda rusxtat etildi. Bichimi 60x90 ½.
Offset qog'ozzi. "PT Astra Serif" gamiturasida offset usulida bosildi.

Sharhlis bosma tabog'i 23,5. Nashriyot-hisob tabog'i 18,55.

Adadi 1 185 nusxa. Sharhnoma № 84-1/22. Buyurtma raqami № 22-298

Original muket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axporot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
"O'zbekiston" nashriyotida tayorlandi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMU MCHI bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.